

H.CH.NUSRATOVA, B.O'.PARDAYEV

BOLALAR ADABIYOTI

(DARSLIK)




**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA OʻRTA
MAXSUS TAʼLIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NUSRATOVA HAMIDA CHOʻLIBOYEVNA,
PARDAYEV BEKMURAT OʻTAPULATOVICH**

BOLALAR ADABIYOTI

(DARSLIK)



Toshkent – 2021

Annotatsiya

Istiqlol sharofati bilan xalqimizning ko'p asrlik tarixiy, madaniy, diniy, adabiy merosini umumbashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan baholash tendentsiyasi shakllandi, milliy qadriyatlarga munosabat tubdan o'zgardi. Bu jarayonning mantiqiy yakuni o'laroq badiiy tafakkur va talqinlar yangilandi, bolalar adabiyotining mazmun-mohiyati kengaydi, ko'lamini oshdi. Shu bilan birga bolalar adabiyoti bo'yicha yaratilayotgan asarlar oldiga, yosh avlod uchun ijod qiluvchi so'z san'atkorlarining izlanishlari va badiiy mahorati oldiga qo'yilayotgan talablar oshdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PQ-451-son, 2016 yil 13 maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-son Farmoni, 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risidagi" PQ-1271-son Farmoyishi, 2017 yil, 13 sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-1271-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu darslik muayyan darajada xizmat qiladi.

"Bolalar adabiyoti" darsligi Oliy o'quv yurtlarining 5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish, 5111800 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bakalavrlari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2018-yilning 18.08-sanasi bilan tasdiqlanib, BD-5111700-2.03; BD-5111800-3.05 raqami bilan qayd etilgan, Nizomiy nomidagi TDPUda ishlab chiqilgan "Ona tili va bolalar adabiyoti" fan dasturining (tuzuvchilar – Hamrayev M.A., Pardayev B.O.) **"Bolalar adabiyoti"** qismi asosida yozilgan.

Ushbu darslikda bolalar adabiyoti fanining yetakchi tamoyillari, uning o'ziga xos xususiyatlari, unda bolalar folklori va bolalar kitobxonligi muammolari, bolalar adabiyoti sohibkorlarining hayoti va ijodiy faoliyoti, jahon va qardosh xalqlar bolalar adabiyotining asosiy tamoyillari, ulardagi ijodiy ta'sir masalalariga e'tibor qaratiladi.

Taqrizchilar: **filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.A.Hamrayev**
filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.O.Otajonova

Bolalar adabiyoti nomli darsligi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 01 martdagi 110-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Аннотация

Благодаря независимости появилась тенденция оценивать многовековое историческое, культурное, религиозное и литературное наследие нашего народа с точки зрения общечеловеческих ценностей, кардинально изменилось отношение к национальным ценностям. Логическим результатом этого процесса стало обновление художественного мышления и интерпретаций, расширение и расширение содержания детской литературы. В то же время растет спрос на произведения по детской литературе, исследования и художественные навыки творческих художников слова для подрастающего поколения. Постановление Президента Республики Узбекистан от 25 августа 2006 года № ПП-451 «О продвижении национальной идеи и повышении эффективности духовно-просветительской работы» от 13 мая 2016 года «О Ташкентском государственном университете имени Алишера Навои» Постановление № ПФ-4797 «О создании Университета узбекского языка и литературы» от 12 января 2017 года «О развитии системы полиграфии и распространения книжной продукции, повышении и популяризации культуры чтения и чтения». Приказ № PQ-1271 от 13 сентября 2017 г. «О создании комиссии по комплексной программе мероприятий по развитию системы издания и распространения книжной продукции, пропаганды и популяризации культуры чтения и чтения». Этот учебник в некоторой степени служит для реализации задач, поставленных в Постановлении № PQ-1271 «О» и других нормативных актах, связанных с этой деятельностью.

Учебник «Детская литература» для бакалавров 5111700 - Начальное образование и спорт, воспитательная работа, 5111800 - Дошкольное образование Министерства высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. Утверждено 18.08.2018, БД-5111700-2.03; Написано на основе раздела «Детская литература» предмета «Родной язык и детская литература» (авторы - Хамраев М.А., Пардаев Б.О.), разработанного в Ташкентском государственном педагогическом университете им. Низами, зарегистрированном под номером БД-5111800-3.05.

В этом учебнике рассматриваются ведущие принципы детской литературы, ее особенности, проблемы детского фольклора и детского чтения, быт и творчество детской литературы, основные принципы детской литературы мира и братских народов, их творческое влияние.

Annotation

Thanks to independence, a tendency has emerged to assess the centuries-old historical, cultural, religious and literary heritage of our people from the point of view of universal values, the attitude towards national values has radically changed. The logical result of this process was the renewal of artistic thinking and interpretations, the expansion and expansion of the content of children's literature. At the same time, there is a growing demand for works on children's literature, research and artistic skills of creative word painters for the younger generation. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 25, 2006 No. PP-451 "On promoting the national idea and increasing the effectiveness of spiritual and

educational work" dated May 13, 2016 "On the Tashkent State University named after Alisher Navoi" Resolution No. PF-4797 "On the establishment of the language and literature "of January 12, 2017" On the development of the printing system and distribution of book products, increasing and popularizing the culture of reading and reading. " Order No. PQ-1271 of September 13, 2017 "On the establishment of a commission for a comprehensive program of measures for the development of a system for publishing and distributing book products, promoting and popularizing the culture of reading and reading." This textbook to some extent serves to implement the tasks set in the Decree No. PQ-1271 "O" and other regulations related to this activity.

Textbook "Children's literature" for bachelors 5111700 - Primary education and sports, educational work, 5111800 - Preschool education of the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan. Approved on 18.08.2018, BD-5111700-2.03; Written on the basis of the section "Children's literature" of the subject "Native language and children's literature" (authors – M.A. Khamraev, B.O. Paridaev), developed at the Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, registered under the number BD-5111800-3.05.

This textbook examines the leading principles of children's literature, its features, problems of children's folklore and children's reading, everyday life and creativity of children's literature, the basic principles of children's literature of the world and fraternal peoples, their creative influence.

MUALLIFLARDAN

Bolalikning kattalarnikidan farq qiluvchi o'zgacha olami bor. U osmon yangliq oydin, tiniq, musaffo, allaqanday tabiiy soddalikka oshufta, biroz o'yinqaroq, ko'zlarida g'ayrat chaqnagan. Bolalik olamini badiiy tadqiq etganda ulardagi shu xususiyatlarga e'tibor bermaslik mumkin emas.

Jahon adabiyotshunosligida bolalar adabiyoti muammolarini, bolalar uchun yaratilgan badiiy asarlarda aks etgan umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, zamon, makon va bolalik munosabatlarini tizimli tadqiq etish bo'yicha ko'plab adabiyotlar yaratilgan. Zero, yosh avlodning nafosati va badiiy didini o'stirish, haqqoniylik va badiiylilikning mukammal birligini ta'minlash, yuksak ma'rifiy-estetik g'oyalarni ilgari surish borasida bolalar adabiyotining oldida turgan vazifalar ko'lamini "kattalar adabiyoti"nikidan aslo kam emas.

Istiqlol sharofati bilan xalqimizning ko'p asrlik tarixiy, madaniy, diniy, adabiy merosini umumbashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan baholash tendentsiyasi shakllandi, milliy qadriyatlarga munosabat tubdan o'zgardi. Bu jarayonning mantiqiy yakuni o'laroq badiiy tafakkur va talqinlar yangilandi, bolalar adabiyotining mazmun-mohiyati kengaydi, ko'lamini oshdi. Shu bilan birga bolalar adabiyoti bo'yicha yaratilayotgan asarlar oldiga, yosh avlod uchun ijod qiluvchi so'z san'atkorlarininir izlanishlari va badiiy mahorati oldiga qo'yilayotgan talablar oshdi. "Bolalar adabiyoti yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan badiiy, ma'rifiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratishga bevosita xizmat qiladi... uning ahamiyati ushbu xususiyatlar bilan o'lchanadi"¹. Bu vazifalarni amalga oshirish milliy bolalar adabiyotini rivojlantirish, uni jahon andozalari darajasiga olib chiqish hamda bolalar adiblarining ijodini monografik tarzda o'rganish, ularning mukammal ijodiy portretlarini yaratish bilan bevosita bog'liq.

Ha, yoshlar kamolotida, albatta, badiiy adabiyot, xususan, bolalar adabiyoti katta rol o'ynaydi. Chunki kichikintoylar alla, qo'shiq, maqol, masal, topishmoq, tez aytish, ertak eshitib, o'qib kamol topadilar. Bu janrlar vositasida ularning qalblari nurga to'ladi, hayotga intilish, qiziqish hislari jo'sh uradi. Ma'naviy tomondan ham yuksala boradilar.

Ushbu bolalar adabiyoti darsligimiz, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, zamon, davr talabiga mos sog'lom, o'qimishli, dono, tadbirkor, elsevar avlodni tarbiyalashga bel bog'lagan ilmu toliblar uchun yaratildi.

Darslik o'zbek bolalar adabiyoti fanining nazariy asoslari, xalq og'zaki ijodi, bolalar kitobxonligi, o'zbek bolalar adabiyoti, chet el bolalar adabiyoti (obzor)dan tashqari, mamlakatimiz va jahon bolalar adabiyotida eng ko'zga ko'ringan yozuvchilarning hayot yo'llari, ijodlari tahlilini o'z ichiga oladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi Xalq so'zi, 2017 yil, 13 yanvar'

1-MAVZU. BOLALAR ADABIYOTI FANI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI. BOLALAR KITOBXONLIGI

REJA:

1. O'zbek bolalar adabiyotining paydo bo'lishi.
2. O'zbek bolalar adabiyotining fan sifatida shakllanish bosqichlari.
3. Bolalar adabiyoti fanning maqsad va vazifalari.
4. Bolalar adabiyotining asosiy tendensiyalari.
5. Bolalar kitobxonligi tushunchasi.

Tayanch tushunchalar: genesis, kitobxonlik, kitobchilik, nasr, nazm, dramaturgiya, tur, janr, yumor, tendensiya, tamoyil, qo'llanma, hayotiylik, bolalak olami, bolalar saltanati, so'z san'ati.

Mamlakatimizda hozirgi kunda tarixiy, madaniy, diniy, adabiy merosni umumbashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan baholash tamoyili ancha kuchaydi. Buning qutluq samarasi sifatida qadriyatlarga munosabat o'zgardi. Dunyoqarash o'zgarayotgan ekan, tabiiyki, badiiy tafakkur yangilanishi, buning samarasi o'laroq adabiyot o'zgarishi tabiiydir. Zero, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana Shundaybahoning o'zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyandalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch, hurmat e'tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bu mulohazalar adabiy jarayonning tobora faollashuviga va adabiyotimiz g'oyaviy-estetik taraqqiyotining tezlashuviga, shu bilan birga bolalar adabiyotshunosligi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi shoyon haqiqat. Ayni damda yurtboshimiz o'zligimizni anglashga ko'maklashadigan, xalqning ma'naviy ehtiyojiga aylangan, hayotda, jamiyat va inson kamolotida muhim o'rin tutuvchi badiiy adabiyotning, uning ajralmas tarkibiy qismi sanaluvchi bolalar adabiyotining ham roli yuksakligini yana bir karra ta'kidlaydi.

XX asr adabiy voqeligida yosh avlod tarbiyasiga, qalbi va dunyoqarashi kamolotiga yo'naltirilgan, bosh qahramonlari bolalar

bo'lgan va faqat ular uchun maxsus yozilgan, biroq chuqur samimiyati, ta'sir kuchi bilan kattalarni ham befarq qoldirmaydigan asarlar majmuidan iborat alohida bir adabiy saltanat deb yuritiluvchi adabiyotning paydo bo'lganligi - xalqimiz ma'naviyatidagi muhim hodisalardan sanaladi. Bolalar adabiyoti har bir xalqning ma'naviy - madaniy taraqqiyoti va pedagogik fikrining o'sishiga chambarchas uyg'unlikda shakllanish jarayonini kechirib kelmoqda.

XX asrning arafasi va boshlarida o'zbek bolalari uchun ixtisoslashgan maxsus badiiy adabiyot yaratish harakati yuzaga kelib, izchil tusga kira boshlagan esa-da, mazkur hodisani bolalar adabiyoti atamasi bilan ifodalash, asosan, 20-yillarning boshlarida sodir bo'ldi. O'zbek matbuotida bu istiloh ilk bor Sirojiyning 1921-yili «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalining 3-sonida bosilgan «Bolalar adabiyoti to'g'risida bir fikr» (30-31-b). «Zarafshon» gazetasining 1924-yil 21-iyundagi 157-sonida bosilgan «Qizil o'zbek matbuotida bolalar adabiyoti», Bashirning «Turkiston» gazetasining 1923-yil 27-aprelidagi sonida bosilgan «Bolalar adabiyoti kerak», G'oz Olim Yunusovning 1925-yil «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalining 3-sonidagi «Bolalar adabiyoti haqida» va Shokir Sulaymonning 1926 yili «Qizil O'zbekiston» gazetasining 30 -sentabrda 224-sonida bosilgan «Bolalar adabiyoti nashr qilish kerak» maqolasida uchraydi va qaror topa bordi. Shuni ta'kidlash joizki, bu istiloh ruscha «detskaya literatura» iborasining aynan tarjimai tarzida emas, balki o'zi voqelikka aylangan o'zbek bolalariga mo'ljallanib yaratila boshlangan ixtisoslangan adabiy hodisani ifodalagan holda dunyoga keldi. Asrimiz boshlarida jadid ma'rifatparvarligi bag'rida navqiron avlodda rus mustamlakachiligiga qarshi fikr uyg'otish va uni o'zligini anglash, o'z erki, Vatan ozodligi yo'lida istiqol jangchisi sifatida shakllanishi uchun ma'rifat asoslarini egallashga chorlovchi yangi adabiy hodisa tarzida paydo bo'lgan o'zbek bolalar adabiyoti endilikda o'zbek xalqining o'ziga xos milliy boyligiga aylandi. Garchi uning g'oyaviy-badiiy saviyasiga hamon ahyon-ahyonda shubha bilan qarovchilar topilsa-da, u allaqachon umumjahon bolalar adabiyoti o'zanidan munosib joy egallay oldi. Talay namunalari mamlakatimiz sarhadlaridan tashqarida sevilib o'qilayotir. Bir asrdiki, o'zbek bolalar adabiyoti yosh naslning ma'naviy sog'lom o'sishida muhim omillardan biriga aylanib xizmat qilayotir.

O'zbek bolalar adabiyoti haqidagi fan XX asr boshlarida ilg'or marifatparvarlar pedagoglar, adabiyotshunoslar yozgan maqolalardan yuzaga kela boshlagan esa-da, XX asrning o'rtalariga kelib dastlabki

xrestomatiyalar va o'quv qo'llamalarni tuzish harakati tufayli shakllanish jarayoniga kira bordi. Pedagogika bilim yurtlari talabalariga mo'ljallanib 1953-yilda I.Ahmedov A.Suyumovlar tomonidan ilk bor tartib berilib, 1967-1978-yillarda qayta takomillashtirib nashr ettirilgan «Bolalar adabiyoti» xrestomatiyasi va 1957-yilda elon qilingan «Bolalar adabiyoti» o'quv materiallari qo'llanmasi shu harakatning dastlabki natijalar edi. Keyinchalik A.Suyumov tomonidan maxsus o'rta o'quv yurtlari uchun yozilib, 1973-yilda chop etilgan «Bolalar adabiyoti» qo'llanmasi o'zbek bolalar adabiyoti tarixini yaratish yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi. Bu qo'llanma M.Jumaboev bilan hamkorlikda qayta ishlanib, 1995-yilda yana nashr etildi.

Bu oraliqda pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallanib P.Shermuhamedov, J.Tursunov, O.Safarov va X.Egamovlar yaratgan «O'zbek bolalar adabiyoti» darslik-xrestomatiyasi (1976) yuzaga keldi. Unda bolalar adabiyotining nazariy asoslari, taraqqiyot bosqichlari, xususiyatlari va navqiron avlod adabiyoti namoyondalari ijodiy biografiyalariga oid materiallar bilan birga eng sara asarlaridan namunalar berilgan edi. Shu xususiyatga ko'ra o'zbek bolalar adabiyoti tarixini yaratishga ta'sir ko'rsatdi. Nihoyat O'zR FAsi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti huzuridagi «Bolalar adabiyoti» bo'limi (1969-1989-yil) xodimlari joylardagi bolalar adabiyoti tadqiqotchilari bilan hamkorlikda «O'zbek sovet bolalar adabiyoti tarixi ocherki» (1973), «Bolalar adabiyoti va zamonaviylik» (1981), «O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon» (1989) singari uch manografiyani yaratib, o'zbek bolalar adabiyotining ilmiy tarixini bunyod etish yo'lida dastlabki qadam qo'yildi. Shunga qaramay, o'zbek bolalar adabiyoti nazariy asoslari, taraqqiyot tamoyillari va bolalar kutobxonligining ijtimoiy mohiyatini o'zaro uyg'unlikda ifodalagan va estetik tahlil etgan ilmiy tarix hanzugacha yaratilgani yo'q. Hukmingizga havola qilingan ushbu darslik shu vazifani qisman ado etishga mo'ljallangan.

Bolalar adabiyoti umumbadiiy adabiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida o'zaro qator mushtarakliklarga va farqli xususiyatlarga ega. Ular o'rtasidagi mushtarak xususiyatlar tubandagilardan iborat:

1. Bolalar adabiyoti ham, umuman badiiy adabiyot singari **so'z san'ati** hisoblanadi. So'z uning uchun ham asosiy material bo'lib, voqelikni obrazli ifodalash vositasidir. Binobarin, bolalar uchun g'oyaviy-badiiy barkamol asarlar yozadigan ijodkorlar ham so'z san'atkori sanaladilar. Ular ham umumadabiyotni yaratuvchi yozuvchilar bilan teng nufuzga

egadirlar. Qolaversa, bolalar adabiyoti bilan kattalar adabiyoti o'zaro taqdirdosh ham.

2. Bolalar adabiyoti ham umumbadiiy adabiyot ish ko'radigan xalqchilik haqqoniylik va yuksak badiiylik qoidalariga tayanadi.

Bolalar adabiyotining **xalqchilligi** shundaki, u avvalo, xalqning asrlar davomida yaratgan eng ilg'or qarashlari va hayotiy tajribalari ruhida farzandlarini tarbiyalashni ko'zlaydi. Xalq hamma zamonlarda mehnatkashlikni, halollikni, rostgo'ylikni, to'g'rilikni, Vatanni sevishni, kattani hurmat qilib kichikka shafqatli bo'lishni sharaflab kelgan, ishyoqmaslik, tekinox'rlik, subutsizlik, yolg'onchilik, o'g'rilik, shafqatsizlik, toshbag'irlik, xoinlik, g'iybatkashlik kabi insoniylikni tahqirlovchi xislatlarni qoralagan. Bolalar adabiyoti xalqni o'z kelajagi bo'lgan yosh avlodga ana shu sohadagi dono aqidalar va ijodiy an'analarini singdirishda xizmat qilmog'i darkor.

Bu-olijanob maqsad. Uni amalga oshirish yuksak burch va mas'uliyatni talab qiladi. Binobarin, bolalar uchun yoziladigan asarlar ham **yuksak badiyatga** ega bo'lmog'i shart. Ularda hayot **haqqoniy** ko'rsatilmog'i, insoniylikni, mehnatni sharaflowchi, bolalarda kelajakda kim bo'lmoqlarini belgilab olishlarida ko'maklashuvchi g'oyaviy-badiiy barkamollik ufurib turmog'i zarur. Xom-xatala, hayotni bo'yab-bezab bayramdagiday tantanavor qilib ko'rsatuvchi bitiklar bolalar ma'naviy olamiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Realizm-bolalar adabiyotining ham asosiy ijodiy metodi sanaladi. Biroq bolalar uchun yoziladigan asarlarda voqelikning haqqoniy va aniq ifodasi goho romantika, goho fantastik bo'yoqqa sug'orilgan holda aks etishi mumki. Bu asarning qiziqarliligini, emcionaligini kuchaytiradi va o'qimishligini ta'minlaydi. Umuman, bolalar adabiyoti realizmida umuminsoniylikni qadrlash, ijtimoiy adolatni, ezgulikni sharaflash ruhi ustivor bo'ladi.

3. Bolalar adabiyoti ham umumbadiiy adabiyotda mavjud barcha **turlar** (proza, poeziya va dramaturgiya) va **janrlarda** ish ko'radi. Shuni ta'kidlash joizki, badiiy adabiyot janrlarga qanchalik boy bo'lmasin, bolalar adabiyotida ularning bolalar dunyoqarashi va estetik idealiga muvofiq keladiganlaridangina foydalaniladi. Bolalar nasrida roman, qissa, hikoya; poeziyasida she'r, masal, doston; dramaturgiyasida esa drama va komediya janrlari faol bo'lsa-da, mumtoz shariyatdagi muxammasot namunalari, ruboiy, fard, qit'a, shuningdek, dramaturgiyadagi tragediya janrlariga murojaat qilinmaganini qayd qilishga to'g'ri keladi. Buning sababini bu janrlarda ifodalanadigan voqelik kattalar turmushi va

dunyoqarashiga xos murakkabliklarga daxldorligi bilan izohlanadi. Aksincha xalq nasrining shakli bo'lgan ertak janri bolalar adabiyotiga ayrica qimmat kasb etgan. U bolalar nasrida adabiy ertak-novella, ertak-qissa, ertak-roman; poeziyasida she'riy adabiy ertak, naql-ertak, topishmoq-ertak va nihoyat dramaturgiyasida ertak-drama, ertak-kamediya, ertak-opera va ertak-film singari talay xilma-xil oraliq janrlarning yuzaga kelishi va qaror topishiga ta'sir ko'rsatgan. Bu hol bolalar adabiyoti genetik asoslarini belgilashda, folklor nechog'li rol o'ynaganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ammo bolalar adabiyotining umumbadiiy adabiyotdan ayri xususiyatlari ham borki, bular uning mustaqil hodisa-alohida adabiy saltanat sifatidagi mohiyatini belgilaydi.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Bolalar uchun ham, kattalarga bo'lgani singari, inson va jamiyatga, tabiatga daxldor barcha mavzularda ijod etish mumkin. Bolalar va kattalar adabiyotlari o'rtasidagi bunday mushtaraklik zahirida ular orasidagi farqni oydinlashtiruvchi xususiyat ham mavjud. Bu farqli xususiyat mohiyatini A.A.Makarenko bolalar uchun yozayotganda *nima haqda yozish emas, balki qanday qilib yozishning muhimligida* deb ko'rsatgan edi. Aytaylik, kattalar turmushining murakkab qirralarini ifodalovchi asarlarni bolalar o'qishi man' qilingani holda xuddi Shundaymavzuda bolalarbop qilib yozilgan Q.Muhammadiyning «Qo'ng'izoy bilan Sichqonboy» she'riy adabiy ertagi tipidagi asarlarni bolalar o'qishiga tavsiya etiladi. Bunda muddao shundaki, bolalar adabiyoti ijtimoiy ong shakli sifatida bolalarning borliqqa qarashlarini, voqealarni baholashda esa, o'zlarigagina xosliklarini, demakki, navqiron avlodning borliqqa estetik munosabatlarini ifodalaydi.

Bolalar adabiyoti - ikki yo'nalishli adabiyotdir. U bolalarga mo'ljallangan ekan, avvalo, shularning adabiyoti. Shu bilan birga kattalarning, demakki, ota-onalarning ham adabiyoti hisoblanadi. Chunki bolalar adabiyoti xalq axloqiy qarashlarini badiiy aks ettiruvchi pedagogik xrestomatiyadir. Bu jihatdan buyuk ertaknavis H.K.Andersenning tubandagi fikri diqqatga sazovor: «Men nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun yozayotganimni ham doim esda tutaman». Bolalarni ertaklarning fabulasi hammadan ko'proq qiziqтира, kattalarni ularga singdirilgan g'oya qiziqtiradi». Chindan ham bolalar uchun asar syujeti muhim, shu syujet qancha qiziqarli bo'lsa, bolalar uni shunchalik zavqlanib o'qiydilar. Kichkintoylar asar g'oyasini ilg'ab olishga qiynaladilar. Chunki u yoki bu asar g'oyasini ilg'ab olmoq uchun o'sha asar qaysi zamonda yozilgani va unda ifodalangan tarixiy sharoit

xarakterini bilish, demakki, asarni davr kontekstida o'qib-o'rganish zaruriyatga aylanadi, bu murakkab jarayon, kichkintoylarning imkoniyatlari esa uni hazm qila olmaydi. Chunonchi, Sharl Perroning mashhur «Qizil shapkacha» ertagi har qancha sodda va quvnoq syujet asosida qurilgan bo'lmasin, ham bolalarni, ham kattalarni qiziqtirgani holda unda ifodalangan «Qizil shapkacha» li go'zallarni (qizil shapkacha-go'zallik ramzi, unda francuz qizlarining umumlashma obrazlari ko'zda tutilgan) francuz burjuaziyasining shahvoniyatparastligidan (Bo'ri qiyofasida fahshga mukkasidan ketgan burjuylar ko'zda tutilgan) ogohlantirishdan iborat g'oyani faqat asar ijod etilgan tarixiy davr mantiqidan uqa olgan kattalargina ilg'ashlari mumkin. Shu ma'noda bolalarga mo'ljalangan badiiy asar, avvalo, hammabopdir. Bunda hammaboplik mohiyatini V.G.Belinskiy Shundayta'riflagan edi: «...bolalar uchun kitob yozish kerak va zarur, biroq bolalar uchun Shundayyaxshi va foydali asarlar yozmoq zarurki, ular kattalarni faqat bolalarga atalganligi tufayligina emas, balki chinnakam badiiy asar sifatida hammaga mo'ljalanganligi bilan qiziqтира olsun».

Bolalar adabiyotida voqelik bolalarga badiiy tafakkur sintezining natijasi tarzida tasvirlanadi. Bunda tasvirning o'ziga xos jihatlari, asosan, quyidagilardan iborat:

a) **badiiy obrazning ham, voqelikning ham aniq-tiniqligi, ko'rimlilikligi.** Bu xususiyat bolalar tafakkurining predmetlilik, aniqligi va ko'rimlilikka asoslanishi natijasidir. K.Chukovskiyning «Ikki beshgacha» kitobida keltirilgan tubandagi misol jumladan, xarakterlidir: Dashtni ilk bor ko'rgan bola uning qanday atalishini so'rsa, otasi «pusto'nya» deb javob beribdi. «Hech vaqosiz, ship-shiydon maydon» ma'nosidagi bu tushunchani bola idrok qilolmabdi. Chunki bu mavhum tushuncha bo'lganligidan bola uni anglashga qodir emasdi. Har qanday mavhumlik bola idrokiga, tasavvuriga sig'maydigan hodisadir. Buning ustiga otasi dasht deb atagan maydon har xil o'simliklar bilan qoplangan, ularning butalari yo erga yopishgan, yo erdan tickasiga ko'tarilgan. Bola ularni ko'rib turibdi, shu zahotiyoq o'z tushunchasiga moslashtirib, analogiya usulida o'zicha so'z yasab, ko'rib turgan maydonini «kusto'nya»-«butazor», deb atabdi. Bola fikrlashiga xos bunday aniqlik va predmetlilik badiiy obrazning ham aniqligini, predmetlilik asosida ko'rimli va ko'zda chalinarli bo'lishini taqozo etadi. K. Chukovskiy e'tirof etganidek, bolalar uchun yozilgan har bir satr mazmuni asosida rasm chizish mumkin bo'lmog'i shart. G'afur G'ulomning «O'ylashni o'rganamiz» she'rida eng mavhum hodisa ham o'yin shaklida o'ziga xos

ko'rimlilik kasb etgan, shu vajdan bu she'r har bir kichkintoyini zavqlantira oladi, eng muhimi, tushunarlidir. S.Jo'ra, Q.Muhammadiy, A.Muxtor, Sh.Sa'dulla, H.Nazir, X.To'xtaboev, T.Adashboyev, S.Barноеv, M.A'zam, A.Obidjon va boshqalarning bolalarga atagan aksariyat asarlari ana Shundayfazilatga ega.

b) **Hikoya qilishda lirik yoki komik maylning kuchliligi.** V.G.Belinskiy bolalar adabiyotining asosiy xususiyati-uning emotsionalligi, deb ko'rsatib, bolalar kitobi «samimiy hislarga to'lib-toshmog'i» lozimligini qayta-qayta ta'kidlagan edi. Hissiyotning samimiyligi faqat lirika uchungina emas, balki yumorga ham xos fazilatdir. Zotan, «quvnoq yumor», «beozor yumor» iboralari zamidida yumorga xos samimiyat tuyg'usi zuhur topgandir. N.G.Chernishevskiy ana shularni hisobga olib, bolalarga mo'ljallangan badiiy asarda «O, qanday dahshat?!» yoki «Bay-bay, muncha yaxshi!» YOinki, «Ey, muncha kulgili!?» kayfiyatlarini qo'zg'ovchilik alomatleri bo'lmasa, yosh kitobxonlarni to'lqinlantira olmaydi, deb hisoblar edi. Ruhshunos olimlar o'tkazgan tajribalar ham bugungi kunda bolalar xotirasida lirik ko'tarinkilik yoki quvnoq yumorga sug'orilgan holda tasvirlangan voqealar mustahkam muhrlanishini, uzoqroq yashay olishini tasdiqladi. Zotan,hikoya qilishda lirizm qancha chuqur yoki yumor qancha yorqin va quvnoq bo'lsa, estetik ta'sirchanligi, hayajonbaxshligi ham shuncha chuqur va samimiy bo'ladi. G'. G'ulomning «Shum bola» asarini kulmay turib, o'qib bo'lmasligi siri shundadir. H.Nazirning «Yonar daryo», X.To'xtaboevning «Besh bolalik yigitcha» asarlarida lirik mayl ustun bo'lsa, «Sariq devni minib» va «Sariq devning o'limi» dilogiyasida, «Sehrgarlar jangi, yoxud, «shirin qovunlar mamlakati» romanida, shuningdek, Anvar Obidjonning quvnoq she'rlari, qissalari va pesalarida yumoristik ruhning ustuvorligi sezilarlidir.

v) **Xarakter va hodisalar ifodasida dinamikaning yorqinligi.** Ruhshunoslar bolalar narsa va hodisalarning harakati, yoshi, nimaga mo'ljallanganligiga, keyinroq ularning paydo bulishi sabablariga qiziqishlarini uzoq tajribalar va kuzatishlar asosida tasdiqlashdi. Bu-hikoya qilishda qiziqarlilik (zanimatelnost)ni taqozo etadi. Negaki, qiziqarlilik-shiddatli harakatchanlik zamidida vujudga keladi. Bunday harakatchanlik hikoya qilinayotgan voqelik uchun tanlangan konfliktning o'tkir bo'lishini, syujetning tez taraqqiy etishini, xarakterlarning yorqinligini va boshqa Shundayifodaviy usullarni taqozo etadi, shularda namoyon bo'ladi. Bu voqea yoki hodisalarni, qahramonlarni tashqi bir vaziyatda harakatlantiruvchi, rivojlanishda ko'rsatuvchi mohiyatga ega bo'lib,

kichkintoylar tabiatiga mos keladi, uni sodda va aniq qilib, voqelikning zohiriy rivojlanishi deyish mumkin.

Kichkintoylar bu harakat va ovoz zamirida o'sha narsalarning o'zlarini ko'rib turganday sezadilar. «Sholg'om», «Bo'g'irsoq», «Qarg'avoy» singari xalq ertaklari syujetlari ham shiddatli harakat zamirida qurilganligidan g'oyat qiziqarililik kasb etgan va necha asrlardirki, bolajonlar ularni qiziqib tinglashdan sira toliqmayotirlar. Sh.Sa'dullaning «Ayyor chumchuq» she'riy ertagi syujeti ham shu xildagi shiddatli dinamizm asosida voqe' bo'lganligidan g'oyat qiziqarlidir. Bola ana shu xildagi harakat zamirida sodir bo'luvchi voqelikni tez ilg'aydi, chunki bunda voqealar almashinuvi uning ko'z o'ngida sodir bo'ladi. Binobarin, syujetdagi harakat qahramonlar xarakteri rivojini ham belgilab turadi. Shundaybir vaziyatda syujet o'quvchi oson o'zlashtiradigan axborot materiali vazifasini o'taydi.

g) Tilning aniqligi, ravonligi, tushunarligi va emocionalligi. Bolalarga atalgan badiiy asarning tili umumbadiiy tilning normalariga va grammatik qurilishiga amal qilgani holda bolalarcha tafakkur qilishning o'ziga xos ifodaviy vositasi bo'lmog'i, shu bilan birga, bola nutq boyligini muttasil oshirib borishga xizmat qilmog'i shart. Bunda nuqul bolaga moslashib qolmay, balki uni ergashtirib borishga intilib, bolaga notanish so'z va iboralarni izohtalab qilib qo'ymay, kontekstdayoq anglashilarli etib ifodalashga e'tibor bermoq lozim. Eng muhimi, N.G.Chernishevskiy ta'kidlaganidek: «Bolalarga juda ko'p narsalarni osongina qilib tushuntirish mumkin, bunda avvalo o'sha tushuntiruvchining o'zi nimani gapirmoqchiligini o'zi anglab etkan va uni inson tilida ravshan ifodalay ololsin». Yozuvchi qaysi yoshdagi bolani mo'ljallab asar yozayotganini hisobga olib, o'sha yoshdagi kichkintoy lug'at boyligi imkoniyatlarini ko'zda tutgan holda ish tutmog'i lozim. Aks holda uning asari adresatini tayinlash mumkin bo'lmay qoladi. Chunonchi, Sh.Sa'dullaning «Yil fasllari» she'ridagi:

Milt etib chiqdi quyosh,

Dedi:-Do'stlar, qish odosh,-

satrlariga boqqan zahoti-ularning maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallanganini sezish qiyin emas. Chunki mazkur satrlardagi so'zlar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiga xos lug'at aks etgan. Shoir bunday ekspressiv nutq zamirida bahor faslining shu yoshdagi kichkintoylar hali sezishga ulgurmagan ikki xususiyatini-bahor qishdan so'ng kelib, qishga xotima («qish odosh») yasashini hamda endilikda haroratli kunlar («quyosh chiqishi»)ni boshlanishini, aniqrog'i, bahor fasli tabiatining

belgili xossalarini saviyaga muvofiqlashtirib ma'lum qilmoqda. Bolalar lug'at boyligi-ular saviyasining mezonini. Bolalar ulg'aygani sayin voqelikni o'zlashtirish imkoniyatlari ham kengaya boradi, binobarin, ular so'zni o'zlashtirish evaziga ularning saviyalari ham ko'tariladi, didlari o'sa va dunyoqarashlari shakllana va to'lisha boradi. So'zni tushunish va o'zlashtirish bolalarda tasavvurni chuqurlashtiradi, narsa va hodisalar haqida o'z fikrini tug'diradi. Bolalar uchun ijod etuvchilar ana shu holat bilan hisoblashmoqlari shart. Zotan, bolaga atalgan asarning tili qancha aniq, ifodalari teran, qisqa va obrazli bo'lsa voqea ham, ifodasi ham ixcham, yorqin va sodda bo'lsa asar shuncha ta'sirchan bo'ladi, unda ilgari surilgan g'oya xotiraga mustahkam o'rnanishgan syujetni idrok qilish asosida yosh kitobxonning intellektual dunyosi mahsuliga aylanadi.

Bolalar murakkab qurilmali gaplardagi mazmunni ilg'ashga qiynaladilar, xususan, bunday gaplarda izohtalab arxaik so'zlar qalashib kelsa-ta'qatlari toq bo'ladi. Binobarin, gaplar ham sodda, mantiqdor, jonli, hayajanbaxsh va savodli qurilmog'i, g'ashga teguvchi qaytariqlar va mavhum iboralardan xoli bo'lmog'i lozim. Poetik obrazlar mavhum yoki qalashib ketgan sifatlashlar (epitetlar) asosida qurilmasligi darkor, bolalar kitobida har bir ifoda tabiiy, yorqin ma'noli va zavqovar bo'lishi-uni tushunib o'qish va uqib olishning muhim sharti hisoblanadi.

Bolalar adabiyotining boshqa fanlar bilan hamkorligi yoxud adresliligi. Bolalar adabiyotining kamolotida uning barcha fanlar bilan aloqadorligi muhim ahamiyatga ega. Bu M.Gorkiyning «Mavzular to'g'risida» maqolasida yorqin ifodalangan bo'lib, bolalar adabiyotining rang-barang mavzular hisobiga boyib, xilma-xil obrazlar hisobiga to'lishib borishini ta'minlashdan tashqari ma'lum darajada o'zligiga daxldor xossalarini ham oydinlashtiradi. Shu ma'noda, aytish mumkinki, bolalarga o'zlarini qurshagan olam va uning sirlaridan voqif bo'lishda, narsa va hodisalar mohiyatini idrok etishda, ularni anglash va bilib olishda, o'rganish va o'zlashtirishda bolalar adabiyoti o'ziga xos hayot darsligi vazifasini o'taydi.

Aytaylik, elektr nima? Quyosh-chi? Oy-chi? Yulduzlar nega faqat kechasi ko'rinadi? Momaqaldiraq nimadan paydo bo'ladi? Yashin-chi? Suv nima? Shamol nimadan hosil bo'ladi? Tuproq nima? Yomg'ir nima? Qor nima? O'simliklar, hasharotlar nega xilma-xil? Xullas, bunday savollarning cheku-chegarasi yo'q. Lekin bolalar bularning barchasini bilishidan iborat ehtiyojlarini qondirmay qo'ymaydilar. Ularning ma'naviy ulg'ayishlari ana shu istakni qondirish evaziga amalga oshadi. Binobarin, bolalar adabiyoti ana shu savollarga javob berish maqsadida fizika,

astronomiya, geologiya, geografiya, kimyo, matematika, botanika, biologiya, qo'ying-chi kishilik jamiyati yaratgan barcha bilimlar bilan ijodiy hamkorlik qiladi. Bunda u mazkur bilimga xos sovuq ilmiy muhokama va mantiqiylikni emas, balki har qanday ilmiy tushunchaning insonni sharaflovchi badiiy obrazli ifoda etilishi orqali erishadi. Bunday obrazli ifoda pirovard-oqibatda uning qiziqarliligini (zanimatelnost) va ma'rifiyligini (poznavatelnost) ta'minlaydi. «Qiziqarli botanika», «Qiziqarli fizika», «Qiziqarli biologiya», «Qiziqarli geologiya», «Qiziqarli kimyo» yoki «Yosh tilshunos», «Yosh adabiyotshunos», «Yosh fizik» qomuslari singari bolalarbop rang-barang kitoblar, shuningdek, turli-tuman kasb-korlar, aniqrog'i, shishapazlik, chinnisozlik, yog'och va ganch o'ymakorligi, misgarlik va mis o'ymakorligi, temirchilik, kulolchilik, bo'yrafoqlik, gilamboqlik, temirchilik, haykaltaroshlik, kashtachilik, zargarlik, zardo'zlik, rangpazlik, qog'oz tayyorlash va hokazolarning kelib chiqishi tarixiga oid zavqovar badia va hikoyalar yosh avlodning ular haqidagi bilimlarini chuqurlashtiribgina qo'ymaydi, balki ularda ajdodlar tajribalari va an'alarini o'zlashtira turib e'zozlashni, demakki, qadriyatlarni anglash jarayonida o'zliklarini anglashlariga, eng muhimi, kelajakda kim bo'lishdan iborat havaslarini uyg'otibgina qo'ymaydi, balki shu havasning qat'iyatga aylanishida yordam beradi.

Shu tariqa ilm va badiiyat sintezidan hosil bo'lgan ilmiy-ma'rifiy (poznavatelno'y) adabiyot shakllana boshladiki bu ma'rifatparvalik adabiyotidan tubdan farq qiluvchi hodisadir. Ma'rifatparvarlik adabiyotida ilg'or fan, texnika va an'alarini o'zlashtirishga da'vatkorlik ruhi ustivor bo'lsa, bolalar o'qishigagana mo'ljallangan ilmiy-ma'rifiy adabiyotda ilmiy dalillar, g'oyalar va farazlar badiiyat sintezidan o'tkazilib, obrazli tilda bayon etiladi. Bunda ilmiy ma'lumot Shundayzavqovar qilib bayon etilmog'i lozimki, undagi istalgan dalil shunchaki oddiy so'z bo'lib qolmasligi, qolaversa, o'quvchi miyasini keraksiz fakt sifatida g'ovlattirib qo'ymasligi, aksincha, uning fikrini, xayolini harakatga solmog'i, pirovard oqibatda esa, unda ijodkorlik layoqatini shakllantirishga xizmat qilmog'i zarur.

Bolalar adabiyoti fani yoshlarni imon-e'tiqodli kishilar sifatida va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mamlakatimizning qudratli qurolidir. Bugungi davrda bu fanga intilish, qiziqish, o'rganish, o'zlashtirish yanada oshdi. Shundayekan, kichkintoylarga atab yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos bo'lishi, ular qalbida chuqur o'y-fikrlar uyg'otishi, yorqin obrazlar va yuksak g'oyalarga boy bo'lishi, ularni ulkan va porloq ishlarga

ilhomlantirishi zarur. Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda yoritilishi lozim.

Faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalar adabiyoti bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida tilni «ko'ngil xazinasining qulfi», deb ta'riflaydi, kishilarni qisqa va mazmunli, chuqur mantiq bilan so'zlashga chaqiradi. Bu talab, shubhasiz, bolalar yozuvchilariga ham taalluqlidir.

Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilishi lozim.

Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar yosh kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so'z boyligini oshiradi.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni tabiatni sevishga, halol yashashga, ilm-fan cho'qqilarini egallashga, xalq uchun foydali yangi kashfiyotlar qilishga o'rgatadi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr tuyg'ularini o'stiradi.

Shundayek, bugungi kunda bolalar ta'lim-tarbiyasida qudratli qurol bo'lgan bolalar adabiyotidan keng foydalanmay turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash mumkin emas. Bolalar adabiyotining o'ziga xos qonuniyatlari bor: agar bu fan bo'limlarga ajratib o'rganilmas ekan, pala-partishlik, tushunmovchilik kelib chiqishi tabiiy. Eng avvalo kitobxonlik — kitob o'qish, tinglash, hikoya qilishdek talabga e'tibor berilishi zarur bo'lgan amallar bor. Shunga ko'ra bolalar kitobxonligini o'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha).
2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11 — 12 yoshgacha).
3. O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13— 14 yoshdan 15 — 17 yoshgacha).

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi

Bu davr bolalar kitobxonligi, asosan, ota-onalar, buvi-bobolar, mahalla ertakchilari-yu tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Hali o'qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan bexabar bo'ladilar. Hatto oila a'zolari, uy hayvonlari, parranda-yu dov-daraxtlargacha notanish bo'ladi. Kattalar o'qib, aytib, hikoya qilib beradigan asarlar bu davr bolalari uchun muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu davr bolalarga o'qib beriladigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo'lishi zarur. Shuningdek, bunday kitoblarning rasmlari rang-barang, harflari esa yirik-yirik bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bog'cha yoshidagi bolalarga ham, avvalo, maqol va topishmoqlarni, so'ng hayvonlar haqida, umuman, tabiatni sevishga o'rgatuvchi ertaklarni aytib berish yoki o'qib berish juda foydalidir. Ularga mehnatsevarlikni o'yinlar orqali o'rgatilsa, yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, «Sholg'om», «Bo'ri bilan Qo'zichoq», «Tulki bilan Turna», «Tulki bilan uzum», «Ur, to'qmoq!» kabi masal va ertaklar bolalarni mehnatsevarlikka, tabiatni sevishga, rostgo'ylikka o'rgatadi, aldamchilik va xudbinlik, baxillik va ochko'zlik yomon illat ekanligini tushuntiradi.

«Ayрилganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer», «Hunar, hunardan unar», «Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar», «Mehnatning tagi rohat» kabi xalq maqollarini yodlatish va ularning mazmunini yaxshilab tushuntirish bolalar tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko'pchiligini ertak, alla-qo'shiq, topishmoq, maqol, tez aytish kabi xalq og'zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan va yuqoridagi talablarga to'la-to'kis javob beradigan asarlar ham maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun qo'l keladi. Ammo shu narsani ham ta'kidlab o'tish kerakki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim, xarakterli voqea va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga xos tilda, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim.

Bola yetti yoshga to'lguniga qadar atrofdagi yangiliklarni tez ilg'aydigan bo'lib o'sa baradi. Bu jarayonni bolaning kelajakka tayyorlanishi tarzida tushunish kamlik qiladi, albatta. Negaki, inson shaxsiyatidagi barcha ijobiy va salbiy xususiyatlar xuddi shu davrda shakllana boshlaydi, xarakteriga singa baradi. «Axir men hozir nimalarda yashayotganimni o'shanda kashf qilmaganmidim?», -deya xotirlagandi Lev Tolstoy yetmish yillik umriga sarhisob qila turib. -Shuncha ko'p, shuncha tez kashf etgan narsalarimning yuzdan birini ham, qolgan butun umrim

davomida kashf eta oldimmi? Aslo! Besh yashar boladan mengacha-faqat bir qadam, yangi tug'ilgan chaqaloqdan besh yashar bolagacha-dahshatli masofa!» Chindan-da, chaqaloq besh yoshga to'lguniga qadar til chiqaradi, ongi kurtak yoza boshlaydi, tuyg'ulari shakllanish jarayoniga kiradi, oyoq chiqarib mustaqil yura boshlaydi-keyingi butun umri davomida, asosan, shu jarayonlar takomillashadi. Shuning uchun bolalarni juda kichkinaliklaridanoq, so'z san'ati sehdida tarbiyalash beqiyos ijtimoiy-estetik qimmatga molik. Bu xalqning asriy tajribasida sinalgan haqiqatdir. Xalq ijodiyotidagi erkalash motivlariga limmo-lim aytim-olqishlar, allalar, erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar, qaytarmachoqlar, ermaklar asrlar davomida ana Shundayvazifani ado etib kelayotgani barchaga ayon. Ularda xalqimizning bolalarparvarlik mehri tovlanib turadi, murg'akkina jonlarni so'z ohanglarida ardoqlash an'analari yorqin namoyon bo'lgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hali kitob o'qiy olmaydi, ular uchun olam noma'lumlik sirlarini bilishga, o'zlashtirishga intilish, qiziqish kuchli bo'ladi. Yozuvchining vazifasi uning xuddi shu intilishini hisobga olib, qiziqishini alangalatishga qaratilgan holda ish tutishdan iborat. Bunda u maktabgacha yoshdagi kichkintoy tabiatiga xos taqlidchilik xususiyatini ko'zda tutib, hayotdagi xarakterli voqea va hodisalarni uning tasavvuriga mos badiiy obrazlarda ifodalovchi asarlar yaratmog'i lozim.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi kichkintoylar tevarak-atrofidagi har bir narsaga taqlid qilishdan charchashmaydi. Ular taqlidchilik vositasida hayotni o'zlashtiradilar. Shu boisdan ularga atalgan asarlarning personajlari-hayvonlar, qushlar, hasharotlar, o'simliklar va boshqa narsalar bo'lishsa-da, odamlarga taqlidiy sifatlarga ega: Odamlarday gapirishadi, fikr yuritishadi. Shu taqlidda ularning har biri o'z xislatlari xususidagi oddiy ma'lumotlar bilan kichkintoylarning intellektual dunyosiga aylanadi, ularda hayotga qarashning o'ziga xos kurtaklari vazifasini o'tashga kirishadi.

Bunday intilish zahirida kichkintoy nutqida o'zgacha emotsionallashuv jarayoni sezila boshlanadi. Bolalardagi bunday insoniy sezgirlikdan hayratlangan L.Tolstoy ayrim noshud yozuvchilarning tildagi no'noqliklariga ta'na qilib: «Bola so'z yasash qonunlarini sizdan ko'ra yaxshiroq anglaydi, chunki hech kim uningchalik tezlik bilan yangi so'z yasay olmaydi,» —degan edi. Bolalar tilini uzoq kuzatgan K.Chukovskiy ham bu fikrni tasdiqlaydi: «Ikki yoshidan boshlab har qanday bola qisqa muddat ichida «daho tilchi» darajasiga ko'tariladi,» - deya e'tirof etgan edi. Bolalar uchun asar yozganda ana shu fazilatlarini inobatga olib, ularga atroflarini o'rab olgan hayotni anglab olishlariga, hayotsevarlik

tuyg'ularini shakllantirishga, narsalar haqida o'z tushunchalarining qaror topishiga, shularni imkoniyatlari ko'taradigan darajaga xizmat qiladigan so'z zaxiralarini muttasil boyitishga ko'maklashish maqsadi ko'zlanmog'i shart. Shundagina asarni o'z vazifasini muvaffaqiyatli bajargan deb hisoblash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bu davr bolalari o'zlari tinglagan asarlari yordamida asta-sekin atrof-muhit bilan tanishadilar, ona yurtga mehr-oqibatli bo'lishni, tabiatni asrashni, mehnatni sevishni o'rganadilar.

Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi

Bu yoshdagi bolalarning ichki olami ancha murakkab. Ular hali ko'p narsalarni bilmaydi, lekin bilishdan iborat ichki jarayonni kechishga kirishadi; bilish-ular uchun o'ziga xos ma'naviy ehtiyojga aylana boradi. Yanush Korchak ular tabiatiga xos ana shu xususiyatini ta'riflab yozgan edi: «Bolalarga o'zlari sezgan va o'ylaganlarini gapirib berish g'oyat qiyin, chunki ularni so'zda ifodalashga to'g'ri keladi. Bundan ham og'irrog'i esa-yozish. Lekin bolalar Shoir va faylasufdirlar.» Chindan ham shunday. Bolalar tabiatidagi «Shoirlik»-ularning hamma narsadan hayratlanishlari, har bir hodisadan hayajonlanishlari bo'lsa, «faylasuflik» - hayratni va hayajonni qo'zg'agan shu narsalar va hodisalarning asl mohiyatiga qiziqishlaridir. «Bu nima?», «Bu nega bunaqa?», «U nima deydi?», «U nega katta yoki nega kichik?», «U qanday o'sadi?», «Nega qattiq?», «Nega yumshoq?», «Suv nega qotadi?», «Quyosh qanday qizitadi?», xullas, shu xildagi sanoqsiz savollar bu yoshdagi bolalarning qiziqishlari hosilasi bo'lib, ana shu savollarga topgan va topolgan javoblari-olamni o'zlashtirish yo'llaridir. Olam ular uchun jumboqqa aylanarkan, ularning o'zlari ham «nimavoy»ga aylanishlari tabiiydir. Shu ma'noda N. Nosov yaratgan Pochemuchka (Nimavoy-o'zbek tilida Bilmasvoy tarzida tarjima qilingan)-bu yoshdagi bolalarning umumlashma obrazi darajasiga ko'tarilgan. Bunday umulashma obrazni Q.Muhammadiyning «Tabiat alifbesi» turkumiga kiruvchi lirik qahramon timsolida ham ko'rish mumkin. U ham butun vujudi bilan «Yong'oqni nega yong'oq deymiz?» yoki «Yong'oqning qobig'i nega qattiq?» «Olcha nega qip-qizil?», «O'rik nega sarg'ayib pishadi?», «Jiydaning shoxi nega egig?», «Shaftolining bargi nega achchiq?», «Sada nega meva qilmas?», «Dada, bog'bon nega tokni qirqib turadi?» yoki «Tok daraxti bir xilu uzumlari nega har xil?», «Mol nega kavsh qaytaradi?», «Chittak nega chittak?», singari son-sanoqsiz savollarga aylangan. Kimgadir bular g'ayritabiiy tuyulishi mumkin, shu boisdan ularning g'ashlari qo'zg'ab

«katta bo'lganida bilasan», -deya bolani hatto jerkishgacha borishlari mumkin. Bunday qilish bola qiziqishlariga to'g'on solishga teng bo'lib, unda hamma narsaga befarq qarash maylini kuchaytiradi. Befarqlik esa bora-bora bolani ijtimoiy lanjlikka giriftor qiladi.

Bola ma'naviy ehtiyoji hosilasi sifatida tug'ilgan mazkur savollariga ilmiy javobni ham u idrok qila olmaydi, aksincha, yana savoldan savol chiqaradi. Buning ijobiy tomoni shundaki, bolalardagi qiziqish so'nmaydi, bilaks yana rivojlanadi. Q.Muhammadiy bu savollarga poetik javob berish maqsadida «nima to'g'risida asar yaratmasin, nima haqda gapirmasin, doim o'sha narsadan inson hayotini ko'zda tutib, ma'no izlaydi. Shoir shu ma'noni topadi ham. Bu ma'no doim bolalarning hayotdan oladigan birinchi taassurotlarini izohlaydi, uning dunyoqarashi shakllanishiga xizmat qiladi.»

Maktab yoshidagi kichkintoylar tabiatiga xos «Shoirlik va faylasuflik» ular uchun yoziladigan asarlar mavzu doirasining keng, g'oyaviy-badiiy jihatdan sodda va tabiiy bo'lishini taqozo etadi, bu jarayon bola ulg'ayishi bilan oddiylikdan murakkablik tomon yo'g'rilib bormog'i darkor. Negaki, ruhshunoslarning ma'lumotlarga ko'ra, bu yoshdagi bolalar dastlabki bosqichda 3600 tacha so'zdan foydalanishadi. Yetti-to'qqiz yasharliklarida hayvonlar, qushlar, hasharotlar, nobotot va boshqa narsalarga oid ertaklarga qancha qiziqishsa, insonlar va ularning o'zaro munosabatlarini ifodalovchi asarlarga qiziqishlari ham shuncha orta boradi. Bolalar yozuvchilarning vazifasi shu ishtiyoqni alangalatishdan iborat. Bunda shu yoshdagi o'quvchilarning hayot tajribalarini umumlashtirish negizida ijtimoiy voqelik mohiyatini ochib berish ular dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir qo'rsatuvchi vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yoshdagi bolalar folklordan kengroq bahramand bo'la boshlaydilar: tez aytishlar mashqi bilan nutq tovushlari talaffuzini ravelashtirsalar, chandish o'ynab so'zlar ohangdoshligini idrok qiladilar; guldur-guplar vositasida so'z va harakat uyg'unligini his etsalar, topishmoqlarni echish jarayonida zehnlarni charxlay boradilar. Hayvonlarga oid ertaklarga qiziqishlari sehrli-fantastik va hayotiy-maishiy ertaklarga omuxtalashib, ular hisobiga to'lisha boradi va xayollariga parvoz bag'ishlay boshlaydi. Hayotiy-maishiy ertaklarni o'qish jarayonida real hayot hodisalariga qiziqishlari uyg'ona boradi. Ertakka bu xildagi ma'naviy chanqoqlik turli xalqlar ertaklarini ham, shuningdek, yozma adabiy ertaklarni ham sevib o'qishga chog'laydi: Sharl Perro, aka-uka Grimmlar, H.K.Andersen, Petr Ershov asarlarini, ayniqsa, bolalarga

moslashtirib tabdil qilingan «Ellada qahramonlari», E. Rapsening «Baron Myunxauzenning sarguzashtlari», shuningdek, A. Tolstoyning «Oltin kalit yoki Buratinoning boshidan kechirganlari», Leonid Solovevning «Nasriddin afandi sarguzashtlari», Sh.Sa'dullaning «Yog' och qo'g'irchoq yoki Kachal polvon sarguzashtlari» ertak-qissalarini, Turg'unboy G'oyibovning adabiy-nasriy ertaklarini zavqu shavq bilan o'qiydilar. Multfilmlarga va qo'g'irchoq teatrlari spektakllariga o'chliklari zamirida ham aslida ertakka ehtirosli qiziqishlari yotadi. Bu yoshdagi kichkintoylarga, ayniqsa, harbiy vatanparvarlik va Vatan tarixi haqidagi badiiy asarlar behad zarurdir. Ularga xorijdagi tengqurlari hayoti haqidagi asarlar ham alohida qiziqish uyg'otadi. Bu jihatdan ham milliy adabiyotda yaratilgan «Qonli barmoqlar», «Zafar va Zahro» (Oybek), «Dunyo bolalari» (A.Muxtor), «Afg'on hikoyalari» (S.Barnoev) qatorida mashhur italyan bolalar adibi Janni Rodarining «Chipollinoning boshidan kechirganlari», «Jelsomino yolg'onchilar mamlakatida», «Muzqaymoqdan qurilgan shahar», shved bolalar adibasi Astrid Lindgrenning «Mittivoy va tomda yashovchi Karlson haqida ikki qissa», polyak Yanush Korchakning «Qirol Matiush birinchi», shuningdek, qardosh xalqlar bolalar adabiyotlarining eng sara namunalari alohida qimmat kasb etadi. Bu xildagi asarlar bolalarda baynalmilal hamkorlik va hamdardlik tuyg'ularini tarbiyalaydi, ularning olam va odamlar haqidagi bilimlarini boyitadi, lug'at boyliklarini oshiradi, dunyoqarashlarining shakllanishiga, insoniy fazilatlarining tarkib topishiga, xarakterlarining toblanishiga ta'sir ko'rsatadi, qisqasi, badiiy adabiyot ular uchun chinakamiga «hayot darsligi»ga aylana boradi.

Bu yoshdagi bolalar yana sehrli-fantastik ertak, sarguzasht, hikoya, qissa va dostonlarni ham sevib o'qiydilar. Quddus Muhammadiyning «Erkinjon oyga chiqibdi» (doston), Yusuf Shomansurning «Oydan kelgan bolalar» (doston), Anvar Obidjonning «Dahshatli Meshpolvon» (ertak-qissa) kabi asarlari shu yoshdagi bolalarga mo'ljallab yozilgan.

O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi

Bu yoshdagi bolalar o'zlari mustaqil ravishda kitob o'qib qolmay, balki o'qigan kitoblaridagi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga o'rganadilar, zarurat bo'lsa, ular ko'rsatadigan mardlik va jasoratlarini takrorlashga hozirlanadilar.

SHarq mutafakkirlaridan Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ahmad Yugnakiy, Al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad

Yassaviy, Alisher Navoiy kabilarning yaratgan asarlari bu davr bolalar dunyoqarashini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu yoshdagi bolalarga xalqimizning shonli tarixi, bugungi hayoti haqida yozilgan turli janrdagi asarlarni tavsiya etish mumkin. «SHiroq», «To'maris», «Spitamen» kabi afsonalar bilan birga Oybek, G'afur G'ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Hakim Nazir, SHukur Sa'dulla, Anvar Obidjon va boshqalarning zamonaviy mavzudagi eng yaxshi asarlari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

O'smirlar hayotga mustaqil nazar solishga intiladilar. Ular hayotdagi har bir voqea va hodisaning ijtimoiy-axloqiy mohiyatini anglashga, undan o'zlariga saboq chiqarishga harakat qiladilar. Shu jarayonda ularda fuqarolik tuyg'ulari teranlasha va takomillasha boradi, jamiyat va Vatan oldidagi burch va mas'uliyatlarini anglash istagi uyg'ona boshlaydi. Bunda ularga S.Ayniy, Oybek, A.Qahhor, N.Safarov, O.Muxtor, T.Malik va boshqalar yozgan biografik va avtobiografik asarlar, memuarlar ayricha ta'sir ko'rsatadi. O'smirlarlik-qizlar va o'g'il bolalar o'rtasida bir-birlariga nisbatan o'rtoqlik, havas va muhabbat bilan talpina boshlash pallasi. Binobarin, ularda sevish-sevilish mavzuidagi asarlarni o'qishga alohida rag'bat bilan qarash kuchayadi. Shu rag'batni qondirishda H. Nazirning «Lochin qanotlari», «Kenjatoy», «Tohir-Zuhra qissasi», shuningdek, A.Aleksinning «Akam klarnet chaladi», «Kolya Olyaga yozadi, Olya Kolyaga yozadi» singari asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asarlar o'smirlikka xos tuyg'ularning yuksak axloqiy ideal darajasida kamol topishiga tahsir ko'rsatadi.

Modomiki, o'smirlar kattalar safini to'ldiruvchi avlod sifatida tarix sahnasiga chiqib borisharkan, kattalar olamiga xos ma'naviy fazilatlarini kasb etmoqlari zaruriyatga aylanadi. Shu ma'naviy zaruriyat tufayli ular o'qishi doirasiga kattalar adabiyoti namunalari ham kira boradi va o'smirlar kitobxonligi doirasini kengaytiradi. Bunda nafaqat o'zbek adabiyoti vakillari, balki jahon adabiyotining barcha zabardast namoyandalarning kishilik ma'naviyati taraqqiyotida muhim qimmat kasb etgan asarlarini o'qish, ulardan saboq va zavq olish, shu asosda jahon xalqlari turmushi, orzu-intilishlari, kurashi va mag'lubiyatlaridan ogoh bo'lish – o'smirlar dunyoqarashi o'sishining asosiy omiliga aylanadi.

Bolalar adabiyotining yoshga nisbatan mo'ljallanganligi qotib qolgan hodisa ham emas, u zamon va insonlar o'zgarishi bilan didaktik mohiyat kasb eta boradi. Binobarin, bolalar kitobining adresliligi doimiy harakatda bo'ladi: aytaylik, ijtimoiy-estetik taraqqiyot chuqurlasha borishi bilan bolalarning yosh xususiyatlari ham o'zgaradi, davr o'zgarishi bilan

avlodlar o'zgaradi, insoniyat mutassil to'lishib, yasharib borarkan, uning qiziqishlarida ham bu zuhur topadi. Natijada qachonlardir kattalar ma'naviy mulki sanalgan ertaklar va topishmoqlar endilikda, asosan, bolalar ma'naviy ehtiyojlari qondirgichiga aylangani kabi yozma adabiyotda ham aslida kattalarda mo'ljallanib yaratilgan Ubayd Zokoniyning «Mushuk ila sichqon qissasi», Sayido Nasafiyning «Kim zo'r» kabi asarlari, shuningdek, A.S.Pushkinning qotor she'riy adabiy ertaklari bolalar o'qishi doirasiga kirib borgani tabiiydir.

O'zbek bolalar adabiyoti-bolalar hayotining o'ziga xos qomusi, unda bolalarning oilada, bog'chada, maktabda va tengqurlar davralarida, shuningdek, o'yinda, o'qishda, mehnatda, tengqurlari yoki kattalar bilan munosabatdan iborat jo'shqin hayoti aks etgan. Binobarin, u xalq turmushining ham ko'zgusidir. Chunki bolalar taqdiri xalq va Vatan taqdiri bilan uzviy bog'langan. Bolalar adabiyoti shu aloqadorlikni butun go'zalligi va murakkabligi bilan ifodalaydi, bu esa uning mahrifiy qimmatini belgilaydi. Bolalar adabiyoti muayyan g'oyalarni mavhum tushunchalarda emas, balki bolalarning «predmetli» tafakkuriga va tasavvuriga mos badiiy obrazlarda ifodalab, ular ongiga his tuyg'ulariga va xayolotiga ta'sir ko'rsatadi, ularning kelajagi buyuk ozod va obod Vatanning, erkin va demokratik jamiyat qurayotgan xalqning bunyodkor va kurashchi farzandlari qilib tarbiyalashga xizmat qilaveradi.

Ko'rib o'tganimizdek, bolalar adabiyoti o'ziga xos xususiyat-lari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri, tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shu orqali kichikintoylarni olg'a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur sevishga yordam beradi. Bolalar adabiyotida didaktika ohangi ustun turadi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Yosh avlod tarbiyasida bolalar adabiyotining ahamiyati qanday?
2. Bolalar adabiyotining kattalar adabiyotidan farqi nimada?
3. Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Bolalar adabiyotining ikki yo'nalishdaligi nimada ko'rinadi?
5. Bolalar kitobxonligi necha qismdan iborat?
6. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi nimasi bilan farqlanadi?
7. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi oldiga qanday talablar qo'yilgan?
8. O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligidagi badiiy asarlar qanday spetsifik xarakterga ega?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

Bolalar kitobxonligi guruhlariga to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi. 2) o'rta yoshdagi bolalar kitobxonligi. 3) maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi. 4) katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi. 5) o'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi.

+ 1, 3, 5

- 1, 3, 4

- 2, 3, 4

- 1, 2, 5

Quyidagi xususiyatlardan qaysi birlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligiga mansub?

1) bunday asarlarni kattalar o'qib, aytib, hikoya qilib beradi; 2) rasm va bo'yoqlarga boy; 3) bu asarlarda kichikintoy bajarishi lozim bo'lgan mas'uliyat haqida hikoya qilinadi. 4) asarlarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo'ladi; 5) asarlarning rasmlari rang-barang bo'ladi;

+ 1, 4, 5

- 1, 2, 5

- 1, 3, 4

- 1, 2, 4

O'zbek bolalar adabiyotining paydo bo'lish omillari qaysi javobda bosqichma-bosqich to'g'ri ifodalangan?

+ ijtimoiy voqelik, xalq og'zaki badiiy ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti, yangi realistik o'zbek adabiyoti, jahon va rus xalqlari bolalar adabiyotini o'rganish va o'zlashtirish, ilk maktab darsliklari;

- folklor, jahon adabiyoti, rus adabiyoti, mumtoz adabiyot, jadid adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti;

- yozma yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi, sho'ro davri mafkurasi, mustaqillik davri adabiyoti;

- yangi realistik o'zbek adabiyoti, jahon va rus xalqlari bolalar adabiyotini o'rganish va o'zlashtirish, ilk maktab darsliklari.

Bolalar badiiy adabiyotining umumbadiiy adabiyot bilan munosabati qaysi javobda o'z ifodasini topgan?

- ular bir-biri bilan mutlaqo bog'liq emas, har biri alohida hodisa;

- ularning har ikkalasi bir hodisa, alohida xususiyatlari yo'q;

+ bolalar adabiyoti umumbadiiy adabiyotning ajralmas tarkibiy qismi;

- bolalar adabiyoti umumadabiyotning davomi.

Bolalar adabiyotining umumbadiiy adabiyot bilan mushtarak xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?

- + so'z san'ati, adabiy tur va janrlarning amal qilishi, yuksak badiiylik;
- so'z san'ati, predmetlilik;
- xalqchilik, haqqoniylik prinsiplarining mavjudligi,
- obrazlarning aniqligi, detallarning ko'pligi.

Bolalar adabiyotida tasvirning o'ziga xos xususiyatlari qaysi javobda to'g'ri qayd etilgan?

- + badiiy obraz, voqelikning aniq va ko'rimlilik, lirik va komik maylning kuchlilik;
- bolalarning o'zlari o'qishlari mumkin bo'lgan adabiyot;
- ota-onalar o'qishiga mo'ljallangan adabiyot;
- tilning aniq va ravonligi, emotsionalligi.

2-MAVZU. BOLALAR ADABIYOTI VA BOLALAR FOLKLORINING MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARI BILAN BOG'LIQLIGI

REJA:

1. Bolalar folklori haqida.
2. Bolalar folklorining janrlari.
3. Allaning janriy xususiyatlari.
4. Bolalar qo'shiqlarining mavzuviy mundarijasi.
5. Maqollarning etnopedagogik ahamiyati.
6. Topishmoq janri tabiati
7. Masal va tez aytish janrlari haqida.
8. Ertak janri tasnifi

Tayanch tushunchalar: bolalar folklori, folklor janrlari, alla, qo'shiq, mavsumiy qo'shiqlar, mavzuviy mundarija, maqol, topishmoq, etnopedagogika, ertak janri, poetika, folklorizm, stilizatsiya, sayyor syujet, paremik tur, paremiografiya, erkalash leytmotiv.

Xalq og'zaki badiiy ijodiyoti xilma-xil adabiy tur va janrlarda namoyon bo'lgan hodisa sifatida kishilik jamiyati tarixida ko'p vazifali ijtimoiy-estetik mohiyatga ega so'z san'ati hisoblanadi. U hamma zamonlarda ham o'z ijodkori bo'lgan xalqning orzu-armonlarini ifodalab keldi, qolaversa, xalqning o'z-o'zinigina emas, balki bolalarning ham ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishlarida muhim tarbiyaviy vosita vazifasini bajarmoqda. Bolalar xalq ijodiyotidan ota-bobolarining hayot tajribasini, mehnat va kurash ilmini o'rganib kelayotirlar. Ular xalq qo'shiqlaridan, dostonu ertaklaridan, afsonayu rivoyatlaridan sevish-sevilish, samimiyat, insoniylik, sabru qanoat, mehnatda fidoiylik, eng muhimi, otalari yashab obod etgan Vatan tuyg'ularini idrok etish asnosida yurt erki va ozodligi uchun kurashgan buyuk ajdodlari To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Torobiy va Amir Temurlarning jasoratlaridan saboq olmoqdalar, yashash va yaratish romantikasidan surur tuymoqdalar. Binobarin, xalq ijodiyoti qadim zamonlardan hozirgacha bolalar uchun ham ezgulikni qadrlash va

yovuzlikdan nafratlanish sabog'i bo'lib, avloddan avlodga o'tgani sayin muttasil to'lishib, mukammalashib, og'izdan-og'izga ko'chgani sayin tobora sayqallanib, xalq milliy ruhini teranroq aks ettirgan holda asrlar davomida avlodlar ma'naviy-axloqiy vorisligini ta'minlab keldi, jamoa ijodi namunasi sifatida xalq zakovatini, iste'dodini va til boyligini namoyish etdi, xalq uchun o'zligini anglash, o'z tarixini sevish vositasiga aylanib qoldi, eng muhimi, yozma adabiyotning bunyodga kelishida genetik asos vazifasini bajardi. Bu silsilada bolalarning o'z folklori ham muayyan rol o'ynadi.

Binobarin, bolalar folklori - kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o'zaro uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar va musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og'zaki ijodiyotining o'ziga xos tarmog'idir.

Shunga qaramay, o'zbek bolalar folklori namunalarini to'plash, nashr etish va ilmiy-estetik qimmatini o'rganishga uzoq zamonlar e'tibor berilmay kelindi. XX asming dastlabki choragi oxirlarida bu ishga kirishilgan esa-da, u uzluksiz jarayonga aylanmadi. Elbek to'plab, tartib berib 1937-yilda chop ettirgan «Bolalar qo'shig'i» to'plamidan O. Safarov tartib bergan «O'zbek xalq ijodi» seriyasida 1984-yilda bosilib chiqqan «Boychechak» to'plamigacha kechgan salkam yarim asrlik uzilish ana shu fikr dalili bo'la oladi. O'zbek bolalar folklorini o'rganish 60-yillardan e'tiboran izchillasha bordi. Z.Husainovning «O'zbek topishmoqlari» (1966), G'.Jahongirovning «O'zbek bolalar folklori» (1975), shuningdek, O.Safarovning «Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari» (1983), «O'zbek bolalar poetik folklori» (1985), «Alla-yo alla» (1999), «Chittigul» (2004), Sh.Galievning «O'zbek bolalar o'yin folklori» (1998) singari tadqiqotlar tufayli bu izlanishlarning samaralari ko'zga tashlanadigan bo'ldi. Shuni ham aytish kerakki, folklorshunoslar orasida mavsum va marosim qo'shiqlariga munosabatda ularning ijodkori har qachon kattalar bo'lganini e'tirof etish bilan bolalarning bu sohadagi qo'shiqchiligini yo cheklash, yo tamoman inkor etish hollari ham mavjud. To'g'ri, marosimlarni kattalar uyushtirganlar. Ularning o'tkazilish tartiblarini ham, rasm-rusumlari va qo'shiqlarini ham kattalar ijod etganlari rost. Lekin unutmaslik lozimki, shu marosimlarning birortasi ham bolalar ishtirokisiz o'tmagan; hech bo'lmaganda, bolalar tomoshabin sifatida unga qatnashganlar va kattalar bajargan ishlarni ko'rgach, o'sha marosimni keyinroq o'yinda muqallid qilib o'zlari bajarganlar, shu muqallidlariga yarasha qo'shiqlarni to'qiganlari ham ayni haqiqat. Binobarin, bolalarning ham o'z marosim va mavsum qo'shiqlari yuzaga kela boshlagan. Bu

jarayon davr o'tishi, turmush sharoitining o'zgarishi, yangicha ijtimoiy munosabatlarning tug'ila borishi tufayli u yoki bu marosimning tamoman yo'qolishi, yo shunchaki kattalar o'rtasida nufuzini yo'qotishi natijasida o'sha marosim bolalar o'yini yoki ijrochiligida yashash shakliga o'tishi bilan yanada chuqurlasha borgan. Bunday holatni «Boychechak», «Chittigul», «Binafsha», «Oppoqijon» kabi mavsum qo'shiqlari misolida yaqqolroq ko'rish mumkin. O'zbek bolalar folklori namunalari tabiatidan kelib chiqib, genetik asoslariga ko'ra uni uch qismdan tarkib topgan hodisa sifatida kuzatish mumkin:

I. Kattalar hamisha o'z farzandlarini o'ylab yashaganlar – mehnat va ijod bilan shug'ullangan. Bu jarayon ularda bola va uning taqdiri to'g'risida qayg'urish majburiyatining tobora chuqurlashuvi tarzida kechib, talay qo'shiqlarning to'qilishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, chaqaloqni parvarish etish mas'uliyati behad katta bo'lgan. Onalar ana shu murakkab mas'uliyatni zimmalariga olganlar: o'tkir zakovat, tadbirkorlik, beqiyos insoniy mehribonlik evaziga o'zlari goho tushunib, goho tushunmay, «bolalarni tarbiyalab o'stirish bilan mamlakatning kelajak tarixini, demakki, dunyo tarixini ham tarbiyalab etishtirganlar. Bu yo'lda qo'shiq ularga madadkor bo'lgan: bolalarini qo'shiq bilan uxlatganlar, yig'lasa-kuylab ovutganlar, erkalatganlar, hatto qo'shiq bilan chaqaloqqa daxldor marosim rasm-rusumlarni bajarganlar. Shu zaylda allalar, aytim-olqishlar, ovutmachochlar, erkalamalar, qiziqmachochlar va qaytarmachochlar yuzaga kelgan. Ularda erkalash leytmotiv bo'lgan. Shu sababli xalq og'zaki poeziyasining ana shu namunalarini erkalash poeziyasi tarzida umumlashtirish va xarakterlash asoslidir.

Erkalash poeziyasi namunalari ijro maqsadi, o'mi va bola yoshiga munosabatiga ko'ra ikki guruhga ajraladi. Birinchi guruhga mansub qo'shiqlar bolaning beshikdaligi davri bilan chambarchas bog'liq, shu vajdan ularni *beshik qo'shiqlari* deyishadi. Allalar va etnografik mazmundagi aytim-olqishlar ana Shundayxarakterga ega.

Beshik qo'shiqlari chaqaloq uch yoshni to'ldirgunigacha aytilsa, ikkinchi guruhga mansub qo'shiqlar bola tug'ilganidan to 6-7 yoshga to'lgunigacha ijro etilsa-da, aslida ular beshik bilan bog'lanmagan onalik mehri tarovatidan bitilgan badihalardir. Bular *suyish qo'shiqlari* bo'lib, erkalamalar, ovutmachochlar, qiziqmachochlar va qaytarmachochlardan tarkib topgan.

II. Kattalar bolalarning tabiatga munosabatini shakllantirishda ham faol ishtirok etadilar. Buning natijasida bolalar taqvimini va uni ifoda etuvchi marosim qo'shiqlari yuzaga kelgan. Bahor, yoz, kuz, qish

mavsumlari bilan bog'liq bunday qo'shiqlarning bir qismi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot taqozosiga ko'ra kattalar repertuaridagi mavqeini yo'qota borib, yo tamoman so'nib ketgan, yo transformaciyaga uchrab bolalar repertuariga ko'chib o'tib saqlanib qolgan. «Boychechak», «Chittigul», yo ramazonlar va hayitliklar shular jumlasidan hisoblanadi. Qolaversa, ibtidoiy ajdodlarimizning animistik va totemistik e'tiqodlari asosida shakllanib, endilikda o'sha mohiyatini yo'qotgan **yalinchoq va hukmlagich** janrlari bolalar repertuarida hamon faol yashamoqda.

III. Bolalarning o'z ijodkorligi va ijrochiligi hosilalari bo'lgan qo'shiqlar va o'yinlar – o'zbek bolalar folklorining asosini tashkil etadi. So'z va harakatning nisbatiga ko'ra ularni ikki katta guruhga bo'lish mumkin:

1. Bolalarning maishiy qo'shiqlari.
2. Bolalarning o'yin folklori

QO'SHIQLAR

Bola tarbiyasida qo'shiqning roli juda katta. Qo'shiq lirikaning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lib, kuylashga mo'ljallangan bir necha bandli she'rdan iboratdir. Qo'shiqlar kuy-ohang bilan aytiladi. Ba'zan qo'shiq o'yin bilan birga ijro etiladi. Demak, qo'shiq uchun she'r va kuy kerak. Qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, «Alla» qo'shig'i yetakchi o'rinda turadi. Beshik qo'shig'i — allada kichkintoyning dastlabki tabassumi, ilk bor qo'l-oyoqlarini qimirlatishi, imo-ishorani tushunishi kuylanadi. Ona endigina olamga kelgan do'mbog'idan shod, xursand holda berilib alla aytadi. Garchand norasida allaning mohiyati nimadan iborat ekanligini hali uncha his etmasa-da, baribir ona alla aytaveradi. Ona o'z allasida atrofni qurshab turgan olamni qo'shib aytadi. Butun borliq kechasi uxlashi — dam olishi va shu jumladan, kichkintoyi ham uxlashi zarurligini berilib aytadi:

Yot, bolam, uxla, qo'zim,
Uylarda o'chdi chiroq.
Uxlar asalarilar,
Uxlar baliqlar tinchroq.
Ko'kda oy yarqiraydi,
Derazadan qaraydi.
Ko'zlaring yumgin, qo'zim,
Yot, quvonchim, qunduzim!

Alla, alla,
Suv sepganday, uylar tinch...
Qorong'ì hujralar tinch...
Hech darvoza tiq etmas.
Ko'zlaringni yum, qo'zim,
Ovunchog'im, qunduzim!
Alla, alla.
Qushcham g'amsiz yashaydi,
Uning har dam vaqti chog'.
Shirinliklar mo'l-u ko'l,
Ko'pdir qiziq o'yinchoq.
Bari sengadir, qo'zim!
Yig'lama, quvonchim, qunduzim!
Alla, alla.
Alla, alla, alla-yo.
Uxla qo'zim, alla-yo.
Yum ko'zingni, yulduzim,
Yum-yum ko'zingni, qunduzim.

Ona uchun bolaning ovunishi, tinchligi, tabassumi kerak. Norasida chehrasida paydo bo'lgan dastlabki kulgu ona uchun katta shodlik, bayram hisoblanadi, uning butun vujudini nurga burkab yuboradi:

Dilimdagi himmatim, alla,
Og'zimdagi novvotim, alla.
Daryo suvga to'layotir, alla,
O'g'lim menga kulayotir, alla.
O'g'lim menga qarab kulsa, alla,
Ko'nglim nurga to'layotir, alla.

Ovuntirish — allani hamma — onalar, buvilar, bobolar aytishadi. Alla asta-sekin ommaviy qo'shiqqa aylanadi. Qo'shiqlar uzoq yillar mobaynida davom etadi. Aytaylik, chaqaloqni birinchi bor beshikka solayotganda aytiladigan qo'shiqlarda, avvalo, beshikka ta'rif-tavsif beriladi. Aslida beshik yog'och-taxta. Paxta, par va matolar bilan burkanganda u yumshoq, har qanday murg'akka huzurbaxsh joy bo'lishi har bir beshik qo'shig'ida chiroyli ifodaga ega:

Beshigi taxta,
Orqasi paxta.

Egasi keldi,
Kuchugi qoch.
Ichida yotganning
Bahrini och.

Chaqaloq beshikda maza qilib uxlab, orom olib bo'lgach, norasidani beshikdan olayotganda aytiladigan qo'shiq ham nihoyatda muxtasar aytiladi. Oллоh beshikdagi chaqaloqqa xotirjamlikni ato etganligini, shu sababli hech qanday sharpa — dushman uning uyqusini buza olmaganligini quyidagi to'rtlikdan bilib olish qiyin emas:

Taqa-tuqi gavora bo'lsin,
Dushmanlari ovora bo'lsin.
Uyqusi beshikda qolsin,
Dushmani eshikda qolsin.

Xalqda chaqaloq uchun xavfli kunlar ham borligi qo'shiqlarda alohida ta'kidlanadi. To'qqiz kunlik bo'ldimi, tamom, u yashab qolishi, endilikda xavf-xatardan butunlay xoli bo'lib olganligi, do'st ustiga do'st orttirib, shu xonadonning haqiqiy a'zosiga aylanib qolganligi mana bu qo'shiqda to'la-to'kis ifoda etilgan:

To'qqizdan o'tdi bu bola,
Endilikda o'lmas bu bola.
Bog'larning g'o'rasi bu bola,
Bolalar jo'rasi bu bola.
Shu uyning to'rasi bu bola,
Shams-u qamar-u sitora,
Hamrohidir shu bola.

Xalq hayotda hech qachon shoshilmaydi, shoshqaloqlikka yo'l ham qo'ymaydi. Hamma narsa o'z o'rnida, o'z yo'lida bir me'yorda davom etishini orzu qiladi. Bu gapning tasdig'ini yangi olamga kelgan chaqaloq, u bilan bog'liq bo'lgan rasm-rusum misolida bilib olish ham mumkin. Mana, bolaning tishi ko'rindi. Bu voqea ota-ona uchun ham, shu oila a'zolari-yu butun qavm-qarindoshlar uchun ham katta voqea.

Bahor keldi, qish chiqdi,
Chaqaloqqa tish chiqdi.
Kichkintoy deb o'ylamang,
Unga ham yumush chiqdi.

Ovqatini chaynashga,
Har kuni bir ish chiqdi.

Xuddi shuningdek, bola tetapoya qilib, birinchi bor qadam tashlaganda aytiladigan qo'shiq ham juda jozibali:

Adoq-adoq yurisin,
Tikon shunga kirmasin.
Ko'zi qattiq bandalar,
Ko'zi shunga kirmasin.

Kiyim-lattaning umri qisqa, deyishadi keksalar. Bu gap xalq qo'shiqlarida ham o'z ifodasini topgan. Bolaga yangi kiyim kiydirilayotgan paytda aytiladigan qo'shiqlarda xalq gapning lo'ndasini aytib qo'ya qolgan:

Tepa-tepa to'zdiray,
Mingan otim o'zdiray.
Sen — bir yillik,
Men — yuz yillik.
Yoqasi moyli bo'lsin,
Etagi loyli bo'lsin,
Mayli, bir yilda to'zsin,
O'zi-chi, yuz yil kulsin!

Xalq qo'shiqlarida rasm-rusumlar rang-barang. Hammasi o'rinli. Hammasi zarur. Masalan, qizaloqning sochini ilk bor yuvib-taraganda aytiladigan qo'shiqlarda sochning uzunligi, qalinligi, ko'rsa-ko'rgudekligi, katta-kichikning havasini keltiradigan darajada ko'rkamligi obdon maqtaladi. Ayrim qo'shiqlarda sochning ta'rifi oy hamda quyosh bilan bog'lab kuylanadi. Baquvvat sochning uzunligi cho'zsa oy va quyoshga ham yetib borishi quvnoq misralarda ifodalanadi:

Oyda — quloq,
Kunda — tutam.
Senga — kuyov,
Menga — palov.

Shu zaylda beshik qo'shiqlari kenja avlod kamolotida o'ziga xos tarbiya rolini o'taydi. Kichkintoylar ota-onalaridan, bobo-momolaridan chiroyli, ta'sirli alla, qo'shiqlar tinglab, tillari biyron, o'ktam, ziyrak bo'lib ulg'ayar ekanlar endilikda o'zlari ham hayot yo'llarida qo'shiq to'qib,

qo'shiqlar qanotida o'sib-ulg'ayishga harakat qiladilar. Bunday qo'shiqlarning oliy namunasi «Chitti-gul» turkumiga kiradigan qo'shiqlar bo'lishi mumkin. «Chittigul»da mavzu nihoyatda rang-barang va juda jozibali. Chunonchi:

Oq sholiga ko'k sholi,
Oq sholini oqlaylik,
Ko'k sholini ko'klaylik,
Yaxshi kunga saqlaylik,
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul

«singari misralarga nazar soladigan bo'lsak, turi, rangini eslatish orqali sholi hosili juda mo'l bo'lganligini; bu mo'l-ko'l sholini pala-partish qilib yeb tamomlamasdan, balki uni ehtiyotlab, tejamkorlik bilan ishlatish darkorligi bolalar tilidan chiroyli tasvirlangan. Bugungi kunda tejamkorlik, iqtisod haqida bolalarga ko'p gapiramiz. Yuqoridagi qo'shiqdan ayon bo'lishicha, ota-bobolarimiz azaldan har bir narsani tejab-tergab ishlatishni o'z farzandlariga qattiq o'rgatib kelishgan. Endi mana bu misralarga razm soling:

Jo'xorilar bo'ldi oq,
Qo'nma, shum qorayaloq!
Agar qo'nsang, urayin,
Bo'lar oyog'ing cho'loq.
Ha-yu, huvv!

Ko'rinib turibdiki, kattalarning mehnati bilan jo'xori ekilgan. Bugungi kunda u hosilga kirgan. Agar jo'xori qo'riqlanmaydigan bo'lsa, qarg'a, quzg'unlar yeb ekinni barbod qiladi. Bu ish kenja avlod — bolaga topshirilgan. Bolaning g'ayrat-shijoati, ekinni saqlab qolish uchun urinishi, o'ylaymizki, bugungi bolalarga ham namuna bo'ladi. «Agar qo'nsang, urayin, bo'lar oyog'ing cho'loq» deyishi qaysi bolani kattalarning mehnatiga ko'maklashishga da'vat etmaydi deysiz!

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, qo'shiqlar bolalarning nafosatini o'stirishga, ularni hayot va mehnatga muhabbat, vatanparvarlik, do'stlik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

MAQOLLAR

Maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli soʻz, tanbeh, mashoyixlar soʻzi, donolar yoki donishmandlar soʻzi, oqinlar soʻzi va otalar soʻzi atamaları bilan el orasida yurgan bu janr namunalari gʻoyat ommaviy boʻlib, umumfolklor hodisasi hisoblanadi. Ilmiy taomilda esa maqol atamasi isteʼmoldadir. Maqol arabcha «qavolla» soʻzidan olingan va «aytmoq, soʻzlamok» maʼnolarini anglatadi. Xalq orasida «qavlida sobit» yoki «qavlida tutruqsiz» iboralari bor: birinchisida «soʻzida qatʼiyatli, bir soʻzli» maʼnolari anglashilsa, ikkinchisida «soʻzida turmaydigan, oʻz soʻzi ustidan chiqa olmaydigan, soʻzi bilan ishi bir boʻlmagan» maʼnolari ifodalangan. Binobarin, «maqol» soʻzi oʻzbek tilida ikki mahnoda, avvalo, oʻz lugʻaviy mahnosida «soʻz, nutq»ni anglatga, ikkinchidan, istilohiy maʼnoda folklorda keng tarqalgan janrni ifoda etadi.

Maqol, masal va naql janrlarining yuzaga kelishiga tahsir koʻrsatgan, masal va naqlning xulosasi, qissadan chiqarilgan hissasiga aylanganligi tufayli baʼzan masal va baʼzan naql istilohlari bilan ayqashib ketgan. Aslida esa «masal» soʻzi ham arabcha boʻlib, «oʻxshamoq» maʼnosini anglatga-da, oʻzbek tilida maqol va biror maqsadni izohlashga qaratilgan majoziy hikoya singari ikki maʼnoda qoʻllanadi. Biroq XX asrga kelib uni maqol maʼnosida istifoda etish cheklana borildi. Faqat tojik folklorshunosligida maqolni masal istilohi bilan atash qaror topdi.

«Naql» soʻzi ham maqol maʼnosida qoʻllansa-da, arabcha soʻz boʻlib, «koʻchirmok» maʼnosini anglatadi. Oʻzbek tilida esa «bayon qilmoq, hikoya qilmoq, rivoyat qilmoq» singari ikkinchi bir maʼnoga ega va xalq ogʻzaki nasrining mustaqil aforistik janrni ifodalovchi ilmiy istiloh sifatida qoʻllanadi. «Yaxshi naql-tomiri aql» maqolida «naql»-maqol maʼnosidadir.

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida ogʻzaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona axloq-odob qoidalari deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-madaniy, axloqiy-falsafaviy qarashlarining gʻoyat ixcham, loʻnda, siqiq va obrazli ifodasidan tugʻilgan hodisadir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki maʼlum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tugʻiladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm boʻlib yuzaga keladi. Har bir xalq maqolda oʻsha xalqning qalbi, milliy sajiyasiga xos qarashlari ifodalansa-da, ulardagi gʻoya umumxalqqa tegishlidir. Shu xususiyatlariga koʻra, maqollar ham milliy, ham umuminsoniy mohiyat kasb etganlar.

Maqollar insonlarning turli sohalaridagi faoliyatlari jarayonida uzoq muddatli sinovlardan o'tgan turmush tajribalarining hosilasi–barqaror va o'zgarmas, to'g'ri va haqqoniy xulosasi tarzida yuzaga kelgan.

Maqollar ham she'riy, ham nasriy shakllarda bo'lib, na lirik, na epik turga mansub. Shu sababli ular ham, topishmoqlar, irimlar va obrazli iboralar kabi paremik turga kiritilib, yozib olinishi va to'planib kitobat qilinishi *paremiografiyaga* daxldor bo'lsa, paydo bo'lishi, taraqqiyot tamoyillari va qonuniyatlari, badiiyati *paremiologiyada* o'rganiladi.

Maqollar shaklan ixcham bo'lsalar-da, badiiyatiga ko'ra yuksak obrazlilikka egadirlar. Ularda fikr sodda, tabiiy, ravon, silliq va tushunarli bo'lib, ta'sirchan ifodalanishi ehtiyoji turli narsalar, hayvonlar, o'simliklar va hodisalar obrazlaridan g'oyaviy-badiiy niyatni ifodalashda foydalanishni taqozo etgan. Natijada timsoliy obrazlar vositasida hayotdagi ijobiy yo salbiy voqealarga, insoniy munosabatlarga axloqiy baho berilib, hukmlar chiqarilgan.

Maqollar tuzilishiga ko'ra, bir va bir necha sintaktik butunliklar asosida tashkil topgandir. Bir sintaktik butunlikdan iborat maqollar, odatda bir qismli maqollar sanalib, ko'pincha darak gap yo'sinida bo'ladi: «Ayol tilini ayol biladi, «Arg'imchiga qil-quvvat», «Vatanni sotgan er bo'lmas», «Gavhar yerda yotmas», «Yomon it egasini qopar», «Ishni ishchandan o'rgan» kabi. Ko'p sintaktik butunlikdan iborat maqollar esa ko'p qismli yoki murakkab maqollar deb yuritiladi. Bunday maqollar bir-biriga o'xshash yoki zid fikrlar bayonidan iborat bo'ladi. Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan; bir qismi tasviriy mohiyatga ega bo'lsa, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir: «Aytmas yerda tilingni tiy, mehmonga borsang nafsingni tiy», «Bulbulning sayrashi guldir, mehr xazinasi tildir», «Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin», «Yolqitsa ham-yog' yaxshi, yondirsa ham-yoz yaxshi», «Ishonish bilan kasal bo'lsang –umid qilsang, tuzalasan» kabi yuzlab maqollarda ikkinchi qism zarbli va asosiy o'gitni ifodalaydi.

Maqollar jonli so'zlashuv tilida yaratilgan va shu taxlitda so'zlanadi. Aksariyati to'g'ri ma'nolarda qo'llansa, ma'lum qismi ko'chma (ramziy va majoziy) ma'no tashiydi: «Avval o'yla, keyin so'yla», «Yosh kelsa-ishga, qari kelsa-oshga», «Mehnat, mehnatning tagi rohat», «Vatani borning–baxti bor, mehnati borning–taxti», «Vataning tinch–sen tinch» maqollarida to'g'ri ma'no ustivor; «Dunyoni suv olsa–o'rdakka ne g'am?», «Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi» singari maqollar ko'chma ma'nolardagina hikmatlilik kasb etgan.

Maqollarda saj'lar faol bo'lib, o'ziga xos ichki qofiyadoshlikni yuzaga keltirgan va ularning ohangdoshligini ta'minlaydi.

Maqollarni tasnif qilishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud. Jumladan, alifbe tartibida, mavzulari, sinonimik yoki antonimik mohiyatiga ko'ra, to'g'ri yoki ko'chma ma'no tashishiga hamda qaysi ijtimoiy davrda yaratilganligiga-xronologiyasiga ko'ra guruhlash yo tasnif qilish paremiologiyada an'anaga aylangan. Ammo hozircha o'zbek maqolshunosligida alifbe tartibi va mavzusiga ko'ra tasnif qilish an'anasiga ikki jildlik «O'zbek xalq maqollari (1987) va ko'p jildlik «O'zbek xalq ijodi» ruknida «O'zbek xalq maqollari» (1989) to'plamini tuzishda amal qilingan. Shundayesa-da, o'zbek xalq maqollarini yozib olish tarixi ancha qadimiy bo'lib, ikki yo'nalishda davom etganini kuzatish mumkin:

Birinchi yo'nalish- **maqollarni jonli so'zlashuvda qanday aytilsa, shu holatida xalqdan yozib olish va kitobat qilish.** O'zbek xalq maqollarini ilk bor yozib olish va kitobat qilish XI asrning buyuk filologi Mahmud Qoshg'ariy nomi bilan bog'liq. U juda ko'p turkiy qabila va xalqlar orasida bo'lib, xalq ijodiyotining boshqa janrlariga mansub namunalari qatorida anchagina maqollarni ham yozib olib, «Devonu lug'otit turk» asarida darj qildi va shu asosda maqollarni kitobat qilish an'anasini ham boshlab berdi. Tubandagi maqollar shular jumlasidan bo'lib, ularni hozirgi nusxalari bilan yondosh berish asosida har biriga oid transformatsiya jarayoni hamda ma'no tovlanishlarini kuzatish mumkin: M. Qoshg'ariyda:

Kishi olasi ichtin,
Yilqi olasi toshutin.

Hozirgi nusxasi:

Mol olasi-toshida,
Odam olasi —ichida.

Maqol mazmunida hech qanaqa o'zgarish bo'lmasa-da, undagi sintaktik bo'laklar o'rin almashgan. Qadimiy o'zbekcha «kishi» so'zi arabcha «odam» va turkiy xalqlarning otga sig'inishi asosida qo'llangan «yilqi» so'zi umumlashtiruvchi ma'noga ega arabcha «mol» so'zi bilan almashgan. Bu eski o'zbek tili so'z boyligiga arablashtirish nechog'li kuchli ta'sir ko'rsatganini ayonlashtiradi. Shuningdek, o'rin-payt kelishigini ifodalovchi— «tin» qo'shimchasi «-da» bilan almashinib, tilning grammatik qurilishiga xos o'zgarishni namoyon etadi. Bunday holatni devondagi: «Tog' toqqa qovushmas, odam odam bilan qovushur», «Er so'zi-bir» maqollarini hozirgi «Tog' tog' bilan uchrashmas, odam

odam bilan uchrashar» va «Yigitning soʻzi bir boʻlar» nusxalari bilan qiyoslaganda ham kuzatish mumkin.

Oʻzbek xalq maqollarini yozib olish anʼanasi XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Shoirilar Muhammadsharif Gulxaniy va Sulaymonqul Rojiylar tomonidan davom ettirildi. Gulxaniy 400 dan koʻproq, Rojiy esa 450 tacha xalq maqolini toʻplab, oʻzlarining «Zarbulmasal»larida jamlab berganlar. Albatta, ular ilmiy maqsadlarni koʻzlab maqol yigʻmaganlar. Bunda, asosan, asarlarida xalqona jozibani kuchaytirish, personajlar tilini individuallashtirish va tabiiy, sodda ifodaviylikka erishishni nazarda tutganlar. Shunga qaramay, ularning bu xizmati oʻzbek paremiografiyasi tarixiy tadrijini koʻrsatishda ayricha ahamiyatga ega.

XIX asrning 2- yarmidan eʼtiboran oʻzbek xalq maqollarini ilmiy asosda yozib olish va nashr etish harakati izchil tus ola bordi. Venger olimi H.Vamberi 1867-yilda Leypsigda chop ettirgan «Chigʻatoy tili darsligi»ga 112 ta oʻzbek maqolini kiritdi. U bu maqollarni oʻzbek tilida arab alifbosida va lotincha transkripsiyada, soʻngra, oʻzi amalga oshirgan nemis tilidagi tarjimalari bilan eʼlon qildi va ilk bor oʻzbek xalq maqollarini Yevropa jamoatchiligi eʼtiboriga havola etdi. Vamberi eʼlon qilgan maqollar orasida «Ot oriqlikda-yigit gʻariblikda», «Aqlli kishi ikki marta bir toshga qoqilmas», «Ichda boʻlgan ogʻriqni kesib boʻlmas», «Qoʻling moyli boʻlsa, boshingga surt», «Tilidan kelgani qoʻlidan kelsa, hamma odam gadoy boʻlmay xon boʻlur», «Oshiqqan oshga shayton qoʻshilur», «Hayit otliniki, toʻy toʻnliniki» singari nodir namunalar borki, hanuzgacha biror toʻplamda uchramaydi. Keyingi maqol esa hozir «Toʻy kimniki-tegishliniki, hayit kimniki-barchaniki» shaklini olgan holda oʻzgargan. «Ichda boʻlgan ogʻriqni kesib boʻlmas» maqoli oʻz maʼnosida tushunilsa, yaʼni zamonaviy tibbiyot taraqqiyoti ichdagi har qanday ogʻriqli aʼzoni kesib, yamab va yangilab davolay olishi inobatga olinsa, eskirganligi ayonlashadi, biroq koʻchma maʼnoda qoʻllansa, unda inson ichki olamiga xos murakkab tuygʻular anglanadi va maqol hamon oʻz mohiyatini yoʻqotmagan holda xizmat qilaverishi ravshanlashadi. Missioner K. P. Ostroumov ham 1888 va 1890-yillarda chop etilgan «Sirdaryo viloyati» statistikasi uchun materiallar toʻplami»ning birinchi jildida –492 ta va ikkinchi jildida –628 ta, jami 1120 maqolni oʻzbek va oʻz tarjimasida rus tillarida eʼlon qilgan. U bu maqollarni bevosita oʻzi yozib olgan emas, balki rus-tuzem maktabi talabalari yordamida toʻplashga muvaffaq boʻlgan.

O'zbek xalq maqollarini to'plash va ommaga etkazishda 70-80 - yillarda jiddiyroq kirishildi. Bu sohadagi dastlabki ish E.Siddiqov tuzgan «Dengizdan qatralar» (1976) to'plami bo'ldi. Unda ikki mingdan ziyodroq o'zbek maqollari alifbe tartibida jamlangan edi. Bu davrda T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Madrahimova singari folklorshunoslar g'ayrati bilan 4 ming maqoldan tartib berilgan «O'zbek xalq maqollari» (1978, 1981 va 1984) to'plami yuzaga keldi. 13 ming maqolni o'z ichiga olgan ikki jildlik «O'zbek xalq maqollari» va «O'zbek xalq ijodi» ruknidagi ko'p tomlik tarkibidagi «O'zbek xalq maqollari» tomligi nainki o'zbek paremiologiyasi, balki folklorshunosligi tarixida ham muhim voqea bo'ldi. Nihoyat 1980 yilda Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmadovlar ilk bor o'zbek maqollarining izohli lug'atidan iborat «Hikmatnoma» asarini e'lon qildilar. Bu asarlar o'zbek xalq aforistik tafakkurining naqadar boyligini namoyish etdi.

Mumtoz she'riyatda irsol-ul masal san'ati ikki ko'rinishda yorqin jilolangan:

Birinchisi-xalq maqollarini she'riy asarlarda hech qanaqa o'zgarishsiz, asliyatda qanday bo'lsa, o'sha holatida aynan qo'llash holati.

Ayoqingga tushar har lahza gisu,
Masal borkim: «charog` tubi qorong`u»

Va yana:

Tutarman ko`zki ko`rsam orazingni,
Ki derlar: «Oqqon ariqqa oqar su.»

TOPISHMOQLAR

Qadim-qadim zamonlarda ham o'zbek xalqi o'z bolalarini kuchli, epchil, aqlli qilib tarbiyalashga katta ahamiyat bergan. O'sha paytlarda hali bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan maktablar yo'q edi. Ana shuning uchun ham xalq turli o'yinlar va boshqa vositalar o'ylab topgan. «Bekinmachoq», «Chillak»ka o'xshash o'yinlarda ishtirok etuvchi bolalarda chaqqonlik, epchillik kabi jismoniy hislatlar paydo bo'la borgan. Xo'sh, endi bolalarning zehni charxlash uchun nima qilish kerak edi? Topishmoq, jumboq singari aqliy o'yinlar ana shu savolga javob izlash jarayonida xalq tomonidan yaratilgan. Topishmoqlarning ham ijodkori xalqdir.

Yuzaki qaraganda kattalar bilan bolalar, bolalar bilan kattalar o'rtasida topishmoqlar aytish shunchaki bir ermakday tuyuladi, zerikmaslik uchun vaqtini tez o'tkazishga qaratilganday ko'rinadi. Aslida

esa topishmoqlar fikrning qayrog'i hisoblanadi, ular orqali bola obrazli fikrlaydigan va obrazli so'zlaydigan bo'ladi. Topishmoqlar bolaning so'z boyligining ortib borishiga, nutqining o'sishiga yordam beradi. Bolaga topishmoq topishni o'rgatish bilan unda fikrlashning asta-sekin o'sib, yuksalib borishiga erishiladi. Demak, xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va qiziqarli hamda keng tarqalgan janrlaridan biri topishmoqdir. Topishmoqlar insonning kundalik hayoti va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, hamisha real voqealikka asoslanadi. Ularda atrofimizni o'rab turgan moddiy dunyodagi turli narsa va hodisalar aks etadi.

Har bir topishmoq o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lgan mustaqil bir asardir. Unda falsafiy, tarixiy, etnografik belgilar, tushunchalar, hodisalarning mohiyati nihoyatda go'zal, obrazli ifodalar bilan aks ettiriladi. Bu janr ikki kishi yoki jamoa o'rtasida berilgan jumboqli savolga javob qaytarish tarzida ijro etiladi. An'anaviy topishmoqlarning savol qismi tabiat, tabiat hodisalari, umuman, har bir obektga badiiy tus berilgan holda obrazlashtirish, taqqoslash, o'xshatish orqali jumboqlanadi. Javob qismi esa obrazlar orqali jumboqlangan obekt-narsa yoki tabiat hodisalarining otini aytib berish, ma'nosini topib berish, yashiringan narsani topib berishdan iborat.

Shu narsa diqqatga loyiqki, har bir topishmoq turmush bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Topishmoqda atrofingizdagi narsalarning badiiy-estetik tomonlari, xalqning urf-odatlar aks etadi. Unda tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini yaxshiroq tushunishga katta yordam beradi.

Xalq og'zaki ijodining eng boy janrlaridan biri bo'lgan topishmoq ikki qismdan iborat bo'lib, topishmoqning asosiy qismi bo'lgan javob obrazlar orqali jumboqlangan obekt-narsaning otini ayitib berishdan iboratdir. Uning savol-jumboq qismi tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni, umuman, obektni badiiy tus berilgan holda obrazlashtirish, taqqoslash, o'xshatish orqali jumboqlashdan tashkil topgan. Topishmoqning jumboq qismi bilan javobi birlikda bir butunlikni tashkil etadi.

Topishmoq o'z ichiga borliqdagi hamma narsa va hodisalarni, ularning turli-tuman ko'rinishlarini qamrab oladi. Osmon, ko'k, quyosh, oy, yulduzlar, tabiat hodisalari; odam, uning a'zolari: hayvonot dunyosi; qushlar, hashorotlar; daraxt, har turli o'simliklar, meva, sabzavotlar; uy-ro'zg'or buyumlari; mehnat qurollari, umuman, narsalar haqida ko'plab topishmoqlar yaratilgan.

Zero, topishmoq hozirgi vaqtda ham o'zining g'oyaviy, tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgan emas. Hozirgi kunda ham har xil narsa va hodisalar haqida yangidan-yangi topishmoqlar yaratilmoqda. Topishmoqlar, ayniqsa, kichikintoylarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga, ularni muayyan bir fikrni badiiy tusda ifodalashga va ziyraklikka, topqirlikka o'rgatadi.

Yaxshi tarbiya - bolalarni istagan paytda ojizlarni himoya qilishga tayyor turuvchi insonparvar kishilar sifatida voyaga yetkazishdan iboratdir. Bolalikda bu – hayvonlarni himoya qilishdan, xatto, ninachilar, kapalaklar va gullarga rahmdil bo'lishdan boshlanadi.

Deylik, deraza oldida ikki bola turibdi. O'g'il bola-ikki yoshda, qiz esa to'rtida. Ular oynaga burunlarini taqagancha ko'chani tomosha qilishyapti. Oxiri ko'chaga qarash jonlariga tegib, oynaga urilayotgan kapalakni tutib olishdi-da, qanotlarini yulib tashlab, uning o'rmalashini tomosha qila boshladi. Ularga bu juda qiziq tuyulardi. Avval uchib yurgan edi, endi bo'lsa, o'rmalayapti.

-Dada, oyi, -deyishdi ular hayajonlari oshib-toshib. – Bu yoqqa kelib, mana buni ko'ringlar!

Ularning bu o'yiniga dadasining negadir qaragisi ham kelmadi.

- Kapalakning qanoti ham xuddi sizlarning qo'llaringizga o'xshaydi, - dedi u, –moboda, kuchli bir odam sizlarni ham kapalakka o'xshatib o'ynaganda yaxshi bo'larmidi? Hech kimning va hech narsaning jonini og'ritmaslik kerak.

Tabiiyki, bolalar nima qilishlarini bilmay, bir-birlariga tikilib qolishdi. Ana shunda ota jahlidan tushib, avval o'zi aytib bergan, bolalarning o'zlari o'qigan tabiatni - jonivorlarni, parranda-yu darrandalarni, qurt-qumursqalarni o'ldirmaslik, parvarish qilish, ko'paytirishdek vazifalarni ularning eslariga solsa va shu yo'sinda jozibali topishmoqlar aytishni boshlab yuborsa, ayni muddao bo'ladi.

Uy hayvonlari, jonivorlar orasida hamma uchun yaqini, suyuklisi, e'zozlisi sigir hisoblanadi. Har qanday holatda ham sigir oila boquvchisi, yordamchisi hisoblanadi. U parvarish qilinsa, o'z vaqtida o't-emi berib turilsa sut-u qaymoq bilan mehmon qilaveradi. Uning haqidagi topishmoq ham juda hayratlanarli:

Erta ketar laylixon,
Kechda kelar laylixon.
Turli-tuman bog'chalardan
Yig'ib kelar laylixon.

Bolalar uchun hayvonlar ichida eng qiziqarlisi tuya hisoblanadi. Bizning elimizda tuya o'troq hayvonlardan bo'lishiga qaramay, bu jonivor hamisha bolalarni o'ziga rom etib keladi. Uning o'rkachlari, tuyoqlari, og'zidan oq ko'pikni chiqarishi, yantoq yeyishi, suvsiz, o'tsiz bir qancha vaqt hayot kechirishi, kuch-quvvatda tengsizligi xalq tomonidan to'plangan ko'plab topishmoqlarda o'z aksini topgan. Tuyalar to'g'risidagi har qanday topishmoqni bolalar zo'r mamnuniyat bilan tinglaydilar va zukkolik bilan yechadilar:

- Bir qiziq hayvon-
Yelkasida tog'.
Fil emas ammo-
Izlari yalpoq.
Ipakdek mayin
Junlari yumshoq.
Bo'yni kamalak
Yemishi yantoq.
Yurar sahroda
Haftalab chanqoq.
Top-chi, Ruqiya
Bu nima?

Bolalar ayniqsa o'g'il bolalar otni ham yaxshi ko'radilar. Ular hamisha ot boqish, uni parvarish qilish, cho'miltirish, minish, o'z chavondozliklarini ot poygalarida, uloqlarda namoyish qilish fikri bilan yashaydilar. SHu ma'noda ot haqidagi mana bu jumboqni ham osongina yechib oladilar:

To'rt oyoqli,
Temir tuqli.

Uy hayvonlari va jonivorlari ichida qo'y o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U nihoyatda nozikta'b bo'ladi. O't-emini haddan tashqari saralab yeydi. Hatto, har qanday o't-maysani bir tishladimi, tamom, ikkinchi marta unga qayrilib qaramaydi ham. Bu xususiyat xalq maqolida to'la o'z aksini topgan:

Kishi ko'rsa kishnamas,
Yerdan cho'p tishlamas.

Topishmoq-jumboqni hamisha aqlli, esli-hushli, bilimdon, dono bolalar yecha oladilar. CHunki har bir topishmoqda kishini o'ylantiradigan, chuqur xayolga-o'yga boradigan jihatlar mavjud bo'ladi. Yo'lbars to'g'risida to'qilgan quyidagi topishmoq xuddi shu haqida bahs yuritadi:

Man-man, maniki,
Har tirnog'i o'n ikki.
Qildan ola to'ni bor
Quyrug'ida xoli bor.
Uni topgan yigitning
Aqlining koni bor.

Parranda va qushlar haqida yaratilgan minglab topishmoqlar bolalarni har doim o'ziga tortib keladi. Bular orasida xo'rozning xatti-harakati, o'zini tutishi, qanotini qoqib, bo'ynini cho'zib "qu-qu!" deyishi qaysi bolaning fikrini o'ziga tortmaydi deysiz:

Bir qo'shnim bor avval boshdan,
Soqoli uning qizil go'shtdan.
Faqat turib shovqin solar,
Xabari yo'q hech bir ishdan.

Mehnatkash xalq tomonidan to'qilgan ayrim ertak, rivoyatlarda ba'zan jonivorlarning kulgili tomonlari ochib beriladi. Bir rivoyatda to'rt xil jonivorning hayotda qo'rqqoligi kulgiga olinganligini ko'ramiz. O'shalardan birinchisi – chittak qush, osmon yiqilib ketishidan qo'rqib, oyog'ini osmonga ko'tarib yotadi; ikkinchisi-laylak, ikki oyog'ini qo'ysa yerga botib ketishidan qo'rqib, doim bittasini ko'tarib turadi; uchinchisi-chuvalchang, ko'p loy yesam yer tugab qoladi, deb qo'rqib och yuradi; to'rtinchisi – ko'rshapalak, inson uning go'zalligiga maftun bo'lishidan va boshqa qushlar kabi tutib qafasga solishidan qo'rqib kunduzlari uyasidan chiqmaydi.

Ma'lumki, qushlar orasida laylak bolalar qalbiga yaqin turadi. Xalq qo'shiqlarida, ertak, rivoyatlarida go'yo u bahorni-yozni boshlab keladigan qush sifatida qaraladi. Bolalar laylak haqida yaratilgan quyidagi topishmoqda keltirilgan jumboqni hech qiynalmay yechib oladilar:

Uzun-uzun yelgan qush,
Inda yotgan ilonni
Fol ko'rganda bilgan qush.
Bo'ynin quloch uzatgan,
Tumshug'i bilan putini
Qaysi avliyo qizartgan.

Biz yuqorida topishmoqlarning mavzui juda rang-barang ekanligini aytgan edik. Buni ari, kapalak, chigirtka, qo'ng'iz, chayon, chumoli, o'rgimchak, pashsha, chivin kabilar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bular orasida kechasi-yu kunduzi ishlab charchamaydigan, o'zaro ahil

chumolilarga bag'ishlangan topishmoqlarning o'ziyoq fikrimizga asos bo'ladi

-Yerdagi jonivorlarning,
Eng kichigi, mittisi.
Dalaga chiqar uydin,
mehnatdan,
Kelsa bahorning isi.
Tizilishib barchasi,
Mehnatga tushar shaxdam.

Tashir ushoq, donu has.
Zahmatkashdir bilmas dam.
Yashash zavqin

Ekanligin biladi.
O'ngu-so'lga yugurib,
Tolmay mehnat qiladi.

Topishmoq janri yozma adabiyotning rivojiga ham barakali hissa qo'shgan. Chunonchi, Cho'lpon, A.Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Qudrat Hikmat, Anvar Obidjon va boshqa qalamkashlar tomonidan yaratilgan nazm va nasrda o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. Masalan, G'.G'ulom "O'ylashni o'rganamiz", "Buni toping, qizlarim" asarlarida topishmoq janrini yuksak qadrlaganini ko'ramiz. CHunonchi, "Buni toping, qizlarim" topishmoq asari kichikintoylarning ong, tushuncha, fikrlarini rivojlantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi:

-To'ni silliq tuki yo'q	-Malla tukli sap-sariq,
Hammasi to'q, po'ki yo'q,	Murobbosi mazali.
Ichi qizil, ko'ki yo'q,	Palovga bossa bo'lar
Uni cho'qolmas chumchuq,	Podvalga ossa bo'lar,
Bu nima, qizim Qunduz?	Tishlab ko'rib, ayt, Mehri.
-Bumi, dadavoy? Tarvuz.	-Bumi, dadavoy, behi.
-Marjon-marjon yumaloq	Mayda yoqutday qizil
Yaproqlari shapaloq,	SHirin, nordon, xilma-xil,
Qora, qizil, sariq, oq,	Qalin, taxir po'sti bor.
Yeb ko'rmasdan o'ylab boq.	Hamma yerda do'sti bor.
Sen ayt, Mamlakat qizim	Sen ayt-chi qizim, Gulnor
Bumi, dadavoy, Uzum.	Bumi, dadavoy, Anor

Yuqoridagi sharhlardan ko'rinadiki, bola topishmoqsiz o'smaydi. U kattalar, bolalar davrasida ko'plab fikrlar qayrovi-jumboq tinglaydi, o'zi ham qatnashadi va yechadi. Bu esa uning kelajakda o'ziga pishiq-puxta, aqlli, zakovatli inson bo'lib kamol topishi uchun mustahkam zamin bo'ladi.

Topishmoq ham xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va boy janrlaridan biridir. Topishmoqlar, odatda, xalqning urf-odatları, ruhiyati

hamda axloqiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Topishmoqda narsaning bir necha xil belgilari yashirin, sirli holda beriladi va har bir topishmoqning zamirida topilishi lozim bo'lgan bir ma'no va «kim?» «nima?» so'roqlarida yashirin javob yotadi. Odamlar shu so'roqlarga qarab, topishmoqda yashiringan narsani topishga harakat qiladilar. Ayniqsa, bolalar topishmoqdagi jumboqni bilishga, uni topishga juda qiziqadilar.

Topishmoqlar mavzusi tabiat va kundalik hayotda uchrab turadigan aniq hodisa va narsalardan iborat bo'ladi. Odatda, topilishi lozim bo'lgan narsa yoki hodisaning biror belgisi taqqoslash yo'li bilan obrazli ifodalanadi. Masalan, «Er tagida oltin qoziq, u hammaga bo'lar oziq». Bu topishmoqda sabzining tus jihatidan oltin rangiga yaqinligi, shaklan qoziqqa o'xshashligi, uning tuproq ostida bitishi va tanovul qilish mumkinligi eslatiladi.

“Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor” topishmog'ida pak-pakana bo'yi, yetti qavat to'ni kabi belgilar piyoz ekanligini ko'rsatib turadi. “Dum-dumaloq, jajji oy, chaqib yesang g'ij-g'ij moy» topishmog'ida dum-dumaloq, chaqsang — g'ij-g'ij moy kabi belgilar uning yong'oq ekanligiga ishoradir.

Ba'zi topishmoqlar narsaning bajaradigan vazifasiga, harakatiga, uning nimadan yoki qanday ishlanganligiga qarab, shu xususiyatlar asosida yaratilishi mumkin:

«Qo'li yo'q, oyog'i yo'q, uy poylar» (qulf).

Topishmoqlar ko'proq istiora asosiga qurilgan bo'lishi mumkin: “Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi» (Quyosh, oy, yulduzlar).

Mubolag'a yo'li bilan yaratilgan topishmoqlar ham anchagina: “Bir chuqurda ming chuqur” (angishvona). „O'zi bir qarich, soqoli ming qarich» (ip-igna).

Ba'zi topishmoqlar so'zlarning ohangdosh bo'lib kelishiga asoslanadi: “Zuv-zuv borar, zuv-zuv kelar, doston o'qir, g'alvir to'qir» (ari). «Osti tosh, usti tosh, o'rtasida jonli bosh” (toshbaqa).

Topishmoqlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti rivojlanishi bilan o'zgarib boradi, yangi-yangi ma'no va mazmun ifoda etadi.

Bolalarning fikr doirasini kengaytirishda, aql-idroklarini rivojlantirishda, kuzatuvchanlik hislarini, nafosat tuyg'ularini o'stirishda topishmoqlar muhim rol o'ynaydi.

MASAL

Kichkintoy tarbiyasi juda muhim va o'ta mas'uliyatli va nozik ishlardan biri hisoblanadi. Buning uchun bolalarni o'z tuyg'u va o'y-xayollari dunyosiga olib kirish lozim. Bu yo'lda ota-onaga, buvi-boboga, tarbiyachiga masal juda qo'l keladi. Masal bola aqlining rivojiga, qiziqishiga boy imkoniyatlar ochib beradi. Ko'p masallar yordamida bolalarning go'daklik chog'laridanoq adolatparvarlik, do'stlik, o'rtoqlik tuyg'ularining shakllanishi, ularning tabiatga, hayvonot olamiga mehr-muhabbatlarining oshishi uchun keng yo'l ochiladi. Chunki ular kamol topar ekanlar masal eshitadi. Har bir masaldagi yaxshi-yomonni, gunoh-savobni bilib, mag'zini chaqib, tushunib o'sadilar. Bu esa, ularning kelajagida oqko'ngil, mehnatkash, ota-onaga, ona-Vatanga, hayvonot olamiga muhabbatli bo'lishlari uchun ko'prik vositasini ado etadi.

Masal eshitib, tinglab o'sgan har bir inson kelajakda albatta, o'ylab, chamalab, aql bilan ishkora'digan qissadan hissa chiqaradigan bo'ladi. Masallar ko'proq hayvonlar, jonivorlar, parranda-yu darrandalar, o'to'lanlar misolida bo'ladi. Vaqti kelganda bular ustidan kulinadi, xulosalar chiqariladi. Masallar og'zaki, yozmada nasr va nazmda bo'ladi. Masalda ko'pincha axloqiy-ta'limiy fikr va ma'nolar ifodalangan bo'lib, ana Shundaykichik epik asarlar masal deyiladi.

Xalq og'zaki ijodining bu janri ham alla-qo'shiq, topishmoq, maqol kabi odamga xizmat qiladi, uni o'sib – ulg'ayib komil inson bo'lishi uchun yordam beradi. Zero, insonni hayvondan ajratadigan xossalardan bir nechtasi: aql, odob, tarbiya, so'zlash quvvati va tilidir. Inson aqli, zehni bilan yaxshi va yomonni, foyda va zararni ajrata oladi. Aql- inson rohatining madoridir.

Bir donishmand: "Aqling bilan qara, ko'z xoindir, qalbing bilan eshit, quloq yolg'onchidir", degan ekan. Aql- ra'yining haqiqiy o'lchovi, fikr esa aqlning ko'zgusidir. Inson bir ishga kirishar ekan, eng avval u ishni aql kabi adolat o'lchovida o'lchab, keltiradigan foyda yoki zararni o'ylab, so'ngra u ishga harakat qilishi lozimdir. O'zi uchun uncha tushunmagan, bu haqida shu ishni yaxshi tushunadigan, tajribakor maslahatini olish tavsiya etiladi.

Go'zal hislatlar-aql va kamolning bir nishonasidir. Go'zal axloq ham aqlning kamolga erishganmidan dalolat beradi. Bir majlisda hechkinga so'z bermay so'zlayvermaslik, nodonning so'zlariga sukut bilan javob berishlik sog'lom aql oldida har inson uchun g'olibiyat va sadoqat bo'lib, uning aksi esa pushaymonlik va tubanlikdir.

Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, hayotda beaql, o'ylamay, o'ziga o'zi xulosa chiqarmay yashaydigan odamlar ham bo'ladi. Ayniqsa, do'st, o'rtoq tanlashda oqizlari ham bo'ladi. Tag-tubini so'rab-surishtirmay, kasb-korini bilmay, fe'l-atvorini o'rganmay turib do'st bo'ladiganlar, albatta, quyidagi rivoyatda aks ettirilganidek, o'zini o'zi nobud qiladi, halok etadi.

Bir bog'bonning tog' yaqinida g'oyatda latofatli dilkusho bog'i bor edi. Bog'bon o'sha bog'ida umr kechirardi. Bir kuni zerikib bog'dan tashqariga chiqdi, tog' etaklarini tomosha qilib yurdi, shu vaqt yuksaktog'lardan quyiga tushga bir ayiqqa uchradi. Ular bir -birlariga ulfat bo'ldilar. Ayiq o'sha bog'bonning suhbatiga ko'ngil berdi, u bilan birga bog'ga keldi. SHirin mevalardan yeb do'stligi mustahkam bo'ldi.

Mabodo bog'bon soya-salqin joyda dam olib uxlab qolsa, ayiq uning yonida o'tirib, pashshalarni qo'rardi. Bir kun bog'bon uxlab, ayiq pashshalarni qo'rib o'tirgan edi, pashshalar bog'bonning yuz-ko'ziga hujum qilishdan to'xtamadilar. Bir tarfdan quvlasa, ikkinchi tomondan yopirildi. Ayiq ularning hammasini birdaniga o'ldirish fikriga tushdi. Pashshalar bog'bonning yuz-ko'ziga yopirilib qo'ngan vaqtini poylab turib, bog'bonning boshiga xarsang tosh bilan bir tushiribdi, bog'bonning boshi majaq-majaq bo'lib ketdi. Pashshalarga ziyon yetmadi, ular uchib ketdilar.

Hissa: Nodonning do'stligi ham ayiqning do'stligiga o'xshash bo'ladi, har kim nodonni o'ziga do'st deb hisoblasa, bog'bonning holiga tushishi mumkin.

Bayt:

Al'amon, yuz al'amon, nojinslardan al'amon,
Yaxshi ulfatlar bilan bo'lg'il hamisha, ey javon!

Inson hayotida qancha oddiy, sodda, o'z ishiga pishiq, puxta bo'lsa, katta-yu kichiklarga, bemorlarga mehribon, rahmdil bo'lsa, o'shanda insonning hayotda obro'-e'tibori olamcha bo'ladi. Aksincha, takabbur bo'lsa, odamlarni ranjitsa, dillariga ozor beradigan bo'lsa, jonivorlarga rahm-shafqat qilmaydigan bo'ladi, tez orada jazosini topadi. Xalq bunday takabbur, o'z manfaatini o'ylabish ko'radiganlarni ham xush ko'rmaydi. Bu qaytar dunyoda sen kimga ozor bersang, ranjitsang, joniga qasd qilsang, odamlarning qarg'ishiga, Ollohning qahriga uchraysan, hayoting davomidayoq o'z jazoyingni olasan degan gap yuradi. Bunga yorqin misol "Kalila va Dimna"dagi mana bu masaldir:

Bir kuni Qoraquloq o'rmon chetiga chiqib o'tirgan edi. Bir sichqonning jahdu jadal bilan daraxt tomirini kemirayotganini ko'rib qoldi.

Daraxt tilga kirib unga dedi: -Ey dilozor va sitamkor! Nima uchun jonim rishtalarini kemirayapsan?

Sichqon uning nola-yu zoriga e'tibor bermay o'z ishini davom ettiraverdi. Nogoh bir burchakdan bir ilon chiqib, sichqonga hamla qildi va bir damda yutib yubordi. Qoraquloq bu voqeadan "dilozorning jazosi ozor ekan", degan xulosa chiqarib oldi.

SHu vaqt bir tarafdin tipratikon kelib ilonning dumini tishladi-yu, boshini ichiga tortib g'ujanak bo'lib oldi. Ilon jahl bilan unga o'zini ura boshlagan edi, a'zoyi badanini tikanlar pora-pora qilib yubordi. Ilon o'sha zahoti o'ldi. Qoraquloq bundan ibrat darsi oldi. Ilon o'lgach, tipratikon boshini chiqarib, uning yaxshi-yaxshi joyidan tanlab yedi. Qorni to'ygach, daraxt soyasida koptokdek bo'lib yumalab, huzur qilib yotgan edi, nogoh bir och tulki kelib qoldi. Tipratikonning nayzalaridan qo'rqib, uni hiyla bilan o'ldirmoqchi bo'ldi. U tipratikonni ag'aratib qorniga yozildi. tipratikon yomg'ir yog'ayapti shekilli deb o'ylab boshini chiqargan ham ediki, tulki bir hamla bilan uni cho'rt uzdi. Bo'shashib, qorni ochilib qolgan tipratikonni ishtaha bilan yeb oldi. SHu vaqt bo'riga o'xshagan bir vaxshiy it kelib tulkini turgan yerida bo'g'ib, uning go'shti bilan ochligini qondirdi.

Qoraquloq bu ajoyibotlarni ko'rib, hayron qolib yotar edi.

It endi dam olishga hozirlik ko'rayotganda bir qoplon kelib, uning siynasidan oldi. Qoplon hali itni yeb tugatmagan ham edi, ovchi kelib, bir o'q bilan jo-bajo qildi. Qoplonning joni hali uzilmagan edi, u yerdan bir otliq o'tib qoldi, unga qoplonning terisi yoqib qolib ovchi bilan urisha boshladi. Qilich solib, ovchining boshini tanasidan judo qildi va qoplaning terisini olib yo'lga tushdi. U yuz qadam ham yurmagan edi, oti qoqilib, yerga yiqildi, gardani sinib, u shu on halok bo'ldi.

Bolalarga Shundayta'lim-tarbiya berish kerakki, ular o'sib-ulg'ayganlaridan keyin aslo kibr-havoga berilmasliklari, maqtanchoq bo'lmasliklari lozim. Ochko'zlik, ta'magirlik, maqtanchoqlik, o'zini katta tutish yaramas odatlardan hisoblanadi. Kimki shu yo'ldan borsa, albatta, u el-yurt orasida obro'-e'tiborini yo'qotadi, xorligu zorlik bilan halok bo'ladi.

Hammaga ma'lumki, chumoli juda mehnatkash bo'ladi. U kechasi-yu kunduzi harakatda bo'ladi, ishlaydi. Uning o'zgalar bilan suhbatlashishga, dam olib o'tirishga vaqti yo'q. U hamisha shoshiladi.

Qish g'amini yozda ye maqoliga qat'iy amal qiladigan chumoli o'ziga ovqat qidiradi, topadi, uyiga tashiydi, sudraydi. CHumoli ertani o'ylaydi, ovqat yig'adi, bu bilan o'z uyida bolalarini, keksalarini, yordamga muhtoj bemorlarining qornini to'ydiradi, boqadi. Ari esa buning teskarisi. Kunlardan bir kuni arining ko'zi zo'r mashaqqat bilan iniga don sudrab borayotgan chumoliga tushib qoldi. Yengiltak, maqtanchoq, tamagir, surbet ari:

- Ey chumoli! O'zingni bu qadar azobga qo'yishingdan muddao nima? Bu baloni ne sababdan ixtiyor qilding? Mening hayotim, yeb-ichishimga qarab ish tutsang bo'lmaydimi? Podsholar dasturxonidagi har qanday taom mensiz yeyilmaydi. SHamolni minib uchaman, istagan yerga qo'naman, nayzamni yovning jigoriga sanchaman. Xullas, nimani ko'nglim tusasa shuni yeyman, -dedi.

Yuqorida eslatib o'tilganidek, bunday maqtanchoq, bosar-tusarini bilmay qolganlar, odatda, hayotda qoqiladilar. Yo halok bo'ladilar. Yoki xalq orasida obro'-e'tiborini yo'qotib yolg'izlanib qoladilar. Maqtanchoq, o'ziga ortiqcha erk bergan, chumolining ustidan kulgan ari bir parvoz bilan to'g'ri qassobning do'koniga mixga osib qo'yilgan go'shtga qo'ndi. Qassob qo'lidagi pichog'i bilan uni mo'ljalga oldi va nimtalab tashladi. SHu yerda poylab turgan chumolilar esa uni sudrab ketdilar.

Bolalarni shundaytarbiyalash lozimki, ular kelajakda sog'lom fikrli, halol, pok insonlar bo'lib o'smoqlari kerak. Qachonki, bola ishlamay, peshona teri to'kilmay topgan narsalardan hazar qiladigan, o'zgalar mulkiga ko'z olaytirmaydigan bo'lib o'ssalar, bundaylar kelajakda haqiqiy insonlar bo'ladilar. Demoqchimizki, bola mehnat qilib, mehnatga ko'maklashib o'ssin. Axir mehnat insonga baxt-saodat keltiradi. Yalqovlik va ishsizlik esa falokat girdobiga yetaklaydi.

Hayotda shunday. Jamiki jonzot o'ziga do'st, o'rtoq, hamkor qidiradi. Do'stga butun ixtiyorini beradi, sirini, yurak dardini aytadi. Do'stga ishonib, unga suyanib, undan ko'mak olib yashaydi. Kerak bo'lsa, do'sti uchun qon yutadi, jonini beradi. Do'stliknig qoidasi, sharti shunday. Arslon bilan kuchuk voqeasiga bag'ishlangan bir asarda do'stga sadoqat, vafodorlikni nafaqat odamlar o'rtasida, balki hayvonlar olamida ham borligini ko'ramiz.

London hayvonot bog'i tomoshabinlardan pul yoki yirtqichlar uchun yemish sifatida it, mushuk olinar edi.

Bir odam hayvonlarni ko'rmoqchi bo'ldi va ko'chadan bitta kuchukchani tutib keltirdi. Uni tomoshaga qo'yishdi, kuchugini esa yemish o'rnida arslonga tashlashdi.

Kuchukcha dumini qisgancha qafas burchagiga borib suykaldi. Arslon unga yaqinlashib, hidlab ko'rdi.

Kuchukcha chalqancha yotib, panjasini ko'tardi va dumini likillatdi. Arslon kuchukka tikilib qoldi, kallasini o'girib, atrofga alangladi va o'ljasiga tegmadi.

Xo'jayin qafasga go'sht tashlagan edi, arslon bir bo'lagini uzib olib, kuchukchaga berdi.

Kechqurun arslon uxlash uchun yotganda kuchukcha uning yoniga cho'zilib, kallasini panjasiga qo'ydi.

SHundan buyon kuchukcha arslon bilan bitta qafasda yashay boshladi, arslon unga tegmadi, yemishini yeb, kuchukcha bilan uxlar, birga o'ynar edi.

Bir kuni bir odam tomoshaxonaga kelib, kuchukchasini tanib qoldi: u kuchukcha o'ziniki ekanini aytib, xo'jayindan qaytarib berishini so'radi. Xo'jayin qaytarmoqchi bo'ldi, ammo kuchukchani arslon qafasdan chiqarmadi.

Shundayqilib, yil bo'yi arslon bilan kuchukcha bir qafasda yashadi.

Keyingi yili kuchukcha kasal bo'lib o'lib qoldi. Arslon yemishga ham qaramas, kuchukchaga panjasini qo'yganicha hidlagani –hidlagan edi. Arslon kuchukchaning o'lganini bildi-yu, junlarini hurpaytirib sakradi, dumi bilan o'zini savalay ketdi, qafas devoriga urildi va polni, eshik zulfini g'ajiy boshladi. U uzzukun o'zini qafasga urib na'ra tortdi, so'ng jonsiz kuchukcha yoniga cho'zilib, jimib qoldi.

Xo'jayin arslon dardini unutar deya qafasga boshqa kuchukchani qo'yib yubordi, ammo arslon uni shu zahoti tilka-pora qilib tashladi. Keyin o'lik kuchukchani panjalari bilan quchoqlagancha besh kun qimirlamay yotdida, oltinchi kuni u ham o'lib qoldi.

Bunda arslon haqiqiy do'stlik yo'lini tutdi, chin do'stlik namunasini ko'rsatdi.

Bu yerda yana bir narsani ham ta'kidlab o'tish lozimki, masal janri nafaqat og'zaki, balki yozma adabiyotda ham mavjud. Masal janriga doir namunalarni Navoiy, Gulxaniy, Muqimiy, Zavqiy, Avloniy, Hamzalar ijodida ko'plab uchratish mumkin.

Inson olamga kelar ekan o'qishi, ilm olishi, kasb-hunar egasi bo'lishi lozim. Agar inson o'qimasa, o'rganmasa, bilmasa hayotda moddiy va ma'naviy tomondan qiynalib, bir parcha nonga xoru-zor bo'lib xaroblikda umr kechiradi.

Hatto kasb hisoblanmasa-da, bir o'tinchi odam o'tin yig'ib, tashib, sotib, bola-chaqa boqib yursa-yu, shu ishni ham tark etsa, bunday

insonning tirikchiligi o'tmay qoladi, bola-chaqasini boqishga qurbi yetmay sarson-sargardon bo'lib, ishsiz qoladi, ochlik, yupinlikka giriftor bo'ladi. O'tmishda ikki qalin do'st o'tinchilik qilishar, o'tinni eshakka yuklab shaharga olib kelib sotishardi. Ular shu tariqa halol tirikchilik qilib kun kechirar edilar. Ikki do'st qora kunlari uchun biroz pul ham jamg'arib qo'yishdi. Kunlardan bir kun o'z kasbining qadriga yetmagan, farosat bobida no'noqroq ikkinchi do'st birinchisiga dedi:

-Og'ayni, odamlarga bir nazar tashla, hammasi jon koyitmasdan rizq topib yuribdi, nega biz o'zimizni bunchalik qiynaymiz. Kel, do'stim, bundan ko'ra biror zahmatsiz ish bilan shug'ullanaylik.

Aqli va tajribali og'ayni Shunday deb javob berdi:

-To'g'ri aytasan, hamma odam o'z rizqini topib yuribdi. Lekin har kim o'z kasb-hunari bilan mashg'ul. SHuning uchun hayotimiz bir yo'sinda tartibli o'tayotir. Biz odamlarga o'tin yetkazib beramiz. Ular bizga non tayyorlab berishyapti. Mabodo, biz o'z kasbimizni tashlasak, bundan ming bad og'ir kunlarga giriftor bo'lamiz.

Johil o'rtog'i o'z donishmand og'aynisining bu hikmatona gaplariga quloq solmadi. Eshagini sotib, pul jamg'armalarini oldi-yu, kasb-kor axtarib bozorga yo'l oldi. Biroq hech qanday kasb-kordan xabardor bo'lmagani uchun tez kunda bor pulini sarf qilib nochor ahvolga tushib qoldi. Uning o'rtog'i esa avalgidek kasb-korini qilar, o'tinlarni sotib, asta-sekin pul to'plardi. U kasb-hunar o'rganishga ahd etib uzoq tahsil ko'rdi. Mohir kosib bo'lib elga tanildi.

Hissa: Hech bir inson o'z kasb-koridan shikoyat qilmasligi va tahsil ko'rmay boshqa kasbning sohibi bo'lishga intilmasligi zarur. Zero, barcha kasb-hunarlarda aziz, xalq ehtiromiga loyiq insonlar bor. SHuningdek, har bir kasb-hunarda manfur, odamlar nafratiga duchor bo'lgan kimsalar ham bor. Bilgan hunaringni tashlab, bilmagan hunaringga qo'l urish oldingdan oqqan suvning qadrini bilmay, cho'lda suv axtarmoq bilan barobardir.

Ha, yuqorida berilgan masallarni o'qigan, uqqan har bir kitobxon o'ziga tegishli xulosa chiqarib oladi, kelajakda sog'lom fikrli, kuch-qudratli, o'qimishli inson bo'ladi, degan umiddamiz.

TEZ AYTISH

O'zbekistonning turli joylarida «tutal», «chalg'itma», «chalg'ituv», «chalish», «adashish» deb yuritiladigan bu folklor hodisasi keng tarqalgan. Tez aytish istiloh sifatida janrning birgina xususiyatini-bir nafasda shiddat bilan aytilishinigina ifoda etsa-da, tez aytishdan

kuzatiladigan maqsad nimaligini anglatmaydi. Shundaycheklanganlikka egaligiga qaramay, ruscha «skorogovorka» istilohining tarjima ekvivalenti sifatida ilmiy taomilga singib ketgan.

O'zbek tilida mavjud turli atamalarda tez aytishdan kuzatiladigan ikki maqsad bo'rtib ko'rinib turadi: birinchisi-tez aytishdan murod-chalg'itish, so'zda chalish yoki adashish deyilishi boisi shundan. Ikkinchisi-tez ayta turib chalishish-tutilishga teng. Shu sababli tutal deyilgan. Biroq chalg'itish ham, chalishish ham, adashish ham, tutilish ham o'xshash tovushlardan iborat so'zlar, aniqrog'i, alliteraciya zamiridagi so'zlar qatorini shiddat bilan bir nafasda aytish negizida voqe bo'lganligi tufayli tez aytish etakchi xususiyatga aylanib, folklor hodisasini ifodalovchi istiloh darajasida barqarorlik kasb etgan.

Tez aytishlar aslida kattalar og'zaki ijodiga xos bo'lsa-da, mohiyatan bolalar nutqidagi kemtikliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Bolalar tez aytish vositasida o'z ona tillaridagi tovush va so'zlarni ravon, burro, ochiq talaffuz etishni, tovushlarning ohangdorligini, so'zlarning nozik ma'no tovlanishlarini his va idrok qilish, anglash hamda ilg'ab olishni mashq qiladilar. Shu ma'noda ular tovush va so'z ustidagi poetik-mantiqiy mashqlar hisoblanadi.

Tez aytishlar bolalar ma'naviy ehtiyojlariga mosligidan ularni tezgina o'zlashtira borganlar, asta-sekinlik bilan o'zlari ham ularning bir qator engil va oddiy namunalarini ijod qila boshlaganlar. Natijada davrlar o'tishi bilan tez aytishlar bolalar folklori arsenaliga o'tib qolgan. Zotan, tez aytish nutq tovushlari alliteraciyasiga asoslanuvchi folklor janri bo'lib, o'xshash tovushli so'zlar yoki so'z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi jarayonida u yoki bu tovush yo so'z talaffuzida chalg'ish natijasida voqe bo'luvchi ma'no o'zgarishi negizida yuzaga keladi. Shu xususiyati tufayli o'tmishda tez aytish kattalar repertuarida uchragan va aksariyat holatlarda parnografik xarakterga ega bo'lgan. Bora-bora katta yoshli bolalar va o'smirlar repertuariga ko'chgan, ular bu xildagi tez aytishlarni o'yin shartiga aylantira borishgan, kim uni to'g'ri aytolmasa, chalishsa, o'sha yutqizgan sanalib, g'oliblar qo'ygan shartni bajargan yoki o'yinda navbatda (galda) turgan. Tez aytishlar orasida 34, hatto 47 so'zli namunalari borki, ularni aytishda 7-12 yoshdagi bolalar nafasi etmaydi. Binobarin, aytish mumkinki, XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida katta yoshdagi bolalar repertuariga o'tish jarayonida tez aytishlarda parnografik xususiyat so'na boshlagan. Bunda, ayniqsa, o'sha davrda kuchaya boshlagan ma'rifatparvarlik harakati ta'siri muhim rol o'ynagan. Xususan, ta'lim jarayonida ulardan

foydalanish istagi kichik va o'rta yoshdagi bolalar repertuariga o'tishiga yo'l ochgan. Natijada tez aytish bolalar folklori doirasida yashay boshlagan. Buni ayrim ko'p so'zli tez aytishlarning turli yoshdagi bolalar repertuarida xilma-xil variantlarda uchrashi tasdiqlaydi. Chunonchi, «T» va «P» portlovchi undoshlari va «U» unlisi alliterაციyasiga asoslangan tubandagi «Bir tup tut» tez aytishi 28 so'zdan iborat:

Alliteracion ritm u yoki bu tovushning to'g'ri va ravon talaffuzini ta'minlashga buysunganidan ularni shovqin solib shiddat bilan aytish (skandovka) zaruriyatga aylangan. Shu sababli tez aytishlarni kuylab bo'lmaydi. Bu xususiyat, ayniqsa, nasriy tez aytishlarda yanada ravshanroq tovlanadi, ularning aksariyati ko'p so'zli: Har bir so'z o'zaro o'xshash tovushli bo'lganligidan ichki alliteracion ohangdorligini yuzaga keltirgan. O'z navbatida, bu ichki turoqlanish asosida o'ziga xos poetik ritm hosil qilgan:

-E jo'ra, bizning quyoshlamada kuyoshmalashib ket,
quyoshlamalashsang ham quyoshmalashib ket,
quyoshlashmalashmasang ham quyoshmalashib ket.

Tez aytishda poetik ritm istak ohangiga ega. Umuman, nasriy tez aytishlarda poetik ritm xilma-xil ohanglarni (gumon, so'roq, buyruq, xabar) ifodalashi mumkin. Bu xususiyat ham she'riy, ham nasriy tez aytishlar uchun mushtarak bo'lib, ularning mazmundorligini, g'oyaviyligini ta'minlagan. Bunda talaffuzning aniq va ochiqligiga, poetik taktga, mantiqiy urg'uga alohida e'tibor berish zarur. Shularning birortasiga rioya qilinmasa, o'sha zahoti ritmdan chiqib ketadi, ma'no yoki mazmunda mantiqsizlik yuzaga keladi.

Nasriy tez aytishlarning Shundaynamunalari borki, ularda poetik ritmdan voz kechilgan, ijtimoiy mazmundorligini bo'rttiruvchi alliteracion ohangdorlikkagina urg'u qilingan:

-Namanganda usta Musa puch pista purush bor ekan. O'sha usta Musa puch pista purushning oltmish uch pud puch pistasi bor ekan. Oltmish uch pud puch pistasi bo'lsa ham o'sha usta Musa puch pista purush, oltmish uch pud puch pistasi bo'lmasa ham o'sha Musa puch pista purush.

Tez aytishda savdodagi qalloblikni fosh etish-yetakchi motiv: pistaning puchligini ta'kidlovchi «p» va «ch» tovushlari - alliterაციyasi asosi. Binobarin, «puch pista» iborasi tez aytish uchun *muddao husni* - motivni ifodalovchi vositaga aylangan. Muddao husni ham she'riy, ham nasriy tez aytishlarda tugun vazifasini o'taydi. Ular motivnigina emas, balki qaysi tovushni alliterao'iyaga solishni yoxud so'zni takrorlashni

belgilovchi vosita sifatida soʻz yoki soʻz birikmasi shaklida namoyon boʻladi:

Qishda kishmish pishmasmish,

Pishsa kishmish qishmasmish,

Yoki:

Chustda usta Tursunmatning uchta tus tovugʻi bor.

Oʻsha uchta tustovuq Chustdagi usta Tursunmatning uchta tustovuqʻimi yoki boshqa usta Tursunmatning uchta tusdagi tovugʻimi?

Birinchi tez aytishda «kishmish» soʻzi muddao husni boʻlib, «sh» undoshining alliteraciyasiga zamin yaratgan va qish fasliga oid maʼlumotni tashigan. Ikkinchi tez aytishda "uchta tustovuq" birikmasi-muddao husni, «ch», «t», «s» undoshlari alliteraciyasi shu negizda hosil qilingan. Tez aytishda bu ibora lutf sanʼatini yuzaga keltirgan, dastlab tustovuqlar miqdorini-uchtaligini anglatga, keyin ularning rangi-uch tusdaligiga ishoraga aylangan. Tovush alliteraoʻiyasi tez aytish ijrosi jarayonida shu nozik maʼnoni ilgʻashga xalal etkazgan. Natijada chalgʻish hodisasi yuz bergan. Bu xildagi rang-barang tovush alliteraciyalari, omonimlar, omofonlar, omograflar, paronimlar va taftologiyalar zamiridagi maʼno tovlanishlari pedagoglar va bolalar eʼtiborini tortdi. XX asrning 30-yillaridayoq boshlangʻich sinflarda til va oʻqish darslarida oʻquvchilar talaffuzini burro etishda, tovushlarning nozik maʼnolarini fahmlashlari hamda farqlashlarini

ERTAKLAR

Ertak umumfolklor hodisasi sifatida eng qadimiy epik janrlardan boʻlib, M.Qoshgʻariy oʻz "Devonu lugʻotit turk" asarida turkiy xalqlarda uning "etuk" atamasi bilan yuritilganini qayd etadi. Unga koʻra, etuk "biror voqeani ogʻzaki hikoya qilish"ni anglatadi. Biroq jonli soʻzlashuvda Oʻzbekistonning turli joylarida, chunonchi, Namangan viloyatining Janubiy qismida "ertangi" deb yuritiladigan bu hodisa - ertangi boʻlib oʻtgan, qadimgi zamonlardan qilinajak hikoya maʼnosini anglatga, Samarqand, Fargʻona va Surxondaryoda bu hodisa – matal, Xorazmda –varsoqi, Buxoroda – ushuk, Toshkentda–choʻpchak, yana boshqa bir qator maskanlarda – hikoya, hikoyat, ogʻzaki hikoya, oʻtrik yoki oʻtirik, afsona deb yuritilga-da, folklorshunoslikda ertak ilmiy istilohi qabul qilingan va muhim muomalada boʻlib, ruslardagi "skazka" istilohiga teng ekvivalentga aylangan. Zero, "Alisher Navoiy asarlarining qadimgi lugʻati, sanaluvchi "Abushqa"da ham "ertak" istilohi uchraydi.

"Ertak" so'zi "er", aslida "ir" yo "yir, jir" hamda "tak" so'zlaridan tarkib topgan. "Ir" yo "yir" Alisher Navoiy zamonida og'zaki hikoya yo doston ma'nolarini anglatganki, bu xususda u Shundayma'lumotni yozib qoldirgan:

Ey yirov, sen ham ishingni ko'rguz,
Yotug'on birla ulug' irni tuz

Navoiy tilga olayotgan "ulug' ir" aslida doston bo'lib, uni yotug'on (hozir do'mbira) jo'rligida yirov ijro etgan. Yirov yoki jirov hozir ham xalq an'anaviy dostonlari ijrochisini anglatadi. Navoiy zamonasida "ir" dostonni anglatgani bois u ertak ma'nosida "cho'rchak" istilohini qo'llaydi va og'zaki eposga xos bu ikki hodisani bir-biridan farqlaydi:

Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim, bo'lg'ay,
Qoshingda qissai Yusuf bir uyqu keltirur cho'rchak.

Shuni ta'kidlash joizki, Navoiy qo'llagan "cho'rchak" istilohi hozir Toshkent muzofotida "cho'pchak" va uyg'urlarda "cho'chek" shakllarida fonetik o'zgarishga uchragan holda iste'moldadir. Ertak xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, kattayu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janridir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlarini, marosimlari asosida paydo bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlarini haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Ertaklar janr sifatida uzoq muddatli shakllanish jarayonini kechgan. Ular ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida yuzaga kelgan. Davrlar o'tishi bilan hikoya qilish ham takomillashib borgan, so'zga sig'inish, ilohiy kuchlarga sig'inish, animistik, totemistik, fetishistik e'tiqodlar, gallyutsinatsiya va tush ta'sirida fantastik (taxayyuliy) vositalarga to'lisha borsa, hayvonlarni ovlash, xonikalashtirish, ular inonchlariga ishonish, hayvon mahsulotlaridangina emas, balki kuchidan ham foydalanish jarayonlarida hayvonlar haqidagi ertaklar paydo bo'la boshladi, Asta-sekin shu xildagi ertaklarda turmush tajribasini omuxtalashtira borish u yoxud bu xildagi qusur va kamchiliklardan kulish ertakdagi obrazlarga majoziylik (allegorik) xususiyatni baxsh etdi. Natijada hayvonlarga oid ertaklar tarkibida majoziy namunalar yuzaga kela boshladi.

Feodal munosabatlar tarkib topib, unda ijtimoiy jarayon takomillasha borgach, ertaklarda ham shu ijtimoiy munosabatlarni ifodalash tamoyili chuqurlasha bordi, natijada hayotiy uydirmalar

asosidagi maishiy ertaklar paydo bo'la boshladi. Shu zaylda ertaklar ijtimoiy - estetik hodisa sifatida xalq epik ijodiyotida mustahkam qaror topdi.

Ertaklarning paydo bo'lishi. Ertak xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, kattayu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janridir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlarini, marosimlari asosida paydo bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlarini haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Ertaklarni ijro etish tartibi. Ertaklar professional ijrochilikka asoslangan. O'tmishda ertaklar yilning ma'lum davrida belgilangan paytda ijrochilik salohiyatiga ega bo'lgan yoshi ulug', dono, hurmatli va e'tiborli kishilar tomonidan aytilgan. Odatda bunday professional ijrochilar ertakchi deb yuritiladi.

Ertaklar ijrosi uch xil usulda tashkil etilishi mumkin:

- a) teatrlashtirilgan shaklda;
- b) deklamatsion shaklda;
- v) ohangga solingan shaklda.

O'zbek ertaklarining uch ichki turini farqlab o'rganmoq ma'qul.

1. Sehrli -fantastik ertaklar
2. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
3. Maishiy-hayotiy ertaklar.

Ertaklarning janriy tabiati. Ertaklar xalq og'zaki badiiy ijodiyotining epik turiga mansub bo'lib, o'ziga xos g'oyaviy - mavzuviy yo'nalishga, axloqiy - ta'limiy va ijtimoiy - estetik vazifalarga ega. Ertaklar ham og'zaki tarzda jamoa ijodi mahsuli sifatida anonim ko'rinishda yaratiladi. Garchi uning to'qilish ibtidosi individual ijodkorga borib taqalsa-da, og'izdan - og'izga, urug'dan-urug'ga, avlod-dan-avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijrochisiga xos belgilarini, obrazlarini, motivlari va badiiy vositalarini deyarli saqlab qoladi. Shu bilan birga versiya va variantlilik hosil qilishi mumkin.

Ertaklar, asosan, professional ijrochilikka asoslanadi, Kishilarda cheksiz badiiy zavq uyg'ota olish imkoniyatiga egaligi boisidan ko'p hollarda ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarda aytiladi.

Ularning syujeti qiziqariligi, uydirmalarga boyligi, sarguzashtga to'laligi bilan diqqatni tez jalb qiladi. Va albatta, o'z nihoyasida ezgulikning yovuzlik, oydinlikning qorong'ulik, haqiqatning nohaqlik,

hayotning o'lim, aqllilikning nodonlik, adolatning jaholat va to'g'rilikning egrilik ustidan g'alaba qozonishini tarannum etadi.

Ertaklar o'z janriy tabiatiga xos badiiy- kompozitsion qurilishga ega. Ular bir xil badiiy shakliy qoliplar doirasida yaratiladi va ijro etiladi. *Kirish, boshlama, tugun, epik sarguzasht va tugallama* ertak kompozitsion qurilmasining asosini tashkil etadi.

Ertaklarning an'anaviy kirish bilan boshlanishi jahondagi barcha xalqlar ertakchiligi uchun mushtarak xususiyat hisoblanadi. Goho shunchaki kirish, goho *an'anaviy zachin* deb yuritiluvchi bu hodisani rus folklorshunosi V.Dal "dokuchno'e skazki" istilohi bilan atab, bolalar folklorining mustaqil janri tarzida tavsiflaydi. Chindan ham so'zma-so'z tarjimada "ezma ertak" tarzida ifodalash mumkin bo'lgan bu hodisa o'zbek bolalar folklorida ham ermaklar silsilasini tashkil etadi. Qolaversa, ular qat'iy bir ertak bilan uzviy mantiqiy bog'liq holda yashamaydi, balki istalgan ertakni boshlashdan avval aytilishiga ko'ra nisbatan mustaqil bo'lib, sayyor holda ijro etilaveriladi. Ularga xos bu xususiyatni o'zbek ertakshunosi K.Imomov ham "kirish qismi ba'zan sodda, primitiv syujet shaklini oladi",- deya qisman tan olsa-da, har qalay uni ertak kompozitsiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarashni afzal biladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga o'qib, hikoya qilib beriladigan ertaklar

Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo'ladi. Avval eslatib o'tganimizdek, bu yoshdagi bolalar hali olam nima ekanligini bilmaydilar. SHuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do'stlik, mehnat ahli, jamoa, odob-axloq to'g'risida bo'lishi foydadan xoli bo'lmaydi.

Bu davr bolalariga «CHivinboy», «Qizg'anchiq it», «Tuyaqush bilan qoplon», «Maqtanchiq quyon», «Rostgo'y bola», «Arilarning g'azabi», «Tulki bilan turna», «SHolg'om», «Qumursqa», «Kaptar sovg'asi» kabi ertaklarni o'qib berish foydalidir.

Bog'cha tarbiyachilari va ota-onalar oldidagi vazifalardan eng muhimi kichkintoylarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashdir. Bolani yoshligidan boshlab bir ishga o'rgatish, kichkinalik vaqtidanoq unga bir yumush berib, ish qilishga odatlantirish lozim. Unga beriladigan ish ahamiyatsiz, hatto «ish» nomi berishga loyiq bo'lmasa ham undan keladigan foyda juda katta. CHunki bunday ishlar mehnatni sevishta o'rgatadi.

Bola bog'chadaligidayoq o'sib, ulg'ayib yashashning asosi ish, mehnat deb kamol topmog'i zarur. Bog'chada qilinishi kerak bo'lgan

yumushlarni bolaning o'zi erkin bajarsin, xatolari uchun o'zini javobgar sezsин. Ishlaganda ham uning natijasini o'ylab, fikr yuritib, to'g'ri ishlash uchun g'ayrat qilishga ko'niksin.

Ammo bu borada shu narsani ham ta'kidlab o'tish kerakki, bu malakalar birdan hosil bo'lmaydi, balki asta-sekin yuzaga keladi. Lekin zaminni erta, bog'chadan boshlab qo'yish kerak. Bolada mehnat qilish malakasi vujudga kelsa, u ota-onasi, kattalarning ko'rsatib turishini kutib o'tirmay, mehnatni o'zi eplab ketaveradi.

Ishga o'rganish va o'rgatishda diqqat qilinadigan yana bir narsa har ishni o'z vaqtida bajarishdir. Ishga odatlanish qancha muhim bo'lsa, ishni o'z vaqtida bajarish shu darajada muhim, balki undan ham muhimroqdir. Har ishni o'z vaqtida bajarmay, keyinga qoldirish ko'p ishlarning yig'ilib qolishiga, ko'pining yuzaki, sifatsiz ishlanishiga yoki butunlay qolib ketishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun har ishni o'z vaqtida g'ayrat va matonat bilan bajarish lozimdir. CHunki dunyodagi barcha tirik narsalar harakatda bo'ladi, intiladi va shu tufayli hayot uchun zarur bo'lgan narsalarga yetishadi. Hatto eng zaif hisoblangan arilar, chumolilar va qushlar ham intilishda bo'lib, yozda qish g'amini yeydilar.

Bu yoshdagi bolalar hayvonlar o'rtasidagi o'zaro ahillik va do'stlik kabi xislatlarni bilishni istaydilar. Hayvonot olamida do'stga mehribonlik ko'rsatish, bir-biriga g'amxo'r bo'lish, yordam qo'lini cho'zish bor ekanligi «Arslon bilan it», «Tuyaqush bilan qoplon», «Echki, qo'y va bo'rilar» kabi ertaklarda beriladi. «Tuyaqush bilan qoplon» ertagiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda xuddi odamlar orasida bo'lganidek, hayvonlar o'rtasida ham bir-birlariga yordam berish, ayniqsa, boshlariga kulfat tushganda yurakdan, samimiy ko'maklashish g'oyasi yotadi:

Qoplonning boshiga musibat tushibdi. Tomog'iga katta bir suyak qadalib qolibdi. Dod-faryod qilibdi. Tuyaqush yordamga kelib:

— Osmonga qarab og'zingni ochib tur, men suyakni olib qo'yay, — debdi qoplonga.

Qoplon osmonga qarab og'zini ochib turibdi. Tuyaqush uzun tumshug'ini qoplonning og'ziga solib, tiqilib turgan suyakni sug'urib tashlabdi.

Qoplonning ko'zlari ravshan bo'lib, o'limdan qutulibdi.

Biroz joni orom olgandan keyin qoplon tuyaqushga qarab Shundaydebdi:

— Sen mard ekansan, menga yaxshilik qilding, endi ikkalamiz do'st bo'lamiz, zarur vaqtda bir-birimizga yordamga kelamiz.

Tuyaqushga bu gap ma'qul bo'libdi. Tuyaqush bilan qoplon ikkalalari do'st bo'libdilar.

Xalqda „O'zga bilan do'st bo'ldingmi, bir umrga bo'l, uni yaxshi-yomon kunlaringda sinama va unga riyokorlik ko'rsatma», degan gap bor. Tuyaqush bu yo'ldan bormabdi.

Oradan ko'p vaqt o'tibdi, kunlardan bir kun u qoplonni sinamoqchi bo'lib, jo'rttaga:

— Voy dod, o'lyapman, qoplon, meni qutqar! — deya bor ovozi bilan qoplonni yordamga chaqiribdi.

Qoplon chin so'zli, do'stga sadoqatli, g'amxo'r va mehribon bo'lganligi uchun zudlik bilan tuyaqushning oldiga shox-butoqlar orasidan ustidagi junlari yuliniib, harsillab yetib kelibdi. Lekin u tuyaqushning yuzidagi tabassumni ko'rib hayron bo'libdi. Tuyaqushning surbetlik bilan «Ko'rmaganimga ancha vaqt bo'ldi, ahd-paymonimiz esingdan chiqib qolmadimi, deb sinab ko'rmoqchi edim», degan gapidan qoplon qattiq ranjibdi, dili og'ribdi, do'stidan ko'ngli qolibdi.

Do'stini aldagan o'zini aldagan bo'ladi. Sen birovni bir marta aldadingmi, tamom, u senga ikkinchi marta ishonmaydi. Tuyaqush bilan ham xuddi Shundaybo'libdi. Boshqa kuni bo'ri uni ushlab yeb qo'ymoqchi bo'lib turganida, qancha baqirib-chaqirmasin, qoplon tuyaqushning ovozini eshitsa ham, «Do'stim jo'rttaga dodlayapti», deb o'ylabdi va uning oldiga bormabdi. Tuyaqush bo'riga yem bo'libdi.

Qo'li ochiq bo'lish, saxiylik qilish, do'stga sodiqlik namunasini ko'rsatish bu davrda tinglaydigan ertaklarning katta qismini tashkil etishi kerak. «Tulki bilan Turna» ertagiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu holning butunlay teskarisini ko'ramiz. Dunyoda tulki zotidan mug'ombir, pismiqlik, aldanchi, riyokor bo'lmasa kerak. Ko'p ertaklarda turna insonga yaqin yuradi, unga ko'maklashadi, yordam beradi, saxiylikda ibrat ko'rsatadi.

Ertakda tulki va turnaning bir-birlarini uylariga chaqirib mehmon qilishlari haqida gap boradi. Maqtanchoq, mug'ombir, ayyor tulki oddiy, sodda turnani uyiga chaqirib:

— Albatta kelgin, jonginam, albatta, azizam, yaxshilab mehmon qilaman! — debdi.

Ba'zan yangi do'stning fe'l-atvori qanday ekanligini yaxshi bilmay yurakdagi borini oshkor qiladigan bolalar kabi turna ham tulkiga ishonadi, chinakamiga meni mehmon qilar ekan-da, degan o'y-xayol bilan uning uyiga keladi. Tulki shirguruch pishirib, uni likopchada turnaning oldiga qo'yadi. U uzun tumshug'i bilan likopchaga taq-taq uradi, ammo hech

narsa yeya olmaydi. Ayyor tulki esa bir zumda shirguruchni o'zi yeb bo'ladi.

Ertakda turnaga alam qiladigan joyi shuki, tulki o'zi pishirgan taomni o'zi yeb, yana xushomadgo'ylik bilan: — Aybga qo'shmaysan-da, jon do'stim! Yaxshilab mehmon qilishga boshqa narsa topa olmadim! — deya surbetlik qilib turishi bolalarning qahr-g'azabini keltiradi. Ularni hayotda tulki kabi ochko'z, aldanchi bo'lmaslikka da'vat etadi.

Ertakda turnaning ham bo'sh kelmasligi, tulkini uyiga chorlab, mo'ndiga o'zi tayyorlagan ovqatni quyib, uni bir zumdayoq, uzun tumshug'i bilan o'zi yeb qo'yishi kichkintoylarni xursand qiladi. Ularda qilmish-qidirmish, sen birovga nima qilsang, senga ham, albatta, qaytib keladi, degan tushuncha hosil bo'ladi.

Xullas, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'zlari tinglagan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu, nima yomonligini bilib o'saveradilar.

Maktab yoshidagi kichik bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar

Avval ta'kidlab o'tganimizdek, bu davr bolalari maktabga o'zlari mustaqil boradigan, ozmi-ko'pmi kitoblar o'qiydigan darajada bo'ladilar. Bu davr bolalariga o'qish uchun tavsiya etiladigan ertaklarning ham ko'p qismi ona-Vatan, tabiat, axloq-odob, mehnat, o'qish haqida bo'lishi talab etiladi. «Zumrad va Qimmat», «Oltin tarvuz», «Dehqon bilan ayiq», «Non va tilla» (arab xalq ertagi), «Haqqush» (tojik xalq ertagi), «Danak» (qirg'iz xalq ertagi), «Qizg'anchiq Pak» (koreys xalq ertagi), «Kuchuk va topqirlik» (latish xalq ertagi), «O'tinchi yigit», «Bo'ri bilan echki» singari asarlar kichik maktab yoshidagi bolalar sevib o'qiydigan ertaklardir.

Bu yoshdagi bolalarga ko'proq ig'vo, g'iybat, munofiqlikdan yiroq bo'lgan ertaklar yoqadi. Negaki, yaxshi, mukammal tarbiyalangan bola boshqalarga hech bir ozor yetkazmasligini, takabburlik qilmasligini, hech kimga haqorat ko'zi bilan qaramasligini, rostgo'y bo'lishini avvalgi davr bolalar kitobxonligida tavsiya etilgan ertaklar orqali bilib olishgan. Demak, u o'zidan kattalarga hurmatli, kichiklarga shafqatli va marhamatli, shirin so'zli va xushmuomala bo'ladi. Mana shularga o'xshash go'zal hislatli bolalarni el sevadi, e'zozlaydi. «Zumrad bilan Qimmat» ertagidagi Zumrad xuddi Shundayfazilatli obrazlardan biridir.

Zumrad xalq orzu qilgan, istagan, e'zozlagan qizlarning yorqin timsoli. Bugungi qizaloqlar Zumradan qanchalik ibrat olishsa, Zumrad kabi chiroyli, odobli, muloyim, aqlli, mehnatsevar bo'lishsa arziydi. Qarang, yo'lda lolalar, rang-barang gullar Zumradni ko'rib boshlarini egib,

unga salom beradilar. Zumrad maysalar ustida o'tirib dam olganida, gullar uni olqishlab, bulbullar quvonib, unga qo'shiqlar aytib beradilar. Xo'sh, bunday maqtov, bunday e'zoz qaysi qizaloqqa yoqmaydi! Hammaga yoqadi. Bunga muyassar bo'lish uchun esa tinimsiz mehnat qilish, kattalarning, ota-onalarning, muallimlarning o'git-nasihatlariga qattiq amal qilish kerak. Ana o'shandagina xuddi Zumrad kabi behisob boylig-u shon-sharafga, hurmatga sazovor bo'lishlari mumkin.

Zumrad el sevadigan darajada chiroyli, odobli, muloyim, aqlli. Uni bir ko'rgan, bir suhbatlashgan kishi yana ko'rsam, yana suhbatlashsam deb orzu qiladi.

Zumrad otasini, odamlarni yaxshi ko'radi, hayvonlarni, tabiatni, maysa-yu o'tloqni sevadi, ularga xizmat qiladi. Hammasiga muloyim boqib, qo'li bilan silab-siypalab erkalaydi. Bundan gullar, o't-o'lanlar, bulbullar quvonib, unga ta'zim qilishadi, qo'shiqlar aytib berishadi.

Mehnatkash xalq o'z farzandlarini xuddi Zumrad kabi ishchan, mehribon, iboli, boy-badavlat bo'lishini orzu qilgan, lekin Qimmat kabi erka, tantiq, ishyoqmaslarni yomon ko'rgan. Qimmat obrazi ishlamay tishlashga o'rganib qolgan, injiq, muttaham va bedavo farzandni eslatadi.

Bizda va, ayniqsa, ertaklarda o'zidan kattalarni hurmat qilish va keksalarni e'zozlash, odamoxunlik va mehnatsevarlik, iboli va xayolilik asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Savol tug'iladi. Xo'sh, Qimmatda yuqoridagi fazilatlardan qaysi biri mavjud? Hech qaysisi yo'q.

Xalq o'z farzandiga to'g'ri tarbiya bera olmagan onani yoqtirmaydi. SHuning uchun har ikkalasi ham o'limga mahkum — ajdar yutib yuboradi. Bu holga xalq aslo achinmaydi, aksincha, to'g'ri bo'libdi, deb mamnun bo'ladi.

Kitobxon bolalar ham hayotda Qimmat qiyofasiga tushib qolmaslik uchun o'zlarini o'nqlab olishga, mehnatni sevishtga, ko'proq dars qilishga, kitob o'qishga intiladigan bo'ladilar. Axir Qimmatni ishyoqmasligi, odobsizligi tufayli juda ko'p narsalar xush ko'rmaydi. Hatto, uning yurish-turishi, xatti-harakati kuchug-u sehirgar kampirga ham ma'qul bo'lmaydi. Dangasa-ligi, kekkeyganligi, qo'rs, qo'polligi o'zining boshiga yetadi.

Mehnatkash xalq bechorahollik bilan hayot kechirgan, ko'pincha ochlik, yupunlik ularning bir umr hamrohi bo'lgan. Uzun tunlari bir-birlarini ovutish, ko'ngillarini ko'tarish maqsadida ertaklar aytishgan. O'zlari to'qigan ertaklar zaminida unumli mehnat qilish, farzand rohatini ko'rish, baxtiyor bo'lish va boshqa ko'pgina g'oyalar yotadi. O'rni kelganda birdaniga boy-badavlat bo'lib, behisob boylik bilan el-yurtini, boy-badavlatlarni qoyil qoldirish mehnatkash xalqning ezgu tilagi bo'lib

kelganligi hech kimga sir emas. «Oltin tarvuz» ertagi xuddi Shundayo'y-xayol, oliy istak bilan to'qilgandir.

«Oltin tarvuz» yosh kitobxonni ko'p narsaga o'rgatadi. Birinchidan, mehnatkash bo'lish, chunki dehqon o'z yeriga qayta-qayta ishlov beradi. Ikkinchidan, parranda-yu darrandaga g'amxo'rlik qilish, negaki dehqonning uyda yeydigan hech vaqosi yo'q. Laylakni so'yib yeyishi mumkin edi. Ammo u bu ishni qilmaydi:

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda bir kambag'al dehqon bo'lgan ekan. Uning atigi bir tanob yeri bor ekan. Dehqon yer hayday boshlabdi. Yerni ikki marta haydab bo'lib, yaqinidagi katta soyning bo'yida salqinlab o'tirsa, osmonda uchib ketayotgan bir laylak yerga qattiq zarb bilan yiqilib tushibdi. Dehqon qarasa, laylakning qanoti singan ekan. Dehqon haligi laylakni darrov uyiga olib borib, siniq qanotiga taxta bog'lab, uni bir qancha vaqt boqibdi. Laylak sog'ayib, uchib ketibdi.

Laylakka qayta umr bag'ishlagan dehqon biror narsadan umidvor emas. SHu majruh laylakni davolab, uning yordami bilan behisob boylikka ega bo'laman, degan fikr uning xayoliga, o'yiga ham kelmagan. Laylak tashlab ketgan tarvuz urug'ini yerga ekib, unga mehr bilan ishlov berar ekan bu — oltin (tarvuz) degan tushunchaning o'zi unda bo'lmagan.

Dehqon ochko'z emas, bir parcha nonni ham o'zgalar bilan, qo'ni-qo'shni, o'ziga o'xshagan kambag'allar bilan baham ko'radiganlardan. Sabr-toqat bilan tarvuzlarning obdon pishishini, yetilishini kutgan dehqon o'ziga yaqin qarindoshlarini, oshna-og'aynilarini ham mehmonga chaqirishi va tarvuz so'yishi kitobxon bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi:

Dehqon bir kuni tarvuzdan uchtasini uzib, uyiga olib ketibdi. Tarvuzlar juda katta ekan. Dehqon o'zining yaqin qarindoshlarini va oshna-og'aynilarini mehmonga chaqiribdi. Bir mahal tarvuzga pichoq ursa, pichoq sira botmas emish. Uni qo'yib, ikkinchisini so'ymoqchi bo'libdi, pichoq o'tmabdi, uchinchisi ham Shundaybo'libdi. Dehqon ham, mehmonlar ham hayron bo'lishibdi. Yerga bir urib yorib qarasalar, ichi to'la tilla emish. Kambag'al sevinib ketib, hammasini mehmonlarga ulashibdi, ular ham xursand bo'lib, uy-uylariga tarqabдилar. Uch tup tarvuzning har biri o'ntadan solgan ekan. Dehqon qolgan tarvuzlarni ham yig'ib olibdi. Shundayqilib kambag'al dehqon juda boyib ketibdi.

Xalq voqeani bunday qoldirmoqchi emas. Yon-atrofdagilarni, kambag'allarning boyib ketganini ko'ra olmaydiganlarni hech bo'lmasa ertak orqali tanqid qilmoqchi, ularning jirkanch xayollari-yu ashaddiy yovuzliklarini, boylik va davlat deb qing'ir ishlarga ham qo'l urishlarini oshkor qilish maqsadida qo'shni— xasis boy obrazini to'qigan.

Dehqon qanoti sinib, to'dasi bilan ucha olmay qolgan laylakka yaxshilik qilib, oyog'iga taxta bog'lab tuzatgan va laylakning in'omi bilan behisob boylikka ega bo'lgan bo'lsa, boy bu voqeadan xabar topgach, sog' laylakning oyog'ini sindirib, so'ng davolaydi. Bu laylak ham boyning dalasiga tarvuz urug'ini tashlab ketadi. Biroq tarvuzdan oltin emas, balki qovog'arilar chiqib, ko'pchilikni chaqadi. Boyning halok bo'lishi esa yosh kitobxonda unga nisbatan achinish hissini uyg'otmaydi. Aksincha, u tabiatga, qushlarga ziyon yetkazganligi, boylik ustiga behisob boylikka erishish uchun laylakning oyog'ini sindirganligi sababli bu ish to'g'ri bo'ldi, degan ijobiy xulosaga keladi, xolos.

O'rta va katta maktab yoshidagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar

Maktabgacha ta'lim va kichik maktab yoshidagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar yuqorida ko'rib o'tganimizdek hajm jihatidan kichkina, mazmuni sodda bo'lishidan tashqari, rasm va bo'yoqlar bilan boy bo'lishini ham ta'kidlab o'tgan edik. Bu ikki guruhga kiruvchi ertaklar vositasida tabiat, ona-Vatan, hayvonot olamiga g'amxo'rlik qilish, to'g'ri so'zli, odobli bo'lish, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e'zozlash singari masalalar kichikintoylarning ong-tushunchalariga yetkazilishini eslatib o'tish lozim.

Endilikda bu davr bolalariga o'qish uchun tavsiya etiladigan ertaklarning asosiy qismi dovyuraklik, vatanparvarlikdan tashqari, yaxshi kasb-kor egasi bo'lish, xalq va Vatan uchun jon fido qilishga chorlovchi ertaklardan iborat bo'ladi. «Pahlavon Rustam», «Birlashgan o'zar», «Uch og'a-ini botirlar», «Egri bilan To'g'ri», «Ona yer farzandi», «Sardorning oyni ushlab olmoqchi bo'lgani» (turk xalq ertagi), «Donishmand qiz» (xitoy xalq ertagi), «Qadrdon uyning mixi» (shved xalq ertagi), «Chollar, ho'kizlar, Bo'rka va pop» (gruzin xalq ertagi) singari ertaklarni o'qish uchun tavsiya etish mumkin.

Ota-bobolarimizdan qolgan iboratomuz bir gap bor: yaxshi hayot kechirish insonning o'ziga bog'liq. U nechog'lik to'g'ri so'zli, aqlli, tadbirkor, pok ko'ngilli bo'lsa, do'stga, vatanga xiyonat qilmasa, yolg'on gapirmasa, topshirilgan ishni o'z vaqtida bajarib, va'dasiga vafo qilsa, uni el dildan sevadi, hurmat qiladi, ertaklardan ana shu fikrlarni uqish mumkin.

Bizga ozgina bo'lsa ham ezgulik qilgan odamga ezgulik qaytarish burchimiz ekan, dunyoga kelishimizga sababchi bo'lgan, o'stirgan, tarbiya

qilgan ota-onalarimizga doimo muhabbat, hurmat, itoat va xizmat qilish bo'ynimizdagi sharaflı burchdir. Bu sharaflı burchni ado qilib, ota-ona olqishini olgan farzand, shubhasiz, dunyoda baxtli, saodatli bo'lib yashaydi. Buning yorqin namunasini «Uch og'a-ıni botirlar» ertagida ko'rishimiz mumkin. Ertakdagi ota uzoqni ko'zlab ish ko'radiganlardan. O'g'ıllariga yaxshi tarbiya beradi. Natijada o'g'ıllari ota izmidan borib, komil insonlar bo'lib kamol topadilar. Ota duosi, o'git-nasihatlarini dıllariga jo qilib olganlıklari uchun hayotda kam bo'lmaydilar.

Uch zabardast o'g'il. Uchovlarining qo'llari ko'ksida, otaga ta'zimda. Aql, kuch — jasoratda tengi yo'q bu yigitlar odobda butun olamni qoyil qoldiradilar. Negaki, ta'lim va tarbiya Shundaybo'lgan. Ota birinchidan, kambag'al, ikkinchidan, botir — pahlavon o'g'ıllarini ko'zining tirikligida hayotda o'z yo'llarini topib olishlarini orzu qiladi.

Darvoqe, odam qanchalik tarbiyali va halol-pokligi o'zga odamlar bilan do'stlashganda, ko'pincha safarga chiqqanda, mard — pahlavonligi esa kurashda, jangda bilinadi. Ota xuddi Shundayreja, o'y bilan farzandlarini uzoq safarga jo'natadi. Bunday olib qaraganda otaning boshqa otalardan uncha farqi yo'qdek tuyuladi. Ammo ertakni sinchiklab o'qib, ota nasihatiga nazar tashlaydigan bo'lsangiz u dunyodagi eng bilimdon, uzoqni ko'ra oladigan, aql-zakovatda tengsiz bir inson ekanligini sezasiz. Otaning farzandlariga aytadigan so'zi — nasihati bir jumlagina. Lekin uning ma'nosi, ta'siri, kuchi olamcha bor.

Ota nasihatini bir necha bo'limlarga ajratib o'rganish mumkin. Nasihatning birinchisida har bir ota-ona o'z farzandiga olamga kelishi bilan unga yaxshi, o'ziga munosib ism qo'yib, to'y-tomoshasini o'tkazib, o'qitishi, xat-savodli qilishi haqida gap boradi:

— O'g'ıllarim, men boy emasman, mendan qolgan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, q'zimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar, deb sizlarni o'qitdim. Yaxshi ot qo'ydim. To'y qildim. Voyaga yetkazdim.

Hamma zamonlarda ham bola tarbiyasi muhim masalalardan biri hisoblangan. Nasihatning ikkinchi bo'limida bola tarbiyasi haqida so'z boradi. Bolani chinakamiga sog'lom, tetik, kuch-quvvatli qilib voyaga yetkazish, ona-Vatan himoyasiga doimo tayyor kishilar qilib tarbiyalash, foydali mehnat ko'nikmalariga e'tibor berish ta'kidlanadi:

— Sizlarni uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchidan, sog'lom vujudli qilib tarbiyaladim — quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim — yarog' ishlatishga usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stirdim — qo'rqoq bo'lmay, botir bo'ldingiz.

Nasihatning uchinchi bo'limi juda muhim. Unda to'g'ri, halol, pok insonlar bo'lish suv bilan havodek zarurligi, ayni paytda, maqtanchoqlik va dangasalik yomon illatlarga olib kelishi keskin qoralanadi:

— Yana uch narsani aytaman, quloqlaringizga quyib olinglar, eslaringizdan chiqarmanglar. To'g'ri bo'ling — bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang — xijolat tortmaysiz. Dangasa bo'lmang — baxtsiz bo'lmaysiz.

«Uch og'a-ini botirlar» ertagining qahramonlari mehribon, o'z vaqtida qattiqqo'l, shu bilan birga talabchan ota tarbiyasini olganliklari uchun safarda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Yo'llarida o'zlariga duch kelgan barcha to'siq-g'ovlarni yengib, botir va dovyurakliklari bilan el-yurtini lol qoldirib, baxtiyor bo'ladilar.

Har bir bola dunyoda olim va fozil bo'lishga, o'zini soflik va to'g'rilik ziynati bilan bezashga intilishi, Vatan va xalqiga munosib xizmat qilishi shart. O'z ota-onasini esa halol xizmatlari bilan mamnun etishi kerak. Yoshligidan mehnat qilishga intilgan, to'g'ri so'z va sofdil inson doimo el-yurt olqishiga muyassar bo'lgan.

Xullas, kimki xalq og'zaki ijodiga mehr qo'ysa, ayniqsa, ertaklarni ko'proq o'qisa, hayotda kam bo'lmaydi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Bolalar folklori nima?
2. Bolalar folklorining asosiy janrlari haqida fikr bildiring?
3. Qo'shiqlarning turlarini ayting?
4. Allalarda farzand qiyofasini umumlashtiruvchi qanday poetic obrazlar mavjud?
5. Maqol janri tabiati va uning etnopedagogik ahamiyati nimada?
6. Tez aytish va topishmoq janri haqida nima bilasiz?
7. Masal janri va uning o'ziga xos xususiyatlarini ayting?
8. Bolalar adabiyotida folklorning o'rni qanday?
9. Ertak janri qanday turlarga bo'linadi?
10. Xalq ertaklarining ijro xususiyatini ayting?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

"Alla" istilohining lug'aviy ma'nolari qaysi variantda yorqinroq aks etgan va xalq qo'shiqlarining qaysi turkumiga mansub?

+ "Olloh", "aldamoq", "ensa" ma'nolarini bildiradi, erkalash poeziyasining beshik qo'shiqlari turkumiga kiradi;

- "uxlamoq", "tinchlanmoq", "jim bo'lmoq" ma'nolarini bildiradi, go'dak qo'shiqlari turkumiga kiradi;
- "yig'lamoq", "kuylamoq", "orom olmoq" ma'nolarini bildiradi, bolalik turkumidagi qo'shiq hisoblanadi;

Allada qanday poetik obrazlar orqali qiz farzand qiyofasi umumlashtiriladi?

- + to'ti, chirog', qizil gul, oyyuzli;
- qo'zichoq, qo'chqor, olqor, toychoq;
- saman, toyloq, bo'taloq, bulbul, lochin, tog';
- qo'zichoq, eshak, olqor, to'ti.

Tez aytishlarga mos keladigan ma'lumotni belgilang?

- + "chalish", "adashtirish" deb yuritiladi, maqsad, alliteratsion tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish;
- "chalg'itma", "adashish" shakllari uchraydi, maqsad, so'zni bir nafasda shiddat bilan ko'proq ayta olish;
- "tutal", "chalish", "adashish", "chalg'ituv" deb yuritiladi, maqsad, tez aytishda chalg'ish, tutilish;
- "chalish", "adashtirish" deb yuritiladi, maqsad, bolalarni aldash.

Topishmoqlarning tabiatiga xos xususiyat qaysi javobda to'g'ri ifodalanmagan?

- + "tutal", "chalish", "adashish", "chalg'ituv" deb yuritiladi, maqsad, tez aytishda chalg'ish, tutilish;
- har qanday topishmoq jumboq va javob qismlarining bir butunligidan iboratdir;
- hayvonot va nabotot dunyosi, tabiat hodisalariga oid aniq va ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'proq jumboqlashtiradi;
- yashiringan narsaning asosiy xususiyatlarini, eng muhim yetakchi belgilarini xoh ko'chma ma'noda, xoh o'z ma'nosida bo'lsin- aniq va ravshan izohlab beradi.

Maqolning qaysi so'zdan olinib, qanday ma'no anglatishi va qanaqa hodisaligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?

- + arabcha "qavvola" so'zidan olingan, "aytmoq, so'zlamok" ma'nolarini bildiradi, umumfolklor hodisasi;
- fors-tojikcha "matal" so'zidan olingan, "so'z" ma'nosini anglatadi, umumadabiy hodisa;

- O'zbekcha "hikmat" so'zidan olingan, dono fikr ma'nosiga ega, donishmandlikka xos hodisa;
- fors-tojikcha "hikmat" so'zidan olingan, dono fikr ma'nosiga ega, donishmandlikka xos hodisa;

Maqollarning yaratilish sabablari qaysi javobda yorqinroq aks etgan?

- + maqollar maxsus ijod qilinmaydi, u sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatida hukm bo'lib yuzaga keladi;
- maqollar ma'lum hayotiy sharoit taqozosiga ko'ra kattalar tomonidan maxsus ijod etiladi;
- maqol yaratish uchun barcha donishmandlar xuddi yozuvchi va Shoirilar singari mas'uldirlar, binobarin, u maxsus ijod namunasidir;
- maqollar ma'lum hayotiy sharoit taqozosiga ko'ra olimlar tomonidan maxsus ijod etiladi.

Maqollar qachon va qanday vaziyatda aytiladi hamda kimning nutqida faolroq ishlatiladi?

- + u fikr bayoni jarayonida yo fikrni xulosalash maqsadida aytiladi, hayotiy tajriba egasi bo'lgan katta avlod nutqida faolroqdir;
- u ma'lum voqea-hodisa munosabati bilan fikrni boshlash oldidan aytiladi, keksayu yosh baravar ishlatadi;
- maqollar faqat badiiy adbiyotlarda keng qo'llaniladi, og'zaki nutqda unchalik faol emas;
- maqol yaratish uchun barcha donishmandlar xuddi yozuvchi va Shoirilar singari mas'uldirlar, binobarin, u maxsus ijod namunasidir.

O'zbek xalq maqollarini yozib olish tarixi necha va qaysi yo'nalishlarda davom etib kelmoqda?

- + 2 yo'nalishda: birinchisi- jonli so'zlashuvda qanday aytilsa, shu holatida xalqdan yozib olish va kitobat qilish; ikkinchisi-mumtoz adabiyot vakillari va tarixnavis olimlar tomonidan asarlarida ishlatilgan xalq maqollari;
- 3 yo'nalishda: og'zaki, yozma, bosma;
- faqat bir yo'nalishda: qadimgi ajdodlarimizdan bugungi avlodgacha og'izdan-og'izga o'tib kelgan maqollarni regional to'plash;
- 2 yonalishda: o'z va ko'chma ma'nosiga.

Ertak istilohi haqida qaysi variantda to'g'ri mulohaza yuritilmagan?

+ paremik turga mansub, yozib olinishi, kitobat qilinishi paremiografiyaga, taraqqiyot tamoyillari va qonuniyatlari, badiiyati paremiologiyada o'rganiladi;

- yozma adabiyotdagi eng qadimgi janr, fantastikaga yo'g'rilgan;

- og'zaki adabiyotning epik janri hisoblanib, bugungacha faqat tarixiy manbalar orqali etib kelgan;

- umumfolklor hodisasi sifatida eng qadimiy epik janr bo'lib, biror voqeani og'zaki hikoya qilishni anglatadi, u matal, varsoqi, ushuk, cho'pchak kabi nomlar bilan yuritiladi;

Demonologik obraz nima? U qaysi turdagi ertaklarda ishtirok etadi?

+ dev, pari, jodugar, alvasti, jin singari g'ayritabiiy personajlar, sehrli-fantastik ertaklarda ishtirok etadi;

- laylak, kabutar, qaldirg'och, musicha, to'ti, sigir, qo'y singari foydali qush va hayvonlar obrazi; hayvonlar haqidagi ertaklarda ishtirok etadi;

- kampir, o'gay ona, shahzoda, malika, podshoh, vazir kabi obrazlar;

- hayotiy-maishiy ertaklarda ishtirok etishadi;.

3-MAVZU. O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING VUJUDGA KELISHI. O'TGAN ASRNING 30-40-YILLARIDAGI O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI

REJA:

1. Milliy uyg'onish harakati va uning o'zbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirishdagi roli.
2. O'zbek bolalar adabiyotining yuzaga kelishi va taraqqiyot tamoyillari.
3. 30-40-yillardagi o'zbek bolalar adabiyoti sohibkorlari
4. 30-40-yillarda yaratilgan bolalar adabiyoti namunalarining tahlili

Tayanch tushunchalar: milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash, "Jadidchilik", "jadid" so'zi, "usuli jadid" maktablari, "usuli savtiya", "Chig'atoy gurungi", jurnalistika, obraz, ramz, she'riyat, nasr, dramaturgiya, bolalar adabiyotshunosligi.

Milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash jarayoni mazkur davr adabiyotining ruhi va mazmunini tashkil qiladi. Millatning o'zligini anglash asos qilib olingan bu uyg'onish davri bolalar adabiyoti va matbuoti uchun ham poydevor bo'ladi.

O'zbek bolalar adabiyoti tarixi haqida fikr yuritilar ekan, uning ilk qadamlari XX asr boshlarida yaratilgan alifbolar, adabiyot va o'qish kitoblaridan boshlanganini alohida qayd etish lozim. Bolalar adabiyoti tom ma'noda ma'rifatparvarlikning farzandidir. Chunki jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi bo'lgan. "Jadidchilik"ning asosida "jadid" so'zi yotadi. "Jadid"ning ma'nosi "yangi"- "yangi tafakkur", "yangi inson", "yangi avlod" singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Istilohning kirib kelishi Ismoilbek Gasprali (Gasprinskiy) ochgan yangi maktab nomi bilan bog'liq. U 1884 yilda Boqchasaroyda bir maktab ochib, "usuli jadid" nomi bilan ataydi. Istilohning mazmuni maktab doirasida qolmagan, albatta. Aslida

jamiyatning barcha qatlamlarini jalb etib, Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qilgan; milliy mustaqillik uchun kurash olib borgan; maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi. Ismoilbekning Turkistonga kelib, Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo'lishi uning tashabbusi bilan bu shaharlarda, so'ngroq Farg'ona vodiysida "usuli jadid" maktablari tashkil topishi butun Turkistonda jadidchilik harakati ommaviylashuviga turtki bo'ldi. Tezkorlik bilan uning uchun darsliklar tuzila boshlaydi. Ushbu maktablar uchun yozilgan ilk darsliklar esa o'z navbatida, bolalar adabiyotiga yo'l ochdi. Jumladan, 1907-17-yillarda Munavvarqorining "Adibi avval", "Adibi soniy" darsliklari, Abdulla Avloniyning "Adabiyot, yoxud milliy she'rlar" majmuasi, "Birinchi muallim", "Maktab gulistoni", "Turkiy guliston yoxud, axloq" Ayniyning "Tahzib us-sibyon", Fitratning "O'qu", Sh.Rahimiyning "Sovg'a", "Kattalarga o'qish", Hamzaning "Yengil adabiyot", "Qiroat kitobi" kabilar chop etilib, maktablarda o'qitilgan. Bu kitoblar, xususan, alifbodan so'ng o'qitiladigan majmualar "bolalarning tabiatlariga milliy hasrat va nadomatlardan ibrat o'lan nasihatlarni o'rnatish orzusida" (Avloniy) yaratilgan edi. Demak, aytish mumkinki, ana shu darsliklar birinchi marta bola dunyoqarashi, qiziqishlari, tafakkur olami hamda yosh xususiyatlariga muvofiq yozilgan; ulardagi badiiy ijod namunalari ham kichkintoylar tasavvuriga yaqin bo'lgan. Jadid adiblari va muallimlari ta'sirida ochilgan yangi usuldagi maktablar bolalarni shunchaki xat tanishga o'rgatishga emas, ijtimoiy-siyosiy savodini chiqarishda ham muhim rol o'ynagan. 1917 yil fevral voqealari arafasida Turkistonda 92 ta usuli jadid maktabi borligi qayd etilgan. Binobarin, XX asr boshlarida "usuli savtiya" maktablari paydo bo'lishi bilan bu maktablar o'quvchilariga mo'ljallangan ko'plab alifbo va o'qish kitoblari (majmualar) ham maydonga kelib, ularga tom ma'nodagi o'zbek bolalar adabiyotining tug'ilishi deb qarash (R.Barakayev) to'g'ri e'tirofdir. Chindan-da, maktab adabiyot darsliklari bolalar uchun yaratilgan ilk maxsus kitoblar sanaladi. Uning sahifalarida badiiy adabiyot namunalari darj etilishi bu fikrni asoslay oladi.

Bugungi o'zbek bolalar adabiyoti yildan yilga rivojlanib bordi. O'tgan asrning 30-yillarga kelib, o'zining professional Shoir va yozuvchilariga ega bo'ldi. Poeziya (Zafar Diyor, Adham Rahmat, Ilyos Muslim, Shukur Sa'dulla, Sulton Jo'ra, Mahmuda Oqilova, Quddus Muhammadiy), proza (Majid Fayziy, Dorjiya Oppoqova, Hakim Nazir), dramaturgiya (Zafar Diyor, Dorjiya Oppoqova) sohalarida bolalar ijodkorlari yetishib chiqdilar. Sadridin Ayniy, G'afur G'ulom, Hamid

Olimjon, Oybek, Shokir Sulaymon, Elbek va G'ayratiylar ham o'zbek bolalar adabiyotini yuksaltirish ishiga o'z hissalarini qo'shdilar.

Bu davrda Zafar Diyorning «Qo'shiqlar» (1933), «Tantana» (1936), «She'rlar» (1939), «Muborak» (1940), «She'r va hikoyalar» (1940) to'plamlari va «Mashinist» (1935) poemasi, «Baxtli yoshlik» dramasi, «Jo'natish», «Nojo'yaliklar» hikoyalari; A. Rahmatning «Dum» (1938), «Baxtli yoshlik» (1939), «Zavqli allalar» (1940), «She'rlar» (1940), «Hiylagar tulki» (1940) kitoblari; Sulton Jo'raning «Fidokor» (1940); Ilyos Muslimning „O'suv» (1932), «Zaharxandalar» (1932) to'plamlari, «Miqti keldi» poemasi (1934); SHukur Sa'dullaning «Hayqiriq» (1933) to'plamlari bosilib chiqdi.

Bu davrda qardosh xalqlar adabiyotidan juda ko'plab asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Buning natijasida o'zbek bolalar adabiyoti har tomonlama boyib bordi. Ayniqsa, «Yosh turkistonliklar», «Bolalar yo'ldoshi», «Bolalar dunyosi», „O'zgaruvchi yoshlar», «Yosh kuch» kabi nashrlarning yo'lga qo'yilishi bolalar adabiyotining har tomonlama rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Xullas, bolalar adabiyotining mavzu doirasi kengaya bordi. Yoshlik, maktab hayoti, ona yurt tabiati, xalqlar do'stligi, ilm, hunar va texnikaga muhabbat mavzulari bolalar adabiyotidan keng o'rin oldi.

Xalqimizda «Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas», degan naql bor. Ikkinchi jahon urushi yillarida Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Sobir Abdulla, Uyg'un, Maqsud SHayxzoda, Zafar Diyor, Amin Umariy, G'ayratiy, Mirtemir, Ilyos Muslim, Sulton Jo'ra va boshqalar fashist bosqinchilarining yer bilan yakson bo'lishiga komil ishonch g'oyasi bilan yo'g'rilgan asarlar yaratdilar. Uyg'unning «Xayrlashuv», Zafar Diyorning «Kichkina jangchi», Ilyos Muslimning «Yovni tutday to'kamiz», Sulton Jo'raning «Tekstil kombinati to'quvchilari», Ra'no Uzoqovanning «Talpin, yurak» she'rlari bolalar adabiyotida urushni la'natlovchi dastlabki asarlardan bo'ldi.

Bu davr bolalar adabiyotining asosiy mavzusini urush davridagi xalq qahramonlarining fashist bosqinchilariga qarshi jasoratlarga to'la kurashi «Xat» (Hamid Olimjon), «Sen yetim emassan» (G'afur G'ulom), «Vatan haqida», «Yigitlarga» (Oybek), «Kurash nechun?», «Kapitan Gastello» (Maqsud SHayxzoda), «Vatan haqida qo'shiq» (Uyg'un), «Vatan», «Chavandoz» (Temir Fattoh), «Qurol bering menga ham!», «Bizning oila» (Zafar Diyor), «To'pchi Muhammad» (Sulton Jo'ra), «Onamning aytganlari» (Adham Rahmat), «Biz yengamiz» (Hasan Said) kabi asarlarda o'z ifodasini topdi.

Zafar Diyor yaratgan qahramonlar yosh bo'lishiga qaramay juda qasoskor. Ular tinchlik, osoyishtalik shaydolari, nemis-fashist bosqinchilarini qattiq qahr-g'azab bilan la'natlaydilar. Zafar Diyor «Qurol bering menga ham!» she'rida lirik qahramon tilidan Shundaymisralarni bitadi:

Meni kichik demangiz,
Kamsitmangiz kuchimni,
Bosqinchidan olgumdir
Xalq qasosi — o'chimni!

Nemis-fashist bosqinchilari barcha qatori yosh bolalarning ham osuda hayotini buzdi. Ularni daryo, ko'llar bo'yida baliq tutib, hordiq chiqarishdan, bilim olib, quvnoq o'yin-kulgu bilan yashashdan mahrum etdi. SHuning uchun ham yosh vatanparvar butun xalq bilan bir tan, bir jon bo'lib, qo'lida qurol bilan dushmandan o'ch olishga shaylandi:

Qurol bering menga ham,
Qurol bering menga ham.
Razil nemis boshiga

Men ham solay katta g'am, —deya shijoat ko'rsatishi bilan diqqatni tortadi. Urush davri bolalar adabiyotida front orqasini mustahkamlash ishi ham alohida mavzu bo'lib qolgan edi. Zafar Diyorning «Maktab — sening fronting», «Poezd ketar frontga», «Temirchilar minbari», Shukur Sa'dullaning «Yoshlik», «Sen nima qilding?» kabi asarlarida bolalarning front orqasini mustahkamlashdagi jangovar mehnatlari namoyon bo'ladi.

Urushdan so'nggi davr bolalar she'riyatida ona-Vatan, go'zal diyor, hur o'lkamiz to'g'risida yaratilgan asarlar diqqatga sazovordir. «Yashna, Vatan» (I. Muslim), «Obod o'lkam», «Yurtimizning yuragi» (P. Mo'min), «Mening Vatanim», «Baxtli bolalar» (Q. Hikmat), «O'lkamizning tongi otmoqda» (A. Rahmat), «Dehqon bobo va o'n ikki bolakay qissasi» (A. Oripov), «Ona degan so'z» (O. Matjon) kabi bu mavzuda yaratilgan she'rlarni sanagan bilan tamom bo'lmaydi.

Abdulla Oripovning «Dehqon bobo va o'n ikki bolakay qissasi» she'ri bolalar adabiyotining keyingi yillarda qo'lga kiritgan jiddiy yutuqlaridan bo'ldi. O'zbek bolalar she'riyatida O'zbekiston haqida ko'plab asarlar bor. A. Oripov ularni takrorlamasdan o'ziga xos original asar yozgan. She'r qahramonlari o'n ikki viloyatdan chiqqan a'lochi, jamoatchi o'quvchi bolalar. Ular o'z joylarining tarixini yaxshi bilishadi. Poezdga o'zlariga

hamroh bo'lgan boboning savollariga lo'nda-lo'nda qilib javob berishadi. O'zbekistondagi har bir viloyatning o'ziga xos boyligi, shaharlari, bag'rikeng odamlari kitobxon ko'z o'ngida bir-bir gavdalanadi.

O'zaro suhbat asosiga qurilgan bu she'rda boboning yakuniy nutqi juda salmoqli. To'rt misra she'r bilan tobora gullab-yashnab borayotgan, o'z taqdirini o'zi bunyod etayotgan diyorimizning husni jamoli, salobati va qudrati bir butunligicha ifoda etilgan:

Siz atagan har bir joy
Bitta bo'ston bo'ladi,
Hammasini qo'shsangiz,
O'zbekiston bo'ladi.

O'zbek xalqi avvaldan mehnatkash xalq. Ishchanlik bizga otabobolarimizdan meros bo'lib qolgan. Q. Muhammadiyning «Etik», «Buvimning hikoyasi», H. Yoqubovning «Sirdaryo oftobi», SHukur Sa'dullaning «Hovlimizning bolalari», «Dastyor qiz», «Bog'bon qiz», Ilyos Muslimning «Oyxon va rayhon», «Ishchan asalarilar», «Sening sovg'ang», Po'lat Mo'minning «Dalalarga qarasam», «Oftob chiqdi olamga», Quadrat Hikmatning «Bobo va nabira», «Jo'jam, yurma laqillab», Tolib Yo'ldoshning «Vaqt qadri», Yusuf SHomansurning «Baraka», «Tikuvchi» she'rlari bevosita mehnat mavzusiga bag'ishlangan.

Shoirlarimiz o'z asarlarida bolalarni mehnatkash bo'lishga, mehnat ahlini hurmat qilishga, ularning peshona terlari evaziga bunyod etilgan narsalarni e'zozlashga, asrab-avaylashga da'vat qiluvchi she'rlari bilan kitobxon mehrini qozonmoqdalar.

Bolalarni bog'cha yoshidan boshlaboq tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim ishlardan biri hisoblanadi. Bolalar ijodkorlari bu masalaga alohida e'tibor bermoqdalar. «Kichkina bog'bon haqida doston», «Suv bilan suhbat», «Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa» (Z. Diyor), «To'rt fasl» (SH. Sa'dulla), «Bizning bog'ga kelinglar» (G'. G'ulom), «Boychechak», «G'uncha» (Uyg'un), «O'rik gullaganda» (H. Olimjon), «Yurtimiz tabiati», «Tillaqo'ng'iz» (I. Muslim), «Tabiat alifbosi», «Qanotli do'stlar» (Q. Muhammadiy), «Bahor», «Tog' manzarasi», «Suv» (Q. Hikmat), «Toshbaqa» (Y. SHomansur), «Bir cho'ntak yong'oq» (M. A'zam), «Kamalak afsonasi» (O. Matjon) va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Bolalar Shoiri Olim Mahkam o'ziga o'zi talabchan qalamkashlardan. U o'zining har bir asarini qayta-qayta ishlaydi, tilining sodda, badiiy mukammal bo'lishiga katta e'tibor beradi. Uning «Kapalak» she'rini olib ko'raylik. To'rt misradan iborat bu asar naqadar oddiy, naqadar sodda.

Ammo juda ta'sirchan. She'rdagi insonlar u yoqda tursin, hatto hasharot-u qurt-qumursqalar ham tabiatning mudom guldek yashnab turishi tarafdori ekanligi ayon bo'ladi:

—Kapalakjon, beri kel,
Buncha parvoz etasan!?

—Meni quvma, Erkinjon,
Gulni bosib ketasan.

Bugungi o'zbek bolalar she'riyati haqida gap ketar ekan, maktab hayotini aks ettiradigan asarlar haqida alohida to'xtalib o'tish kerak. Hamma narsa o'qishga, maktabga bog'liq. Maktab mavzusida yozilgan she'rlarda ozoda xonalar, unda qaynayotgan baxtli hayot, bolalarning ilmfan nurlaridan bahramand bo'lishga intilishdek ijobiy fazilatlarini ifodalaydi.

Po'lat Mo'minning «Xoh o'qishda, xoh ishdagi», «Sinfimiz qo'shig'i», «Ustozlar»; Ergash Raimovning «Endi katta bolaman» kabi asarlarida shu kunning nafari sezilib turadi.

Odatda, bolalar orzular qanotida yashaydi. «Endi katta bolaman» she'rida bolaning orzu-niyati nihoyatda buyuk — tezroq o'sib, ulg'ayib maktab o'quvchisi bo'lish:

Bultur edim oltida,	Yillar yurmas ketiga,
Yoshim yetmay qoldi-da.	Bu yil to'ldim yettiga.
Maktabga yozishmadi,	Endi katta bolaman,
O'qishga olishmadi.	Men maktabga boraman.

Ikkinchi jahon urushidan keyin o'tgan davr ichida o'nlab poemalar, ertaklar, dostonlar maydonga keldi. Oybekning «Zafar va Zahro», «Bobom»; Quddus Muhammadiyning «Dunyoda eng kuchli nima?», «Solijon»; Shukur Sa'dullaning «Laqma it», «Ikki donishmand»; Po'lat Mo'minning «O'rinbosarlar», «Eh, rosa shirin ekan», «Xolning jiyron velosipedi», «Oltin nay», «Jalil eshitgan ertak»; Qudrat Hikmatning «Toshbaqalar hujumi», «Bobodehqon hangomasi», «Chovkar», «Chirchiq farzandi»; Ramz Bobojonning «Cho'pon o'g'li»; Safar Barnoevning «Biz dehqon bolasimiz», «Oltin shahar haqida afsona», «Oltin oshiqlar»; Miraziz A'zamning «Aqlli bolalar», «Bedananing buvisi»; Toshpo'lat Hamidning «Asrorqulning qo'chqori»; Ergash Raimovning «Bir dona yaproq»; Azim Usmonning «G'aroyib ajdarho»; Kavsar Turdievaning «Toshkesarlar mamlakatida» kabi doston va ertak-dostonlari yaratildi.

Hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotida she'riyat rivojlangani kabi nasrda ham salmoqli asarlar yuzaga keldi. Yozuvchilarning yangidan yangi avlodlari kamol topdi. Ayniqsa, hikoyachilik o'sdi. Bolalarning yoshi, qiziqishi, dunyoqarashiga to'la javob bera oladigan hikoyalar

bunyod etildi. Hakim Nazir, Yoqubjon SHukurov, SHukur Sa'dulla, Xudoyberdi To'xtaboyev, Turg'unboy G'oipov, Rahmat Azizxo'jaev, Latif Mahmudov, Farhod Musajon, Sobir Yunusov, Oqiljon Husanov, Mahmud Murodov, Nodir Nazarov, Ergash Raimov, Safar Barnoev, Abusaid Ko'chimov, Anvar Obidjon va boshqalarning o'nlab hikoyalar to'plamlari bosilib chiqdi.

Juda ko'p hikoyalarda kichkintoylarning hayotlari o'z ifodasini topmoqda. Shodmonbek Otaboevning «Itolg'i» hikoyasi qush, qurt-qumursqalarni sevish, ardoqlashga qaratilgan. Itolg'i chumchuq va chug'urchuqlarni tutib olib yeydigan qush. SHukurali aka Itolg'ini jiyani Shavkatga sovg'a qiladi. Shavkat uzum qo'riqlashda undan foydalanmoqchi edi. Ammo qush ularnikida o'zini erkin sezmaydi. Buning sababini surishtirganda Shavkatning otasi bu qush ozod va erkinlikni qo'msayotganligini tushuntiradi. Shavkat qushlarni yaxshi ko'radigan, rahmdil bola. U Itolg'ini qafasda uch kun zo'rg'a ushlab turadi. Qafasda qush emas, o'zi o'tirgandek bo'ladi va Itolg'ini qafasdan butunlay chiqarib yuboradi. Qush bolaga «rahmat» degandek parvoz qilib ketadi.

Bolalar qissachiligida ham ko'plab yaxshi asarlar yaratildi. Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhordan tortib bugungi kunga qadar hisoblaydigan bo'lsak, ularning soni nihoyatda o'sdi. Bunga misol qilib Hakim Nazir, Shukur Sa'dulla, Xudoyberdi To'xtaboyev, Hojiakbar SHayxov, Anvar Obidjon, Latif Mahmudov, Farhod Musajon, Habib Po'latov, Muqimjon Niyozov, Rustam Rahmonov, Iboxon, SHukur Xolmirzaev, Oqiljon Husanov, Marva Jaloliddinova, Asad Dilmurod, Abusaid Ko'chimov, Ergash Raimov, Mamatqul Hazratqulov va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Bu davr bolalar qissachiligining mavzu doirasi juda kengaydi. Kattalarning mehnati, ularning jasoratlari («Yonar daryo»), ikkinchi jahon urushida ishtirok etish («Rustamjonning sarguzashtlari»), tobora gullab-yashnab borayotgan go'zal shaharlarimiz va bag'rikeng, insonparvar odamlarimiz («Komandirning boshidan kechirganlari»), o'tmishda zulmkorlarga qarshi kurash, baxtli va yorug' kun uchun intilish («Kachal polvon»), ikkinchi jahon urushi davrida bolalar hayoti va ularning daladagi faoliyati («CHangalzordagi sharpa»), chorvadorlarga ko'mak («Oq otli»), o'quvchilarning dalachilik brigadalari («Zamon»), sho'x va o'zboshimcha bolalar, ularning qayta tarbiyasi («Bizning roman») kabi mavzular bu davr qissachiligida yetakchi o'rinda turadi.

Bu davr bolalar qissachiligida sarguzasht, ilmiy-fantastika janrlari ham rivoj topdi. Xudoyberdi To'xtaboyev («Sariq devni minib»,

«Qasoskorning oltin boshi», «SHirin qovunlar mamlakatida»), Hojiakbar SHayxov («Samo mahvaridagi namoyish», «SHom kamari», «Ajdodlar xotirasi»), Mahkam Mahmudov («Teskari ko'zlar sayyorasi»), Anvar Obidjon («0099 nomerli yolg'onchi», «Dahshatli meshpolvon»), Olloyor («Fazogir chumoli»), Oqiljon Husanov («Tog'da o'sgan bola») va boshqalar bu janrda samarali ijod qilmoqdalar.

Bolalar tarbiyasida dramaturgiya janrida yaratilgan asarlar ham katta rol o'ynaydi. Hakim Nazir, Adham Rahmat, Po'lat Mo'min, Mamarasul Boboev, Turg'unboy G'oyipov, Narimon Orifjonov, Latif Mahmudov, Farhod Musajonlarning pesalari o'zining bolalarbopligi bilan kichkintoylar quvonchiga quvonch qo'shib kelmoqda.

Hozirgi zamon o'zbek bolalar badiiy adabiyoti bilan birga bolalar adabiyotshunosligi va adabiy tanqid ham pog'onama-pog'ona o'sdi, rivojlandi. Bir qator darslik, qo'llanma, majmua, monografiya, kitoblar yozildi. O'nlab nomzodlik va doktorlik dis-sertatsiyalari himoya qilindi. SHu saylda hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyoti rivojlanishda davom etmoqda. U yangi yozuvchilar, yangi asarlar bilan tobora boyib bormoqda. Bir so'z bilan aytganda, bu adabiyot jonajon O'zbekistonimizning tobora gullab-yashnashi uchun xizmat qilmoqda.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Bolalar adabiyotining paydo bo'lishi haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. Bu adabiyotning maydonga kelishida Sharq allomalarining roli nimada?

3. O'tgan asrning 20 — 30- yillarida kimlar bolalar adabiyoti bo'yicha ijod qildi?

4. O'tgan davrda she'riyat, nasr, dramaturgiya, bolalar adabiyotshunosligining rivoji qanday bo'ldi?

5. Bolalar adabiyotining so'nggi yillar davri yutuqlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

O'zbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirgan asosiy omillar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

+ XX asr boshlaridagi "usuli savtiya" maktablari o'quvchilariga mo'ljallangan alifbo va o'qish kitoblari (majmualar) maydonga kelib,

ularga tom ma`nodagi o`zbek bolalar adabiyotining tug`ilishi deb qarash mumkin.

- XX asrdagi maktab darsliklari birinchi marta bola dunyoqarashi, qiziqishlari, tafakkur olami hamda yosh xususiyatlariga muvofiq yozilgan; ulardagi badiiy ijod namunalari ham kichkintoylar tasavvuriga yaqin bo`lgan.

- Turkistonda jadidchilik harakatining ommaviylashuvi bolalar adabiyotining yuzaga kelishiga turtki bo`ldi.

- bola dunyoqarashi, qiziqishlari, tafakkur olami hamda yosh xususiyatlariga muvofiq asarlaning yozilgani.

XX asr boshlaridagi o`zbek ma`rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandasi, Toshkentdagi “usuli savtiya” maktablarining asoschilaridan biri, o`zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga samarali hissa qo`shgan Shoir qaysi javobda keltirilgan?

+ Mahmudxo`ja Behbudiy.

- Hamza Hakimzoda Niyoziy;
- Abdulla Avloniy;
- Sadriddin Ayniy;

“Zafar va Zahro”, “Haqgo`ylar”, “Bobom” dostonlari muallifini aniqlang.

+ Oybek.

- Sulton Jo`ra;
- G`.G`ulom;
- Zafar Diyor;

Oybekning avtobiografik qissasining nomi qaysi javobda to`g`ri?

+ “Bolalik”;

- “Alisherning yoshligi”;
- “Zafar va Zahro”
- “Shoirning bolaligi”

Oybekning biografik qissasi nomi qaysi javobda to`g`ri?

+ “Bola Alisher”;

- “Bolalik”;
- “Zafar va Zahro”;
- “Haqgo`ylar”

Oybekning xorijlik bolalar hayotidan hikoya qiluvchi qissalari qaysi qatorda to`g`ri korsatilgan?

- + “Qonli barmoqlar”, “Zafar va Zahro”;
- “Alisherning yoshligi”, “Haqgo`ylar”;
- “Bobom”, “Bolalik”;
- “Singan umid”, “Tillatopar”.

Oybek buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodini o`rganishga kirishgan davri va Navoiy haqidagi asarlari nomi qaysi javobda to`g`ri?

- + 1928 yildan, “Navoiy”, “Guli va Navoiy” dostonlari, “Navoiy” romani, “Alisherning yoshligi” qissasi;
- 1940 yildan, “Navoiy” romani, “Alisherning yoshligi”, “Bolalik”, qissalari;
- 1960 yillardan, “Guli va Navoiy”, “Navoiy”, “Bobom” dostonlari;
- “Husayn va Navoiy”, “Alisher navoiy” qissalari.

“Bolalik” qissasidagi Musa obrazining hayotdagi asosi qaysi javobda to`g`ri?

- + adib Oybekning bobosi;
- adib Oybekning o`zi;
- adib Oybekning ukasi;
- adib Oybekning otasi.

H.Olimjon “Oygul va Baxtiyor”ni xalq og`zaki ijodidagi qaysi ertak asosida yozgan?

- + “Malikai Husnobod”;
- “Malikai Turandot”;
- “Guliqahqah”;
- “Uchar gilam”;

**# Do`stlar mening yurtimni,
O`zbekiston deydilar.**

Dong`i tutgan dunyoni

Bog`u bo`ston deydilar. Ushbu misralar muallifi kim?

- + Hamid Olimjon;
- Zafar Diyor;
- Q.Muhammadiy;

- Q.Hikmat.

“Kapalak”, “Binafsha”, “Navbahor”, “Qushlar haqida qoʻshiq” singari mashhur sheʼrlar muallifi va bu asosan qaysi yoshdagi bolalarga moʻljallanganini aniqlang?

+ Z.Diyor, kichik maktab yoshidagi bolalarga;

- Gʻ.Gʻulom, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga;

- Q.Muhammadiy, bolalar va oʻsmirlarga;

- Shukur Saʼdulla, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga;

4-MAVZU. ALISHER NAVOIY VA GULXANIY IJODIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

REJA:

1. Alisher Navoiyning "Xamsa" turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalar.
2. Alisher Navoiyning pand-nasihati mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy qarashlar.
3. "Hayrat ul-abror"-ta'lim-tarbiya asosi
4. "Farhod va Shirin"-nazmda bitilgan didaktik manzuma.
5. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarining yaratilish tarixi.
6. Uning tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan

Tayanch tushunchalar: "Navoiy aforizmlari", Hodi Zarif, maqolot, hikoya, masal, axloqiy-ta'limiy qarashlari, millatning o'zligini anglash, "Hamida af ol va zamima hisol xosiyatida", ramz, she'riyat, nazm.

Alisher Navoiy (1441 - 1501)

O'zbek xalqining ulug' mutafakkiri, ma'rifatparvari va buyuk Shoiri Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e'tibor berdi. U bolalarni ilm-hunarni, mehnatni sevishga undab, o'rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo'lida sarf qilish zarurligini uqtirdi.

Alisher Navoiy ilm, ma'rifat haqida ajoyib fikrlarni olg'a surdi. U aql, ilm insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o'qish-o'rganish kerak: «Yoshligingda yig'gil bilimni, qarigach sarf qilg'il ani», degan Shoirning o'zi ham juda yoshligidan ta'lim oladi, o'qishga beriladi. U yoshligidanoq ko'p she'rlarni yod bilgan. Jumladan, Fariddin Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qush nutqi») asarini bolalik chog'laridayoq qayta-qayta o'qib, yod olgan. Alisher Navoiy keyinchalik maktab va maorif masalalariga katta ahamiyat berdi. U mehnatkash xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to'g'risida g'amxo'rlik qildi.

Alisher Navoiy Astrobodda yurganida podsho Husayn Boyqaroga yozgan xatida o'g'il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o'zi madrasalar qurishda tashabbus ko'rsatgani buning yaqqol dalilidir. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o'zining «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo'lgan mablag' ajratadi.

Navoiy dars beruvchini quyoshga o'xshatadi va bu quyosh o'z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya'ni hali ilmdan bexabar bo'lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma'rifat beradi, deydi.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ko'proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma'rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi.

Buyuk so'z san'atkori va mutafakkiri o'zining bir qancha asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarini aytish bilangina kifoyalaniq qolmasdan, balki «Hayrat ul-abror», «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun» kabi dostonlarining ayrim boblarini shu masalaga bag'ishlaydi. «Hayrat ul-abror» (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) falsafiy-ta'limiy dostondir. Navoiy bu asarida o'zining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy hamda kishilarga ta'lim va o'git berish masalalariga katta e'tibor beradi. Dostonda zolim hukmdorlarni qoralab, ikkiyuzlamachi, riyokorlarning sir-asrorlarini keskin fosh etadi. Xususan, Shoir saxiylik, odob va kamtarinlik, ota-onaga hurmat, rostgo'ylik va to'g'rilik, ilmning foydasi va kambag'al o'quvchilarning bu yo'lda chekkan azoblari haqida batafsil to'xtalib o'tadi.

«Hayrat ul-abror» asarining bir necha boblari odob-axloq va ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni o'stirish, o'qitish va balog'atga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo'lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta'riflaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a...

Tun-kununga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh...

Dostonning sakkizinchi maqolotida Navoiy yolg'izlikka nisbatan ko'pchilik—jamoatni ulug'lab, kishilarning bir-birlari bilan ahil, do'st bo'lishlarini istaydi:

...Yo'q hunari yolg'uz esa, o'z ishi,
Qayda kishi sonida yolg'uz kishi?
Fard² kishi davrda topmas navo,
Yolg'uz ovuchdin³ kim etmish sado?...

«Hayrat ul-abror»ning o'ninchi maqoloti rostgo'ylik, halollik va to'g'rilikka bag'ishlangan. Navoiy unda kishilarni rostgo'y va to'g'ri bo'lishga chaqiradi, yolg'onchilik va egrilikning zararli oqibatlarini keskin fosh etadi. Shoir yolg'on so'zlashning yomon oqibatini «SHer bilan Durroj» masalida ovchining tuzog'iga tushgan Durroj timsolida hikoya qiladi.

Dostonning o'n birinchi maqolotida Navoiy ilm-fanga, ilm ahliga yuksak baho beradi. Kishilarni ilm olishga, olimlarni izzat-hurmat qilishga chaqiradi. Shu bilan birga, Shoir o'sha davrda mehnatkash va musofir talabalarning ilm olish yo'lida chekkan mashaqqatlaridan, ilm-fan egalarining muhtojlikda yashaganliklaridan afsus-nadomatlar chekadi. Navoiy ilmdan amalda foydalanish zarurligini ta'kidlaydi:

Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,
Endiki ilm o'ldi amal aylagil.

Navoiyning yaramas odat va xulq-atvorlarni shafqatsiz qoralashi, oliyjanob insoniy fazilatlarini qadrlashi, bolalarni o'qish, o'rganish va yuksak odobli, a'lo xulqli bo'lishga chaqirishi katta ahamiyatga ega bo'lib, bolalar adabiyotining shakllanishida juda muhimdir. Uning bir qator axloqiy-ta'limiy qarashlari hozirgi kunda ham o'z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda.

«Farhod va Shirin» dostonida Shoir chin sevgi va vafo, do'stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik hamda qahramonlik g'oyalarini tarannum etadi. Doston yoshlar va bolalarga atab yozilmagan, lekin asarning ko'pgina boblari bolalar va yoshlar hayotiga, ularning

² Fard — yakka, yolg'iz.

³ Ovuch — hovuch, qo'l kafti.

tarbiyasiga bag'ishlangandir. Shoir dostonida Farhodning bolalik chog'laridanoq ilm-hunarga, mehnatga bo'lgan muhabbatini zo'r mahorat va chuqur samimiyat bilan tasvirlagan. Bu Navoiyning bola tarbiyasiga va uning bilim olishiga katta e'tibor bilan qaraganligini ko'rsatadi.

Farhod yoshlik chog'idanoq juda aqlli, zeharli bola bo'lib o'sadi. U maktabda zo'r havas va qunt bilan o'qiydi. Tabiiyot, matematika, mantiq kabi fanlarni tez orada o'rganib oladi. Yosh Farhodning ilmga bo'lgan havas va muhabbatini sezgan ota-onasi unga bilim berishni munosib ko'radi. Jahonning mashhur olimlari Farhodga turfa fanlardan saboq o'qitardi. Natijada eng murakkab va pinhoniylar unga o'z sir-asrorini to'liq namoyon etadi. U qunt va chidam bilan o'qib, bilimdon va zukko inson bo'lib yetishadi. Shoir Farhod hayotini bunday jonli lavhalarda tasvirlash orqali bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berishga chaqiradi, ularni yoshligidan boshlab o'qitish zarurligini, bunda ota-onaning vazifasi nihoyatda katta ekanligini, bolalarga ilm o'rgatish muhimligini ta'kidlaydi.

Farhod qaysi fanni o'qimasin, uni darrov tushunib oluvchi qobiliyat egasi sifatida tasvirlanadi:

Agar bir qatla ko'rdi bir saboqni,
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.
Ne so'z nikim, o'qib ko'ngliga yozib,
Dema ko'ngliki, jahon lavhiga qozib.

U davrda bolalar chuqur, yodaki o'qitilar edi. Bolalar o'zlari yodlagan narsalarining ma'nosiga tushunmas ham edilar. Shundaybir vaqtda Navoiy bolalarni ilm-fanga qunt qilish, o'qilgan narsaning ma'no-mazmunini tushunib olishga undar edi:

O'qib o'tmak, uqib o'tmak shiori,
Qolib yonida, safha-safhabori...

Farhodning qunt qilib, ma'nosini tushunib o'qishi natijasida ko'p ilmlarni egallaganligi ta'kidlanadi:

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.

Shu tariqa Navoiy bolalarni ilmni puxta egallashga chaqirib, buyuk pedagog hamda murabbiy sifatida ularni tarbiyalash va o'stirish yo'llarini ko'rsatadi,

Bundan tashqari, dostonida Farhod jismoniy tomondan chiniqqan yigit sifatida tasvirlanadi. U suvda suzish, chavandozlik va qilichbozlik sirlarini mehr bilan o'rganadi. Alisher Navoiy yoshligidan boshlab ilmga berilgan, jismoniy jihatdan chiniqqan Farhodni har tomonlama mukammal, ma'naviy, jismoniy go'zal, yetuk yigit timsolida beradi. Shuningdek, Navoiy Farhodni mehnat va hunarga katta havasli, sangtaroshlik, rassomlik va naqqoshlik hunarlarini ham mukammal egallab olgan yigit sifatida ulug'laydi.

Ilm va hunarni egallagan, jismoniy jihatdan chiniqqan, mehnatsevar Farhod kamtarin, mazlumlarga g'amxo'r, sofdil, mard va oliyjanob, jasur inson bo'lib yetishadi.

Farhod boshchiligida va uning bevosita fidokorona mehnati natijasida katta kanal («Hayot daryosi») va hovuz («Najot dengizi») qaziladi. Navoiy Farhodni suvsiz yerlarga suv chiqargan qahramon, mehnat sohasida mo''jizalar ko'rsatgan bahodir yigit sifatida ta'riflaydi. U ilm va hunarni omma manfaati uchun xizmat ettirish lozim deb hisoblaydi. Farhod SHirinni qidirib Armanistonga borganda, arman yurtida tog'da kanal qazish uchun qiyinalib ishlayotgan kishilarni ko'radi va:

Hunarni asrabon netkumdir oxir,

Olib tufroqqamu ketkumdir oxir! —deya, o'z bilimi, hunar va g'ayratini ishga soladi, kanal qazuvchilar mashaqqatini yengillashtiradi va xalq o'rtasida katta shuhrat qozonadi.

Bu qahramonning muhim xislatlari undagi qahramonlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik va do'stlik tuyg'ularidir. Farhod el-yurtining obodonligi uchun kurashadi hamda insonlarga ofat keltiruvchi dushmanlarga qarshi jang qilib, ularni mardona yengadi.

Bundan tashqari, Navoiy Farhod, Shirin va Shopur timsolari orqali xalqlar do'stligi g'oyasini ilgari suradi. Farhodning arman qizi SHirinni sevishi va eronlik Shopur bilan do'stlashuvi xalqlar do'stligi g'oyasining yorqin namunasidir.

Navoiy Farhodning jasoratini badiiy tasvir etar ekan, uning mamlakat obodonligi va tinchligi, xalqlar farovonligi va ilm bobida qilgan xizmatlarini chuqur mazmunli misralarda uyg'unlashtiradi:

Ki to olam, binosi bo'ldi bunyod,

Bu yanglig' qilmadi ish odamizod.

Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida ilgari surilgan yuksak insoniy xislatlar, insonparvarlik g'oyalari yosh kitobxonlar ma'naviyatiga ham chuqur ta'sir etadi, ularni xalq, Vatan uchun kerakli inson bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi.

Buyuk Shoir bolalarning o'qishi va tarbiyasiga doir fikrlarini «Layli va Majnun» dostonida ham ilgari surgan. Yangi maktablar bino qilish g'oyalarini targ'ib qilgan Navoiy maktablarda o'g'il bolalar bilan bir qatorda qizlarning ham o'qishlarini orzu qiladi.

Alisher Navoiy o'zining Farhod, Qays, Iskandar va boshqa ijobiy obrazlarida tarbiyalanish, ta'lim olish borasida bosib o'tgan yo'lini, kamolotga yetish bosqichlarini tasvirlab, bolaning voyaga yetishida tarbiyaning katta kuch-qudratga ega ekanligini alohida uqtiradi.

Shoirning 1500-yilda yaratgan «Mahbub ul-qulub» (Ko'ngillarning sevgani) asari ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy qarashlari bayon etilgani bilan qiziqarlidir.

Navoiy bu asarida sabr, qanoat, kamtarinlik (Muqbil va Mudbir), vafo, hayo, karam (muruvvat), saxovat, himmat, oliyjanoblik, mardlik, halim (muloyim tabiatlilik), do'stlik, ilmga amal qilish, shirinso'zlik, rostgo'ylik kabi fazilatlarini ulug'laydi, aksincha, baxillik, badfe'llik, hasadgo'ylik, chaqimchilik, xasislik, yolg'onchilik, tamagirlik, nodonlik (bilimsizlik), takabburlik, mayxo'rlik (badmastlik), badnafslilik (ochko'zlik) kabi yomon illatlarni qattiq qoralaydi: «Chin so'z — mo'tabar, yaxshi so'z — muxtasar. Ko'p so'zlovchi — zeriktiruvchi. Kishi aybini gapiruvchi — o'ziga yomonlik sog'inuvchi (birovlarining aybini izlashdan ko'ra, odam o'z ayblarini topib, ulardan qutulishi oqillikdir, demoqchi bo'ladi Shoir). Agar so'z go'zallik ziynati bilan bezalmasa ham, unga chinlik bezagi yetarlidir! Yolg'onchining gapi qanchalik chiroyli bo'lsa, shunchalik qabihdir. Aqlli odam yolg'on gapirmas, ammo barcha rost gaplarni aytaverish ham to'g'ri emas».

Navoiy xushmuomala, ochiq yuzli odamlarni maqtaydi: «Ochiq yuzidan xaloyiqqa xursandlik, chuchuk so'zidan el-yurtga xurramlik. Tilini tiyolgan odam — donishmand, oqil. So'ziga erk bergan (ko'p vaysagan) odam — beandisha va pastkash. Yolg'onchi Haq oldida gunohkor, xalq oldida sharmanda. Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz».

«Mahbub ul-qulub» 3 qismdan iborat. Kitobning 1-qismi «Halollik ahvoli va afoli va ahvolining kayfiyatida», ya'ni kishilarning fe'l-atvori va gap-so'zlarining ahamiyati haqida bo'lib, bunda Navoiy donishmand va murabbiy, ulkan madaniyat arbobi sifatida ilm-fan, san'at va adabiyotning ahamiyatini targ'ib qiladi, malakali, iqtidorli o'qituvchilarni, olimlarni, Shoirlarni, san'atkorlarni maqtaydi, ularni hurmat qilishga va qadrlashga chaqiradi. O'qish ham, o'qitish ham og'ir va mas'uliyatli ish, u qunt, havas va mehnat talab qiladi, deb uqtiradi Navoiy. Bu o'rinda u murabbiylarning halol xizmatlarini alohida ta'kidlaydi:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Kitobning 2- qismi, asosan, axloqiy masalalarga bag'ishlangan. Bu bobda yaxshi fazilat va yomon xislatlar tahlil qilinadi. To'g'rirog'i, insonda bo'lishi kerak bo'lgan odob-axloq haqida gap boradi. Masalan, qanoatni olaylik. Navoiy qanoatli odamlarni sevadi, ularga havasi keladi. Kimki qanoatli bo'lsa, unday odamni el sevishini, e'zozlashini ta'kidlaydi. Mutafakkir qanoatni bir buloqqa — chashmaga o'xshatadi. Negaki buloq suvini qancha olgan bilan qurimaydi, u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug'i izzat va shavkat hosilini beradi. U bir daraxtki, unda qaram bo'lmaslik va hurmat mevasi bordir. Bu bobda sabr, tavoze haqida ham ko'p ibratli gaplar aytiladi.

«Turli foydali maslahatlar va maqollar», deb nomlagan 3-qismida turli tashbehlar berilgan. Bu qismda ko'proq o'qish, ilm olish, kasb-kor egasi bo'lish va boshqa masalalar o'rta tashlanadi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida xalq og'zaki ijodidan, ayniqsa, maqollardan samarali foydalanish bilan birga, o'zi ham ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, maqollarga yaqin bo'lgan bir qancha hikmatlar yaratadi. Masalan:

Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q.
Tilga e'tiborsiz — elga e'tiborsiz.
Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.
Bilmaganni so'rab o'rgangan — olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

MUHAMMAD SHARIF GULXANIY

Isyonkor kuychi Gulxaniy XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan va bu davr o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rinda turadigan yozuvchidir. Uning asl ism-sharifi Muhammad Sharif bo'lib, Gulxaniy esa uning adabiy taxallusidir. Taxminlarga ko'ra, u XVIII asrning 70- yillarida hozirgi Xo'jand viloyatining Darvoza qishlog'ida dunyoga keladi.

Bo'lajak yozuvchining bolaligi o'zi olamga kelgan tog' qishlog'ida o'tadi. Bu yerda ozmi-ko'pmi o'qib, savod chiqaradi, adabiyotga bo'lgan havasi ortadi. She'riyatga oid ko'plab asarlar o'qiydi, xalq og'zaki ijodini berilib o'rganadi va asta-sekin she'riy mashqlari boshlanadi. U o'z ilmini oshirish maqsadida avval Namangan, so'ngra Farg'onaga keladi,

qiziqchiligi, hozirjavoblighi va hajviy she'rlari bilan kishilar o'rtasida tanila boshlaydi. Ayniqsa, g'ariblik turkumidagi ruboiy va to'rtliklari bilan el og'ziga tushadi. Shoir keyinchalik Qo'qonga keladi va qiyinchilik bilan kun kechiradi. U o'zbekcha she'rlariga Gulxaniy, tojikcha she'rlariga Jur'at deb taxallus qo'yadi.

Gulxaniy bir necha yil Qo'qon xoni Olimxon saroyida navkar bo'lib xizmat qilgan, janglarda qahramonlik ko'rsatgan bo'lsa-da, ammo ochlik, yupunlik, muhtojlik uning hamrohi bo'lib qolaveradi.

Gulxaniyning «Ber menga» radifli she'ri uning navkarlik davrida yozilgan asaridir. G'azal och qolgan kishining o'z xo'jayinidan non so'rashi bilan boshlanib, lirik qahramon — navkarning qalb alamlari so'nggi baytlarda izchil ochila boradi.

Bu g'azalga chuqurroq nazar tashlansa, unda faqat yakka, ochlikdan tinkasi qurigan ayrim shaxs haqida gapirilmay, balki katta ijtimoiy masala — Olimxonning navkarlari orasidagi ichki hayot sharoiti haqida gap boradi. G'azalda lirik qahramonning qiyofasi umumlashma timsol darajasiga ko'tarilgan, chunki Olimxon navkarlaridan faqat Gulxaniy xon iltifotiga sazovor bo'lolmadi, degan qarorga kelish yanglishdir. Demak, lirik qahramon — navkar o'z boshidan kechirganlarini bayon qilish asosida Olimxonning navkarlarga muruvvatsizligi va qo'shindagi tartibsizlikni fosh qiladi. O'z huquqini yoqlash bilan boshqa navkarlarni ham ana Shundayish ko'rishga da'vat etadi:

Hazratim, ochlikdan o'ldim, yegani non ber menga,
Kofir o'lg'ayman agar desamki, bahmon ber menga.
Mosh-u bug'doy-u guruch berkim, shular menga kerak,
Hech aytmasman aqiq-u la'l-u marjon ber menga.
Egnima yopiq berib, qornimni to'yg'iz non bilan,
Senga bilo kim demasman din-u iymon ber menga.
Navkaring ochlikdan o'lsa, nega hayfing kelmagay,
Ey tabibi hoziqim, dori-yu darmon ber menga.
Non-u to'n ber, benavolik dardidan qutqar meni,
Men qachon aytdimki, Qorun ganjidek qon ber menga...
Gulxaniyni er yigitlar to'pidan kamsitmagil,
Fo'ta ber, ot ber, to'n-u chakmon ber menga.

Xalq zolim deb atagan Olimxondan keyin Qo'qon taxtiga chiqqan Umarxon hukmronligi davrida ham Gulxaniy turmushida hech qanday o'zgarish bo'lmadi.

Gulxaniy avval adashib, turmushim yaxshi bo'larmikan, qornim nonga to'yarmikan, degan o'y-umidlar bilan Umarxon saroyidagi maddoh

Shoirlar guruhiga qo'shiladi. Xonni maqtab qasida va g'azallar yozadi. Qasidalarida Umarxonni ko'klarga ko'tarib maqtaydi, xonga unda bo'lmagan yaxshi xislatlarni taqadi, uni fuqaroparvar, adolatparvar, zulm va haqsizlikka xotima beruvchi kishi qilib tasvirlaydi va bu bilan xonni ana Shundayijobiy xislatlar egasi bo'lishga da'vat etadi. Ammo Umarxon saroyidagi fisq-fujurlar, munofiqliklar, xon va uni o'rab olgan arkoni davlat tayanchlari tomonidan xalq boshiga keltirilgan qora kunlar Gulxaniydek hassos Shoirning saroy ahliga bo'lgan munosabatini o'zgartirib yuboradi: endi u ba'zan ixtiyoriy ravishda va ba'zan payrovlik qilib shohni ta'riflashdan chekinadigan bo'ldi, o'z e'tirozlarini bildira boshladi.

Gulxaniy XIX asrning birinchi yarmida vafot etdi. Bizga Gulxaniydan meros bo'lib qolgan «Zarbulmasal» xalq ertaklari taxlitida yozilgan mukammal mazmunli o'tkir hajviy asardir. Gulxaniy o'zining bu asarida xalqning mazmundor maqollari, hikmatli so'zlari va qochirimlaridan mohirlik bilan foydalandi. U hukmdorlar va ularning laganbardorlarini, saroy ahlining yaramas kirdikorlarini majoz yo'li bilan o'tkir hajv ostiga oladi. Chunki u mehnatkash xalqning og'ir, mashaqqatli hayotini o'z ko'zi bilan ko'rdi, saroy bazmlari, keti uzilmas mayparastliklar xalqni talash hisobiga bo'lishini payqadi va bunday salbiy ishlar uning ko'zini ochdi. Natijada unda saroy ahliga nisbatan nafrat hissi tobora oshib bordi. Shoir, sharoitga ko'ra, hukmron doiralardan noroziligini va nafratini ochiq-oydin ifodalay olmas edi. Shuning uchun majoziy shakldagi «Zarbulmasal» asarini yozishga kirishdi. Asarda Shoirning maqsadi, hayotga, uni o'rab olgan muhitga, hokim tabaqalarga bo'lgan munosabati to'g'ridan to'g'ri ifoda etilmay, balki hayvonlar, qushlar va shunga o'xshash majoziy obrazlarning tasviri orqali ifodalandi. Shoir shu zaylda o'zi yashagan zamon uchun aniq voqea-hodisalarni, ularga o'zining munosabatini, qarashlarini tasvirladi.

Muallif o'z masallarida majoziy qiyofalar orqali o'sha davrdagi hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, xalqqa qashshoqlik keltirgan o'zaro urushlarga qarshi ommaning noroziligini ifodalaydi.

Gulxaniy o'z zamonida sodir bo'lgan talon-tarojlik, xalqni qiynash, ortiqcha soliqlar solish kabi voqealarni ochiqdan ochiq yoza olmas edi. U buni faqat ertak yo'li bilan amalga oshirish mumkin ekanligini tushunardi. Shuning uchun Yapaloqqush va Boyo'g'li bir-biriga quda bo'lishi voqearini keltiradi. Bu ikki quda to'y bahonasi bilan mamlakatni xonavayron qiladi. Yozuvchi Ko'rqush, Hudhud, Kulonkirsulton,

Sho'ranul, Malik shohim va Kordonlarning bir-birilariga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g'oyaviy mazmunini ochadi.

Yapaloqqush va Boyo'g'li yuqori tabaqa vakillari. Ularning xatti-harakatlari ochko'z va qonxo'r bo'ri, aldamchi va shayton tulkilarga o'xshaydi. Bularning o'y-fikrlari, yurish-turishlari, shumlik, shahar va qishloqlarning vayron bo'lishi ular uchun bayramdir.

Gulxaniy «Maymun bilan Najjor» masalida hunar va hunar ahlini ulug'ladi, qo'lingdan kelmaydigan ishga aslo urinib kulgi bo'lma, ko'r-ko'rona birovga taqlid qilib falokatga yo'liqma, degan fikrni maymun qismati orqali ko'rsatadi.

Najjor juda aqlli va mohir hunarmand sifatida tasvirlanadi. U ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug'ullanishni har narsadan yuqori qo'yadi. Gulxaniy Najjor va uning mehnatini, duradgorlik mahoratini katta muhabbat bilan tasvirlar ekan, hattoki maymun ham mehnatga muhabbat bilan qaraydi, hunarga va hunar egasiga uning havasi keladi, degan fikrni olg'a suradi.

Mehnatkash xalqning og'ir hayoti, huquqsizligi va nochorligi, bir so'z bilan aytganda ayanchli qismati «Tuya bilan bo'taloq»da o'ziga xos badiiy ta'sirli qilib beriladi.

Gulxaniyning tasvirlashicha, tuya hayotda ezilgan, tutqun, erk-ixtiyorsiz, og'ir mehnat bandasi hamda qullik qismatiga mahkum etilgan mehnatkashlarning majoziy timsolidir. Bo'taloq esa ona sutiga ham to'yolmay, og'ir mashaqqatli hayot kechirgan, och-yalang'ochlikda, muhtojlikda yashagan erksiz mehnatkash bolalarning timsolidir.

Gulxaniyning «Toshbaqa va Chayon» masalida bir-biriga zid va qarama-qarshi ikki timsol berilgan: Toshbaqa — aqlli, farosatli, safarlarda ko'p yurib, ancha tajriba orttirgan, insofli, sodiq va qadrdon do'st timsoli. U o'z hamrohi Chayonning suvdan o'ta olmasligini bilgach, unga yordam qo'lini cho'zadi. Lekin Toshbaqa Chayonning xiyonatini — «sen bilmaysanmi Chayonning muddaosi xoh do'stning ko'ksiga, xoh dushmanniing orqasiga bo'lsin nish urishdir» degan javobini eshitgach, uni halok qiladi. Gulxaniy bu masali orqali Chayonga o'xshagan odamlar bilan do'st va hamroh bo'lmaslikka, kishi o'zini va taqdirini o'shanday kishilarga topshirib qo'ymaslikka chaqiradi.

Chayon butun umri bo'yi birovlariga yomonlik qilgan, ularga ziyon-zahmat yetkazgan, yaxshilikni bilmaydigan, yaxshilikka yomonlik qaytaradigan, xiyonatkor toifalarning ramziy qiyofasidir.

Gulxaniy shu zaylda hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotining maydonga kelishida barakali hissa qo'shgan qalamkashdir.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Alisher Navoiyning bolaligi, o'qishi to'g'risida qanday tushuncha hosil qildingiz?
2. A.Navoiy qaysi dostonlarini ko'proq bolalar tarbiyasi masalasiga bag'ishladi?
3. A.Navoiyning odob-axloq haqidagi qaysi asarlarini bilasiz?
4. Gulxaniyning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
5. «Zarbulmasal»dan kutilgan maqsad nima?
6. Gulxaniyning qanday masallarini bilasiz?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

Alisher Navoiy ijodining bolalar kitobxonligidagi o'rni qaysi asarlar bilan belgilanadi?

- + "Hayratul abrор", "Mahbub ul-qulub", "Arbain hadis";
- "Farhod va Shirin", "Lisonut tayr", "Sabba'i sayyor";
- "Saddi Iskandariy", "Layli va Majnun", "Mantiqut tayr";
- "Majolisun -nafois", "Mantiqut tayr";

Qaysi javobda "Hayratul abrор" dostoniga xos asosiy xususiyatlar noto'g'ri bayon etilgan?

- + Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribalarining natijalari, xulosalari bo'lib, aforistik xarakterga ega;
- Doston 1488 yilda yozilgan bo'lib, 64 bobdan tarkib topgan;
- Dostonning asosini 20 maqolot tashkil etadi, hikoya va masallar ularga ilovalar sanaladi;
- Shoir bu asarda axloqiy-ta'limiy qarashlar silsilasida xulq -odobni, mehnatsevarlikni, saxovatpeshalikni umuman, insonni sharafllovchi ezgu fazilatlarni targ'ib, yaramas odatlarni esa tanqid qiladi;

Navoiy umrining so'nggida ustozlari Sa'diy va Jomiylardan ilhomlanib yozgan didaktik asarining nomi, necha tarkibiy qismdan iboratligi ifodalangan javobni belgilang.

- + "Lisonut-tayr", etti asosiy qism;
- "Saddi Iskandariy", besh asosiy qism;
- "Sabba'i sayyor", etti qism;
- "Mahbub ul-qulub", uch qismdan iborat;

Odob va kamtarinlik, ta'lim va tarbiya haqidagi qimmatli fikrlar Alisher Navoiyning qaysi asarida keltiriladi?

- + “Hayrat ul-abror”
- “Farhod va Shirin”
- “Sab’ayi sayyor”
- “Saddi Iskandariy”

Bolalar dunyoqarashini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan asarlar yaratgan sharq mutafakkirlarini toping?

- + A.Navoiy, Y.X.Hojib, Al-Buxoriy
- Beruniy, Hamza, Ayniy
- A.Navoiy, Bertels, Forobiy
- A.Navoiy, Avloniy, Hamza

Navoiy qaysi asarida iqtidorli o’qituvchilarni, olimlarni maqtaydi?

- + “Mahbub-ul- qulub”
- «Farhod va Shirin»
- «Layli va Majnun»
- «Hayrat-ul abror»

Gulxaniy ijodida qaysi badiiy uslub yetakchilik qiladi?

- + Majoz
- Lirik
- Satirik
- Romantik

5-MAVZU. ABDULLA AVLONIY VA HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY IJODIDA TA'LIM-TARBIYAGA OID G'OYALAR

REJA:

1. Addulla Avloniy – ilk bolalar Shoiri.
2. Shoir she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Abdulla Avloniy – islohatchi pedagog.
4. H.H.Niyoziyning ijodiy faoliyati.
5. Hamza Hakimzoda Niyoziy – bolalarning ma'rifatparvar shoiri.

Tayanch tushunchalar: milliy uyg'onish, jadid, ma'rifatparvarlik, mohiyat, islohot, pedagog, risola, mundarija, Shoir, ma'rifatparvar, milliy ashula, yengil adabiyot, zullisonayn.

Abdulla Avloniy

(1878- 1934)

Buyuklarning, el-yurtga xizmati singgan ulug' kishilarning nomlari mangulikka daxldor bo'ladi. Asrlar osha unday odamlarning xizmatlari qayta-qayta tilga olinaveradi. Ana Shundayulug' zotlardan biri, mashhur muallim, tashkilotchi, Shoir Abdulla Avloniydir. Olimlarimiz ko'p holatda ta'lim-tarbiya haqida gapirganda, albatta, Abdulla Avloniy haqida to'xtalishadi. Uning ibratomuz so'zi va ishini misol qilib aytishadi: «Men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo siyocat, yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushohada qilaman» — deb, bu muallimning bosib o'tgan hayot yo'lini yoshlarga ibrat qilib ko'rsatishadi.

Ha, ana Shundaymaqtovga loyiq inson, o'zbek madaniyatining ulkan vakillaridan biri, pedagog, jamoat arbobi va yozuvchi Abdulla Avloniy 1878- yilda Toshkent shahrida to'quvchi oilasida dunyoga keldi.

Abdulla Avloniy boshlang'ich diniy maktabda va madrasada o'qidi, ilm-fanga ixlos qo'ydi. O'zbek va boshqa SHarq xalqlari adabiyotini

berilib o'rgandi. Abdulla Avloniy 14 yoshidan boshlab she'rlar yozishni mashq qila boshladi. Uning bu davrda yozgan ilk she'rlari o'sha davr vaqtli matbuot sahifalarida bosilib turdi.

Abdulla Avloniy xalqni ilm-fan nurlaridan bahramand qilishni o'zining birdan bir burchi deb bildi va 1904- yilda o'zi yashab turgan joy — Mirobodda maktab ochdi.

Abdulla Avloniy maktab har tomonlama bolani o'ziga tortishi uchun harakat qiladi. Uning qo'lidan duradgorlik ishlari ham kelar edi. SHuning uchun u yozuv taxtasi, parta yasab, barcha o'quv jihozlarini o'zgartirdi. Bu yerda o'qiydigan bolalarning ko'pchiligini kambag'allarning bolalari tashkil etganligi sababli muallim boy-badavlat do'stlarining ko'magida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi. Bu bilan bolalarga bepul kiyim-bosh, oziq-ovqat, daftar, qalam berilishini ta'minlaydi.

Avloniy ochgan maktabning shuhrati tobora ortib, o'quvchilarning soni ko'paya boradi.

Abdulla Avloniy o'zi tashkil qilgan maktabda bolalar diqqatini asosiy fanlarga jalb etib, ularning tezda savodini chiqarishga va aniq fanlardan bahramand bo'lishlariga harakat qildi. U bolalarga jug'rofiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlardan ma'lumotlar berdi.

U 1907- yilda «Shuhrat» deb nomlangan gazeta tashkil etdi va uning sahifalarida mehnatkash xalq manfaatlarini himoya qilishga doir fikrlarni targ'ib etdi. Jumladan, gazetaning birinchi sonida: «Matbuot har insonga o'z holini ko'rsatuvchi, ahvol-olamdan xabar beruvchi, qorong'u kunlarni yorituvchi, xalq orasida fikr tarqatuvchi, ilm, ittifoq, hikmat g'oyalarni yoyuvchidir», deb yozgan edi.

Abdulla Avloniy «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» deb nomlangan to'rt qismdan iborat bo'lgan darsligida yoshlarni maorif-madaniyatga chorlaydi, yaramas xulq-odatlarni esa tanqid qiladi.

O'sha davr xalq pedagogikasida Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» — «Alifbe», «Ikkinchi muallim» — «O'qish» kitoblari katta rol o'ynadi.

Bu kitoblarda Avloniy o'tmish adabiyotimizning eng yaxshi an'analarini davom ettirdi, ilm va ma'rifatning ahamiyatini yangichasiga talqin etdi.

«Birinchi muallim»da Avloniy dastavval 32 harfning yolg'iz yoziladigan shakllarini bir sahifa alifbo tartibida bergan. SHu sahifada alifning so'z boshida, o'rtasida va oxirida yozilishini ko'rsatgan, so'ng alifni barcha «bosh harflar»ga qo'shib, bo'g'inlar hosil qilgan.

«Ikkinchi muallim»da axloq-odobga doir, halollik va poklikka oid turli she'rlar, hikoya, masal va ertaklar jamlangan, rang-barang allegorik qiyofalardan ustalik bilan foydalangan.

Kitob «Maktab» she'ri bilan boshlanadi. Unda kimki maktabga borsa, o'qisa, savodxon bo'lsa, juda ko'p narsalarga erishishi chiroyli ta'riflanadi:

Maktab dur-u gavhar sochar,
Maktab sizga jannat ochar,
Maktab jaholatdan qochar,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

Darslikda ko'plab ibratomuz she'r, hikoya va ertaklar berilgan.

Abdulla Avloniy 1904- yildan umrining oxiriga qadar o'qituvchi bo'lib ishladi. U ko'plab she'rlar, «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklar bilan hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotiga poydevor qo'ygan edi. Uzoq yillar qayta-qayta nashr etilgan «Turkiy guliston yoxud axloq» Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nosir Xusravning «Saodatnoma», Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Donishning «Farzandlarga vasiyat» asarlari kabi o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Unda Abdulla Avloniy o'zining ijtimoiy va axloqiy qarashlarini bayon etgan. Asarning so'zboshisida muallif bu haqda Shunday yozadi: «Men bu asarimni maktablarimizning yuqori sinflarida ta'lim bermak ila barobar ulug' adabiyot muhoblari — axloq havaskorlarining e'tiborlariga taqdim qildim».

Darslikdagi har bir bo'lim ta'lim-tarbiyaning muhim bir masalasiga bag'ishlangan bo'lib, ularning biri ikkinchisini to'ldiradi, takomillashtiradi. Har bir bo'limda kichik hajmli, ibratli hikoyalar keltiriladi, she'riy parchalarda yoki hikmatli so'zlarda «qissadan hissa» chiqariladi. Yozuvchi bu asarida xalq og'zaki ijodidan keng foydalangan.

Abdulla Avloniyning «Bahor keldi», «Bulbul», «Bola ila gul», «Yolg'onchi cho'pon», «Tulki ila qarg'a» kabi juda ko'p she'rlari kichik yoshdagi bolalarga bag'ishlangan.

«Maktab bolasi» she'ri boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotidan olib yozilgan. Asarda ishyoqmas, dangasa bolaning qalbida o'qishga muhabbat uyg'onishi umumiy yo'sinda bayon etiladi:

Yo'lga soldi til ila yo'ldashin,
Maktabga moyil ayladi boshin,
Soldi o'rtog'ining so'zina quloq,

Bosdi ul ham o'quv yo'lina oyog'.
Ikkisi birga bo'ldilar mullo,
CHiqdi xat-u savod ham imlo.

Shu tariqa Shoir qissadan hissa chiqarar ekan, «Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga» g'oyasini ilgari suradi.

Abdulla Avloniy o'zbek adabiyotida drama janrining rivojlanishiga ham katta hissa qo'shdi. Uning «Advokatlik oson-mi?», «Pinak», «Biz va siz» pesalari adabiyotimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Abdulla Avloniy 1934- yilda vafot etdi. U ma'rifatchi, Shoir, dramaturg, jurnalist, rejissor, tarjimon, aktyor, jamoatchi, muallif sifatida xalqimiz qalbida mangu saqlanib qoldi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy

(1889- 1929)

O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taniqli namoyandasi **Hamza Hakimzoda Niyoziy** o'zbek bolalar adabiyotining maydonga kelishiga katta hissa qo'shgan. Uning o'zi tashkil qilgan yangi usul maktablari talabalari uchun yaratgan “Yengil adabiyot”, “O'qish kitobi”, “Qiroat kitobi” nomli o'qish kitoblariga kiritgan ko'plab she'r, hikoya va masallari, ilm-ma'rifatga chorlovchi, ta'limiy-ma'rifiy ahamiyatga ega asarlari hali-hanuz o'z qimmatini yo'qotgan emas. Ayniqsa, Shoirning o'quv qurollari madhiga bag'ishlangan she'rlari, “Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi” hikoyasi, “Toshbaqa bilan chayon” masali bolalar yosh xususiyatlariga muvofiqligi bilan diqqatga sazavor. Niyoziyning “Yengil adabiyot”ida ilm va joholat muqoyasasiga oid talaygina she'rlar o'z ifodasini topgan.

Ilm-jannat eshigi,
Xazinaning teshigi,
Insonni olim qilgan,
Maktab erur beshigi.

Jahl-do'zax eshigi,
Jahannamning teshigi,
Bog'lab solan ko'zingni,
G'aflat erur beshigi.

Angshiladiki, Shoir dastlab ilmni jannatning eshigini ochuvchi, xazinaning yo'lini ko'rsatuvchi porloq nur sifatida, maktabni esa insonning ilm-ma'rifat nuridan bahramand bo'lib, olim bo'lishidagi

dastlabki bosqich-beshik sifatida tasvirlaydi. Keyingi satrlarda esa bu ifoda jaholat bilan muvoziy qo'llanilib, jannat va do'zax, xazina va jahannam, olimlik va so'qirlik, maktab va g'aflat singari zid ma'noli tushunchalar orqali realistlik mohiyat kasb etadi. So'ngra, olimlik xosiyati va johillik kasofati aniqroq ko'rsatib beriladi:

Olim bo'lsak dunyoda,
Kelur har ish bunyoda,
Biz ham suv ostin kezub,
Ham ucharmiz havoda.

Johil qolsak dunyoda,
Xo'rlik kelur ziyoda,
Hayvon kibi yuk tashub,
Cho'l kezarmiz piyoda.

Demak, Shoir yosh avlodlarining bir kuni olimlar qatoridan o'rin olishiga, hatto suv osti va osmonda keza'digan bilimdon bo'lishiga da'vat etadi va bunga qat'iy umid bog'laydi. Kelajakka ishonch ruhi adibni bolalar uchun ko'plab darsliklar, ijtimoiy-siyosiy mavzuda, dunyoviy ilm, kasb-hunarni o'rganishga undovchi she'rlar bitishiga turtki bo'ladi.

Shoirning "Qalam" g'azali yengil vazn, o'ynoqi satrdan iborat bo'lmasa-da, mazmunan dolzarb. She'r qalam haqidagi qasida tarzida yozilgan. Lirik qahramon maktabga kelib, qalamga oshno bo'lgani va shu tufayli aqli raso, ilm-u adab egasi bo'lgani hamda barcha orzu umidlari ro'yobga chiqqanini ta'rif-tavsif etadi:

O'qudim, chiqdi savodim ham xatim yaxshi bo'lub,
G'ayratinga yarasha ishlar mango qildi qalam.

Harna kim yozmish qalam so'zidin also chiqmadim,
Ul mani ham aytganim axir bajo qildi, qalam.

Shoir bolalarni maktabga qiziqtirish, o'quv qurollariga havas uyg'otish, qolaversa, ilmning xosiyatini teran idrok etadi. Yosh qahramon tilidan "Bor edi ko'nglumda bo'lmoq podsholik orzu, O'tmadi fursat bu hojatim ravo qildi qalam. Bir gadoni o'g'li erdim podsho qildi qalam",—deya ma'rifatni ulug'laydi. Natijada, Shoir she'ri va talqinidan insonning jamiyatdagi mavqei, qanday inson sifatida bo'y ko'rsatishi ana shu ilm sharofatidan ekanligi anglashiladi.

Hamzaning bolalar uchun yozgan yana bir she'ri "Bir kishining bor edi to'rt bolasi" deb nomlanadi. Aslida bu mavzu o'tgan asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyotida alohida yo'nalish sifatida ko'zga tashlanadi.

O'sha davr o'qish kitoblaridagi axloq-odob mavzusi insoniylikning turli yaxshi va yomon jihatlari qamrab olgan. Saxiylik va baxillik, to'g'riso'zlik va yolg'onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik, sabr va sabrsizlik, qanoat va ta'magirlik, sadoqat va bevafoqlik, adolat va jabr-zulm singari insoniylikning qarama-qarshi qutblarida turgan o'nlab fazilat va illatlarning yaxshi va yomon jihatlari xususida fikr yuritilib, yaxshisidan o'rnak olishga, yomonidan hazar qilishga undovchi she'r va hikoyalarga keng o'rin ajratilgan. Hamzaning yuqoridagi she'ri shu mazmunni o'zida ifoda eta oladi. Unda hikoya qilinishicha, bir oilaning to'rt farzandi bo'lib, uylariga kelgan mehmonning puli yo'qoladi. U pulni hech biri oldim demaydi, ko'rganim yo'q deydi. Shunda ota bolalarni tergash befoydaligini anglab, hiyla ishlatishga majbur bo'ladi: tort bolasini ham bir uyga qamab, oldiga qora kuya qo'yadi va deydi:

“Kimki rost esa gar so'zi,
Qora bo'lur o'zicha ikki yuzi;
Kimni agar yolg'on erursa so'zi,
Bor-yo'g'i qora bo'lur o'ng yuzi”.

Bolalarning kattasi pulni olganligi uchun bu hiylani tushunmay, o'ng yuzim o'zicha qora bo'lsa, chap yuzimni o'zim qora qilay, deb kuyani surkaydi. Ota bolalarni tashqariga chiqarganida kattasining chap yuzi qoraligini ko'radi, qolganlarining yuzi esa oq bo'ladi. Shunda kimning o'g'ri ekanligi bilinib, xolaning puli qaytib beriladi. Shu tufayli bu fe'lini tashlagan bolani Shoir yosh kitobxonlarga ibrat qilib ko'rsatar ekan, qissadan hissa tariqasida:

Kimi bo'yla xiyonat qilur,
Bir kuni o'zini shuyla xijolat qilur, deb ta'kidlaydi.

H.H.Niyoziyning “Mevalar mojarosi” turkumidagi she'rlari ham bolalarbopligi bilan diqqatni tortadi. Unda bolalarga xos xarakter xususiyatlar, chunonchi, maqtanchoqlik, baxillik, manmanlik, chaqmachaqarlik, mushtumzo'rlik odatlari mevalar mojarosi misolida ko'rsatib berilgan.

Hamza she'riyatining ohangi va shakli xalq qo'shiqlarinikiga juda yaqin. U xalq qo'shiqlari musiqiyligidan foydalanib, o'z davri ijtimoiy-siyosiy voqealarini umumlishtirgan holda zulm va jaholatni qoralovchi, adolat va yuksak insoniy fazilatlarini, insoniy qadriyatlarni tarannum etuvchi zamonaviy ruhdagi yangi qo'shiqlar yaratdi. Shoir xalqning o'z hasratlarini ifoda etuvchi mungli, biroq shirin tuyg'ular uyg'otuvchi, tez va oson yodda qoluvchi, ohangdor va musiqiy qo'shiq hamda laparlaridan

foydalanib, o'zi tanlagan mavzu va g'oyani o'quvchiga tez va qulay yetkazishga urindi. Hamza xalq orasidan turli mazmundagi qo'shiq va ashulalarni yig'ib, ularning ayrimlari uchun o'z davri hayot voqealarini aks ettiruvchi matnlar yozgan. Hatto u yozgan qo'shiqlarning ayrimlari hajviy holatni ifodalaydi. Shoirning bunday she'rlari uning "Oq gul", "Qizil gul", "Yashil gul", "Pushti gul", "Sariq gul", "Safsar gul" kabi ramziy nomlar bilan nashr ettirilgan "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi" kitobidan o'rin olgan. Hamza folklorga xos nozik poetik uslub elementlarini chuqur o'zlashtirib, ulardagi ilg'or gumanistik g'oyalarni rivojlantirdi. Ayniqsa, uning xalq ijodida keng tarqalgan "Kelin salom qo'shiqlariga xos tasvir va ifoda yo'llaridan ijodiy foydalanib yaratgan hajviy, yumoristik asarlari bu jihatdan ibratlidir:

Olti pullik taqadek,
Ko'zi irg'ib baqadek,
Och muxlisning qo'lida
O'tmay qolgan chaqadek
Shayx hazratlariga salom!

Hamza "Muhtarama onalarimiza xitob" she'rida onalarning farzand tarbiyasidagi unutilmas xizmatlarini yod etar ekan, ularni:

Siz edingiz millati chin rahbari,
Turmushu insonni butun sarvari,
Koni hidoyat biza siz edingiz,
Tarbiya dunyosini payg'ambari -

singari satrlarda ulug'lash bilan birga dilidagi bunday gina- kudurati va iltimosini ham bayon etadi:

Muncha uyqu bosdi sizi, onalar,
Fikr etingiz o'ylab u peshonalar,
Ilm-maorif bila begonalar,
Bo'ldingiz siz olamga afsonalar.
Mazlumalar, jonlara jononalar,
Qizlaringizni o'qiting, onalar!

U 1914-yilda yaratgan "Yengil adabiyot" nomli 1-sinf o'quvchilariga atab chiqargan darsligidayoq:

Maktab – millatni guli,
Millat aning bulbuli,
Maktabsiz qolgan millat
Boshqa chamanning quli, – deb yozgan edi.

Hamza darsliklarni yozar ekan, ta'lim-tarbiya maqsadini ko'zlab, xalq og'zaki ijodi namunalaridan mohirona foydalangan. "O'qish kitobi"da

ibratli she'riy masallarni keltirgan. Hamzaning bolalar uchun yozgan she'rlari ajoyib xususiyatlarga ega bo'lib, ularo g'ayrat-shijoat to'lib-toshgan, zavq va ilik tuyg'ular bilan sug'orilgan, oddiy, erkin, engil tilda yozilgan, o'zining ravonligi bilan yashgnab turgan asarlar edi. Mazkur she'rlar xalq tilining talaffuzi va ohangini saqlab qolgan jonli va sho'x til bilan yozilib, ulardagi satrlar qisqa-qisqa, har bir bayt aniq, ravshan ifodalangan, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun tanlangan eng muhim so'zlar bir-biriga qofiyadoshdir.

Xullas, Hamza ilm-ma'rifatning kuchiga juda katta ahamiyat berdi. Uning fikricha, bilimlarni xalq ommasi orasiga yoyish, ommaning ongini uyg'otishga yordam berishi mumkin. Agar yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun chinakam baxtsizlikka, hatto, halokatga aylanishini uqtirgan. Shuning uchun maktab tarbiyasi bilan bir qatorda, oila tarbiyasiga ham juda katta ahamiyat bergan. Bolalar ijobiy va salbiy ta'sirga, ayniqsa, go'daklik chog'larida juda beriluvchan bo'ladilar. Buni yaxshi bilgan Hamza ularga yoshlikdan to'g'ri tarbiya berib borish lozim, oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu hol maktabning ta'lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi, deb yozgan. Ayrim ota-onalar o'z bolalarining farovon yashashini ta'minlash to'g'risida jon kuydirsa ham, ularni tarbiyalash bilan mutlaqo qiziqmasligini qoralab, tarbiya bo'lmasa, moddiy jihatdan ta'minlanganlik yaxshi oqibatga olib bormasligini, moddiy jihatdan ta'minlangan, lekin tarbiya ko'rmagan bolalar yaxshi odam bo'lib yetishmasligini uqtirgan. Hamzaning pedagogik faoliyati, umuman, o'quvchilarda to'g'rilik, rostgo'ylik, halollik kabi yuksak fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. A. Avloniyning qanday darsliklarini bilasiz va ularning mazmuni nimalardan iborat?
2. Abdulla Avloniy o'zining qaysi kitob va asarlari bilan hozirgi o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga hissa qo'shgan?
3. Abdulla Avloniyning dramatik asarlari haqida nima bilasiz?
4. Hamzaning qanday darslik kitoblarini bilasiz?
5. «O'qi», «Ilm ista», «Maktab» asarlarida Shoir nimaga chaqiradi?
6. Shoirning qanday masallarini bilasiz?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

“Adabiyot yoxud milliy sheʼrlar” nomli toʻrt qismdan iborat toʻplami muallifi va uning darsliklari qaysi javobda koʻrsatilgan.

- + Abdulla Avloniy, “Birinchi muallim” “Ikkinchi muallim”;
- Hamza, “Milliy ashulalar uchun milliy sheʼrlar”, “Yengil adabiyot”;
- Ayniy, “Tahzibuz sibyon”, “Qiz bola yoki Xolida”;
- Abdurauf Fitrat, “Oʻqu”.

Firdavsi jinon maktab, nodonlarga jon maktab,

Bilgan kishiga qadrin, bir dorulomon maktab Ushbu misralar bilan boshlanuvchi sheʼr va toʻplam nomi hamda muallifi toʻgʻri koʻrsatilgan javobni aniqlang?

- + “Maktab gulisoni” kitobidagi “Maktab”, A. Avloniy.
- “Yengil adabiyot”, “Maktab”, Hamza
- “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab”, Abdulla Avloniy;
- “Tahsibuz sibyon”, “Maktab”;

Maʼrifatparvar adib Hamzaning bolalar uchun tashkil qilgan maktabi, darsliklari qaysi qatorda toʻri koʻrsatilgan?

- + “Dorulyatim”, “Yengil adabiyot”, “Oʻqish kitobi”, “Qiroat kitobi”;
- Yetimlar maktabi, “Tarbiyat ut atfol”, “Maktab gulistoni”;
- Mardikorlar maktabi, “Uchinchi muallim”, “Yengil adabiyot”;
- Ishchilar maktabi, “Milliy ashulalar uchun milliy sheʼrlar”.

“Bolaning yomon boʻlmogʻiga sabab boʻlgan onaning jazosi” hikoyasi qaysi maʼrifatchi adib qalamiga mansub?

- + Hamza.
- Elbek;
- Ayniy;
- Avloniy;

Hamzaning qaysi asarida notoʻgʻri tarbiya olgan bola hajv qilinadi?

- + “Bolaning yomon boʻlmogʻiga sababchi boʻlgan onaning jazosi”
- «Toʻgʻri soʻz bola»
- «Toshbaqa bilan Chayon»
- «Kitob»

Hamzaning qaysi asarida do'stlik xiyonatga qarshi qo'yiladi?

+ «Toshbaqa bilan Chayon»

- «Kitob»

- «Maktab»

- «Loshmon fojeasi»

Bog'bon yuz-ko'ziga qo'ngan pashshalarni qo'riyman deb uning boshini majaqlagan ayiq haqidagi asar qaysi janrga mansub?

+ masal

- ertak

- doston

- badiiy ertak

Hamza 1-sinf o'quvchilari uchun qanday nomda darslik yozgan?

+ «Yengil adabiyot»

- «O'qish kitobi»

- «Maktab»

- «Ilm ista»

«Olim bo'lsak dunyoda, kelar har ish bunyoda» misralari kimning qalamiga mansub?

+ Hamza

- Alisher Navoiy

- Maxmur

- Charxiy

6-MAVZU. G'AFUR G'ULOM VA QUDDUS MUHAMMADIYNING HAYOTI HAMDA IJODIY FAOLIYATI

REJA:

1. G'afur G'ulomning hayot yo'li.
2. G'afur G'ulom ijodida bolalarga atalgan yumoristik she'rlar tahlili.
3. G'afur G'ulomning "Shum bola", "Yodgor" qissalari tahlili
4. Quddus Muhammadiyning hayot yo'li.
5. Quddus Muhammadiy – bolalar Shoiri
6. Shoir she'rlarinig mazmun-mundarijasi.

Tayanch tushunchalar: ramz, she'riyat, nazm, qissa, she'riy-adabiy ertak, qofiya, badiiy san'atlar, tashbeh, talmeh, majoz, yumor, satira, realism, nafosat olami, mahorat maktabi.

G'afur G'ulom

(1903-1966)

Otashnafas kuychi G'afur G'ulom hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotining yuksalishida muhim o'rin egallaydi.

1918- yilda G'afur G'ulom 8 oylik muallimlar tayyorlash kursiga kirib o'qidi va 1919-yildan boshlab tarbiyachilik, o'qituvchilik ishlari bilan shug'ullana boshladi. Yoshlarni bilim va madaniyat quchog'iga tortishda u astoydil xizmat qildi. U Toshkentdagi «Urfon» nomli maktab qoshidagi boquvchisiz bolalar uyida tarbiyachi va mudir bo'lib ishladi.

1923- yildan adabiyot maydoniga qadam qo'ygan G'afur G'ulom o'z ijodini bolalarga atab she'r yozishdan boshladi. U butun ijodi davomida yosh avlodni unutmadi va unga munosib adabiy meros qoldirdi. Shoirning «Mukofot» (1940), «She'rlar» (1946), «Tongotar qo'shig'i» (1949), «Bari seniki» (1953), «Bir g'uncha ochilguncha» (1955), «Siz mening yoshligimsiz» (1958) she'riy to'plamlari, o'rta va katta yoshdagi bolalar uchun «SHum bola», «Tirilgan murda» (1934), «Yodgor» (1935) kabi ajoyib asarlari bolalar adabiyotida munosib o'rin tutadi.

G'afur G'ulom «Yasha, deyman, o'g'lim!» she'rida fan va texnikani egallashni havas qilgan, qalbi qahramonlik ruhi bilan to'lib-toshgan, cheksiz osmonga uchib, yulduzdan yulduzga o'tishni orzu qilgan zamonamizning ilg'or yosh qahramoni tuyg'ularini o'g'li misolida tarannum etadi. Shoir bolalardagi qahramonlikka bo'lgan zo'r havasni sezgirlik bilan ilg'ab olib, uni mohirlik bilan ifodalab bergan. Ota bilan bolaning suhbatlari shaklida yozilgan bu she'rda o'g'ilning qo'rqmaslik va irodalilik xislatlari jonli tafsilot va obrazlar orqali ochiladi. She'rda bolalarning ichki kechinmalari, xarakteri, hamma narsani bilishga bo'lgan qiziquvchanlik holatlari kulgili usulda, ta'sirli ifodalangan.

«Tursunali nega varrakdan voz kechdi?» she'rida G'afur G'ulom texnikaning kuch-qudratini kichik yoshdagi bolalar saviyasiga mos vositalar — varrak va aeroplan orqali ko'rsatadi. Shoir buni varrakning kuchsizligi bilan aeroplaning kuchliligini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish va jonlantirish usuli orqali mohirona ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Shoir aeroplarda tinmay baland va uzoqlarga uchgan qahramon obrazini chizar ekan, bolalarda zamonimizning Shundayqahramoniga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otadi. Shu bilan birga «Muallim» she'rida Vatanimiz qudrati va go'zalligini Shoirona tasvirlaydi, bolalarni hayotda tug'ilyotgan yangiliklar bilan tanishtiradi, bularning hammasi ijodiy mehnat orqali yaratilganligini kuylab, ularni zamonimiz qahramonlari izidan borishga, fan cho'qqilarini egallashga undaydi.

Aeroplaning uchar otga o'xshab ketishi bolaning xayoliga muvofiq keladi. Shoir aeroplan talqinida bolani uni minib olishga, «Fanning eng cho'qqisi» ga uchirib olib borishga chaqiradi. Bunday havas ishtiyoqi yosh yurakni to'liqlantiradi va bola samolyot minishga qat'iy ahd qiladi.

Shoir «Bari seniki» she'rida yuksak vatanparvarlik g'oyasini ilgari suradi. Ayni chog'da, o'z xalqining baxtini, go'zal Vatanning istiqbolini kuylagan Shoir hayotga bo'lgan muhabbatini Vatanga bo'lgan muhabbati tuyg'usi bilan yonma-yon ko'radi, bolalarga ikkovini bir butun holda tushuntiradi. Buni Shoir bola tilidan quyidagicha ifodalaydi:

Muncha ham chiroylisan, aziz Vatanim,
Bodomday ming ko'z bilan sevar badanim.
Sensan avval-oxir, sensan sevganim,
Jonim, yurak qonim, hatto shu tanim
Bir butun holicha bari seniki.

«Ahmad yomon bola emas-ku, ammo....» she'rida Ahmad obrazi orqali «Sog'lom tanda — sog' aql» maqolidagi mazmunni o'ziga xos

tarzda yoritadi. Shoirning mahorati shundaki, shartlilik asosida Ahmadning tana a'zolarini jonlantiradi va Ahmad o'z tozaligiga befarq qaragach, bu a'zolar majlis qilib har biri so'zga chiqadi va egasidan norozi ekanliklarini aytib, uni tanqid qilishadi. G'afur G'ulom doktorning foydali maslahatlariga amal qilgan Ahmadning keyinchalik ozoda, sog'lom va intizomli bo'lib qolishi bilan birga, a'lochi o'quvchiga aylanganligini ishonarli tasvirlaydi:

Qo'llari ham sevinchidan chapakda,
Butun a'zo bir-biriga ko'makda.
Endi Ahmad sog'lom, toza, a'lochi,
Me'da kuchli, tishlari misli inji.

Shoir «Nortojining kurak tishi» she'rida ham bolalarni Nortoji obrazi orqali tozalikka rioya qilishga undaydi. Kichik kitobxon diqqatini dastlab olti yoshli Nortojining «...chollar kabi kemshik» ekanligiga qaratadi:

Oldingi to'rtta kurak tishining
Sog'i yo'q — hammasi chirik, darz ketgan.
Ba'zisi juda past, ba'zisi baland,
Ba'zisi lab yular — misli tikan.

«Nortojining kurak tishi»da Shoir obrazli tasvirlar orqali Nortoji xarakteriga xos bo'lgan erinchoqlik va yalqovlikni, tozalikka rioya qilmasligini o'ziga xos yo'sinda fosh etadi. Xususan, Nortoji tishining kovagidan joy olgan narsalarni tasvirlar ekan, uning kulgili holatini «Karnayday og'zini ochishi bilan sassiq hid hammaga bilinib ketdi», «Oldingi kurak tishida bir hafta burungi ovqat qoldig'i» kabi misralar orqali yanada bo'rttirib gavalantiradi. She'rida tozalikka rioya qilmaslikning zararli oqibati bolalarga g'oyat hayotiy va xarakterli misralarda yetkaziladi.

G'afur G'ulom «Shum bola», «Tirilgan murda», «Yodgor» asarlari bilan bolalar adabiyoti nasriy janrining yuksalishiga ham o'zining munosib ulushini qo'shdi.

G'afur G'ulomning «Tirilgan murda» asarida jamiyatga dog' bo'lib tushadigan dangasalik o'rtasidagi kurash asosida mehnatning tarbiyalovchi qudrati ko'rsatiladi. Muallif ijodiy maqsadni Mamajonning boshidan kechirganlari va uning o'zi tomonidan yozilgan kundalik sahifalari vositasida kulgili tarzda hikoya qiladi. Asar prolog va epilogdan tashqari,

olti fasldan iborat bo'lib, ularda mulla Mamajonning 1925- yildan to 1933- yilgacha o'tgan davrda boshidan kechirganlari yozilgan. Asarda G'afur G'ulom o'z qahramoniga «so'z» berib, uning o'ziga xos xarakterini yaratadi.

Adibning «Tirilgan murda» asari ikki qismdan iborat. Ikkinchi qismda uning jamoa xo'jaligiga kirishi va qayta tarbiyalanishi, farovon hayotga erishishi tasvirlanadi.

Yozuvchi Mamajonning yalqovligi va erinchoqligini chuqurroq ochish uchun, avval uni «Ming bir kecha» ertaklaridagi Abutanbalning yalqovligi bilan taqqoslaydi: «Xo'sh desangiz, Bag'dod degan shaharda Abutanbal degan bir yalqov yigit o'z onasi qoshida yashar ekan. Abutanbal hech qanday ish qilmas ekan. Onasi topib kelgan ovqatni chaynab og'ziga solsa ham yutgani erinar ekan. Doimo yonboshlab yotar ekan-u, o'rnidan turishga haf-salasi kelmas ekan. Mabodo qo'ltig'idan ko'tarib, tikka turg'izib qo'ygan chog'ingizda ham oyoqlari bir-biroviga chalishib yiqilar ekan...» Mamajonning sarguzashtlari, uning o'z tilidan so'zlatilishi bolalarga asar g'oyaviy mazmunini yaxshi tushunishga va ularning qiziquvchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida she'riyatning juda ko'p durdonalarini yaratgan G'afur G'ulom bolalarga ham ajoyib asarlar taqdim etdi. Uning bolalar uchun yaratgan asarlarida vatanparvarlik va baynalmilallik g'oyalari, qahramonlik va jasurlik, g'alabaga ishonch ohanglari yangraydi. Shoir «Navqiron naslimiz sinov oldida» she'rida yoshlarning kelajagini ifodalab, ularni erk va baxt bergan vatanga munosib kishilar bo'lishga chaqiradi:

Bizning o'lkamizda yo'qolur ofat,
O'limni yengishga sizlar kandidat...
Ertaning, ey adib va Shoirлари,
Kishilik ruhining bilimdonlari...
Siz osmon ilmini suvday ichasiz,
Yulduzdan yulduzga zumda ko'chasiz...
A'lochi o'g'lonlar, a'lochi qizlar,
Vatan istagi ham xuddi ana shu.

Shoirning bu davrda yozgan noyob va go'zal asarlaridan biri «Sen yetim emassan» she'ridir. Unda odamlarning ikkinchi jahon urushi yillarida ota-onasiz yetim qolgan bolalarga bo'lgan vatanparvarlik,

qardoshlik, insonparvarlik his-tuyg'ulari yuksak mahorat bilan tarannum etiladi:

Sen yetim emassan,
Tinchlan, jigarim,
Quyoshday mehribon,
Vataning — onang,
Zaminday vazmin-u,
Mehnatkash mushfiq,
Istagan narsangni tayyorlaguvchi
Xalq bor — otang bor.
Cho'chima, jigarim,
O'z uyingdasan.

Bu parchada Vatanning muazzamligini, uning mehri daryo kishilari quyma obrazlarda, lo'nda, ta'sirli ifodalanganligi har bir misrada ko'rinib turibdi. Shoir bolalarga yetimlik nima ekanligini tushuntirarkan, o'zining achchiq yetimlik qismatini eslash orqali ham asarning ta'sir kuchini yanada oshirishga erishgan:

...Men yetim o'sganman,
Oh, u yetimlik...
Voy, bechora jonim,
Desam arziydi,
Boshimni silashga,
Bir mehribon qo'l,
Bir og'iz shirin so'z
Nondek arzanda,
Men odam edim-ku,
Inson farzandi...

Shoir she'rida g'alabaniing muqarrarligini zo'r hayajon va ko'tarinki ruhda, obrazli misralarda ifoda etadi:

Tong yaqin,	Olam kezasan....
Tong yaqin,	Haqorat yemirilur,
Oppoq tong yaqin...	Zulm yanchilur,
Ulug' oilaning	Jahonda bo'lurmiz,
Go'dak farzandi,	Ozod, muzaffar,
Bilib qo'y endi:	Sen yetim emassan,
Sen tezda ulg'ayib,	Mening jigarim!

G'afur G'ulomning bu she'ri yoshlarda Vatanga sadoqat, vatanparvarlik va baynalmilallik hamda bosqinchilarga nafrat tuyg'ularini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'lgan barkamol asardir.

Urushdan keyin G'afur G'ulom bolalar uchun «She'rlar» (1946), «Tongotar qo'shig'i» (1949), «Bari seniki» (1953), «Bir g'uncha ochilguncha» (1955), «Siz mening yoshligimsiz» (1958) she'rlar to'plami va «Mening o'g'rigina bolam» (1965) voqeyi hikoyasini yaratdi.

G'afur G'ulomning bu davr ijodida bolalarning o'ziga xos orzu-umidlari, yuksak ma'naviy olamlari, odob va axloqlari, o'qish va intilishlari asosiy mavzuga aylandi. Jumladan, Shoir «Oltin medal» she'rida o'rta maktabni bitirayotgan o'g'il va qizlarga ishonch va umid ko'zi bilan qaraydi. Ularni kelajagimizning ishongan kishilari — «zamonlar tongining chiroqlari» deb tasvirlaydi:

Sizsiz kelajak yo'q, siz axir xalqning
Ming yilni ko'rajak qarog'larisiz.
Sizsiz yorimaydi osmonda Zuhra,
Zamonlar tongining charog'larisiz.

Shoir o'lkamizning kelgusida yanada gullab-yashnashini, jahonda tengi yo'q diyorga aylanishini orzu qiladi va yoshlarni ana Shunday Vatanga munosib farzand bo'lishga, ilm-fanni egallashga undaydi. U yoshlarning ilm-fanda kamol topishiga zo'r ishonch bilan qaraydi.

G'afur G'ulom bolalar va yoshlarni kattalarga, ayniqsa, ota-onaga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash mavzusida ko'plab she'rlar yaratdi. Shulardan biri «Ona» she'ridir. Shoir bu she'rida bag'ri ufqlardan ham keng onaning lirik obrazini yaratib, bolaning unga bo'lgan mehr-muhabbatini ifoda etadi.

Shoir bolani chaqaloqligidanoq mehr-muhabbat bilan asrab, avaylab tarbiyalab kelgan onani ta'riflab, bu mo''tabar zotni e'zozlaydi.

Shoir she'rda onaga murojaat etib, uni qoya, yuksak tog', chaman bog' hamda quyoshga qiyoslaydi va onani ulardan yuqori qo'yadi. Darhaqiqat, dunyoda onadan ulug' zot yo'q! U borliqqa jon baxsh etuvchi, olamni nurga burkovchi oftob misol qadrlı, hatto undan ham azizdir. She'r bolalarda onalarga chuqur muhabbat hissini uyg'otishda katta xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, akademik Shoir G'afur G'ulom o'zbek bolalar adabiyotini yuksaltirishga barakali hissa qo'shdi. U yoshlar uchun yozgan asarlarida bolalarning quvnoq hayotini yurakdan berilib kuyladi. Uning asarlari bolalarni yaxshi inson bo'lib kamol topishga, a'lo o'qishga da'vat etadi.

Quddus Muhammadiy

(1907- 1997)

Quddus Muhammadiy XX asr o'zbek bolalar she'riyatini mavzu mundarija hamda janriy xilma-xillik bilan boyitgan zabardast shoir. Uning ijodi o'tgan asrning 30-yillaridan, to yangi asr bo'sag'asiga qadar keng qamrovli shakl va tamoyil kasb etdi. Shu davr mobaynida shoir she'rlarini bog'cha bolasidan tortib, maktabni tamomlayotgan o'spirinlargacha birdek sevib o'qidi, qo'shiq qilib kuyladi. Q.Muhammadiyning alohida chop etilgan she'riy to'plamlari, ertak-dostonlaridan tashqari, birgina maktab darsliklariga kiritilgan asarlarining o'ziyoq, uning ommabop va hammabop she'rlar yozganidan dalolat beradi. Muhimi, ana shu ehtiros hali-hanuz syngani yo'q. Shoir she'rlari mustaqillik bolalari tomonidan ham birdek, sevib o'qilmoqda. Shunga yarasha ijodkor badiiy olamining talqini o'zining yangi qirralari bilan to'lishib bormoqda.

Quddus Muhammadiy butun umrini, ijodini kichkintoylarning katta adabiyotiga bag'ishladi.

*She'r yo'lin o'rgatgan quyoshim, oyim,
Kunduzim, yulduzim, ilhomim, so'zim,
Shu Vatan, shu xalqim, shu o'g'il-qizim,
She'rimning asosiy mavzui sizlar.
Asarim ovozi - parvozi sizlar,
O'zingiz ilhomim oltin o'zagi,
O'zingiz she'rimning husn-bezagi,*

Haqiqatdan ham shoir she'rlarining mavzui bepoyon Vatan, uning mehnatsevar xalqi, shirin «o'g'il-qizlari»dir. Asarlarining ovozi ham, «parvozi» ham, «ilhomini»ning «oltin o'zagi», she'rinin «husn-bezagi» ham shulardir. Shoir o'z asarlarida bolalarning yurak tuyg'ularini, orzu va intilishlarini, o'qishdagi yutuqlarini aks ettirish bilan birga, ulardagi kamchiliklarni qoralaydi, uni yo'qotish yo'llarini izlaydi, topadi, o'z o'quvchisiga talabchan o'rtoq, qattiqqo'l ustoz sifatida yo'l ko'rsatadi.

Shoirni bolalarning hamma tomoni qiziqtiradi. U bolalarga nima xunigu nima chiroylik, nima yaxshi-yu nima yomon, juda go'zal nima-yu juda qiziq nima ekanligi haqida yozadi. U o'z she'rlari bilan bolalarda estetik didni o'stirishga, go'zallik haqida tassavur hosil qilishga harakat qiladi.

To'qson yillik umrini bolalarga she'r, qo'shiq, doston, doston-ertak yaratishga qaratgan Quddus Muhammadiy 1907 yilda Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga keldi. Bo'lajak shoirning otasi

Muhammad Alibek Abdurahmonbekov ancha savodli kishi edi. Shu sababii u dastlabki ma'lumotni otasidan oldi.

1925 yilda otasi vafot etgach, Quddus Muhammadiy awal amakisinikida, so'ngra esa maktab-internatda tarbiya oladi. Internatda Q.Muhammadiyning birinchi she'ri «Chuvalachi» maydonga keladi va bu yerda chiqadigan «Quyosh» nomli devoriy gazetada bosilib chiqadi. Shu ilk mashqlaridayoq bo'lajak shoirning nafosat olamini kuzatish va badiiy idrok etish talanti hamda umumlashtirish mahorati yaqqol ko'rinadi. U yetti yillik maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent qishloq xo'jalik texnikumiga o'qishga kiradi. Bu yerda u bolalar uchun she'rlar yoza boshlaydi. Uning «Tong o'yini», «Paranji», «Ahmad va asalari», «Seleksiya stansiyasi» nomli she'rlari vaqtli matbuotda bosilib chiqadi.

1931 yildan Q. Muhammadiy maktabda botanika o'qituvchisi bo'lib ishlaydi, shu bilan birga O'rta Osiyo davlat univeisitetining biologiya fakultetida o'qiy boshladi.

Bolalar uyidagi va universitetdagi hayot, mehribon murabbiy va muallimlarning g'amxo'rliklari Q.Muhammadiy qalbida bir umr o'chmas iz qoldiradi. Bu yerdagi o'zaro do'slik bo'lajak shoir qalbini tordek ko'tarib yuboradi.

Quddus Muhammadiy Oybek, H.Olimjon, G'.G'ulomlarni o'zi uchun ustoz deb bilgan, ulardan o'rgangan, ular bilan doimo ijodiy muloqotda bo'lgan. Ilk she'rlaridan biri «Tong o'yini» orqali ulkan adib Oybek bilan tanishadi. Oybek bu iste'dodli bolalar shoirini hamisha qo'llab-quvvatlab, ijodiga g'amxo'rlik qilib kelgan.

Bir kuni Yozuvchilar uyushmasida mushoira bo'ladi. Mushoiraga raislik qilayotgan Hamid Olimjon she'r o'qish navbatini Q.Muhammadiyga beradi.

Q.Muhammadiy zavq bilan «Sa'va sayrarkan» she'rini o'qiydi. Q.Muhammadiyning ijodiy qobiliyatini payqagan H.Olimjon she'r tugashi bilan uni yoniga chaqirtiradi. Qachondan beri she'r yozishini, qayerda ishlashini surishtirib, she'r ma'qul tushganini aytadi. So'ng, bolalar uchun she'rlarning kamligi haqida to'xtalib, mana Shundayajoyib she'rlarni ko'proq yozishni ta'kidlaydi.

Q.Muhammadiy ijodiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri hozirjavoblikdir. Shoir asarlarida ona-Vatanga muhabbat, a'lo o'qish, xulq-odobda boshqalarga namuna bo'lishga da'vat etish, fan va texnikani o'rganish muammolari asosiy mavzulardan hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Quddus Muhammadiy Islom shoirga adabiy kotiblik qiladi. Bu yerda u xalq og'zaki ijodi namunalari bilan yaqindan tanishadi. Islom shoirdan ko'p narsalarni o'rganadi.

Shoimning birinchi she'rlar to'plami 1946 yilda «O'quvchiga esdalik» nomi bilan bosilib chiqadi. Shundan keyin uning 60 dan ziyodroq turli nom va tillardagi kitoblari bosilib chiqdi.

Quddus Muhammadiy doimo zarur mavzularda asarlar yaratib keldi. Har bir she'ri kundalik hayotimizdan olib yozdi. Yozganda ham qiziq yozdi, qizg'in yozdi, soz yozdi. Bolalarni o'qishga, hunar o'rganishga, odobli bo'lishga, mehnatga chaqirdi, qiziqitirdi, yordam berdi. Buni shoimning «O'quvchiga esdalik» she'rida ko'rish mumkin. Asarda maktab o'quvchisining ma'naviy qiyofasi va vazifalariga mufassal to'xtalib, o'qish, bilim o'rganish zarurligini ta'kidlaydi:

*Bo'lay desang bog'bon,
Yo Vatanga posbon,
Yo osmonda uchuvchi,
Yo dengizda suzuvchi,
Nimaki qilsang tilak,
Bariga o'qish kerak.*

San'atkorning qaysi turkumda yaratgan asarini olmang, barchasida hayotbaxsh ruh, davatkorlik, bolani nimagadir chorlash, yaxshilik, a'lo o'qish, axloq-odobli bo'lishda boshqalarga ko'mak ko'rsatish, qushlar va jonivorlarga mehribon bo'lishdek ibratomuz ma'no va mazmun yotadi.

Quddus Muliammadiy sofdil, a'lochi o'quvchi bolalarni samimiy sevadi, o'z she'rlarida bunday bolalarni maqtaydi. «A'lochi Sodiq», «Sinov», «Mening orzum», «Bizning uyda», «Yasha, Omon!», «Besh», «Solijonning darsxonasi» va boshqa she'rlari a'lochi o'quvchilar haqida yaratilganligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shoir bu she'rlari orqali a'lo o'qish, tinmay mehnat qilish bilangina ilm-fan sirlarini egallash mumkinligini bolalar qulog'iga quyadi. S.Marshakning «Kitobimizni qanday nashr qiladilar?» she'ridan ilhomlanib yozilgan «Kitob» she'rida ham uning bunyodga keltirilishidan iborat mehnat jarayoni butun tafsiloti bilan bir-bir bayon etilgan. Ha, kitobning kitob bo'lmog'i uchun qog'oz kerak. Qog'oz esa paxtadan tayyorlanadi. Paxtani paxtakor mehnatisiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, undan qog'ozni tayyorlash ham o'z-o'zidan bo'lmaydi. Paxta qog'ozga aylangunicha, «ming chig'iriqdan o'tadi». Lekin hali qog'ozning o'zi kitob degani emas, uni kitobga aylantirish uchun «qancha olim, shoirlar» «uyqusini tark etib» ijod qilishi, so'ngra uni nashriyotga eltishi, shundan keyin uni

Bosmaga berish kerak.

Bosmaxonada harfni

Bittalab terish kerak.
Mashinalar g'izillab,
Sahifalar beradi.
Bir yoqdan korrektorlar
Solishtirib ko'radi.
So'ng o'tar redaktordan,
Yana qayta bosilar

Lekin shunda ham kitob tayyor bo'la qolmaydi. Endi uni «Elimlab, qirqishi bor», «Muqova ham kerak bop». Ana Shunday ikir-chikirlardan so'ng, aniqrog'i, ko'pchilikning ishi natijasi o'laroq kitob paydo bo'ladi. Lirik qahramon kitob tayyorlanishiga daxldor shu jarayonlarni obdon bilgani bois:

O'ylab tursam hamma ish
Bog'lanar bir-biriga
Bir kitobning ichida
Minglarning xizmati bor.
Shuning uchun kitobga
Samimiy hurmatim bor,-

der ekan, kitobni bunyodga keltirgan turli kasbu kor egalarining xizmatini qadrlash tuyg'usi bilan yashaydi. Biroq L. Bat bu she'rda qator qusurlarni ko'radi. Uningcha: «oddiy so'zlar yig'indisidan iborat bo'lib qolgan.

Masalan: Men hali yosh bolaman,
Ko'p joyni ko'rganim yo'q.
Lekin kitob orqali
Bildim talay yo'l-yo'riq.

Kitobdan olingan boshqa taassurotlar ham Shundaybayonchilik bilan beriladi.» (Qarang: O'zbek bolalar adabiyoti. Maqollar. T., «Yosh gvardiya», 1969, 51-b.) Aslida she'r uchun ekspozitsiya vazifasini bajargan bu satrlar o'quvchining kitobdan olgan taassurotlari bayoni esa-da, bunday umumiy taassurotni har qanday o'quvchi ham ayta olishiga shubha bilan qarash asossizdir. Holbuki, Q. Muhammadiy «Etik» she'rida ham shu xilda she'riy ekspozitsiya yasab, so'ngra etikning bunyodga keltirilishi jarayonining poetik tavsifiga o'tgan edi. Demak, bunday ekspozitsiyalar bilan voqea tafsilotiga ko'chish shoir uslubiga xos hodisadir. Shu holatni anglamaganidan L. Bat ikkinchi bir asossiz da'voni o'rtaga tashlaydi. «Keyin, -deb yozadi u, - aslida mustaqil ikkinchi she'r bayon qilinadi: Q. Muhammadiy o'zining yosh qahramoni tili bilan kitob yaratilishini yozuvchi, redaktor ishidan boshlab to bosmaxonadan chiqishiga qadar aytib beradi.

Undan olov - dud chiqib,
Abgor bo'пти bu safar.
Qosh, pari kuyib ketdi,
Tashqari g'iz-g'iz sovuq.
Chumchuqcha qip yalang'och,
Egnida par to'ni yo'q.
Kuygan a'zo-badani,
Achishardi jizzilab.

Shundagina u o'z nojo'ya hatti-harakati haqida o'ylashga majbur bo'libdi:

Ko'pchilikning qadri ko'p,
Chumchuqchaga bilindi.
Yolqizlik yomon ekan,
Boshiga tushib bildi.
Xatosin tushunibdi.

Dildirab, o'lay deb turganida Musicha xola yana joniga oro kiribdi. Ota-ona urug'i bundan xabar topib, Musicha xolaga uni asrab olgani uchun minnatdorchilik bildirib, "gap uqmas o'jar bola"sini o'z inlariga olib ketishibdi; Chumchuqcha esa:

- Ayrimayman sizlardan,

Ta'zirimni xo'p edim, - deya tavba qilib, ko'pchilikdan uzr so'rabdi. O'shandan beri u jamoasidan ayirmay, birga yurib, birga ishlarkan...

"Qo'ng'izvoy bilan Sichqonvoy" Q.Muhammadiy ijodiyotidagi shoh asar bo'lib, 1940 yilda yozilgan va dastlab "Mushtum" jurnalida "Qo'ng'iz bikach bilan Sichqonvoy" nomi ostida o'sha yili bosilib chiqqan. Shoir uni yana qayta ishlov berib, takomillashtirib 1955 yilda hozirgi nomi bilan e'lon qildi. Shundan beri bu asar shoirning 1957 yil bosilgan "Tanlangan asarlar" va 1977 yilda "Tabiat alifbesi" ning uchinchi kitobi bo'lmish "Taniqli do'stlar"da qayta-qayta nashr etildi. Binobarin, bu asar o'zbek bolalar epik poeziyasi taraqqiyotida ayricha salmoqqa ega bo'lib, X.Olimjon, Mirtemir va S.Jo'ralar o'tgan asrning 30 - yillarida qaror toptirgan she'riy ertaknavislik an'anasi hosilasi sifatida yuzaga keldi.

Bor ekanda, yo'q ekan,
Och ekanda, to'q ekan.
Yaqin o'tgan zamonda,
Qo'rg'ontepa tomonda.
Qo'ng'izoy qiz bor ekan,
Husnda barno ekan,

Oy kabi tanho ekan.
Sodda fe'lli, quvnoq qiz,
Ko'ngli ochiq, o'ynoq qiz.
Sochlari sunbul ekan,
Qo'shiqqa bulbul ekan.
Serg'ayrat mehnatsevar,
Odobli, epchil, chevar.
Sevarkan uni hamma,
Elu yurt, hola, amma.
Hatto mitti kapalak,
Qo'ng'iz desa pirpirak.

Ertak oxirida Sichqonboy o'g'rilikka kirib, mushuk qo'liga tushgani xabar qilinarkan, qissadan hissa tarzida "Har kim ekkani o'rar" degan xulosa o'rta tashlanadi. Q.Muhammadiy to'qson ikki yillik hayotining etnishi bir yilini bolajonlar uchun ijod qilishga bag'ishladi. Bu davrda u XX asrda bunyodga keltirilgan tom ma'nodagi yangi realistik o'zbek adabiyotining asoschilari Oybek, G'afur G'ulom va H.Olimjonlar nazariga tushib, ularning e'tiboriga sazovor bo'libgina qolmadi, balki o'zi ham o'zbek ma'naviyati va adabiyoti tarixida tamomila yangi adabiy hodisa bo'lgan o'zbek bolalar adabiyotining bunyodkori va asoschilardan biriga aylanib qoldi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Shoirning dastlabki she'rlari qaysilar?
2. «Bari seniki», «Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!» asarlarining tarbiyaviy ahamiyati nimada?
3. G'afur G'ulomning vatanparvarlik haqidagi qaysi asarlarini bilasiz?
4. Maktab gigienasi haqidagi she'rlarini bilasizmi?
5. Quddus Muhammadiy o'qish haqida qanday she'rlar yozgan?
6. Odob-axloq to'g'risida qanday asarlar yozgan?
7. Kasb-hunar to'g'risida-chi?
8. Tabiat haqida qanday she'rlari bor?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

G`G`ulom asar va to`plamlari ro`yxati qaysi javoblarda keltirilgan?

- + “Mukofot”, “Tongotar qo`shig`i”, “Bari seniki”, “Bir g`uncha ochilguncha”;
- “Qaldirg`och”, “Og`riq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Oltin medal”;
- “Siz mening yolg`izimsiz”, “Shum bola”, “Yonar daryo”, “Yodgor”;
- “Nortojining kurak tishi”, “Og`riq tishlar”, “Ahmadjon yomon bola emasku, ammo”;

G`Gulomning qanday she`r va asarlarida yetimlik va urush mavzui ustivor?

- + “Netay”, “Shum bola”, “Sen yetim emassan”;
- “Nortojining kurak tishi”, “Ahmadjon yomon bola emasku, ammo”;
- “O`rdak va turg`un”, “O`ylashni o`rganamiz”, “Bari seniki”;
- “Yodgor”, “Shum bola”, “Sen yetim emassan”;

“Men yetim o`sganman, Oh, u yetimlik...” Bu misralar muallifi kim?

- + G`G`ulom;
- Sulton Jo`ra;
- Q.Muhammadiy;
- Zafar Diyor.

...1907 yilda Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga keldi. 1925 yilda esa uning birinchi she`ri “Chuvalachi” maydonga keldi. Qaysi javob ma`lumotga mos?

- + Quddus Muhammadiy;
- Zafar Diyor;
- Shukur Sa`dulla;
- G`afur G`ulom.

Toshkent qishloq xo`jalik texnikumi, O`rta Osiyo davlat universiteti biologiya fakultetini tamomlab, maktabda botanika o`qituvchisi bo`lib ishlashiga qaramay, ijodkor sifatida mashhur bolalar shoirini aniqlang?

- + Quddus Muhammadiy;
- Sulton Jo`ra;
- Zafar Diyor;

- G'afur G'ulom;

Bir maktabda gap mish-mish

Turg'unning dumi bormish... **Ushbu misralar muallifi, she'ning nomi va yo'nalishi qaysi javobda to'g'ri?**

- + Q.Muhammadiy, "Dum", yumoristik ;
- Q.Muhammadiy, "Qahramon", hajviy;
- Q.Muhammadiy, "Lapashang", satiric;
- Q.Muhammadiy, "Nomsiz erkatoylar", yumoristik.

Q.Muhammadiy ijodining cho'qqisi-besh kitobdan iborat kitobning ikkinchisini nomi, mundarijasi qaysi javobda to'g'ri qayd etilgan?

- + "Cho'pon bobo qo'shig'i", jonivorlar haqida;
- "Tabiat alifbesi", quyosh, havo, yer va suv haqida;
- "Qanotli do'stlar", 100 dan oshiq qushlarning hayoti aks etgan;
- "Odam-olam qo'shig'i"-insonlar haqida;

Q.Muhammadiyning ertak- dostonlari qaysi javobda to'g'ri?

- + "Bir o'zboshimcha chumchuq haqida", "Qo'ng'izoy va Sichqonboy", "Sandal va pechka";
- "Tabiat alifbesi", "Odam-olam qo'shig'i";
- "Momaqaymoq", "Shaftoli doktor";
- "Asalari va Ahmadjon", "Mamajon shofyor".

7-MAVZU. ZAFAR DIYOR VA SHUKUR SA'DULLA HAYOTI HAMDA IJODIY FAOLIYATI

REJA:

1. Zafar Diyor hayoti va ijodi.
2. Shoir she'rlarining mavzu mundarijasi.
3. Shukur Sa'dullaning hayot yo'li.
4. Shukur Sa'dulla– kichkintoylar shoiri.
5. Shoir she'rlarining mazmun-mundarijasi.

Tayanch tushunchalar: ramz, she'riyat, nazm, qissa, she'riy-adabiy ertak, qofiya, badiiy san'atlar, tashbeh, talmeh, majoz, yumor, satira, realism, nafasat olami, mahorat maktabi.

Zafar Diyor

(1912- 1946)

Butun hayoti va ijodini kichkintoylarga baxshida etgan Zafar Diyor bolalarning kitobxonligini oshirish maqsadida ularga murojaat qilib, Shundaydegan ekan:

— Ilm o'rganish eng mo''tabar ishdir. Ilm odamning qadrini oshiradi, ilmli kishilar dunyoda eng izzatli, hurmatli bo'ladilar. Ilm dunyoda odamlar uchun eng sevimli, eng shirin ne'matdir. Shundayekan, siz dunyoda rohatda yashashni istasangiz, hamma meni sevsin desangiz, bor kuchingiz bilan o'qishga, ilm olishga g'ayrat qiling.

Bolalar! O'qing, darsga ixlos qo'yib o'qing, foydali kitoblardan foyda va lazzat olish uchun o'qing. Kishining eng aziz, eng shirin va eng qimmatli vaqti yoshlik davridir. Shunday qimmatli yoshligingizni, aziz umringizni foydasiz ishlarga sarf qilmang, kitob o'qing, faqat kitob o'qing!

Zafar Diyor 1912- yilda Namangan viloyatining Chust tumani, Samsoqtepa qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida tug'ildi. 1916-yilda

Zafarlar oilasi Toshkent shahriga ko'chib keladi. Zafarning otasi dalada, onasi esa bosmaxonada mehnat qiladilar.

1927- yilda Zafar to'liqsiz o'rta maktabni bitiradi va Samarqanddagi Narimonov nomli pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumda ko'proq ilm-fan sirlaridan bahramand bo'lishga harakat qiladi. Uning dastlabki she'riy mashqlari bilim yurti devoriy gazetasi sahifalarida ko'rina boshlaydi.

Yigirmanchi yillarning oxiri va o'ttizinchi yillarning boshlarida uning yoshlar gazeta va jurnallarida ilk she'rlari chop etila boshladi. Zafar Diyorning birinchi she'ri yosh Shoirarning «Qurilish kuylari» degan to'plamida bosilib chiqdi. Ko'p o'tmay uning birinchi she'rlar to'plami «Qo'shiqlar» nomi bilan 1933-yilda nashr etildi.

Yosh Shoir 1933- yilda bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirgach, o'qituvchi bo'lib ishlay boshladi. Bu hol uning maktab va bolalar hayoti bilan yaqindan tanishishida, yosh avlod hayoti haqida yozadigan asarlarining hayotiy va puxta bo'lishida ijobiy o'rin tutadi.

1934-yilda Zafar Diyor Samarqanddan Toshkentga qaytadi va hozirgi «Tong yulduzi» gazetasida adabiy xodim, keyinroq esa mas'ul kotib bo'lib ishlay boshlaydi. Shu bilan birga, u hozirgi Toshkent davlat pedagogika universitetining til va adabiyot fakultetiga kirib, o'qishni davom ettiradi. O'zbek hamda qardosh xalqlar yozuvchilarining asarlarini qunt bilan o'qiydi, o'rganadi.

O'sha yillari gazetada Zafar Diyor bilan birga ishlagan yozuvchi Hakim Nazir o'z esdaliklarida shunday yozadi: «Men Zafarni o'ylasam uni nuqul shod-hurram bolalar qurshovida, quvnoq chehrasidan nur taralib, sertabassum lablaridan she'r durdonalari yog'ilayotganday ko'raman. Chindan ham, u bolalarga juda yaqin edi. Maktablar va bolalar uylarida, kutubxona va bog'chalarda bot-bot bo'lar, yosh kitobxonlarga yangi-yangi she'rlarini bolalarcha muloyim, sodda, shirali ovoz bilan o'qib berar, ayrim she'rlarini yoddan ifodali o'qir, bolalarga ham she'r o'qitib eshitardi. Shunda u o'zining qaysi she'rlari bolalar ko'rigidan yaxshi o'tganini, qaysi she'rni ko'proq sevib qolganlarini ko'rar, bolalarga yoqtirish uchun qanday she'rlar yozish lozimligini fahmlab olardi. «Biz bolalarga nuqul o'rgatibgina qolmay, ulardan o'rganib ham turishimiz kerak», derdi.

Zafar Diyor 1935-yilda dastlabki mashhur asarlaridan biri bo'lgan «Mashinist» dostonini yaratdi. Dostondagi Ashur obrazi baxtiyor yoshlarning fazilatlarini umumlashtirishga bag'ishlangan.

Maktabda o'qish Ashurni hunarli qilish bilan birga, uning ongi va tushunchasini ham o'stiradi. U vatanga sadoqatli, har doim olg'a intiluvchi ilg'or yoshlardan biri bo'lib yetishadi. Shuning uchun doston qahramoni o'z umrini Vatan yo'liga tikishga tayyor turadi:

Sevinaman, hali yoshman, ko'p yashayman,
Bu o'lkaning saodati - baxti uchun.
Yana o'qib, yana kulib ko'p ishlayman,
SHu ko'plarning biri bo'lib, o'lkam uchun,
Ha! Mamlakat, Shundayva'da beray senga:
Butun umrim sening porloq hayotingga!

Asar yoshlarning ilm-fanga, kasb-hunarga, ona-Vatanga muhabbat va sadoqat ruhi bilan sug'orilgan.

Zafar Diyorning o'ttizinchi yillar ijodi vatanparvarlik, baynalmilallik va mehnatsevarlik tuyg'ularini aks ettiruvchi asarlarining ko'pligi bilan xarakterlidir. Bu xil asarlar yoshlar xarakterini shakllantirishda, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Shoir ijodidagi muhim mavzulardan biri inson va tabiat munosabatidir. Bu jihatdan uning «Binafsha», «Navbahor», «Qushlar haqida qo'shiq», «Kapalak» singari she'rlari ahamiyatlidir.

Rang-barang gullarni, turli-tuman qushlarni sevgan Shoir bolalar ruhiyatini chuqur tahlil etib, ularni ham ona tabiatni sevishtga va parvarish qilishga ruhlantiradi. Shoir bolalarda qushlarga muhabbat hissini uyg'ota oladigan quvnoq vazn, o'ynoqi misralar yaratadi. SHu maqsadda so'zlarning xilma-xil takroridan, misralarni esa mayakovskiychasiga tizib, tasvirning ohangdorlik jarangini, kuchini yanada oshiradi:

Hoy qushlar,qushlar,qushlar,
Qanot qoqib kelinglar,
Sa'va,mayna,bulbullar.
Sizga termular ko'zlar...
Bizga ortiq yoqadi
Quvnoq qo'shiq-kuyingiz!
(«Qushlar haqida qo'shiq»)

Shoir bolalarning tabiat hodisalariga, hasharot-u jonivorlarga, ayniqsa, kapalakka qiziqishini, muhabbatini kichkintoylarga xos so'z va ohangda ifodalab, kichkintoyning hayotga diqqat-e'tiborini oshiradi, kapalak obrazi orqali kitobxonda insoniy tuyg'ularni shakllantirishga harakat qiladi:

Uch, ucha ber, ucha ber,

Go'zal bog'cham — gulshanda.
Sira ozor bermayman,
Sevgim, fikrim ham sanda.
Kapalakjon, kapalak,
Do'st bo'laylik ikkimiz,
To'xta, so'zlayin andek!

(«Kapakak»)

Zafar Diyorning «Binafsha» she'rini yoddan bilmagan o'quvchi bo'lmasa kerak. SHE'r o'zining ravon o'qilishi, qofiyalarning jarangdorligi bilan o'quvchini o'ziga tortadi:

Binafshaxon, binafsha,
Kulishlaring chiroyli.
Bog'imizda ochilib,
Turishlaring chiroyli.

Shoirning «Mamlakat», «Kazbek», «Tilsiz o'rtoq», «Madridan kelgan mehmon» kabi she'r va dostonlari Shoir ijodining har taraflama yuksalishidan dalolat beruvchi liro-epik asarlardir.

Zafar Diyor bolalarning xatti-harakatlarini, orzu-intilishlarini yaxshi biladi. SHu jihatdan qaraydigan bo'lsak, uning «Kel, uchaylik shimolga» she'ri g'oyat o'ziga xosdir. Bunda Shoir «Quyosh tushmaydigan» qutbni borib ko'rishni orzu qilgan bolaning lirik obrazini gavdalantiradi. Yosh bolaning murg'ak xayoli shimoliy qutbni borib ko'rishni, undagi hodisalar bilan tanishishni xohlaydi. Shoir lirik qahramonning ulug' maqsadlarga erishish uchun fan va texnika asoslarini amalda egallashi kerakligini chuqur anglaydi. Buni Shoir modelcha yasash jarayonida kichik yoshdagi bolalarning ruhiyatiga mos, sodda holda tushuntiradi va ularda katta ishlarga — qahramonlikka havas uyg'otadi:

Yosh bo'lsam ham mayliga
Qanot bog'lab uchayin.
Muz sahrosi Qutbning
Sirin men ham ochayin.
Hoy, suyukli modelcham,
Tayyormisan safarga?
Fikrim senda hamisha,
Kel, uchaylik SHimolga!

Shu narsa e'tiborliki, she'rda Zafar Diyor bolalarning texnikaga intilishi va qiziqishlarini qizg'in qo'llab-quvvatlaydi, ulardagi oliy his-tuyg'ularni o'stirishga, vatanparvarlik hislarini tarkib toptirishga yordam beradi. Shoir bunday yuksak tuyg'ularni badiiy sodda, ta'sirchan va mazmundor misralar bilan ifodalaydi:

Butun dunyo anglasin:
Bir modelist kepti, — deb,
Yangi avlod bayrog'in
Qutb uzra tikdi, — deb.

She'r bolalarning kelajakda orzu-umidlariga erishishlariga bo'lgan katta ishonch bilan tugaydi. Bu asar bolalarni ilm va hunarga muhabbat, tinmay olg'a intilishga chaqiriq ruhida tarbiyalashi jihatidan katta ahamiyatga ega.

Zamondoshlarimizning yangi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, mo'l-ko'l hosil olish va qishloqlarni obodonlashtirish ishida olib borayotgan kurashlari «Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa» dostonida ochib berilgan.

Zafar Diyor dostonida sahro-cho'llardagi shamolning vahimasi va uning ayanchli tasvirini chizib, yosh kitobxon diqqatini mehnatga jalb qiladi. Doston ertak shaklida, bolalarbop usulda yozilgan. Shoir sahrolarning «Qashqir kabi uvillovchi», «Boyqush kabi huvlovchi» dahshatli shamollari odam —tabiat dushmani ekanini obrazli misralarda yoritadi. SHundan keyin Shoir hayotni go'zal, sahro-cho'llarni obod qilishda suvning qadrini juda yaxshi bilgan keng o'tloqni jonlantirib so'zlatadi va u yerlarda «gul hayot» qurish g'oyasini olg'a suradi. Keng o'tloq yuksak tog'ga murojaat qiladi:

Ne bo'larmish bizning ham
Ko'ksimizdan ketsa g'am.
Bu g'am suvsiz ketmaydi,
Suvsiz yara bitmaydi...
Men suvingdan kuch olsam,
Tentak yeldan o'ch olsam.
Uzoq yillar xo'rlangan,
Qaqrab toshga aylangan
Ko'ksim bo'lardi obod,
Boshlanardi gul hayot...
Talabimga yetkur, tog',
Ber suvingdan, jon o'rtoq!

Yuksak tog' ham chorasizlikdan o'z dardini — suvni keng o'tloqqa eltib berolmasligini o'kinch va alam bilan so'zlaydi.

Shoir endi bolalar fikrini boshqa narsaga — dunyoda ongga, qudratga ega bo'lgan inson va uning ta'rifiga buradi. Zafar Diyor insonning kuch-qudratini sodda, mazmunli, shirali, bolalar qalbiga tez yetadigan iboralarda ifodalagan:

Bu mardlik va mahorat,
Bu kuch-quvvat, jasorat
Insonlarga yo'ldoshdir,
Ularga xos qo'ldoshdir.
Butun borliq — tabiat
(Bu so'zlarim haqiqat.)
Bo'ysunajak insonga
Gul tutajak ul jonga.

Shoir insonning aql-zakovati, kuch-qudrati haqida fikrlar ekan mubolag'aga zo'r beradi, insonni, hatto tabiatni ham o'ziga bo'ysundiruvchi kuch sifatida ta'rif etadi. Albatta, bu fikrlar turg'unlik davrining oqibatidir. Negaki, «Sirdaryoning jilovlanishi» bugungi kunda xalqimizga qimmatga tushmoqda. Bir so'z bilan aytganda, tabiat insonlarning boshboshdoqlik xatti-harakatlari uchun shafqatsiz o'ch olmoqda. Bundan bu asar mutlaqo keraksiz yoki zararli asar ekan, degan xulosaga kelmaslik zarur. Asar kitobxonlarni mehnatsevarlikka, yaratuvchilikka, tabiat bilan inson munosabatida muhabbat tuyg'ulari bo'lishi lozimligiga undaydi. Bu fikrini ifoda etishda Shoir yangi usul — tog' va o'tloqlarni jonlantirish orqali erishadi:

— Hoy, mard o'rtoq, mard o'rtoq,
Qara, qancha keng o'tloq
Suvsizlikdan dili dog',
Uning ohin o'chirib,
CHamanzorga aylantir,
Mangulikka shodlantir.

Dostonda shu tariqa xalqimizning cho'l-biyobonlarni bog'-rog'larga aylantirish orzusi o'zining badiiy ifodasini topgan.

Zafar Diyor dostonning g'oyaviy-badiiy mukammalligi uchun qattiq ijodiy mehnat qilgan. Asarning tuzilishi xalq ertaklariga yaqinligi bilan

ahamiyatlidir. Shoir asarning sehrli, roman-tik, ya'ni g'oyat ta'sirchan, o'qimishli bo'lishini ta'minlash uchun sodda, ajoyib badiiy-tasviriy vositalardan ustalik bilan foydalangan. Keng o'tloq, cho'llarning suvga tashnaligi va uning orzusi haqidagi «Bitta to'yib suv ichsak», «Suv ber, menga suv bergin», «Ko'ksimdan so'ng gul tergin»; sahro va uning shamoli to'g'risi-dagi «Eng g'azabli, eng o'chli, xarsangtoshday qotaman, misdek qizib yotaman»; davr kishilarining kuch-qudratiga oid «Chinordek zo'r qomati, Go'ro'g'lidek savlati» kabi tasviriy vositalarga boy misralar fikrimizning isbotidir.

Bu asar yosh kitobxonlarni mehnat va tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashi bilan muhimdir.

Zafar Diyorning ko'pgina asarlari mehnat mavzusiga bag'ishlangan. Ana Shundayasarlardan biri « Kichkina bog'bon haqida doston»dir. Dostonda bolalar va yoshlar dov-daraxtlarni ekish, parvarish qilishga chaqirilib, mehnat zavqi va ahamiyati kuylanadi. Bu g'oya SHotursun obrazi orqali ifodalanadi. Kichik qahramon otasi bilan birlashib mevali daraxtlarni parvarish qilishga, «Qo'lda kichik ketmon» bilan bog'larni yashnatishga mehr qo'yib, mehnatda o'zini ko'rsatadi.

Zo'r g'ayrat va katta ishtiyoq bilan ishga kirishgan SHotursun-ning o'zi parvarish qilib yurgan bir tup olmasi barvaqt pishib, mo'l-ko'l hosil beradi. Bola bir yili yalqovlikka berilib, olmaga qaramay qo'yadi. Shoirning mahorati shundaki, olma daraxtini jonlantirib, uning so'zlari orqali bolalarga ibrat bo'ladigan fikrni aytadi:

— Bu yil esa, Shotursun,
G'ayrating yo'q unchalik,
Berilmassan deb edim
Yalqovlikka bunchalik.
Ahvolimni so'rmading,
Oqlamading tanamni,
Qurt-qumursqa talaydi,
Ertadan kech mevamni.

Olmaning bunday ayanchli ahvoli, oh-fig'oni SHotursunga qattiq ta'sir qiladi va u o'z xato-kamchiliklarini tezda anglab olmakga parvarishini qayta boshlab yubordi. SHu zaylda Shoir o'quvchida Shotursunga nisbatan mehr uyg'otadi, undan o'rnak olishga chaqiradi.

Zafar Diyorning uchinchi to'plami 1939-yilda «She'rlar» nomi bilan bosilib chiqdi. Uning bu to'plami mavzu jihatidan bolalarbopligi, qiziqarli mazmun va obrazli ifodalari bilan ajralib turadi. Bu esa Zafar Diyorning

ijod sirlarini tobora mukammal egallab borayotganini, bolalar va yoshlar hayotini yaxshi o'rganib, ular uchun puxta, barkamol asarlar yaratish yo'lida tinmay ijodiy mehnat qilayotganini ko'rsatdi.

To'plamdagi «Amudaryo bo'yida» she'rida Shoir o'lka chegarachilarining lirik obrazini mahorat bilan chizgan. She'rda bolalarni chegara soqchilarining hayoti, ularning mas'uliyatli va faxrli burchi bilan tanishtiradi.

«Qutb qo'shig'i» she'rida esa Shoir olam yaralgandan buyon hech kim borib ko'rmagan qutbni egallagan bugungi kishilarning jasorat-u kuch-qudratini yusak muhabbat bilan kuylaydi.

Zafar Diyor o'z she'rlarida vatanparvarlik, Vatanga muhabbat g'oyalarini ilgari suradi. Bolalarni Vatanning munosib farzandlari bo'lib kamol topishga undaydi. Buning uchun ularga bilim manbayi bo'lgan kitobni sevib, fan asoslarini chuqur egal-lashlari zarurligini uqtiradi. Bu g'oyani «Kitob, mening do'stimsan» she'rida Shundaytasvirlaydi:

Varaqlasam bir boshdan
Quv nab bahrim ochilur,
Oltin harf-so'zlardan
Totli ma'no sochilur.
SHuning uchun deymanki:
Kitob, mening do'stimsan!

Zafar Diyor kitobning mohiyatini bolalar ongiga oson singdirishda jonlantirish vositalaridan ustalik bilan foydalana olgan. Shoir kitobni bola tilidan Shundayta'riflaydi:

Har sahifang men uchun
Bir hikoyat so'zlaydi,
— O'qib, odam bo'lg'in, — deb
Yaxshi niyat ko'zlaydi.

Shoir kitobni bolaning eng yaqin, mehribon do'sti, g'amxo'r o'rtog'i deb ko'rsatgach, uni jon-dildan sevgan bolaning jonli qiyofasini chizadi:

Seni jondan sevaman,
Meni tilga o'rgatding,
Hadya qilib ilm-fan,
Yorug' yo'llar ko'rsatding.

Shoir kitobning mohiyatini bolalarga yanada chuqurroq anglatishda, uni ta'sirchan qilib gavdalantrishda: «Baxtim kular kitobdan», «Quvnab bahrim ochilur», «Yosh o'ynoqi ko'zlarim shuur olar kitobdan» kabi istioralarni ishlatib, she'rning badiiy ta'sirchanligini oshirgan.

Zafar Diyor ikkinchi jahon urushi yillarida hozirgi «O'zbekiston ovozi» gazetasida adabiy xodim bo'lib ishladi. Ayni chog'da, u tinmay samarali ijod etdi. Shoirning «G'unchalar», «Serquyosh o'lka», «Ona qo'shig'i», «Bizning oila», «Qahramon», «Tankist», «Ulug' bayram», «Qurol bering menga ham», «Qahramonning kelishi», «Biz yashamoq istaymiz», «Qo'riq-chilikda» singari jangovar she'rlari shu yillarda yaratilgan.

Zafar Diyor baxtli bolalarning go'zal bog'lardan, chamanzorlardan, rang-barang gullardan, bahordan olgan quvonchini «Bahor keldi», «Orzu», «Qaldirg'och», «Qushlar haqida qo'shiq», «Binafsha» kabi she'rlarida sodda, ravon tilda, ohangdor, yengil qofiyali, o'ynoqi misralarda Shoirona talqin etadi va ular qalbida hayotga mehr uyg'otadi.

Zafar Diyor bugungi o'zbek bolalar dramaturgiyasi taraqqiyotiga ham barakali hissa qo'shdi. U bolalar hayoti haqida «Baxtli yoshlik», «Yosh vatanparvarlar», «Omonat», «Uch og'ayni» kabi qator dramalar ham yozgan.

O'zbek bolalar nasrini rivojlantirishda Zafar Diyor ham o'z hissasini qo'shgan. Uning «Jo'natish», «CHO'pon qizi», «Nojo'yaliklar» kabi hikoyalari shular jumlasidandir.

Zafar Diyor bolalar adabiyotining hamma janrlarida qalam tebratdi. U bolalarning turmushi, talab-ehtiyojlari hamda orzu-tilaklarini, turmushini, ularning ruhiyatini puxta bilganligi uchun bolalarning yoshiga, ong-tushunchasiga moslab, g'oyaviy-badiiy jihatdan puxta asarlar yaratdi.

Shoir o'zining qo'shiq va she'rlarida hamda boshqa asarlarida yosh kitobxonlarni ulug' yurtimizning behisob boyliklari bilan faxrlanishga, kelgusida yaxshi hayot bunyod etishlari uchun astoydil kurashuvchi, ongli, madaniyatli, vatanparvar kishilar bo'lib yetishish uchun a'lo baholar bilan o'qishga chaqiradi. U yosh avlodni mehnatga muhabbat bilan qarashga, rostgo'y va intizomli bo'lishga undadi, ularda vatanparvarlik, do'stlik tuyg'ularini o'stirishga katta e'tibor berdi. Uning asarlari davr bolalari va yoshlari uchun zavq bag'ishladi, ularni o'qish-o'rganish va kamol topish uchun kurashga ruhlantirdi.

O'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga she'r va qo'shiq, doston va ertaklari bilan juda katta hissa qo'shgan Zafar Diyorning asarlarini bolalar hamon sevib o'qiydilar va yuksak qadrlaydilar.

SHUKUR SA'DULLA

(1912- 1972)

Shukur Sa'dulla kichkintoylarga katta estetik zavq-shavq bag'ishlaydigan zabardast she'rlari, yosh kitobxonni yaxshilikka o'rgatuvchi ertak-dostonlari, a'lo o'qishga, davrimizga sadoqatli kishilar bo'lib kamol topishga da'vat etuvchi badiiy pishiq hikoyalari, o'tmish hamda davrimiz bolalari hayotidan olib yozilgan pesalari, yosh qalblarni larzaga soluvchi qissalari bilan hamma yoshdagi bolalarning qadrdon va suyukli yozuvchisi bo'lib qoldi.

Shukur Sa'dulla 1912-yilning 15-yanvarida Jizzax shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. U dastlabki savodini eski maktabda chiqargach, 1924-yilda Samarqand shahriga kelib, Pedagogika bilim yurtiga o'qiydi. 1932 yilda shoirming "Hayqiriq" nomli 1-she'rlar to'plami chop etiladi.

Sh.Sa'dulla 1931-yilda O'zbekiston Davlat nashriyotining bolalar va yoshlar adabiyoti bo'limiga muharrirlikka ishga taklif etiladi. 1950-yilda Sh.Sa'dulla I.Muslim bilan hamkorlikda bolalar shoiri S.Marshakning "She'r va ertaklar" asarini o'zbek kitobxonlariga tortiq etishdi.

Daniyalik mashhur ertakchi G.X.Andersen, rus yozuvchisi N.A.Nekrasovning asarlarini, L.Tolstoy va B.Jitkovning hikoyalarini, bolalar shoirilari M.Kvitko, A.Barto, M.Mirshakar, O.Berdiyorov, M.Fayzulina she'rlarini, V. Lebedov -Kumachning yoshlik taronalarini, B.Gorbatovning "Bo'ysunmaganlar" (1953), V.Osayevaning "Vosyok Trubachev va uning o'rtoqlari" (1954) povestlarini, Korney Chukovskiyning "Doktor Voyjonim" (1966) asarini ona tilimizga tarjima qilgan.

Sh.Sa'dulla bolalar uchun turli janrlarda ijod etdi: she'r ham, poema ham, hikoya ham, qissa ham, opera ham, she'riy ertak ham yozdi. Hatto xalq ijodiyotiga mansub ayrim an'anaviy janrlarni yozma adabiyotga omuxtalashtirdi. Xalq latifalari asosida "Ikki donishmand", "Afandining ko'ylagi", "Afandi tegirmonchi va ko'sa" kabi she'riy latifalardan topishmoq janri talablarini saqlagan holda topishmoq – she'r namunalari yaratdi.

Bolaligida ertakka o'ch bo'lgan shoir ulg'ayganida ham shu odatini tark etmay, "Ayyor chumchuq", "No'xat polvon", "Laqma it" kabi she'riy ertaklarini "Yoriltosh", "Afsona yaratgan qiz" singari ertak- pesalarini, "Kachal Polvon yoki yog'och qo'g'irchoqning sarguzashtlari" ertak-qissasini yaratdi.

Uning maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshidagi bolajonlarga bag'ishlab yozgan ko'plab she'rlari hamon kichkintoylar tilidan tushmay keladi. Ayniqsa, "Shohista", "Yomg'ir-yog'aloq", "Yaxshi ism", "Dildor va koptok" she'rlari baayni jajji bolakaylar fe'l atvorini to'la aks ettirgani bilan ajralib turadi. Shuningdek, Sh.Sa'dullaning yil fasllari haqidagi she'rlari maktab darsliklaridan o'rin olganligi e'tiborli. Muallifning "Yoriltosh", "Kachal polvon yoxud yog'och qo'g'irchoqning sarguzashtlari" ertak dramalari, "No'xatpolvon", "Laqma it", "Ayyor chumchuq" adabiy ertaklarining syujeti va badiiy-kompozitsion xususiyatlari diqqatga sazovor. Shukur Sa'dullaning o'zbek bolalar nasri taraqqiyotiga qo'shgan hissasi "Komandirning boshidan kechirganlari", "Aziz qishlog'im" qissalari orqali xarakterlidir.

Shukur Sa'dulla "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan adib edi. U 1972 yilda vafot etgan.

She'riy imzo - o'zbek bolalar poeziyasi uchun mutlaqo yangi janr. U, asosan, dialog yoki monolog shaklida bo'ladi. Ba'zan topishmoqdek jumboqdan iborat bo'lsa, ba'zan epigramma xususiyatiga ega. Bunday paytda piching, istehzo uning asosiy fazilatiga aylanadi. Binobarin, she'riy imzo kuchli emotsional ta'sirchanlikka ega miniatyur badiiy asar hisoblanadi. She'riy imzoda hayvonlar, qushlar, hasharotlar hamda boshqa narsa-hodisalarning she'riy tavsifi ixchamgina: ba'zan oddiygina, ba'zan yumoristik tarzda ifodalanadi. Uning har bir satri yoki bandining mazmuni asosida aniq narsa yoki voqeani aks ettiruvchi jozibali rasm chizish mumkin. Demak, she'riy imzo shoir va rassomning hamkorlikdagi fantaziyasi mahsuli hisoblanadi.

Uning hayvonlar, qushlar, hasharotlar va bolalar o'yinchoqlari to'g'risidagi qator asarlari ma'rifiy-badiiy qimmatga ega she'riy imzolar sirasini tashkil etadi. "Chittak" - qushcha rasmi ostiga "chekilgan" ana shunday she'riy imzolardan. Shoir unda topishmoqdagidek yashiringan narsa-jumboqning belgilarini sanab ko'rsatib, shu usul bilan kichkintoylarga chittakning tashqi ko'rinishiga oid oddiygina ma'lumotlar beradi. Ular tasavvurini aniq tushunchalar hisobiga to'ldiradi va boyitadi:

Men qushchaman kichkina,

Tillarim chuchukkina.

Ola-chipor qanotim,

Bilsangiz - chittak otim.

Chittak o'zini shunday tanitadi. Uning so'zlash uslubi xuddi bolalarnikiday. Antropomorfizmdan foydalanish she'riy imzoning ma'rifiy

ahamiyatini ta'minlashdan tashqari tez yodlanishini ham qulaylashtiradi. Demakki, kichkintoylar lug'at boyligini "ola-chipor", "chuchukkina", "chittak" kabi yangi tushunchalar hisobiga boyitish imkonini tug'dirgan.

Shoir poetik ijodida hajviy she'rlar barmoq bilan sanarli: "Olim uyaldi", "Bizning oyna", "Ivirsiq", "Anqov", "Shalabbo", "Injiq qizcha", "Jumboq" kabilar shu silsilani tashkil etadi Shukur Sa'dulla 60-yillarga kelib o'z qalamini nasrda ham sinay boshlaydi, bunda ham u maktabgacha yoshdagi kichkintoylarning o'ylari, orzulari, ishlari, taqdirlari, xarakterlarini badiiy tahlil qilishni maqsad qilib olgandi. Binobarin, uning bunday hikoyalarini ma'lum darajada kichkintoylar olamining o'ziga xos badiiy tadqiqotlari desa bo'ladi. Bu hikoyalarning aksariyati ichki qarama-qarshilik negizidagi kompozitsion asosda qurilgan: "Tush", "Ismi qo'yilmagan xat", "Yutqiziq", "Yaxshilik" hikoyalari ana shunday fazilatga ega. Hikoyalarning aksariyatida ifodalanayotgan fikr-muddao muallif tanlagan sarlavhalaridayoq ravshan anglashilib turadi: "Anqov", "Yalqov", "Qo'rqq", "Qaysar", "Ochko'z", "Chaqimchi", "O'jar", "Dilozor", "Izza", "Gap uqmas" va hokazo. Bu hajviy hikoyachalarda adibning o'zi tasvirlanayotgan voqealarga aralashmaydi.

"Komandirning boshidan kechirganlari" (1961) qissasi yozuvchining sarguzasht janridagi dastlabki mashqidir. Bu qissa o'zbek bolalar prozasida maktabgacha yoshdagi kichkintoylar hayotini, orzu va tashvishlarini realistik va romantik bo'yoqlarda ifodalagan birinchi yirik asar hisoblanadi. "Komandirning boshidan kechirganlari" asarida serquyosh respublikamizning azim poytaxti, Sharqning mash'ali - go'zal Toshkent shahri besh yashar Hayotning tasodifiy sayohatlari fonida epik tarzda tasvirlanadi. Unda Hayot markaziy figura, u hali maktab ko'rmagan, kuzatuvchanlik qobiliyati past maktabgacha yoshdagi kichkintoylarning vakili sifatida harakat qiladi.

Asarda Hayotning harakati tasodiflar negizida sodir bo'lsa-da, yozuvchi talqinida ko'zlagan ma'lum estetik-tarbiyaviy maqsadni aks ettiradi. Chindan ham qahramon sayohatlari kechgan Toshkentning e'tiborli joylarining tasviri kichkintoyni qanchalik zavqlantira olsa, uning qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usini ham shu qadar to'liqlantira oladi va mazkur tuyg'uning mustahkamlanishiga, e'tiqodga aylanishiga madadkorlik qiladi. Yozuvchi asar qahramoni besh yashar Hayotni ana shunday harakatlar qildirish evaziga voqelikni - turmush haqiqatini kichkintoylar saviyasiga munosib aks ettira olgan.

Adibning zamonaviy mavzuda yaratgan ikkinchi asari “Aziz qishlog‘im” qissasidir. Bu asar 1967 yilda yozilgan bo‘lib, 1969 yilda nashr etildi. Sh.Sa’dulla bu asarida xalqimiz hayotining yangi bir manzarasini - qishloqdagi qaynoq turmushni shaharlik bola Habibullaning qishloqqa qilgan sayohati jarayonida ko‘rsatadi.

“Aziz qishlog‘im”da mavjud obrazlarning barchasida ijobiy insoniy fazilatlar mujassam, shunga qaramay, yozuvchi qissa konfliktini inson va tabiiy ofat o‘rtasidagi kurash negizida qurib, “Inson degan so‘zning mag‘rur jaranglashi”ni (M.Gorkiy) real ifodalay olgan.

1966 yilda Toshkent zilzilasi faqat toshkentliklarnigina emas, balki butun mamlakatni, hatto million-million bolalarni ham bezovta qilgani tarixiy haqiqatdir. Sh.Sa’dulla qissada xuddi shu mavzuga qo‘l urib, shu bahonada qishloq ahlining zilzila jafokashlariga xayrixohlik tuyg‘ularini ifodalashga intiladi. Bu hol, ayniqsa, qishloqliklarning toshkentlik bola Habibullaga munosabatlari fonida yorqin gavdalanirilgan.

Shukur Sa’dulla “Kachal Polvon yoxud yog‘och qo‘g‘irchoqning sarguzashti” ertak-qissani yaratishda o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrlarining chodir xayol va chodir jamol tipidagi ikki turida o‘ynaladigan Kachal Polvon sarguzashtlariga doir xalq komediyalariga asoslanadi. Xalq komediyalari mazmunini ijodiy qayta ishlab, g‘oyaviy-badiiy niyatiga muvofiq qisqartirdi, to‘ldirdi va yangi detallar, epizodlar ijod qilib boyitdi. Xalq komediyalarining qo‘g‘irchoq qahramonlarini esa asarning qahramonlariga - badiiy obrazlariga aylantirdi. Shu asosda ertak-qissada fantaziya va realizm o‘zaro uyg‘unlashib, asarning yaxlit syujetini vujudga keltirdi. Bunda Sh.Sa’dullaning italiyalik adib Kollodining “Pinokkioning sarguzashtlari” hamda rus adibi A.Tolstoyning “Oltin kalit yoki Buratinoning boshdan kechirganlari” (1936) asarlaridan ijodiy ta’sirlanganligi ham muhim rol o‘ynagan.

Asardagi obrazlarning qariyb hammasi qo‘g‘irchoq komediyalarining qahramonlaridan iborat. Adib tayyor obrazlarni o‘z holicha ishlatavermaydi. Ularga o‘z g‘oyaviy-estetik kontseptsiyasiga muvofiq ijodiy yondoshadi. Fantastik ertak-qissada Sh.Sa’dulla tomonidan ijod qilingan salbiy va ijobiy xarakterdagi to‘qima obrazlar ham yo‘q emas. Adib har bir xarakterning o‘z qiyofasiga, xarakter belgilariga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida turli badiiy vositalarga murojaat qiladi. Ertak-qissada ellikka yaqin obraz mavjud.

Mazkur obrazlarni g‘oyaviy-badiiy estetik xususiyatlari hamda ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalariga ko‘ra uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Xalq tiplari. Bu guruhga Kachal Polvon, Shomamat ota, Orif jarchi, Boybuva ko'sa, Beknazar karnaychi, Ernazar maymunchi, Jo'ra qiziq, Mullajon, Bichaxon, To'tixon, etim qiz Mohira, kayvoni, askiyachilar, Qo'zi cho'tir, Ro'zi gov, Dehqon ota, Jalol polvon, rohatijonfurush, egizak aka-ukalar Alijon va Valijon, mehtarbozlar boshlig'i Mirsalim, Qurbonali otalar mansubdirlar. Bular orasida markaziy o'rinda Kachal Polvon obrazi turadi. Kachal Polvon individual belgilarga ega umumlashma tip. U sho'x, quvnoq, xushchaqchaq, sodda va dilkash. Vaziyatni mudom to'g'ri baholay oladi. Bu xususiyatlar uning do'stlari bilan olib borgan siyosiy kurashida qozongan g'alabasini mantiqiy asoslashda o'zini ko'rsatgan.

To'g'ri, Kachal Polvon inqilobchi obrazi emas, shunga qaramay Kachal Polvon Abdurahmonbek saltanatiga qarshi eldoshlari - faqir mahallaliklarning ozodligi, haq-huquqlari uchun astoydil kurashgan xalq qahramoni timsoliday kichkintoylar qalbiga yo'l topib, ularga xalqparvarlik saboq beradi. Ertak-qissada Kachal Polvon yakka harakat qilmaydi. Hamma faqir mahallaliklar bilan kengashib, ular bilan belgilangan maqsad sari olg'a intiladi. Natijada doimo g'alaba qozonadi. Yozuvchi shu taxlitda jamoatchilik qudratini va engilmasligini hayot haqiqatiga muvofiq talqin qiladi. Xalq tiplariga mansub boshqa barcha ijobiy obrazlar epizodik xarakterdadir. Adib bu personajlarning ma'lum g'oyaviy-badiiy qimmatiga va har birining o'ziga xos individual belgilariga ega bo'lishini esda tutishga intiladi.

2. Satirik obrazlar. Bu guruhga hokim Abdurahmonbek, Iso avliyo, Nosir bo'ri, Qora Mirshab, To'racha - chinoq, maktabdor domla, xalfa, Eshonqul, Sarsinboy chavandozlar mansub. Bu salbiy personajlar ijobiy personajlarga nisbatan birmuncha mukammalroq ishlangan. Bularidan tashqari satirik obrazlar qatoriga savdogar Abdurahim, Mirzasalim oqsoqol, jarchi Mullagarang, ayg'oqchi talabalar - Umar echki, Salim tajang, Ashirbek kabi nomda boru aslida qiyofasini ko'rsatmaydigan personajlar ham bor.

Abdurahmonbek - bosh salbiy personaj. Aslida "Sarkardalar" deb ataluvchi chodirxayol qo'g'irchoq teatrida o'ynaluvchi xalq komediyasida Farg'ona viloyatining zolim hokimi qiyofasida ko'rinadigan bu personaj Sh.Sa'dulla talqinida afsonaviy qo'g'irchoqlar mamlakati Shirinsoyning sohib saltanati. U - feodal ierarxiyasining cho'qqisida turgan hamda adolatsiz tizimni butunicha o'zida tajassum etgan zolim va telba hukmdorning timsoli. Unda feodal hukmdorga xos barcha xususiyatlar mavjud. Yozuvchi Abdurahmonbek personajini xarakterlashda rang-

barang bo'yoqlarga murojaat etadi. Bunda fosh etuvchi sotsial yumor, ayniqsa, katta rol o'ynagan. Natijada, Abdurahmonbek zolimlikda tengsiz shaxs va feodal davlat arbobining umumlashgan tipi darajasiga ko'tarilgan.

Boshqa salbiy personajlarni ishlashda ham Sh.Sa'dulla Gorkiyning dushmani hamisha xunuk va nafratangiz etib ko'rsatish to'g'risidagi maslahatlariga amal qilib, ular dunyosini ma'naviy qashshoqlar va badkirdorlar dunyosi tarzida kichkintoylar ko'z o'ngida gavdalantirgan. Shu yo'l bilan kichkintoylarda yomonlik va xunuklikni ezgulik va go'zallikdan tez ajrata bilish malakasini shakllantirishni ko'zlagan.

3. Afsonaviy maxluqlar, hayvonlar, hasharotlar va qushlar obrazlari jumlasiga ajdar, kavsar dev, oq chavkar ot, quyonlar, chumolilar, ko'rshapalak, kaptarlar, kakliklar, bedanalar va qirg'ovullarni kiritish mumkin. Bularning barchasi ham asar qahramonlari hayotida, xususan, Kachal Polvon faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ajdar, kavsar dev kabi afsonaviy maxluqlar hamda ilon yovuzlik timsoli hisoblansalar-da, Kachal Polvonning ijobiy fazilatlarini bo'rttirishda xizmat qiladilar. Kichkina kitobxon oppoq qanotlarini kitob o'rnida Kachal Polvonga taqdim etgan kapalaklarni ham, boylar zo'ravonlik bilan o'ziniki qilib olgan kambag'allar bug'doyini qaytarishda jonbozlik ko'rsatgan va Kachal Polvonning ozodlikka chiqishiga katta madad bergan zahmatkash chumolilarni ham, Kachal Polvoni jazodan ogohlantirgan ninachini ham, oldingi oyoqlarini ko'tarib, bir-biriga urib qarsak chalgan quyonlarni ham, xushxonu raqqos bedanalar, kakliklar, qirg'ovullarni ham sira unutmaydi.

Sh.Sa'dulla ertak-qissaning badiiy jihatdan qiziqarli bo'lishi, unda xalq komediyalariga xos milliy ruhning barq urib turishi uchun o'zbek xalq ijodiyoti, hatto bolalar folklori namunalari keng murojaat qildi, xushchaqchaq askiyalardan, yumorni va o'ychanlikni kuchaytiradigan topishmoqlardan, tez aytishlar, sanamalar, dono maqollari va matallaridan unumli va o'rinli foydalandi. Sh.Sa'dulla folklor materiallaridan ijodiy foydalanib, bir necha dramatik asarlar ham yozdi. Uning "Yoriltosh" muzikali ertak-dramasi (1937) va opera librettosi (1967), "Chol bilan bo'ri" kichik she'riy pesasi (1967), "Zubayda" (1969) ertak-dramasi o'zbek bolalar dramaturgiyasining yuksalishida ma'lum rol o'ynayotir. Bu asarlarda yaxshilik bilan yomonlik, tadbirkorlik bilan takabburlik, mehr bilan g'azab, sabr bilan toqatsizlik o'rtalaridagi shafqatsiz kurash ifodalanib, pirovard-natijada yaxshi-likning, tadbirkorlikning, mehrning va sabrning tantanasi ko'rsatiladi. Bolalarga shu tushunchalarning mohiyati

singdiriladi. Binobarin, bu asarlar bolalarda yuksak insoniy fazilatlarini tarbiyalashda va ularning zavqini, qiziqishlarini oshirishda ahamiyatlidir.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Zafar Diyor o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga qanday hissa qo'shgan?
2. Zafar Diyor o'zining she'riy asarlarida bolalarni nimaga chaqirdi?
3. Zafar Diyor drama janrida qanday asarlar yaratdi?
4. Sh. Sa'dullaning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlangan qaysi she'rlarini bilasiz?
5. Shoir o'qish, mehnat, odob mavzusida qanday asarlar yozgan?
6. Sh. Sa'dulla drama janrida qanday asarlar yaratdi?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

Shukur Sa'dulla asarlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilmagan?

+ "Asalari va Ahmadjon", "Mamajon shofyor".

- "Shohista", "Dastyor qiz", "Ozoda", "Komandirning boshidan kechirganlari" she'rlar va hikoyalar to'plami;

- "Yoritosh", "Bizning bog'chamiz", "Ikki blakuzuk", "Zubayda", "Afsona yaratgan qiz" pesalari;

- "Ism qo'yilmagan xat", "Sening bayraming", "Mening aziz bolalarim" qissa va ertak-dostonlari

Milt etib chiqdi quyosh,

Dedi: -Do'stlar, qish odosh.

Ko'rsak yo'q qora bulut,

Yer yuzi ko'k gilam -o't. **Bu misralar Sh.Sa'dullaning qaysi she'ridan olingan va nima ta'riflanmoqda?**

+ "To'rt fasl", bahor;

- "Yomg'ir yog'aloq", yomg'ir;

- "Boychechak", gul;

- "To'rt fasl", kuz.

Shukur Sa'dullaning xalq ertaklari uslubida yozilgan asarlarini aniqlang?

+ "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", "Ari bilan qaldirg'och", "Laqma it";

- "Ivirsiq", "Anqov", "Komandirning boshidan kechirganlari";

- "Ikki donishmand", "It o'ziga qanday qilib do'st topdi", "Shohista", "Chol bilan bo'ri";

- "Yalqov ayiqcha", "No'xat polvon", "Ism qo'yilmagan xat".

Shukur Sa'dullaning qissalari qaysi javobda keltirilgan?

+ "Aziz qishlog'im", "Komandirning boshidan kechirganlari";

- “Yalqov ayiqcha”, “Shohista”, “Dastyor qiz”;
- “Kachal polvon”, “Ism qo’yilmagan xat”;
- “Yalqov ayiqcha”, “No’xat polvon”, “Ism qo’yilmagan xat”.

“Kapalak”, “Binafsha”, “Navbahor”, “Qushlar haqida qo’shiq” singari mashhur she’rlar muallifi va bu asosan qaysi yoshdagi bolalarga mo’ljallanganini aniqlang?

- + Z.Diyor, kichik maktab yoshidagi bolalarga;
- G.G’ulom, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga;
- Q.Muhammadiy, bolalar va o’smirlarga;
- Shukur Sa’dulla, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga;

Zafar Diyorning liro –epik asarlari qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

- + “Mashinist”, “Yuksak tog’, keng o’tloq va mard o’rtoq haqida qo’shiq”;
- “Zahgori gilam”, “Madriddan kelgan mehmon”;
- “Tilsiz o’rtoq”, “Madriddan kelgan mehmon”, “Mamlakat”, “Kazbek”;
- “Kichkina bog’bon haqida doston”, “Laqma it”;

Zafar Diyorning qo’riq va bo’z yerlarni o’zlashtirish mavzusidagi asari qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?

- + “Yuksak tog’, keng o’tloq va mard o’rtoq haqida qissa”;
- “Madriddan kelgan mehmon”;
- “Kichkina bog’bon haqida doston”;
- “Mashinist”.

8-MAVZU. SULTON JO'RA VA HAKIM NAZIR HAYOTI HAMDA IJODIY FAOLIYATI

REJA:

1. Sulton Jo'raning hayot yo'li.
2. Sulton Jo'ra – bolalar shoiri.
3. Shoir Sulton Jo'raning urush mavzusidagi yozgan she'rlari
4. Hakim Nazir – bolalar nosiri.
5. Adib hikoyalarining g'oyaviy-badiiy mundarilasi.
6. Yozuvchining bolalar qissachiligidagi izlanishlari.

Tayanch tushunchalar: ramz, she'riyat, nazm, qissa, she'riy-adabiy ertak, qofiya, badiiy san'atlar, tashbeh, talmeh, majoz, yumor, satira, realism, nafosat olami, mahorat maktabi.

Sulton Jo'ra (1910 -1943)

Sulton Jo'rani o'smirlar kuychisi sifatida yaxshi tanimiz. Shoir she'rlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari rang-barang. Uning "Oy nechta", "Lola", "Sog'inchli salom" kabi she'rlarida bolalar olamining ifodasi ufurib turadi. S.Jo'raning pedagog shoir sifatida yozgan "Tinish belgilarining majlisi", "Kimning xati chiroyli" she'rlari ta'lim-tarbiyaviy jihatdan dolzarb. Shuningdek, shoirning "Yolg'onchi" dostoni, "Zangori gilam" ertaklarining syujeti va kompozitsiyasi o'ziga xos qimmatga ega.

She'riyatda havas Sulton Jo'ra qalbida juda erta uyg'ondi. U bilim yurtida o'qib yurgan kezlarda klassik va sovet shoirlarining asarlarini mutolaa qilib, o'zi ham ularga taqlidan she'rlar mashq qila boshladi. Keyinchalik shoir tarjimai xolida bu yillarni xotirlab "Birinci marta 1927 yilning oxirida "Mehnat qo'ynida" degan she'r yozdim, u "Yangi yo'l" jurnalida bosildi"-deb aytgan edi.

Sulton Jo'raning dastlabki she'rlari 1933-yilda Buxoro yosh shoirlarning "She'rlar" to'plamida nashr etildi. Uning 1939-yilda "Fidokor", 1941-yilda "Moskva" she'riy to'plamlari, 1942-yilda "Iroda" nomli pyesasi nashr etildi. Shoir vafotidan so'ng 1951-yilda rus va o'zbek

tillarida "Tanlangan asarlar", tinch qurilish yillari davrida iste'dodli shoirning "Havorang gilam", "Zangori gilam", "Bruno", "Parvoz", "Qaldirg'och" kabi kitoblari bosilib chiqdi.

Ayni choqda, u "yaxshi" va "a'lo" baholarga o'qish uchun kurashish, rostgo'y va intizomli bo'lish, madaniy va pokiza kiyinish, savodxon va chiroyli yozuv malakasini egallash kabi ta'lim- tarbiyaviy masalalarni ham badiiy vositalarda talqin etdi. Bunday g'oyalar shoirning "Yozgi yomg'irdan so'ng" (1936), "Qizlar", "A'lo" va "Yaxshining maqtovi", "Zangori gilam", (1939), "Lola", "Oy nechta?", "Tinish belgilarining majlisi", "Cho'ntak", "Sirkda" (1940), "Qarzdor", "Qaldirg'och", "Yolg'onchi", "Dengiz tagida", (1941), "Sog'inib" (1942), "Sog'inchli salom", "Salom xat" (1943) kabi asarlarida o'z ifodasini topdi.

Sulton Jo'ra o'z vatanining ozodligi, xalqining erki uchujngina emas, balki ularning porloq kelajagi bo'lgan kichkintoy do'stlarining baxti uchun ham kurashdi. Qirg'in maydonlarida bosqinchilar bilan olisha turib, navqiron avlodga o'z alangali salomini yo'llay oldi.

She'riyat sirlarini qunt bilan o'rganish, jiddiy va muttasil mashq Sulton Jo'raning adabiyot dargohiga o'z ovozi bilan kirib kelishiga imkon berdi. U poeziya olamiga katta umid bilan kirib kelgan yillar o'zbek adabiyotining yanada ko'tarilish davriga to'g'ri keldi. Bu paytlar yangi hayot davrini tarannum etuvchi. 30-yillar o'zbek poeziyasining eng yaxshi namunalarini yaratgan Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom va Uyg'unlarning qator asarlari nashr etilgandi. Bular butun vujudi bilan poeziyaga berilgan Sulton Jo'raga ta'sir etmay, uni to'liqlantirmay qolmadi. Shuning uchun ham shoir "Bu yillarda adabiyotga qiziqib Uyg'un, Hamid Olimjonlarning she'rlarini ko'p o'qirdim... yohud Shayxzoda, G'afur G'ulomlarning barcha asarlarini qiziqib o'rganib chiqdim,"-deb takror-takror yozadi. "Mening o'sishimga o'rtoq G'afur G'ulomning tashabbusi bilan 1939-yilning dekabrda Toshkentda adabiy kecha o'tkazildi".

1940 yilgacha, shoirning o'zi «birinchi she'riy to'plamim» deb e'tirof etgan «Fidokor» majmuasi bosilgunigacha, u, asosan, davriy matbuotda bosilgan she'riy va publitsistik asarlari bilan shunday e'tibor qozona olgan edi. Rost, bu asarlarning kattagina qismi katta yoshdagilarga mo'ljallangan esa-da, u bolalar va o'smirlarni qam unutmadi, ular uchun g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlar yozib, bolalar va o'smirlar kuychisi sifatida tanildi. U turli yoshdagi bolalar ruhiy olamini nafis his qila olganligi sababli ular xarakteridagi tabiiy soddalikni, tinib-tinchimaslikni, ayrim hollarda yolg'onchiligu dangasalikni yorqin ifoda eta oladigan «Lola», «Oy

nechta», «Cho'ntak», «Mamatning kechirimi», «Yolg'onchi», «Qarzdor», «Kimning xati chiroyli», «Yaxshi» va «A'lo»ning maqtovi», «Harflar paradi», «Tinish belgilarining majlisi» kabi XX asrning 30-yillaridagi o'zbek bolalar she'riyatining betakror namunalari yaratdi.

Sulton Jo'ra adabiyot maydoniga kirib kelgan davrda rus va jahon ilg'or adabiyotining eng yirik namunalari bilan tanishish, mutolaa qilish imkoniga ega edi. Yana bir dalilni alohida ta'kidlash kerak. Ma'lumki, ana shu yillarda o'zbek adabiyotshunosligida ham muhim muhim asarlar maydonga kelgan edi. Bu davrda e'lon qilingan "Lirika uchun", "So'nggi yillarda o'zbek poeziyasi"(Oybek), "O'qish va o'rganish qiyinchiliklari to'g'risida" (Hamid Olimjon), "Realizmni egallash yo'lida" (Hamid Olimjon, Uyg'un), "O'zbek sho'ro adabiyotida dunyoqarashni egallash haqida chet ta'sirlar bilan kurashish masalasi" (O.Hoshim), "Bir reaksiya nazariya to'g'risida" (O.Sharafiddinov) kabi asarlar va adabiyotimizning qisqa, lekin mazmunli tarixiy yo'lini xarakterlovchi boshqa maqolalar Sulton Jo'ra ijodining g'oyaviy takomilida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yillari adabiyot maydoniga kirib kelgan Zulfiya, Usmon Nosir, A. Umariy, Hasan Po'lat, Z.Diyor, Parda Tursun kabi iste'dodlar o'rtasida avj olgan qizg'in ijodiy musobaqa esa Sulton Jo'rani ham ijodiy kamolot sari rag'batlantiradi.

Bolalar ilmiy-ommaviy mavzularda yozilgan san'at asarlarini ham sevib o'qiydilar. Sulton Jo'raning bunday mavzudagi asarlaridan biri «Oy nechta?»dir. Bunda Shoir kichkintoylarning orzu-umidlarini ona va bolalarning suhbatlari orqali ifoda etadi:

Ona dedi:

Yotinglar endi,
Faqat bitta osmonning oyi!
Katta bo'lgach, aylanaylarim,
Oyning o'zin minib ko'rarsiz.
O'shanda-chi, oyijon, bizga,
Katta toti olib berarsiz.

«Mamatning kechirmishi» she'rida Shoir Mamatning ichki-ruhiy kechinmalari, ishyoqmasligi, yalqovligi, to'ngligi orqasida darslardan qoloq bo'lib, iztirob chekishini ishonarli aks ettirgan. Mana, hamma uxlagan, ammo tanho Mamat uyg'oq. Shoir uning ana shu daqiqalardagi qalb iztirobini, ruhan qiynalayotganligini, notinch ruhiy holatini sodda, ravon misralarda tasvirlaydi.

Shoir qoloqlik sabablarini birovdan emas, balki qahramonimng o'zidan qidirtiradi va buni Mamatning o'zini gapirtirish orqali ochadi.

Qoloqligi sababli ruhan azob chekib, qiynalib yurgan Mamat o'jarligi, o'zboshimchaligini tan olib, do'stlari yordamida oyoqqa turib, endilikda astoydil o'qishga ahd qiladi:

— Bo'ldi... Men bas qildim yalqovlikni,
Do'stlarimday olay bilimni.
Achchiq tajribamning o'zi saboq,
Ol, darsxonam, ishq dilimni!
Bor kuchimni berayki, bu «yomon»
Yondashmasin menga ertadan.
Nomim Mamat bo'lmay ketsin agar,
Va'da qilgan bo'lsam jo'rttaga!

Sulton Jo'ra qissadan hissa chiqarib, a'lo o'qish katta ahamiyatga ega ekanligini bolalarga uqtiradi:

A'lo o'qish o'zi yuksak shuhrat,
Har shuhrating tillarda doston.

She'rda barcha tasviriy vositalar g'oyaviy, badiiy niyatni yorqin amalga oshirishga qaratilgan. Shoir tabiat lavhalari, go'zal hayotiy tasvirlar vositasida qahramonning ichki holatini ochadi va ta'sirchanlikka erishadi:

Barcha uxlar...
Kumush ariqchaning
Eshitilar shildir-shildiri,
Yaproqlar ham «alla» deb tebratar
Sirtlariga qo'ngan oy nurin.

«Mamatning kechirmishi»da yalqovlikni tashlab, a'lo o'qishga mahkam bel bog'lagan bolaning ijobiy namunasida o'z kuchiga ishonish, nuqsonlarga tanqidiy qaray bilish g'oyat katta kuch degan ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik o'git ilgari suriladi.

Ta'lim-tarbiya sohasida yozma nutq san'atini egallash eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ba'zi o'quvchilar grammatik mashqlar bilan jiddiy shug'ullanmasligi, badiiy adabiyotni kam o'qishi natijasida yozma

ishlardan oqsaydilar. Chiroyli yozuv qoidalarini buzib, xunuk xat yozishdan tashqari, turli xatolarga yo'l qo'yadilar. Pedagog-Shoir Sulton Jo'ra ta'lim-tarbiya ishidagi bunday nuqsonlarni tugatishda o'quvchilarga yordam berish maqsadida «Kimning xati chiroyli?», «Tinish belgilarining majlisi», «Harflar paradi» she'rlarini yozdi.

«Kimning xati chiroyli?» she'rida bolaning sog'lom, baquvvat bo'lib kamol topishida, yozuvining go'zal bo'lishida partada to'g'ri o'tirish qoidasiga qat'iy rioya qilish katta ahamiyatga ega ekanligini ham uqtirib o'tadi:

O'tirishim to'g'ri, soz,
Qoidaga juda mos.
Ko'kragimni men sira,
O'tirganim yo'q tirab!
Chiroyli yoz, yozsang xat!
Chunki bu ham zo'r san'at...

Shoir ijodiy faoliyatida «Tinish belgilarining majlisi» she'ri katta ahamiyatga ega. She'rdagi o'zbek tilining eng muhim qoidalari — tinish belgilarining vazifalari bolalarga mos ravishda, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositasi orqali ifoda etiladi. Unda har bir tinish belgisi jonlantirilib, qo'llanishiga mos tarzda gapirtiriladi va o'ziga xos joyiga qo'yiladi. Bu holat kitobxonda aniq tasavvur hosil qiladi va Shoirning pedagogik, badiiy mahoratini egizak holda namoyish qiladi.

Shoir she'rdagi o'xshatishdan ham ustalik bilan foydalanib, undov belgisini mirzaterakka, nuqtani koptokka; so'roq belgisini o'roqqa, zirak taqqan quloqqa, vergulni kichik to'qmoqqa, qo'shtirnoqni qiziqchilarga, tireni gugurtga o'xshatib, Shoirona tasvirlaydi. Gapda esa nuqta «fikrlarning stansiyasiga», vergul «fikrlarning razezdi» (to'xtab uchrashadigan joy)ga o'xshatiladi. Bunday o'xshatishlar tinish belgilari qoidasini oson o'zlashti-rishga yordam beradi.

So'roq belgisi:

Uqdingizmi? Yetadimi? Bormi savol?

Yoki o'zim so'rayinmi sizdan savol?

Vergul:

Gar undalma gapda kelsa qoq o'rtada,

Uning ikki yonboshida men jo'rttaga,

«Qani endi undalmaxon, qochib boq-chi» —

Deb bo'lurman yubormayin unga soqchi,

Gar undalma gap so'ngida kelsa, u choq,

Undan oldin qo'yilarman, tushun o'rtoq!

Qo'shtirnoqlar:

Mana rais: — «Vaqt tamom, to'xtangiz!»

Deb qoldi-ku, mayli, endi yo'q gapimiz.

Tire:

Biroq shartim — so'z qolmasin o'lda-jo'lda.

Ko'rinib turibdiki, Shoir tinish belgilarining xususiyatlarini tasvirlabgina qolmay, unga muvofiq misollarni ham she'riy yo'l bilan ko'rsatgan. SHuning uchun bu she'ni ko'rgazmali she'r deyish va undan darslarda ijodiy foydalanish mumkin.

«Yolg'onchi» dostonida bolalarni rostgo'y bo'lishga, yaxshi va a'lo o'qishga chaqiriladi. Doston qahramoni No''mon maktabda ta'lim-tarbiya qoidasini buzuvchi, o'qituvchi va ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik qiluvchi bola sifatida gavdalanadi. Shoir, No''mon qoniqarsiz o'qishga qaramay, o'zini tuzatish o'rniga o'qituvchiga zarda qilishi, yolg'on gapirishi, o'jarligi, dars tayyorlamasligi va ishyoqmasligini turli hayotiy parchalarda juda ishonarli tasvirlaydi. Chunonchi, No''mon o'qituvchi yozib bergan xatni yirtib tashlab, «2» baholarini yashirib, o'zini a'lochi qilib ko'rsatib, beodobligini fosh etadi.

No'mon o'qituvchi va ota-onasi ta'sirida butun kamchiliklarini anglab yetadi, yaxshi o'qishga va'da beradi va va'dasining ustidan chiqadi. Doston o'z kamchiliklarini anglab, o'qishga astoydil berilgan No''monning ijobiy xatti-harakatini ulug'lash bilan tamomlanadi.

Sulton Jo'raning «Havorang gilam» ertagidagi qahramon Rahimdir. U o'tmishda og'ir kulfatlarni boshidan kechiradi.

Rahim zindondan qochib, uyiga kelsa, na xotini, na qizi bor. Uning xaroba uyini Shoir:

Uy o'mida bir devor!

Atrofi o't — tikanzor, —

deb tasvirlaydi. G'azabda yongan Rahim zulmkorlarga qarshi kurashga bel bog'laydi. Ertakda Shoir asar qahramoni Rahimning hayoti haqida hikoya qilar ekan, uning e'tiborga loyiq eng muhim belgisini — xalq bilan chambarchasligini ko'rsatadi.

Dostonda yovuzlarga qarshi bir tan, bir jon bo'lib kurashgan xalq ozodlikka chiqadi, zulmkorlarni tag-tugi bilan yo'q qilib, baxtli hayotga erishadi. Shoir «mozorday jimjit», «qushlar uchsa qanoti, inson yursa oyog'i» kuyadigan bepoyon dasht-cho'llarda endi yangi hayot

qaynayotganini tasvirlab, bularning hammasi Rahimlarning samarali mehnati tufayli yuz berganligini bolalarga hikoya qiladi:

Cho'l o'rnida bog'-bo'ston,
Rang-barang bir guliston...
Qo'ng'iroqday shalola,
Oy kabi nurli dala...
Daryoni qilib qamal,
O'tkazishgan zo'r kanal...
Xullas, go'yo bu — sara
Va ajoyib manzara
O'xshardi boqqan sari
Gilamchaki — zangori!..
Ko'rdi: ko'm-ko'k keng dala,
Unda ishlar bir gala
Son-sanoqsiz er-xotin,
Ekardilar zar-oltin...

Xalq ommasining mehnati tufayli ajoyib shaharlar, cho'l o'rnida bo'stonlar yaratilishini tasvirlash orqali Shoir kattalar mehnatiga bolalarning havasini oshiradi.

Sulton Jo'ra «Sog'inchli salom» she'rida Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat hislarini va g'alabaning muqarrarligini tasvirlaydi. Shoir «guli g'unchalari», «oltin yulduzchalari», «girgitton qizchalari»ga sog'inchli salom yozar ekan, ularga nemis bosqinchilarining yovuzliklari va vahshiyliklari, insoniyat boshiga solgan azob-uqubatlari, jabr-zulmi, fashistlar vayron qilgan joylardagi xalqning og'ir ahvoli, yosh bolalarning ayanchli taqdiri haqida hikoya qilib beradi. Shoir urush va uning dahshatlarini, xalqning azob-uqubatlarini o'z ko'zi bilan ko'rib, boshidan kechirgan bir kampir tilidan so'zlab, voqeaning ta'sirchanligini, bolalar ongiga tez, oson yetib borishini ta'minlaydi. Kampirning qalbi dardga to'la. G'am, alam, qasd uning butun vujudini egallab olgan. Uning so'zlari orqali fashistlar tomonidan otib o'ldirilgan qizi va nevarasining fojiasigina emas, umuman dushmanning yovuzligi, rahm-shafqatsizligi ro'yi rost ochib berilgan:

Ko'zim ochsam ne ko'ray:
— Voy! «Qo'rqinchli manzara»,
Ko'ragidan qon oqib,
Erda yotar Varvara...

Fashist jallod nayzasin
Sanchibdi ko'kragidan,
Bolaning hali yoshi
Ketmagan kiprigidan,
Bir tomonda onasi,
Bir tomonda bolasi,
Qon ichida yotibdi.
E voh, har ikkalasi!..

Urush dahshatlarining kichik bir parchasini yuqoridagiday tasvirlash bilan Shoir bolalarning murg'ak dilida urush olovini yoquvchilarga nisbatan kuchli nafrat tuyg'ularini qo'zg'atadi. Ular qalbida tinchlik, do'stlik, baxtiyorlik haqidagi ulug' maqsad, buyuk orzu hislarini uyg'otadi.

Obod qishloqlarni vayron qilgan, begunoh kishilarning umrini xazon qilgan fashistlardan qasos olishga bel bog'lagan g'azabkor otaning hayqirig'i tubandagi misralarda zo'r mahorat bilan tasvirlangan:

Ana shu Varvaraday
Qancha yosh bolalarni,
Bolalik bo'stonida
Ochilgan lolalarni
Halok etgan peslardan —
SHu jallod fashistlardan
Jon uchun jon olaman,
Qon uchun qon olaman.
Xullas, fashist yovlarni
Tor-mor etib batamom
So'ngra, jigarbandlarim,
Yoningizga qaytaman!..

Shoir his-hayajonni oshirishda xalq og'zaki ijodidan o'rinli foydalangan:

Hay, janubga uchgan qush,
Kel, yonimga bir pas tush!
Qizlarimga xat beray,
Andijonga qarab uch!

Pedagog-murabbiy va jangchi-Shoir Sulton Jo'ra o'zbek bolalar adabiyotining xazinasiga o'zining ana Shundayqimmatbaho asarlari bilan munosib hissa qo'shgan.

Hakim Nazir

(1915 - 2008)

Hayotda har bir kishining, katta-kichikning o'ziga yarashiq burch va vazifalari, yumush va tashvishlari, umid va intilishlari bo'ladi. Tarovatli qishloqlarimizdan birida yashovchi Karimning yagona ishi («Bir tup g'o'za») sigir boqishdan iborat edi. Lekin inson bolasi boshiga nima kelishini, qanday voqea ro'y berishini oldindan bilmaydi. Tasodif oyoq ostidan chiqadi. Karimning sigiri arqonini uzib ketib, bir necha g'o'za nihollarini payhon qffib tashlaydi. Bunga Karimning beparvoligi sabab bo'ladi.

Bo'lib o'tgan voqeaga Karim oldiniga parvo qilmaydi. Chunki bepayon zumrad dalalarda g'o'zaning son-sanog'i yo'q. Karimning sigiri payhon qilgan nihollar esa buning oldida dengizdan bir qatra-ku. Awaliga Karim ham shunday deb o'ylaydi. Biroq, unga o'zidan kattaroq bolalar bir tup g'o'zadan qancha tola, yog', qanchadan-qancha moddalar borligini tushuntiradilar. Karim shundan keyingina sigirning qancha zarar keltirganligim payqab, achinadi, uyaladi. Chunki Karim bu ishda sigiri emas, o'zi aybdorligini juda yaxshi bilardi.

Hakim Nazimning asadaridan olib hikoya qilingan bu parchada qatrada quyosh aks etishi ko'rinib turibdi. Yozuvchining shunga o'xshash o'nlab hikoyalarda, biz o'zimizga qadrdon olovli quyoshni, musaffo havoni, muqaddas ona yerni, bir so'z bilan aytganda, bugungi go'zal O'zbekistonni, osmono'par «oq oltin» tog'lari bunyod etayotgan fidokor paxtakorlarni, ularning quvnoq, baxtiyor bolalarini ko'ramiz. Ular Hakim Nazir asarlarining qahramonlaridir.

Bu hikoyaning ijobiy qahramonlari o'rta va katta yoshdagi maktab bolalaridir. Bu yoshda bolalarni dunyodagi hamma narsa qiziqtiradi, bu yoshda ularning ona-Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, sadoqat, burch kabi olijanob tuyg'ulari shakllanadi, go'zal his-tuyg'ulari, oliy insoniy munosabatlari uyg'onadi. Bu qahramonlar shunday yoshdagi, ularning o'zaro munosabatida soddalik, shu bilan bir qatorda jiddiylik va qat'iyat bor.

Shuning uchun yozuvchining «Boshq» hikoyasining qahramonlari Azimjon va Toshtilla boshqda ishtirok etmasak, kattalar oldida uyatga qolamiz, mehnat intizomini buzgan bo'lamiz, degan fikrga keladilar. Bu bolalar ma"naviy dunyosi boyligidandir. Hakim Nazir bu tuyg'ular olamida mehnat romantikasiga katta e'tibor berib, uning o'ziga xos nafosatini ko'rsatadi. Adib o'zining bu tasvirlarida haq. Bu xususan uning

o'zbek milliy koloritini to'g'ri va yorqin tasvirlashida, qishloq turmushidan olingan jonli va hayotiy voqea detallarni to'g'ri topishida yaqqol ko'rinadi. Adib asarlarida bolalarning xalq mulkini ko'z qorachig'idek asrash xususidagi olijanob tuyg'ulari, jamoaning mehnatini qadrlash, e'zozlashlari, mehnatning shon-sharaf ishi ekanligi haqidagi tushunchalari o'zining jonli ifodasini topgan.

Hakim Nazir 1915 yilda Toshkent shahrida mahsido'z-kosib oilasida dunyoga keldi. Onasi Malika otinning maktabida boshlag'ich ma'lumot olgandan keyin, royabzal fabrikasiga kirib kasb egallash bilan birga kechki ishchilar dorilfununi (industriyal texnikum)da o'qishni davom ettirdi.

Hakim Nazir bolaligidan kitobxonlikka juda berilgan, gazeta va jumallarda bosilgan materiallarni chanqoqlik bilan o'qib chiqardi. Undagi o'qish-yozishga bo'lgan qiziqish uni hosiigi «Tong yulduzi» gazeta-tahririyatida ishlashga olib keldi. 1934-1935 yillarda dastlabki hikoya, ocherklari gazetada, «Yosh kuch» jumalida bosilib chiqdi. Bular havaskorlik mashqlari edi. Adib jiddiyroq asar yozish uchun hayot taassurotlaridan tashqari chuqur nazariy ma'lumot ham zarur ekanligini angladi. Kunduzi redaksiyalarda ishlagan holda kechki Toshkent davlat pedagogika institutida o'qib, til-adabiyot fakultetini muvafaqqiyatli bitirib chiqdi. Bir oz vaqt o'qituvchilik qildi. Adabiy ishga astoydil berildi. 1942 yildan boshlab o'n bir yil davomida O'zbekiston radio qo'mitasida bo'lim boshlig'i, bosh muharrir bo'lib ishladi. So'ng Badiiy adabiyot nashriyotida bosh muharrir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida kotib, adabiy maslahatchi vazifalarini bajardi. Mazkur vazifalarni yozuvchi ijodiy ish bilan qo'shib olib bordi.

Qunt, chidam bilan o'z ustida ishlashi, tinimsiz ijodiy izlanishi tufayli Hakim Nazir bolalar yozuvchisi sifatida kitobxonlarga tanildi. 1940 yilda «Kenja» (yangi nomi «Quyosh qachon tutiladi?»), 1946 yilda «Salim ota» nomli hikoyalari respublika tanlovlarida sovrindor bo'ldi. 1951 yilda esa Moskvada rus tilida chiqqan «Malchiki iz kishlaka» hikoyalar to'plami sobiq ittifoq tanlovida mukofot oldi.

Sevimli yozuvchimizning ijod yo'liga sinchiklab nazar tashlasak, uning dastlabki ijodiy izlanishlari hikoyachilikdan boshlanganini ko'ramiz. Uning birinchi kitobi «Qishloqdagi jiyanlarim» ham hikoyalardan jamlangandir. Hikoya jami yozuvchi Man yosh kitobxonlar olamini birlashtirishda bamisoli bir ko'prik bo'ldi. Bu ko'prik orqali Hakim Nazir bolalarning boy, go'zal, quvnoq, ajoyibotlarga to'la dunyosiga kirib bordi. Bir-biridan ta'sirli, bir-biridan o'qimisffi, bolalarcha jonli hikoyalari dunyo yuzini ko'rdi. Bularda kichkintoylarning quvonchlarga to'la turmushi, his-tuyg'ulari, o'qishi, xulq-odobi, kattalarga hurmati, mehnatga munosabati, milliy

qadriyatlar o'z badiiy ifodasini topdi. Hikoyalarda yozuvchining kichkintoylar yoshi, saviyasi va ruhiyatini ko'rsatishga alohida e'tibor berganiko'rinib turadi. «Qishloqdagi jiyanlarim» (1948), «Besh baho» (1955), «Cho'l havosi» (1958), «Yaxshiism» (1962), «Meni taniysizmi?» (1963), «Bolajonlarim» (1964) nomli hikoyalar to'plamlari birin-ketin e'lon etilib, bolalar va o'smirlarning ma'naviy mulkiga aylandi.

Hakim Nazirning ko'pgina hikoyalari bog'cha yoshdagi yoki endigina birinchi sinfga qadam qo'ygan bolalar hayotini aks ettirishga bag'ishlangan. Buni adibning «Bir og'iz so'z», «Rasmi kitobcha», «Davronning qushchasi», «Qaysargina ukam», «Yaxshi ism», «Ikki o'rtoq», «Bulbul», «Qanddon», «Igna», «Bir tup g'o'za» kabi hikoyalari misolida aytish mumkin. Bunday hikoyalarda bolalar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, axloq-odob, a'lo o'qish, jamoat ishlarida faollik ko'rsatish, kattalarning yumushlariga ko'maklashish, qushlar va jonivorlarga g'amxo'r bo'lish, orzu-umidlar qanotida yashash va boshqa masalalar aks etganini ko'ramiz.

Bolalarda orzu-umid, yaxshilik sari intilish kattalarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. «Yaxshi ism» hikoyachasida adib xuddi shu to'g'rida so'z yuritadi. Shoir endigina birinchi sinfga qadam qo'ygan. U hali maktab qonun-qoidasini yaxshi bilmaydi. Shuning uchun qizcha maktab o'qituvchisi Zuhra yulduziga raketa uchirilganligi to'g'risidagi axborotni ro'znomadan o'qib berganida butun sinfni boshiga ko'tarib:

— Topdim! Topdim! Topdim!! — deya ovozinig boricha baqirib yuboradi Shoir.

Ayon bo'lishicha, kecha Shoiraning onasi unga singilcha tug'ib bergan bo'lib, chaqaloqqa nima deb ism qo'yish janjal bo'lib turgan ekan. Shoirada havas yaxshi, niyat kuchli. Unga raketa va ayniqsa, Zuhra yulduzi yoqib qoladi. Shu onda singuchasiga Zuhra deb ism berish fikri tug'u'adi. Bu haqda u butun sinfga so'zlab beradi.

«Yaxshi ism»ning ahamiyati shundaki, bolaning Shoiraga, tanlagan ismga, qudratli texnikaga, shirinsuxan muallimaga va otaga bir umr havasi keladi.

Bolalarga har taraflama to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, tushuntirish, o'rgatish, ularda ko'nikmalar hosil qilish kattalarga bog'liq. Kichkintoylarning otaxon adibi «Bulbul» hikoyasida bu masalaga katta e'tibor beradi. Ona tabiatga, qushlarga mehribonlik qilish g'oyasi bu asarning asosini tashkil etadi.

Qobiljon qushlarni ehtiyot qilish, e'zozlash kerak ekanligini, ularni urish, o'zor berish yomonligini tushunib yetmaydi. Shu sababli qo'shni hovliga kelib sayragan bulbulni urmoqchi bo'ladi.

Olim aka ishdan qaytganda Qob4jon qo'shnilar nikiga bulbul kelganidan xabar beradi.

- Dada, dada! - dedi u ko'zini katta-katta ochib, - nega bizning boqqa bulbul kelmaydiya?
- Qo'rqadi, - dedi dadasi.
- Nimadan qo'rqadi? - dedi u ajablanib.
- Sendan! - dedi dadasi.
- Iya, nega endi mendan qo'rqadi?
- Axir kesak otsang, mayib bo'ladi-da! Bu ishing yaramaydi deb aytib edim-ku. Qobiljon indamay, o'ylanib qoldi: endi nima bo'ladi? Rostdan ham bulbuljon uning bog'iga hech kelmasmikan-a?
- Kesak otmasam keladimi, dada? - dedi oxiri Qobiljon.
- Albatta, keladi, - deb ishontirdi dadasi.
- Bo'pti! - dedi Qobiljon va shu paytdan boshlab qushlarga kesak otmaydigan bo'ldi.

Adibning maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlab yozgan juda ko'p hikoyalari kitobxonni ona yurti sevishtga, mehnatkash bo'lishga, mehnat ahlini, ota-onani e'zozlashga, kasb-hunar egasi bo'lishga chorlaydi.

«Bir tup g'o'za» hikoyasida yosh qahramonlarning xalq boyligiga bo'lgan munosabatlari g'oyat hayotiy detallar, jonli, qiziqarli voqealar asosida ifoda etiladi. Bolalarning o'yinqaroqligi tufayli yoshlarning xalq mulkiga bo'lgan munosabatlari o'zgaradi.

Muallif hikoyada qahramonlar xarakterini individuallashtirishga alohida e'tibor beradi. Abdusamad - cho'rtkesar bola. Goho ba'zi gapiarni shartta aytib yuboradi (sigirni qidirib yurganda Qoraboy akaga qilgan muomalasini esga oling). Karim soddadil, to'g'ri so'z bola. Shu bilan birga, serharakatligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu holni biz Karimning xatti-harakatlari, qiliq, odatlari, so'zlari, o'rtoqlari bilan munosabatlarida ko'ramiz.

Muallif «Qishloqdagi jiyanlarim» to'plamidagi «Valijonning dadasi» hikoyasida bolalarning jangcliilaiga hurmat va muhabbatini tasvirlaydi. Buni ikkinchi jahon umshidan qahramon bo'lib qaytgan Valijonning dadasini butun qishloq ahli zo'r hurmat va katta tantana bilan kutib olganini ko'rsatish orqali ochadi. «Jiyanimning toychasi» hikoyasida kitobxonni qishloq bolalarining xarakterlari va hayoti bilan tanishtiradi. Mahmudjon bilan Omonning otasi paxtadan mo'l hosil olish uchun kim o'zarga kirishadi.

Bolaiar o'z otalarining g'olib chiqishi uchun kuyib-pishib harakat qiladilar. Mahmudjon jonidan aziz ko'rgan toychasini aravaga qo'shib paxta tashishga kirishadi. Bu bilan yozuvchi qishloq bolalarining o'ziga xos xarakterini yaratadi. Kichik bir parcha orqali katta bir voqeani - bolalarning ulug' ishlarga qo'l urganligini haqqoniy ko'rsatadi. Hakim Nazirning aksariyat asarlari, yuqorida ko'rganimizday, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bag'ishlangan.

Muallifning birinchi qissasi «Ko'korol chiroqlari» urushdan keyingi qishloq hayotida yuz bergan qiyinchiliklarni yengishda ota-onalariga ko'mak ko'rsatgan bolaiar haqida, ulaming mehnatda xarakterlarining chiniqishi, do'stliklarining tobianishi aks ettiriladi. Bu qissani muallif kitobxonlar talabi asosida keyinroq qayta ishlab, «So'nmas chaqmoqlar» nomi bilan bostirdi. Hakim Nazirning «Yonar daryo» qissasi o'zbek bolaiar adabiyotining keyingi yillardagi katta yutug'idir. «Gaz-qaynar» manzarasini yorqin bo'yoqlarda gavdalandirgan bu asarda o'sha davrda Qizilqum sahrosi kishilarining jasorati, romantik hayoti, qahramonligi hamda bir-biriga chin mehribonligi tasvirlanadi, shunimgdek, oiladagi bola tarbiyasi, bunda ota-onaning tutgan roli ko'rsatiladi. Asarda voqea o'n ikki yoshli o'quvchi Damir tilidan hikoya qilinadi. Bundan ikki yil awal otasi vafot etib, singlisi Popuk ikkovi onasining qaramog'ida qolishgan. Ko'p vaqti ishda o'tadigan ona bolaiar tarbiyasiga kam e'tibor bergan. Damir esa keksa buvisining o'ta niehribonligi, yumshoqligi orqasida o'yinqaroq, o'qishga kam xafsala, o'jar bo'lib qolgan. Natijada, u onasiga bo'yin egmasiikka xarakat qiladi.

Damirlarning uzoq qarindoshlari Sulton amaki ularning uylariga tez-tez kelib turadi, shuning uchun bolaiar unga o'rganib qolishgan. Keyinchalik ota sifatida shu oilaga kirgan Sulton amaki Damir xarakterining shakllanishida muhim roi o'ynaydi. Damir xarakterida iz qoldirgan ikkinchi muhim voqea uning Qizilqumga safari bo'ladi. Bu uning ko'z o'ngida yangi oiam ochadi, uni mehnat quchog'ida chiniqtiradi.

Gazchilarning «G'ildirab yuradigan posyolkasi», «Cho'pon boboning boshchiligida» ochilgan «Mo'xjiza quduq», bemorligiga qaramay Sulton amaki ko'rsatgan fidokorlik, umuman, gazchilarning afsonaviy qahramonligi Damir ruhida keskin burilish yasaydi.

Yozuvchining «Kenjatoy» qissasida hunar maktabi hayoti qiziqarli va jozibador aks ettirilgan bo'lib, o'smirlarda ishchi kasbidan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalashga xizmat etadi.

«Tohir-Zuhra qissasi»ni olsak, unda bosh muomma hayotga qadam qo'yayotgan balog'at pallasidagi o'spirin bilan qizaloqning yosh

qalblarida tug'ilmish ilk sevgi kechinmalariga qaratilgan, ularning yoniq iztkoblari tasviriga keng o'rin berilgan.

«Dadamni topib beringlar» qissasida bir dehqon oilasi boshiga tushgan nohaqlik fojeasi kichiklar nazari orqali o'tkazilib, ularning ongi va rahiyatiga yetkazilgan salbiy ta'siri badiiy tahlil etilganini ko'ramiz va yosh qahramonlar bilan birga iztirobga tushamiz.

Hakim Nazir so'nggi kitobini «Oq fotiha» deb atadi. Bu xotira-qissa bo'lib, bolalik sarguzashtlariga bag'ishlangan. Muallif bezovtalik, g'ulg'ula-hayajonlarga to'la bolalik chog'lari ko'rgan-kechirganlarini jonli lavhalarda hikoya qiladi, kichiklikda ota-onasidan olgan ilk insoniy saboqlari uchun chuqur va samimiy mirmatdorchiligini izhor etadi.

Hakim Nazir 1973 yilda «Lochin qanotlari» romanini yaratdi. Bunda f urushga ketgan ota-onalarning o'rnini bosgan O'ktam, Umri va boshqa yosh vatanparvarlar obrazlari gavdalanitirildi. Romanni jamoatchilik iliq qabui etdi. Tadqiqotchilar: «Lochin qanotlari» romani o'zbek bolaiar adabiyotida deyarli qo'l urilmagan mavzuni - urush yillari kichkintoylarning buyuk g'alabaga qo'shgan hissasini ko'rsatishga bag'ishlangan yirik asar sifatida qimmatlidir» deb yozdilar.

Yozuvchining «Chiranma g'oz - hunaring oz» nomli pesasi ko'p yil davomida yosh tomoshabinlar teatri sahnasida qo'yildi.

Muallifning 24 ta kitobi ras tilida, 12 ta kitobi qozoq, qirg'iz, turkman, gruzin, arman, ukrain, belorus, latish, litva, estonva boshqa tillardatarjima bo'lib chiqqan. Qator hikoyalari nemis, fransuz, ispan, bulg'or, chex, mo'g'ul kabi tillarda e'lon etilgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti va X.K.Andersen nomli Xalqaro faxriy diplom sovrindori Hakim Nazir o'z ijodiy faoliyatini davom ettirmoqda.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Sulton Jo'raning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. «Mamatning kechirmishi» she'ridagi Mamat obrazining tarbiyaviy ahamiyati qanday?
3. S. Jo'raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlaridan qaysilarini bilasiz?
4. Hakim Nazirning maktabgacha ta'lim va kichik yoshdagi bolalarga bag'ishlangan qaysi asarlarini bilasiz?
5. Hakim Nazir mehnat, odob mavzulariga bag'ishlangan qanday qissalar yozgan?
6. Adib o'z asarlarida bolalarni nimaga chaqiradi?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

1910 yilning 15 yanvarida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Qag'altom qisblog'ida tug'ilgan bolalar adibi qaysi javobda keltirilgan?

- + Sulton Jo'ra;
- Omon Muxtor;
- Safar Barnoyev;
- Zafar Diyor.

Sulton Jo'raning ilk she'rlari qachon va qayerda chop etilgan hamda dastlabki kitoblarning nomi to'g'ri qayd etilgan javobni aniqlang?

- + 1933 yilda Buxoro yosh shoirlarining "She'rlar" to'plamida;
- 1939 yilda "Fidokor", 1941 yilda "Moskva" she'riy to'plamlari, 1942 yilda "Iroda" nomli peysasi nashr etilgan;
- shoir vafotidan so'ng "Havo rang gilam", "Qaldirg'och", "Tanlangan asarlar" kitoblari bosilib chiqqan;
- "Zangori gilam", "Bruno", "Parvoz" to'plamida.

Sulton Jo'raning Vatan urushi yillarida yaratgan asarlari nomi keltirilgan javobni aniqlang?

- + "To'pchi Muhammad", "Pulemyotchi ovozi", "Chavandoz", "Uch og'ayni botirlar", "Sog'incli salom";
- "Nayzamiz", "Qahramon Qo'chqor", "Salom xat";
- "Qaldirg'och", "Zangori gilam", "Tinish belgilarining majlisi";
- "Jahon seni olqishlar", "Berlin artekasida", "Dengiz tagida".

Sulton Jo'raning pedagog –shoir sifatidagi ta'lim-tarbiyaviy she'rlari qaysi javobda to'g'ri?

- + "Kimning xati chiroyli", "Tinish belgilarining majlisi", "Harflar paradi";
- "Oy nechta", "Mamatning kechirmishi", "Yaxshi"ning maqtovi";
- "Sog'incli salom", "Salom xat", "Sog'inish", "Yolg'onchi";
- "Jahon seni olqishlar", "Berlin artekasida", "Dengiz tagida".

Uqdingizmi? Yetadimi? Bormi savol?

Yoki o'zim so'rayinmi sizdan savol? bu misralar nimani tilidan aytilgan, qaysi she'rdan olingan va uning muallifini aniqlang.

- + "Tinish belgilarining majlisi", so'roq belgisi tilidan, Sulton Jo'ra;

- “Gunafsha”, binafsha tilidan, Zafar Diyor
- “Harflar paradi”, harflar tilidan, Sulton Jo`ra;
- “Temirlar o`yini”, temirlar tilidan, Q.Muhammadiy.

Gar undalma gapda kelsa qoq o`rtada,

Uning ikki yonboshida men jo`rttaga...

Gar undalma gap so`ngida kelsa, u choq,

Undan oldin qo`yilman, tushun o`rtoq! **Bu ta`rif qaysi tinish**

belgisiga xos. Sh`er nomi va muallifini aniqlang.

- + vergulga, “Tinish belgilarining majlisi”, Sulton Jo`ra;
- qo`shtirnoqqa, “Kimning xati chiroyli”, Sulton Jo`ra;
- “A” harfiga, “Harflar paradi”, Sulton Jo`ra;
- tirega, “Tinish belgilarining majlisi”, Sulton Jo`ra;

H.Nazirning “Yonar daryo” qissasida qanday manzaralar aks etgan va voqealar kimning tilidan hikoya qilinadi?

- + voqealar o`n ikki yoshli o`quvchi Damir tilidan hikoya qilinadi;
- Qizilqum sahrosi kishilarining jasorati va “Gaz qaynar” manzarasi;
- oiladagi bola tarbiyasi, bunda ota-onaning tutgan o`rni;
- balog`at yoshidagi o`spirin va qizaloqlarning qalbida tug`ilgan ilk sevgi kechinmalari hikoya qilingan.

H. Nazirning “Kenjatoy” va “Tohir-Zuhra” qissalarining yetakchi mavzusi qaysi javobda to`g`ri?

- + “Kenjatoy”da hunar maktabi hayoti aks etgan bolib, o`smirlarda ishchi kasbiga havas uyg`otishga xizmat qiladi; “Tohir-Zuhra”da balog`at yoshidagi o`spirin va qizaloqlarning qalbida tug`ilgan ilk sevgi kechinmalari hikoya qilingan;
- “Kenjatoy”da Qizilqum sahrosi kishilarining jasorati va “Gaz qaynar” manzarasi; “Tohir-Zuhra”da balog`at yoshidagi o`spirin va qizaloqlarning qalbida tug`ilgan ilk sevgi kechinmalari hikoya qilingan;
- qissalarning har ikkida qishloq hayoti aks etgan;
- “Kenjatoy”da oiladagi bola tarbiyasi, bunda ota-onaning tutgan o`rni; “Tohir-Zuhra”da balog`at yoshidagi o`spirin va qizaloqlarning qalbida tug`ilgan ilk sevgi kechinmalari hikoya qilingan;

Hakim Nazirning so`nggi xotira-qissa kitobi nomini toping?

+ “Oq fotiha”, bolalik sarguzashtlariga bag`ishlangan, kichikligida ota-onasidan olgan ilk insoniy saboqlari uchun chuqur va samimiy minnatdorchiligini izhor etadi;

- “Lochin qanotlari”, urushga ketgan ota-onalar o`mini bosgan farzandlar ;
- “Kenjatoy”da oiladagi bola tarbiyasi, bunda ota-onaning tutgan o`rni;
- “Dadamni topib beringlar”, bir dehqon oilasi boshiga tushgan nohaqlik;

H.Nazir 1973 yilda qanday roman yozgan va uning asosiy obrazlari qaysi javobda to`g`ri?

- + “Lochin qanotlari”, urushga ketgan ota-onalar o`mini bosgan farzandlar ;
- “Dadamni topib beringlar”, bir dehqon oilasi boshiga tushgan nohaqlik;
- romanda O`ktam, Umri kabi yosh vatanparvarlar obrazi gavdalantirilgan;
- “Oq fotiha”, bolalik sarguzashtlariga bag`ishlangan.

H. Nazir qanday peyesa yozgan?

- + “Chiranma g`oz - hunaring oz”.
- “Bir tup g`o`za”;
- “Ko`korol chiroqlari”;
- “So`nmas chaqmoqlar”;

9-MAVZU. PO'LAT MO'MIN VA QUDRAT HIKMAT HAYOTI HAMDA IJODIY FAOLİYATI

REJA:

1. Po'lat Mo'minning ijodiy yo'li.
2. Bolalarga bag'ishlangan she'rlarning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Po'lat Mo'min dostonchi-shoir
4. Quدرات Hikmat – bolalar shoiri
5. Shoir she'riyatining mavzular olami

Tayanch tushunchalar: ramz, she'riyat, nazm, qissa, she'riy-adabiy ertak, qofiya, badiiy san'atlar, tashbeh, talmeh, majoz, yumor, satira, realism, nafosat olami, mahorat maktabi.

Po'lat Mo'min (1922-2004)

Bolalarning suyukli shoiri Po'lat Mo'min yoshligidanoq adabiyotga havas qo'ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qib yurgan vaqtida adabiyot to'garagiga faol qatnashadi. Adabiyotni qunt bilan o'qidi, o'rgandi. O'rta ma'lumot oigach, hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomlagach, aspiranturada o'qidi, maktablarda o'qituvchilik qildi. So'ngra O'zbekiston davlat nashriyotida ishladi. P. Mo'min qayerda ishlamasin, doimo adabiyotga muhabbat bilan qaradi, uni qunt bilan mutolaa qildi, o'rgandi. Kichik-kichik she'rlar yoza boshladi. 1944 yilda «Bahorga sayohat» nomli birinchi she'ri bosilib chiqdi. Birinchi she'rlar to'plami esa 1949 yilda «Sayrang, qushlar» nomi bilan nashr etildi. Kitob adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. To'plamdan munosib o'rin olgan «Haykal», «Alia va Jalla» (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqarliligi bilan kitobxonlarning e'tiborini o'ziga jalb etdi.

Bolalarga atab ijod etish, bu sohada muvaffaqiyat qozonishi uchun esa qobiliyat va istakning o'zigina yetmaydi. Belinskiy ta'rifi bilan aytganda, bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilish kerak. Bu bolalar yozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbining bilimdoni bo'lsin, nozik *did* egasi, go'dak tabiati va psixologiyasining bilimdoni, mehribon va bolajon, kamtarin va samimiy, bolalarcha soddadil ham dono bo'lsin, degan mazmunni taqozo etadi, albatta. Biz Po'lat Mo'min ijodida ana shunday olijanob xususiyatlar mujassamligim his etamiz.

Shoirning tinimsiz ijodiy mehnati tufayli «Hunardan unar», «To'g'ri o'sgan gul bo'lar», «Aql qaerda bo'lar», «O'rinbosarlar», «Oltin nay», «Bir yarim Karim», «Endi adashmaydi», «Barcha bola do'st bo'lsa», «Rahmatga rahmat», «Gazpolvon ertak aytar», «Chang yutar both», «Do'sting qancha ko'p bo'lsa», «Oftob va odob», «Yaxshilarga o'xshasam», «Bu juda soz», «Eson va Omon», «Oltmish olti oltin qo'l», «Ustozlar izidan», «Bolalarning baxti kulgan», «Bir yuz bir oltin qo'l» she'riy to'plamlari; «Chanoqvoy bilan Qovoqvoy», «Bahodirning botirligi», «Oq fd yo'qoldi», «Suqatoy-konfetvoy», «Ona bolam deydi» kabi ertaklari, pesalari yuzaga keldi. Bu kitoblarga kirgan eng yaxshi she'r va qo'shiqiari, doston va ertaklari bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shildi, uni boyitdi. Bu asarlardan bir qanchasi jahon xalqlari tillariga tarjima qilinganki, bu faqat shoirning emas, balki o'zbek bolalar adabiyotining ham yutug'i, obro'si hisoblanadi.

Kimda-kim a'lo va yaxshi baholarga o'qish uchun astoydil intilsa, harakat qilsa, zahmat cheksa, shubhasiz, u maqsadiga erishadi, samarali biiim oladi. Agar bu intilish jismoniy mehnat bilan qo'shib olib boriisa, yanada muvaffaqiyatli bo'ladi. Po'lat Mo'min ta'lim va jismoniy mehnatga bag'ishlangan she'rlarida mehnat va mehnatsevar bolalar haqida fikr yuritadi. Ba'zan ishyoqmas, dangasa, yalqov o'quvchilarni tanqid qiladi. Masalan, «Besh oldim, besh!» degan she'rini olaylik. Asar qahraraoni uzoq vaqt past bahoga o'qib yurardi, fanlarni ko'ngildagidek o'zlashtira olmaganidan do'stlari, ota-onasi va o'qituvchilar oldida gunohkordek his qilardi o'zini. O'quvchi bunday qiyin ahvoldan faqat ko'proq dars tayyorlashi, kitob o'qishi bilan qutulib ketishi mumkinligiga ham ishonrtgdi. Nima boiadi-yu bir kuni u uyga berilgan topshiriqni qayta-qayta o'qiydi, dars va kitobdan boshqa hech narsani o'ylamaslikka harakat qiladi. Natijada ertasi kuni «besh» baho oladi. Shu-shu bola kitobni sevib qoladi. Qunt qilish, berilgan topshiriq ustida ko'p mehnat qilish lozimligini tushunib yetadi. O'zidagi bunday

ijobiy o'zgarishdan xursand bo'ladi. Boladagi bu quvonch va hayajonni shoir yosh kitobxon ruhiyatiga mos ravishda chizib beradi:

Shunday qilib do'silarim,
Aytsam yurak so'zlarim,
Yurishib qoldi ishim
Ko'payib ketdi «besh»im.

Boialar shoirming «Tuganmas kon», «O'qituvchi baho qo'yganda», «Ko'chalarni to'ldirib», «Sizga nima bo'ldi, o'g'ii bolalari?», «Yuqumli «2»lar», «Bilsa bo'lar ekanku!», «Sentyabrdan Mm sevinar?» kabi she'rlarida ham a'lo va yaxshi o'qish uchun mtilayotgan, harakat qilayotgan bolalar to'g'risida yozilgandir.

Ba'zan o'quvchi-yoshlar orasida mug'ambir, pismiqlik bolalar ham topilib qoladi. Shoirning «Qo'l ko'tarib qo'Iga tushdi» degan asari ana shunday bolalarga bag'ishlangan. Asar qahramoni aslida dangasa, ishyoqmas, qoloq o'quvchi. U buni o'qituvchisiga sezdirmaslik ucimn har kuni dars paytida «Men aytaman, deb ko'taradi qo'i». O'qituvchi esa boianing bunday mug'ombirligini sezmaydi, u darsni yaxshi o'zlashtiribdi, deb undan so'ramaydi. Oxiri bir kuni «Mayli, ayta qol» deydi. Shunda haligi bola savolga javob bera olmay, o'qituvchi va o'quvchi do'stlari oldida izza bo'ladi:

*Darvozasiga
Urilganday gol
Qo'Iga tushgandi
Uko'tarib qo'l.*

Shoir she'rlarida kichkintoylarning jismoniy ishga intilishlari ham yaxshi ochib beriladi. Uning «Oftob chiqdi olamga», «Er chopildi —javob topildi» she'rlari fikrimizning dalilidir. «Oftob chiqdi olamga» asarida u xalq og'zaki ijodidan unumli foydalangan. She'rda bolalarning harakati, urinishi, kattalar ishiga ko'maklashishi nihoyatda ta'sirli va shirali ifodalangan.

Po'lat Mo'min haqiqatan ham oftob — bu olam-olam quvonch, shodlik, mehnat, yashash, yasharish ramzi ekanligini kichkintoy do'stlari qulog'iga quyishga, buni bola obrazi orqali yanada yorqinroq, ta'sirliroq aks ettirishga harakat qiladi:

*Oftob chiqdi olamga, Chopib bordim
dadamga. Dadam ko'chat ekardi, Salom
berdim dadamga.*

P. Mo'minning «Yer chopildi — javob topildi» asarida mehnatdan zavqlanish tuyg'usi yorqin ifodalangan. Asar qahramoni dastlab uyga berilgan topshiriq — misollarni ishlay olmaydi. Shunda u jismoniy mehnat qilishga kirishadi — yer chopadi. Terlab-pishadi. Natijada ko'ngli yorishadi, fikri oydmlashadi. Uyga berilgan misollarni ham yechadi, yerni ham chopadi. Barcha savolga javob topildi. Shu bahonada yer ham chopildi.

Po'lat Mo'minning «5» baho qo'shig'i», «Xursandmisiz?, Xursandmiz», «Sentyabrim», «Uch baho — puch baho» singari qo'shiqlari o'qish, ilmi bo'lish mavzuiga bag'ishlangan. O'z ustida ko'p ishlash, kitob o'qish, dars qoldirmaslik «a'lo» o'qishning mustahkam garovi ekanligini shoir «Uch baho — puch baho» qo'shig'ida ancha tanqid qilib o'tadi. Onalarni, keksalarni hurmat qilish, e'zozlash («Achom-achom buvijon», «Mehribonim, oyijon!»); o'zaro hurmat, do'stlikni joyiga qo'yish («Bir jahon boialarimiz»); har bir shodiyona, bayramlarni zo'r tayyorgarlik bilan kutib olish, chevarlik kasbini bolalikdan bilib borish («Ko'ylagim») mavzulariga bag'ishlab shoir o'nlab qo'shiqlar yaratganki, bunday qo'shiqlar bolalarning jon-dili hisoblanadi.

Po'lat Mo'min axloq va odob kuychisi hisoblanadi. Bu masala ko'proq uning «Birovlar», «Bir odamning afsusi», «So'zi shunaqa — o'zi shunaqa», «Behzodni bilasizmi?», «Ulg'aydimi aqlingiz?», «Qo'ing oltin — yo'ling oltin», «Birinchi bo'l, birinchi» kabi she'r va qo'shiqlarida ochib beriladi.

Po'lat Mo'min «Alia bilan Jalla», «Ziyrak fil va ziqna boqqol», «Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga», «Unutgan o'g'il», «Oltin nay», ..»Dono bola», «Bilganni qari — bilmaydi pari» singari ertak-dostonlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangani ko'rinib turadi.

Po'lat Mo'min dostonchi-shoir sifatida ham juda qadrlidir. Uning «Oltin noklibor», «Ko'cha — ko'pchilik uchun», «Eh, rosa shirin ekan», «Xolning jiyron velosipedi», «Ko'ngil istar yaxshilik» degan poemalari allaqachon kichkintoylarning sevimli asarlariga aylanib ketgan. Shoarning dostoniaridabolalar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik, o'qituvchi va jonajon maktabga muhabbat, birlik, baynalmilallik kabi masalalar ilgari surilgan. Bolalar hayotida sodir bo'ladigan yutuq va kamchiliklar badiiy bo'yoqiarda, qiziqarli epizodlarda chizib berilgan. Bir so'z bilan aytganda, maktab o'quvMarining hayoti zavq-shavq bilan tasvirlangan.

Po'lat Mo'min o'zining ertak-pesalari bilan ham yosh kitobxonlar o'rtasida shuhrat qozondi. Uning «Qovoqvoy bilan Chanoqvoy», «Suqatoy-konfetvoy», «Ona bolam deydi, bola onam deydi» nomli fantastik ertak-pesalari uzoq vaqtlardan beri bolalarning quvonchiga quvonch qo'shib kelayotir.

Qovoqvoyning dangasaligi, lapashangligi, erkaligi, tantiqligini o'tkir kulgi ostiga oluvchi va Chanoqvoyning bilimdonligi, donoligi va mehribon do'stligini ulug'lovchi «Qovoqvoy bilan Chanoqvoy» bolalami yaxshilikka da'vat etadi.

Bu asardagi yaxshi fazilatlar dramaturgning boshqa bir ertak-pesasi «Suqatoy-konfetvoy»da ham ko'ringan. Tematikasi va g'oyaviy yo'nalishi, uslubi jihatidan bu ikki asar bir-biriga yaqin. Unda ham ilm, odob, haloUik va mehnatsevarlik ulug'lanadi. Voqea Bilim xola, Janjal xola, Qurt o'rtasidagi kurash asosida rivojlanadi.

Po'lat Mo'minning butun e'tibori, ijodining mohiyati bolalarga hayot yo'lini ko'rsatib berishga intilishdan iborat. Shu pesadagi Aqljon bilan Odoobjon aytganidek:

Bugina enias, bolalar Po'lat Mo'minning o'nlab topishmoqlarini ham sevib o'qib, o'rganadilar va zehnlarmi charhlaydilar.

Muallifning «Qovoqvoy bilan chanoqvoy» asarining ta'im-tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Undagi ertaklarga xos shartli, allegorik obrazlar tomomila aniq va hayotiy zaminga asoslangan.

Pesaning bosh qahramonlaridan biri Qovoqvoydir. Uning timsolida тияЖdangasalik va beg'amlik oqibatida darslarni o'zlashtira olmay, sinfda qoluvchi lapashang va po'k bolaning tadrijiy takomilini mujassamlashtirgan. Do'stlari ta'sirida Qovoqvoyning asta-sekin tuzala borishi, ilg'orlar qatoriga kirib, mehnatsevarlik va epchiffik darajasiga ko'tarffishi bilan bog'liq voqealar, bu yo'ldagi kishilar o'rtasidagi munosabat, tortishuv va kurashlar pesaning asosini tashkil etadi.

P.Mo'min ertak syujetini harakatga keltirishda bosh va yordamchi konfliktlardan foydalanadi. Qishloq xo'jalik ekinlarining ashaddiy dushmanlari chigirtka va kapalaklar o'z urug'larini paxtakorlarga tarqatmoqchi bo'ladilar-u, Tarvuz, Qovun, Chanoqvoy, Paxtaoy, G'ujumoy, Lavlagi hamda Sholg'om kabi kuchlar ta'qibidan qo'rqadilar. Qovoqvoyning befahm, landavur, beg'am hamda qo'rqoqligi zararkunandalarga ish beradi. Ular paxtazorlarga sochishni buyurib, tuxumlari solingan xaltachani Qovoqvoyga zo'rlab tutqazadilar. Hashorotlar undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish uchun harakat qilsa, ijobiy qahramonlar Qovoqvoyni tarbiyalamoqchi. Mana shu o'rtadagi kurash asar konfliktimng boshqa yetakchi tomonini tashkil etadi.

Mehnatga bo'yni yor bermay, darslarni o'zlashtira olmaganidan tashqari, Qovoqvoy tanbal, yalqov, fahm-farosati kam, bo'shang, ayni vaqtda u, haddan ziyoda chiranchiq. Uning xarakteridagi bu sifatlar asardagi

ijobiy kuchlar bilan bo'lgan ziddiyat va to'qnashuvlarda ochib tashlanadi, Qovoqvoy asta-sekin tuzalish tomon yo'naltiriladi. Bir-birini o'rtoqlarcha samimiy tanqid qilishga asoslangan ijobiy kuchlar o'rtasidagi shu ziddiyatlar dramatik konfliktning yordamchi chizig'ini yuzaga keltiradi.

Konfliktning yordamchi liniyasi esa yaxshi ishlangan va qahramonlar xarakterini chizib berishda, asarning muvaffaqiyatini ta'minlashda katta xizmat qilgan. Po'lat Mo'min Qovoqvoyning maqtanchoqligini fosh etib, uni izza qilishda to'g'ridan-to'g'ri zalga — tomoshabinlarning o'ziga murojaat etish, o'ziga xos yutuqqa erishgan Qovoqvoyning «Mendan karra jadvalni so'rang, suv qilib ichib yubordim» degan mazmunda kerilib savol-javob o'ynashi zalni faollashtiradi, maqtanchoqning miyasi g'ovlab, o'sal bo'lishi qalblarga samimiy kulgi shavqini soladi.

Chiranchoq Qovoqvoyning jismoniy zaif va po'kligi kamtarin Tarvuz bilan yuz bergan tortishuv va to'qnashuvlarda, boks musobaqalarida bililib, sharmanda bo'ladi. Qovoqvoy Tarvuzdan yengilib zil ketsa, ikkinchi tomondan qadam-baqadam g'ayratga kira boradi, badan tarbiya mashqlari foydasini, mehnatsevarlik manfaat keltirishini anglaydi.

Qovoqvoyning qayta tarbiyalanishida ayniqsa Chanoqvoy hal qiluvchi rol o'ynaydi. Boshda Chanoqvoyning odilona, samimiy, do'stona maslahatlariga mensimay qarab, quloq solmagan Qovoqvoy «Sehrgar» gaplarini jon dili bilan tinglaydi, uning ko'rsatmalariga amal qilib, karrani o'rgana boradi, g'ayratga kiradi, faollashadi, zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashish, ularni tutishda faollik ko'rsatish darajasiga ko'tariladi. Biroq uning xarakteridagi zaif tomonlari tezda uzil-kesil yo'qolmaydi. U endi do'stlariga «Sehrgar»ni uchratganligi bilan maqtanadi. Muhimi shundaki, do'stlar uni qayta tarbiyalashga, o'z saflariga qaytarishga muvofiq bo'ladilar.

Asarda Chanoqvoy xarakteriga mos va yetarli material berilgan. Xususan, muallif uning tilini individuallashtirishga alohida e'tibor bergan. Pesaning she'riy kuchi, yumoristik va satirik fazilatlar ham Chanoqvoy, Qovoqvoy, Tarvuzvoy nutqida, ularning dialog va monologlarida yaxshi ko'rinadi.

Qudrat Hikmat

(1925-1968)

Qudrat Hikmatning bolalar uchun yozgan ko'pgina she'rlarida obrazlilik yetakchi. Xususan, shoirning badiiy san'atlar va tasviriy ifodalar vositasida manzara yaratish mahorati diqqatga sazovor. Aytaylik, 3-sinf o'qish kitobida shoirning “Ayamajiz” she'ri keltirilgan.⁴ O'qituvchi

⁴ M.Umarova, Sh.Hakimova. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. T., 2010. –B.84.

o'z kasbiy mahorati va adabiy-nazariy bilimi hamda tajribasiga ko'ra she'rni turli usul, yoxud o'yinlar vositasida maroqli o'tishi mumkin. Ammo, Q.Hikmat she'rlariga xos badiiy bo'yoqdorlik o'quvchidan dastlab, so'z san'ti mo'jizalarini ilg'ay bilishni taqozo etadi. E'tibor berilsa, she'ning har bir misrasida obrazli detal va tasviriy ifoda uchraydi:

*Biyday cho'lu dalalar,
Bo'ralar qor kapalak.
Bog'lar sokin, mizg'ishar
Misoli oq kapalak.*

Ta'kidlangan so'zlar ham lugaviy ma'nosi, ham obrazli ifodasiga ko'ra muhim. "Biyday" so'zining lug'aviy ma'nosini 3-sinf o'quvchisi anglab yetishi gumon. Shu sababli bu she'rda "ochiq", "yalang", "keng" ma'nosida qo'llanayotgani, yana, o'z va ko'chma ma'no ifodalayotgani oydinlashtirilishi lozim. Haqiqatan, qishda dala-dasht hosildan bo'shab, ancha keng bo'ladi, ochilib qoladi. Ammo shoir shiddat bilan qor yoqqandagi (*bo'ralar*) holatga ko'proq urg'u berayotir. Oppoq qor hamma yoqni qoplaganda bir tekisdagi yalanglik ko'zga tashlanadi. Badiiy so'zning jarangi shunda aks etgan. Shoir qorning kapalaksimon yog'ishiga muvoziy oqqa burkangan bog'lar tasvirini chizib, uning "mizg'ishi"ni-da, (ozgina uxlagan, ko'z ilintirgan) kapalakka qiyoslaydi. Shoirning topilmasi shundaki, bog'larning qor yoqqan vaqtdagina sokinlashuvi, yilga nisbat olganda "mizg'ish"dir. Kapalak uyqusini-da, hech kim ko'rmagan. O'quvchi bu kabi ramziy detallar mohiyatini teran anglasagina, she'ning badiiy tas'sirchanligi, estetik zavqi oshadi. Binobarin, she'rdagi "muz oyna", "sumalak shodalar", ayamajiz-qishning eng sovuq kunlarini yalmog'izga o'xshatilishi kabilar nafaqat badiiy topilma, balki xalqona ifodasiga ko'ra ham e'tiborni tortadi.

4-sinf O'qish kitobida Q.Hikmatning "Qish tozg'itar momiq par" nomli yana bir she'ri berilgan.⁵ Bunda har bir so'z ustida ishlash muhim. Ya'ni so'z va iboralar o'z yoki ko'chma ma'noda qo'llanayotganini o'quvchilar anglab yetishi zarur. Masalan, she'ning birinchi to'rtligi shunday boshlanadi:

*Savab bulut to'shagin
Qish to'zg'itar momiq par.
Yerga serbar oq namat
Yo'zilganday yaltirar.*

⁵S.Matchonov va boshq. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. T., 20011. -B.82.

Ta'kidlangan so'zlar ko'chma ma'noda obrazlilik kasb etgan. Shuningdek, bunda she'riy san'at namunalarini kuzatish mumkin. Tashxis – jonlashtirish bolalar she'riyatida eng ko'p uchraydigan san'at. Q.Hikmat o'xshatishlari esa mantiqiy asosga ega bo'lishidan tashqari, sodda va betakrordir. To'shakni yumshoq qilish uchun momiq paxta savab solish, ostiga namat tashash (yungdan bosib ishlangan palos, kigiz) insoniy xislatlarga xos. Tabiat hodisasi insondagi ana shu holatlarga o'xshatilmoqda. Bunda momiq parni to'zg'itib savash– qishda qorning mayin, ezg'ilab yog'ishi (o'xshatilayotgan narsa)ga ko'chirib o'tkazilgan.

Ushbu she'rda lirik qahramonning qishdan zavqlanish kechinmasi, ayni paytda qor ko'p yog'ib, sovuq izg'irinning ziyoda bo'lishi tufayli bolalarga xos arazi ko'zga tashlanadi. Hamchunun yosh lirik qahramon qorga:

– Namuncha
Zeriktirding uchqunlab?
Yog`masding-ku ilgari
Surunkasi uch kunlab...
Yetar shuncha yog`ganing
Uzoq dala qirga bor! –deya murojaat qiladi.

Bu jihat apostrofa –ya'ni narsa yoki hodisaga xuddi jonli mavjudotga kabi murojaat etish asosida yuzaga kelgan. Shunga o'xshash, Q.Hikmatning “Bahor” she'ri obrazli ifodalarga boy.

Uchib yurar mayin shamollar
Yelpib- yelpib anhor yuzini
Qirg`oqlarda soyabon tollar
Oyna suvda ko`rar o`zini

She'mi o'qigan yosh kitobxon uning estetik zavqi va jozibadorligini darrov ilg'aydi. Bolalar she'riyati uchun badiiy yuksak tasvir va obrazlilik kamyob hodisa. Shoir chizgan bahor manzarasi umumadabiyotga, nozik tuyg'ularga boy chinakam she'r namunasi bo'la oladi:

“Ko'kni quchgan teraklar tinmas, Oro berar kulrang po'stiga” misralari jonlashtirishning hamda noyob badiiy topilma namunasi. Bu bolalarning yosh xususiyatlariga juda mos.

Ammo bilamiz-ki, mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi keng qo'llangan. Biri tashxis (shaxsga bog'liq)- jonsiz narsalarni jonlantirish; ikkinchisi intoq (nutq bilan bog'liq) - nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash. Qudrat Hikmat she'rlarida intoq ham ko'p ishlatiladi. (masalan “Temirjon bilan telefon” she'rida telfonning insondek

shikoyat qilishi ,”Eshak nega hangraydi” she’ridagi sher, fil, tulki, kiyik, eshak va cho’chiqalarning majlisda she’rva eshakning savol javobi kabi...), ammo yuqoridagi “Bahor” she’rida shoir tashxis usulidan mohirona foydalanib, ko’klam obrazini san’atkorona tasvirlaydi. Shu sababli, bu she’rda Bahor o’ziga oro, zeb berib, husnidan sarxush , go’zal qiz sifatida gavdalanadi; tonggi shabboda, tol, maysa , o’t, chinor va teraklar xuddi odamdek bir- birlarini kuzatadilar, ilhomlanadilar, yoki o’zlarini yelpiydilar va h.k. Binobarin, shoir bahordagi dov-daraxtlarni, shamolni insoniylashtiradi.

Umuman, Qudrat Hikmat she’riyatning badiiy xususiyatlari serjilo, shoir fikrlarni rassom singari chizayotganga o’xshaydi. She’r xoh bolalar o’yinlari, xoh boshqa mavzularda yozilgan bo’lmasin , ular eng avvalo bollarni tevarak atrofdagi voqealar va hodisalar bilan tanishtiradi.

Zotan, Qudrat Hikmat she’rlaridagi voqeabandlik obrazlilik qofiyalarning ixchamliligi, hatto sodda tuzilishi, til xususiyatlari barcha-barchasi shoir she’rlarining g’oyaviy- badiiy ematsionalligini oshirishga xizmat qiladi.

V.G.Belenskiyning bolalar bilan obrazlar vositasida gapirish lozimligi haqidagi fikrlari baayni Q.Hikmat ijodiga xosligini uqish mumkin. Zero, Qudrat Hikmat she’rlarni o’qib ulg’aygan o’quvchi o’z ona tilimiz boyliklaridan voqif bo’lib, badiiy so’z qudratini teran his etadi, Vatan va yurt iftixori bilan yashaydi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Shoir she’riyatida bolalarning o’qish, odob, mehnat, hunar mavzusi qanday yoritilgan?
2. Po’lat Mo’minning odob va axloq kuychisi ekanligini qaysi asarlarida ko’ramiz?
3. Shoirning dostonlarida asosan, qaysi masalalar tasvirlanadi?
4. Qudrat Hikmatning qaysi she’rlarida baxtli bolalik haqida so’z boradi?
5. U o’qish, kasb-hunar haqida qanday asarlar yaratdi va ularning o’ziga xosligi nimada?
6. Shoir dostonlarida cho’l-biyobonlarni o’zlashtirish masalasi qanday yoritilgan?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

Po'lat Mo'minning ertak –pesalari va ertak –dostonlari qaysi javobda keltirilgan?

+ “Qovoqvoy bilan Chanoqvoy”, “Suqatoy-konfetvoy”, “Ona bolam deydi, bola onam”;

- “Qovoqvoy bilan Chanoqvoy”, “Alla bilan Jalla”, “Ziyrak fil va ziqna boqqol”, “Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga”, “Unutgan o'g'il”;

- “Qovoqvoy bilan Chanoqvoy”, “Oltin nay”, “Dono bola”, “Bilganni qari-bilmaydi pari”, “Tish cho'tka, Poroshok va Atirsovun ertagi”;

- “Qovoqvoy bilan Chanoqvoy”, “So'nmas chaqmoqlar”, “Chiranma g'oz - hunaring oz”.

Po'lat Mo'mining she'riy to'plamlari qaysi javobda keltirilgan?

+ “Oftob va odob”, “Bu juda soz”, “Eson va Omon”, “Oltmish olti oltin qo'l”;

- “Hunardan unar”, “Tish cho'tka, Poroshok va Atirsovun ertagi”, “To'g'ri o'sgan gul bo'lar”, “Bir yarim Karim” “Bir yuz bir oltin qo'l”;;

- “Rahmatga rahmat”, “Tish cho'tka, Poroshok va Atirsovun ertagi”, “Gazpolvon ertak aytar”, “Do'sting qancha ko'p bo'lsa”;

- “Qovoqvoy bilan Chanoqvoy”, “Tish cho'tka, Poroshok va Atirsovun ertagi”;

Tarvuz, Qovun, Chanoqvoy, Paxtaoy, G'ujumoy, Lavlagi, Sholg'om qishloq xo'jalik ekinlari va zararkunanda hasharotlar chigirtka, kapalak hamda yalqov, tanbal, beg'am Qovoqvoylarning allegorik obrazi Po'lat Mo'minning qaysi asarida tasvirlangan?

+ “Qovoqvoy bilan chanoqvoy”.

- “Alla bilan Jalla”;

- “Ona bolam deydi, bola onam deydi”;

- “Suqatoy va Konfetvoy”;

Safar Barnoyevning ilk she'riy to'plami nima deb nomalanadi?

+ “Tog'lardaman”

- “Birinchi tabassum”

- “Mukofot”

- “Lager qo'ynida”

Yozuvchi ijodida qaysi mavzu yetakchi hisoblanadi ?

- + Urush mavzusi
- Tabiat mavzusi
- Ona vatan mavzusi
- Mehnat mavzusi

Safar Barnoyevning turkum asarlari keltirilmagan javobni toping ?

- + “Tanish chehralar”
- “Bobom o'g'itlari”
- “1947 - yil hikoyalari”
- “Afg'on bolalari”

Safar Barnoyevning she'riy kitoblari nomini to'g'ri toping ?

- + “Dadamning qo'llari”, “Yulduzxon va Bahorjon”
- “Mukofot”, “Oq laylaklar”
- “Soldat qaytgan kun”, “Birinchi tabassum”
- “Dadamning qo'llari”, “Karimjon – Karlson”

Safar Barnoyevning nasriy asarlari nomini toping ?

- + “Oq laylaklar”, “Mukofot”
- “Birinchi tabassum”, “Egizaklar”
- “Tinchlikni ulug' laymiz”, “Soldat qaytgan kun”
- “Dadam haqida qo'shiq”, “Sog'inch”

10 -MAVZU. XUDOYBERDI TO'XTABOYEV VA FARHOD MUSAJON HAYOTI HAMDA IJODIY FAOLİYATI

REJA:

1. Xudoyberdi To'xtaboyevning hayot yo'li.
2. Adib qissalarining g'oyaviy-badiiy mundarijasi.
3. Xudoyberdi To'xtaboyev – bolalar romannavisi.
4. Farhof Musajonning hayoti va ijodi
5. F.Musajon asarlarining janriy arsenal
6. Adibning nasriy asarlari tahlili

Tayanch tushunchalar: ramz, she'riyat, nazm, qissa, she'riy-adabiy ertak, qofiya, badiiy san'atlar, tashbeh, talmeh, majoz, yumor, satira, realism, nafosat olami, mahorat maktabi.

Xudoyberdi To'xtaboyev

(1932-yilda tug'ilgan)

-Bolalarga kitob yozmoq uchun bolalikka qaytib bormoq kerak,- deb yozadi buyuk adibimiz Said Ahmad, - Boshlagan kitobingga oxirgi nuqta qo'yguningcha bola bo'lib yashashing zarur. Bolalik orzulari bir nuqtada turmaydi. Har daqiqada o'zgaradi. Bir kuni militsioner bo'lging kelsa, ertasiga uchuvchi bo'lging keladi. Ko'ngilga tikkan bu niyatlarning sal fursatdan keyin o'zgaradi-yu, birdan josus tutadigan askar bo'lging kelib qoladi. Polvon bo'lib hammani qoyil qoldirgning, masxaraboz bo'lib tsirkda yuzlab odamlarni kuldirgning, o'rmonu to'qaylarda yo'lbars terisini shilib kelgning, senga ikki qo'ygan o'qituvchingni lol qoldirgning keladi.

Afsuslar bo'lsinki, men mana Shunday beg'ubor bolaligimni yo'qotganman. Bolaligim davr to'lqinlarida qirg'oqlarga urilib o'tib ketgan. Quloqlarni fosh etish, ularni tug'ilib o'sgan yeriga quvish, qishloqlarni kollektivlashtirish, xotin-qizlar boshidan paranjisini tortib olib, o't qo'yish biz bolalarning "siyosiy" vazifamiz bo'lib qolgandi. Oktyabryat bo'ldik, pioner bo'ldik, komsomol bo'ldik. O'ylab qarasam, tug'ilibmizu bolaligimiz ustidan xatlab o'tib ketibmiz.

O'sha davr bolalari to'g'risida yozilgan hikoyalarni o'qiganimda go'yo bizning avlod tug'ilib, o'rdakning jo'jasidek tuxumdan chiqqanu suvga suzib ketavergan. "Tom Soyerning sarguzashtlari" qissasini o'qiganimda, nega men Tomga o'xshagan bo'lmadim, deb o'zimdan o'zim so'rayman. Men Tomning yoshiga yetganimda tepasida teshigi tunuka bankani bo'ynimga osib bozorlarda, hukumat idoralarida, magazinlarda kapitalizm iskanjasida ingragan siyosiy maxbuslarga yordam puli yig'ardim. Qizil alvonga yozilgan "Hamma kolxozga, yakka xo'jaliklar sho'ro hukumatining dushmanidir" degan shiorni ko'tarib qishloqma-qishloq kezardim. Qishloq xonadonlarining devorlariga "Quloqlarga shafqat yo'q, ularning joyi uzoq Sibiriya" degan yozuvlarning qancha-qanchasini bo'r bilan yozganmiz, endi o'ylab qarasam, bolaligim siyosat daryosida oqib ketibdi. Pioneerlik, komsomollik bizni "Siyosiy hushyorlikka" o'rgatib qo'ygan ekan. Otasini "xalq dushmani" sifatida qamatganlar, ta'lim bergan o'qituvchisini fosh qilib, sudda guvog'lik bergan "Pavlik Morozovchilar" bizning avlod vakillari edi. Yigirmanchi-o'ttizinchi yillar go'yo xotinlar chaqaloq tug'magan, ovozi do'rillab qolgan yigitlarni tuqqan edilar.

O'sha yillarda yaratilgan adabiy kitoblar orasidan birona bolalarga bag'ishlangan durustroq asar topolmadim. Birgina G'afur G'ulomning "Shum bola"si nursiz kitoblar orasida yarqirab turibdi. Bunga sabab qissada sof bolalik hayoti aks etgan edi. Yer kurrasining u tomonida Tom Soyer, bu tomonida davr siyosatini, partiya chaqiriqlarini tan olmagan "SHum bola" dunyoga kelgan edi. Adabiyotimizda bolalar hayotidan yozilgan hikoyalarni inkor qilmaymiz. Ammo ular partiya chaqiriqlariga javoban yozilgan "qizil" hikoyalar edi.

"Sabr qilsang g'o'radin xolvo pishur" deganlaridek elliginichi yillarning oxirlariga kelib bolalarimiz baxtiga Xudoyberdi To'xtaboyev degan iste'dodli bir yozuvchi adabiyotimiz eshigini ochib kirdi. Bolalar adabiyotiga albatta ana Shundaybir yozuvchi keladi, deb intiqlik bilan kutgan edik. Uning birinchi hikoyalaridanoq bolalar olamini yaxshi bilgani, ular psixologiyasini, o'y-xayollarini, favqulodda ifodalarga boy biyron tilini, qiliqlarini, xullasi simobdek beqaror hayotini sinchkovlik bilan o'rgangan, o'zi ham boladek har narsaga qiziqadigan mehnatkash yozuvchi safimizga kelganidan quvondik. Xudoyberdi dimiqib qolgan bolalar adabiyotiga musaffo havo olib kirgandek bo'ldi. Uning "Sariq devni minib" degan turkum qissalariga debocha bo'lgan "Sehrli SHapkacha" qissasi katta shov-shuvga sabab bo'ldi. U tez kunda bolalarimizning qo'ldan qo'ymay, sevib o'qiydigan kitobi bo'lib qoldi.

Otaxon adib olqishiga muyassar bo'lgan Xudoyberdi To'xtaboyev 1932- yilning 17- dekabrda Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumaniga qarashli Katta Tagob qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi To'xtaboyev ham poda boqdi, yer chopdi, paxta terdi, xullas qishloqda bo'ladigan hamma sohalarida qo'lidan kelganicha mehnat qildi. Hayot nimadan iborat ekanligini yoshligidanoq bila boshladi.

Bo'lajak adib ikkinchi jahon urushi yillarida o'qishni yig'ishtirib qo'yib, dalada ketmon chopdi, hisobchilik qildi, mashaqqatli mehnat bilan suyagi qotdi.

Qo'qon pedagogika bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan Xudoyberdi To'xtaboyev ona qishlog'ida muallimlik qilar ekan, unda ilmga nisbatan cheksiz ishtiyoq uyg'onadi. SHuning uchun ham u o'qituvchilikni tashlab, Toshkent davlat dorilfununiga o'qishga kirdi. Bu yerda Alisher Navoiy, Bobur, G'. G'ulom, Oybek, H. Olimjon, A. Qahhor asarlarini sevib o'qidi, o'rgandi.

Universitetni tugatib, Bog'dod tumanida o'qituvchilik qildi. Maktabda ilmiy bo'lim mudiri, direktorlik lavozimlarida ishlab, yoshlarni ilm-fan nurlaridan bahramand etish ishlarida faoliyat ko'rsatdi. SHe'riy mashqlari vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilina boshladi. Bu esa bo'lajak adibni markazga - Toshkentga, ijodiy ish bilan jiddiy shug'ullanishga chorlar edi. Shundayham bo'ldi. U 1958-yilda Toshkentga ko'chib keldi. «Toshkent haqiqati» gazetasiga ishga kirdi.

X. To'xtaboyev bolalikdan to'g'ri so'z, halol, pok va mehnatsevar bo'lib o'sdi. Gazetada ishlar ekan, ba'zi nopok odamlarni ko'rib, ularning qilmishlarini hazm qila olmadi. Bunday kishilarning sir-asrorlarini fosh etishga, el-yurt o'rtasida munofiqlarning yaramas tomonlarini ochib tashlashga qaror qildi. Bu borada unga feleton janri qo'l keldi. 1962- yilda respub-likamizning otaxon gazetasi — «O'zbekiston ovozi»ga feletonchi bo'lib ishga o'tdi. Bu yerda 300 dan ziyod feleton yozdi.

«Hadik», «Tilxat», «Ona», «Xarakteristika», «Barvaqt aytilgan azon», «Domlaning uyiga o't ketdi», «Maxsus topshiriq», «Jonginam, shartingni ayt» kabi kattalar uchun qissa va hikoyalar yozgan Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar uchun ham hikoyalar yarata boshladi. Uning «Birinci daraxtim», «Qochoqlar», «Qizg'anchiq», «Dadajon, yozmang», «Kelvordim, dada», «Vali bilan Salim», «Shoshqaloq», «Yaxshi-yaxshi» singari o'nlab hikoyalari yosh kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

«Kichkina rais» hikoyasining qahramoni kichkintoy o'quvchi bola. Lekin Foziljonning xatti-harakati, itilishi, paxta dalalarini sergaklik bilan kuzatishi, fikr yuritishi raislarga xos.

Foziljonda ona zaminga nisbatan qiziqish ta'sirli chizilgan. Kimsasiz, g'irt yetim bola o'z qishlog'i atrofidagi odamlar bilan sevinib, quvonib yashaydi. O'zini ularning bag'rida erkin his etadi.

Xudoyberdi To'xtaboyevda yozuvchilikka ishtiyoq uyg'otgan, qobiliyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan, asarlariga qaytarilmas rang va jilo bergan narsa hayot, vaqtli matbuot, tahririyatlardagi qaynoq ijodiy muhit va qunt, chidam bilan o'qish, o'rganish, o'z ustida ishlash bo'ldi.

Hayotda turli xarakterdagi odamlar ko'p bo'ladi. Birov yaxshilik qilaman deb yomonlik qilib qo'rganini o'zi ham sezmay qoladi. Birov o'zini jamoat uchun g'oyat foydali odamman deb o'ylaydi, aslida esa zararkunanda bo'lib chiqadi. Yana birov bilar-bilmas har narsaga aralashaveradi, o'rta tushadi, so'z beradi, lekin baribir men haqman, Shundayqilishim kerak deb biladi. Ana Shundaykishilarga bag'ishlangan «Jonginam, shartingni ayt» qissasi Xudoyberdi To'xtaboyevni hajvchi sifatida keng kitobxonlar ommasiga tanishtirdi.

Xudoyberdi To'xtaboyev uzoq yillar feletonchi bo'lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o'rgandi. Bunday shikoyatlarga sabab bo'layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intildi. Davrdan orqada qolgan, sarqit deb atalgan illatlar botqog'iga botgan, mol-u dunyoga hirs qo'yan shaxslar haqida talay feletonlar yozdi. «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi» nomli asarlari ana shu dalillarni umumlashtirish asosida yuzaga kelgan, desak to'g'ri bo'ladi.

Ma'lumki, hajviy qissalarimiz barmoq bilan sanalar edi. «Kalvak maxsum», «Toshpo'lat tajang», «Tirilgan murda», «SHum bola» dan keyin ancha vaqt bu janrda aytarli asar yaratilmadi. Keyingi yillarda Abdulla Qodiriy va G'afur G'ulomning an'analarini Xudoyberdi To'xtaboyev davom ettirib, bu «bo'shliq»ni to'ldirishga harakat qildi.

Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar uchun asar yozayotgan paytda, albatta, o'z o'quvchisini ko'z oldiga keltirib yozadi. «Olti yoshli bolaga aytayotgan gapingiz o'n to'rt yoshli o'smirlarga aytadigan gapingizdan, albatta, farq qilishi kerak» deb ta'kidlaydi.

Yozuvchining bolalar va o'smirlarga atab yozgan asarlarining qiziqarli, o'qimishli, jozibali bo'lishining asosiy sabablaridan biri ham shu. Shuning uchun ham Xudoyberdi To'xtaboyevning birinchi yumoristik-sarguzasht qissasi, bolalar hayotidan olingan «Sehrli Shapkacha» tez orada bolalar hurmatiga sazovor bo'ldi va uni jamoatchilik juda yaxshi kutib oldi.

Yozuvchining yumorga moyilligi, oddiy vaziyatlardan ham kulgi chiqara olish iste'dodi ilgarigi asarlariga nisbatan bu asarida yana ham chuqurroq seziladi. «Sariq devni minib» asarini qiziqarli sujet asosiga quradi, asarning hikoyachisi - bayonchisi qilib undagi barcha voqealarning ishtirokchisi, guvohi bo'lmish Hoshimjonni qo'yadi, tilga olinadigan voqealar uning tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi Hoshimjonning hikoyasi orqali uning hayot yo'li sarguzashtlarini, o'ziga xos xususiyatini va ruhiy xolatini atroflicha ochib beradi. SHuningdek, Hoshimjon xarakterida Xo'ja Nasriddinning va xalq ertaklaridagi «tegirmonga tushsa butun chiqadigan» zukko bolalarning fazilatları yaqqol mujassamlashganligini ko'ramiz.

«Sariq devni minib»da o'qish, ilm cho'qqilarini egallash uchun va insonning o'z orzusi, ezgu niyatiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan zamonimizda yashashiga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan, hayotda yengil-elpi yo'l axtargan va adashgan bolalar — hoshimjonlar kulgi ostiga olinadi.

Hoshimjon dehqon oilasidan chiqqan, sho'xligi olamni buzadigan bir bola. U hayotidagi ko'p narsaga mehnatsiz, qiyinchiliklarsiz oson yo'l bilan erishgisi keladi. Mehnatsiz va ilmsiz ham kishi istagan narsaga erisha olishi, katta obro' orttirishi mumkin, deb o'ylaydi. O'z fikrida qat'iy turgan Hoshimjon muddaosini amalga oshirish uchun buvisi aytib bergan ertakdagi sehrli Shapkachani izlashga tushadi. Uzoq izlanishlardan keyin istagan ishini hech qanday mashaqqatsiz bajarishga yordam beradigan sehrli Shapkachani tashlandiq molxonadan topib oladi. Endi u o'zini orzulariga batamom erishadiganday his etadi. «Ortiqcha» fanlarni dars jadvalidan chiqarishni rad etgan direktor, har xil vazifalar berib «miyasini qotiradigan» o'qituvchilariga o'qimasdan ham har qanday kasb egasi, mashhur odam bo'la olish, ko'krak to'la ordenlar bilan shon-shuhratlar, katta obro'ga ega bo'lish mumkinligini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ladi va shu maqsadda sehrli Shapkacha bilan safarga chiqadi. Shundayqilib, uning sarguzashtlari boshlanadi.

Ming afsuski, sehrli Shapkacha bu borada Hoshimjonga ko'mak bera olmaydi. Sehrli Shapkacha muhayyo etgan imkoniyatlar har safar kutilmagan ko'ngilsiz oqibatlariga olib kelaveradi. Hoshimjonning baxti endi kulay deb turganda ishning pachavasi chiqib qolaveradi. U davlat xo'jaligida agronom bo'lib ham, Shoirlik qilib ham, qurilishda muhandislik qilib ham, qo'g'irchoq teatrida artistlik qilib ham ko'radi, mashhur sayohatchi sifatida butun dunyoni kezmoqchi ham bo'ladi. Lekin hamma yerda ilmning, tajribasining yo'qligi ishning pachavasini chiqaraveradi. Hoshimjon qaerga bormasin, qanday ish qilmasin pirovardida sharmanda-yu

sharmisor bo'ladi. Uning agronomlik va muhandislik «faoliyati» jinoyatga olib keladi, qamalishiga oz qoladi, Shoir bo'laman deb rasvo bo'ladi, «ulug' artist» teatrdan quviladi.

Qissada Hoshimjon o'z sayohati davomida qanchadan qancha ajoyibotlarning guvohi bo'lib, qiziq, kulgili sarguzashtlarni boshidan kechiradi. U o'qimay, mehnat qilmay, o'z ustida ishlamay juda ko'p narsalarga erishmoqchi bo'ladi, lekin hech narsaga erisha olmaydi. Chunki unga ilmsizligi pand beradi.

Yozuvchi Hoshimjon obrazini butun qirralari bilan ochishga uringan. Bolalarga xos o'yinqaroqlik ham, soddalig-u beg'uborlik ham, g'ururlik, to'g'ri so'zlik, shumlik, biroz maqtancholik, hatto o'mnida yolg'onni ham do'ndirib yuboradigan, o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatishga intilish odatlari, bolalarga taqlidchilik, dovyurak, epchil va ruhiy tetiklik, xafachilik va ruhiy tushkunlikdan yiroqlik Hoshimjon xulq-atvoriga xos xususiyatdir.

Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devning o'limi» sarguzasht romani uch qism («O'rtoq polkovnik», «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi yoki olam guliston bo'lgani»)dan iborat. Bu roman asosida ham Hoshimjon sarguzashtlari yotadi. Kitobni o'qib uning yangi sarguzashtlaridan xabardor bo'lasiz, sehrli SHapkacha yana madadga keladi, ajoyib-g'aroyib karomatlar ko'rsatadi. U Hoshimjonga jiddiy masalalarda — o'g'ri, muttaham, tekinxo'rlarni fosh etishda yordam beradi.

Endilikda, Hoshimjon avvalgi o'yinqaroq Hoshimjon emas, balki to'qqiz yillik maktabni bitirib, ulg'ayib, birmuncha quyulib, esi kirib, oq-qorani tanib qolgan yigitcha. Endi u o'z taqdiri, jamiyatga foyda yetkazadigan odam bo'lib yetishishi haqida jiddiy o'ylaydi, biror kasb egallash haqida bosh qotiradi. Boshda sartarosh bo'ladi. «Bilasiz-ku, bir ishga ahd qilsam, uni oxiriga yetkazmagunimcha qo'ymaydigan odatim bor. Jonimni qiynab bo'lsa ham maqsadimga erishaman», deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog'laydi. Keyin militsiya maktabiga kirib o'qib, uni bitirgandan so'ng militsionerlikka ishga o'tadi. Kitobdagi barcha voqea-hodisalar, sarguzashtlar Hoshimjonning ana shu militsionerlik nuqtasidan boshlanadi, hamma gap-so'zlar qahramonning shu kasb-kori bilan bog'liq holda davom etadi.

Romanda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida militsiya polkovnigi Salimjon, uning madadkori Hoshimjon, yomonlik, eskilik ramzi tarzida Odil battol gavdalanadi.

Ular o'rtasida tinimsiz shiddatli kurash ketadi. Odil nihoyatda makkor. U Salimjonning boshiga juda ko'p og'ir savdolar solgan, uyiga o't

qo'ygan, uning yakka-yu yolg'iz farzandining qo'liga to'pponcha tutqazgan, jinoyatga yetaklagan.

Asar pirovardida butun umri xalqqa, yaxshi odamlarga zarar yetkazish bilan shug'ullangan Odil battol va uning hamtovoqlari qonuniy mag'lubiyatga uchraydi, haqiqat, adolat, ezgulik g'olib chiqadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev o'z romanida yulg'ichlarga, qalloblarga qarshi kurashda butun xalq bir kishiday bo'lib birlashsa, bu ishni butunlay o'z qo'liga olsa, Odil battollarga qiron keladi, ulardan nom-nishon ham qolmaydi, degan fikrni o'rtaga tashlaydi.

«Sariq devni minib» qissasi, «Sariq devning o'limi» romanining eng yaxshi fazilatlaridan biri tilining shiradorligi va o'ynoqiligidadir. Muallif bosh qahramon Hoshimjonning tilini alohida e'tibor bilan ishlagan. Bu til nozik qochirimlarga boyligi va jonliligi, shu bilan birga, bolalar tiliga mos holda soddaligi bilan ajralib turadi. Qahramonning xarakteri uning so'zlaridan shundoqqina bilinib turadi.

Fantastik-sarguzasht janri bolalar adabiyotining eng qiziqarli janrlaridan biridir. Bunday asarlar bolalarning ongi va psixologiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni o'qishga, o'rganishga, izlanishga o'rgatadi, jamiyatimizning faol quruvchilarini tarbiyalashga yordam beradi.

«Qasoskorning oltin boshi» romani markazida bosh qahramon — tarixiy shaxs, xalq qasoskori Namoz taqdiri yotadi. «Qasoskorning oltin boshi» tarixiy-biografik roman emas, shuning uchun ham adib Namozning hayotini batafsil yoritib berishni maqsad qilib olgan emas. Lekin o'rni-o'rni bilan uning hayotiga doir ma'lumotlar berib borgan. Bu ma'lumotlar uning xarakterini tushunib olishda kitobxonga yordam beradi.

Namoz faqat jismonan emas, aqlan ham yetuk. U haqiqat uchun qasoskor, qo'rqmas, tadbirkor, ochiqko'ngil qahramon sifatida gavdalantirilgan. Qahramon atrofiga o'zi kabi dovyurak yigitlarni to'plab, zulmkorlarga qarshi kurashga undaydi.

Halolligi, mardligi, adolatligi, yetimparvarligi uchun xalq Namozni yaxshi ko'radi va Go'ro'g'liga qiyos qiladi: «Go'ro'g'libek Namozboy qiyofasida paydo bo'lgan emish. Afsun o'qisa ko'zdan g'oyib bo'lib qolarmish. Undan o'q o'tmas emish, qilich chopmas emish...» Namozning mardligi, jasorati xalq qalbida mangu yashab kelayotganligi «Qasoskorning oltin boshi» da yaxshi chizib berilgan.

Iste'dodli bolalar adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sir ochildi», «Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida jajji qissa», «Besh bolali yigitcha», «Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarlar jangi», «Mungli ko'zlar», «Jannati odamlar», «Quyonglar

saltanati”, “Qiz talashgan o’smirlar” va boshqa roman hamda qissalarining yuzaga kelishi o’zbek bolalar adabiyotining yutug’i hisoblanadi.

Farhod Musajon

(1933-2013)

O’zining qisqa hajmli va hayajonli hikoyalari, mazmundor qissalari, kichkintoylarni to’lqinantiradigan pesalari bilan bolalarning quvonchlariga quvonch ulashgan qalamkashlardan biri Farhod Musajon 1933-yilda Toshkent shahrida tug’ilgan. 1956- yilda ToshDUning sharq fakultetini tamomlaydi. Bir necha yil O’zbekiston radiosida, «O’zbekiston madaniyati» gazetasida, «G’uncha» jurnalida mehnat qiladi. 1966- yildan esa «O’zbekfilm»da muharrir, bosh muharrir vazifalarida ishladi.

F. Musajonning ilk asari 1955- yilda e’lon qilingan. SHundan so’ng «Daradagi qishloqda» (1960), «Turdi, galstuk va men» (1970), «Oftobni quvlab» (1970), «Chin do’stlik» (1976), «Chevar qiz» (1982), «Buloq suvi» (1982), «Turdi, velosiped va men» (1983), «Glotox rodnikovoy vodi», «Tekin tomosha» (1989) kabi kitoblarining maydonga kelishi bolalar uchun katta bayram bo’ldi.

1977-yilda adib o’zining bolalarga atab yozgan barcha hikoyalarini jamlab, yigirma ikki taboqdan iborat katta kitobini qayta ishlagan va to’ldirilgan holda chop ettirdi. Bu kitobini ham ilgarigisiga o’xshab «Tekin tomosha» deb atadi. Oldingisidan farqli o’laroq, bu kitob uch qismdan iborat: kichkintoylar uchun, o’rtancha yoshdagilar va o’smirlar uchun.

Farhod Musajon ijodining o’ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, uning aksar hikoyalari quvnoq hazil-mutoyiba hissi bilan sug’orilgan. Adibning barcha hikoyalarida beg’ubor va zavqli bolalik davri ruhiyati saqlangan. SHuning uchun uning hikoyalari oson o’qiladi, oson hazm bo’ladi. Natijada ta’sir kuchi ham ortadi.

Adib ijodining yana bir jihati u o’z personajlarini yomon yoki yaxshi, adabiy atamalar qo’llab aytadigan bo’lsak salbiy yoki ijobiyga ajratmaydi. Ularga baho berar ekan, fe’l-atvori qandayligini tasvirlar ekan hech qachon kuchli iboralarni, «ablah, iblis, yaramas, gazanda» va hokazo haqoratomuz, qattiq-quruq so’zlarni ishlatmaydi. Zero, inson sifatida endi shakllanayotgan bolalarga nisbatan bunday o’tkir so’zlarni ishlatish insofdan va adolatdan emasligini tushunadi. U o’z qahramonlarini, qandayligidan qat’i nazar, o’yinqaroqmi, lapashangmi, ayyormi, dangasami, maqtanchoqmi — hammasini birday sevadi va sevib tasvirlaydi. Uning uchun yomon bola umuman yo’q, kamchiligi bo’lishi mumkin, deylik yolg’onchiroq, xasisroq, xudbinroq, lekin nokas bola yo’q,

har qanday bolani ham to'g'ri yo'lga solib yuborish mumkinligiga ishondi va shu muborak maqsad yo'lida ijod qildi.

Farhod Musajonning o'ziga xos uslubi bor. Uning asarlaridan bir parchagina o'qigan odam muallifning kimligini aniqlab olishi mumkin. U aniq, sodda, tushunarli va ixcham yozadi. SHu sababli katta mahorat evaziga yillar davomida paydo bo'ladigan va shakllanadigan badiiy soddalik tufayli uning asarlari o'qimishli chiqadi. Bolalar tili bilan aytusak, hikoyalari «rostakam bo'lgan voqeaga o'xshaydi». Darhaqiqat, adib voqealarni xuddi hayotdagidek ishonarli va qiziqarli qilib so'zlab beradi. Bu juda muhim. Negaki bolalar hikoya voqealariga ishonmasalar asarning ta'sir kuchi yo'qqa chiqadi. Mana shu omil - ishontira olish mahorati F. Musajon ijodining eng muhim xususiyatidir.

Farhod Musajon barcha yoshdagi bolalar uchun yozadi. Uning kitoblari orasida maktabgacha tarbiya yoshidagi, maktab yoshidagi, kichik va o'rta hamda katta yoshdagi bolalarga va o'smirlarga bag'ishlangan asarlarini ham uchratish mumkin.

Ma'lumki, maktabgacha tarbiya bolalar kitobxonligi asosan otanalar, tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Bolalar o'zlari tinglagan asarlari yordamida atrof-muhit bilan tanisha boradilar. Ona yurtga, tabiatga muhabbat xislatlari; mehnat qilish va mehnat ahlini hurmat qilish kabi fazilatlar shu yoshdan shakllana boshlaydi. Turmushda qizg'anchiq bo'lmaslik, kasb-hunar egallashga intilish, kattalarni hurmat qilish kabi ijobiy fazilatlar ham shular jumlasiga kiradi. Bolalarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini yaxshi o'rgangan Farhod Musajon kichik yoshdagi bolalarga bag'ishlab «Eng yaxshi chana», «SHodiyona kun», «SHiqildoq», «Pahlavonvanimjon», «Sovg'a», «Ajoyib buzoqcha», «Yaxshilik», «To'labber», «Varrak» kabi o'nlab hikoyalar yaratgan.

Adibning «Varrak» asarining mazmuni oddiygina varrak yasash voqeasi asosiga qurilgan. Asarda kichkintoylarni bolalikdan boshlab mustaqil harakat qilishga chaqiriladi.

Ana Shundayjозibali asarlaridan yana biri «Eng yaxshi chana»dir. Bu hikoyada qo'li ochiq, saxovatli, bag'ri keng bo'lish, xasis, ziqna bo'lmaslik kabi g'oyalar kichkintoylar ongiga yetkaziladi.

Latifjonga dadasi chana olib beradi. Quvonchdan bolaning boshi ko'kka yetay deydi.

Latifjon boshda ancha qizg'anchiq bo'ladi. SHuning uchun chanada bitta o'zi uchadi. Boshqalarni chanaga yaqin keltirmaydi, unga birovning qo'li tegib ketsa, chanani ko'tarib uyiga chopadi.

Latifjonning dadasi o'g'lidagi bunday qizg'anchilikni payqaydi, lekin unga pand-nasihat qilib o'tirmaydi. Aksincha, quyidagi ibratli hikoyatni keltiradi:

— Bilasanmi, — debdi dadasi o'g'liga, — men bu ajoyib chanani qaerdan oldim? Bunaqasi magazinda sotilmaydi, bu buyurtma bilan qo'lda yasalgan chana. Uning yoshi oltmishda. Ha, oltmish yil burun bu chanani bir og'aynimning dadasi olib bergan ekan. Og'aynim o'sha paytda sendek ekan. CHananing chiroyliligini ko'rib uchishga uning ham ko'zi qiymabdi. Kattaroq bo'lganimda ucharman, hozir bolalar tortib olib eskitib qo'yishadi, deb asrab yuraveribdi. Oradan yillar o'tibdi, bir kuni qarasa bolaligi tugab, chol bo'lib qolibdi. Endi unga chana kerak emas ekan, chunki qariganda uyalmasdan chana uchadimi?! Og'aynim chanani menga sovg'a qilar ekan, beg'ubor bolalik chog'imda maza qilib ucholmadim, ishqilib sening o'g'lingga yaxshi xizmat qilsin dedi. SHunaqa, o'g'lim, qizg'anchiq odam zavqdan mahrum bo'ladi!

Latifjon boshda dadasining bu gaplariga tushunolmaydi. Yuragining allaqaeri jiz etgandek bo'ladi. Nihoyat u dadasiga yuzlanib:

— Ertadan boshlab ayamasdan uchaman, — dedi. Adibning «Sovg'a» hikoyasi bolalarni mehnatkash bo'lishga da'vat etadi. Oqiljonning gul ekishi, uni mehr bilan parvarish qilishi kichik kitobxonda katta taassurot qoldiradi.

«Turdi, galstuk va men» hikoyasi uzoq yillardan beri yosh kitobxonlarning sevimli asarlaridan biri sifatida e'zozlanib kelinadi.

Hikoyada ozodalik, shahar tozaligi uchun kurashish bosh masala qilib qo'yiladi. Turdi va G'iyos kabilarning shahar tozaligida faol qatnashmaganliklari, dangasaliklari fosh qilinadi.

Xullas, Farhod Musajon o'zining maktabgacha va maktab yoshidagi kichik bolalarga bag'ishlab yozgan hikoyalarida salmoqdor fikrlarni sodda, bolalarbop shaklda aytadi. Adib nasihat qilish yo'lidan bormaydi, aksincha, bolalar hayotida ko'p uchrab turadigan oddiy voqealarni tasvirlaydi va aytmoqchi bo'lgan muhim gaplarni ana shu voqealar mag'ziga singdirib yuboradi.

Farhod Musajonning «Orzuga ayb yo'q», «Bo'sh kelma, Aliqulov», «Buloq suvi» kabi va boshqa qissalari o'zbek bolalar adabiyotida muhim o'rinda turadi.

Farhod Musajon dramaturg sifatida ham yoshlarning mehrini qozongan. «Xayolparastlar», «Oq kabutar», «Sabil qoldi», „O'g'limni qaytarib beringlar» pesalari shular jumlasiga kiradi.

Bular orasida, ayniqsa, «O'g'limni qaytarib beringlar» asari mashhur. Dramaturg uning nomini o'zgartirib «Najot istab» deb qaytadan ishladi. U hozirgi O'zbek Milliy teatrida sahna yuzini ko'rdi. Dushanbeda, va Almatida, Tataristonda qo'yildi.

Pesada, asosan, bola tarbiyasida ota-onaning o'ynaydigan beqiyos katta roli haqida gap boradi.

Farhod Musajonning kattalarga bag'ishlab «Bahor nafasi», «Bu ko'zlarga ishonsa bo'ladi», «Xotin kishining ra'yi», «Ko'r shofyor», «Zo'raki kashanda», «Nozik masala», «Kalla-pocha», «Himmat», «Bog' ko'cha» kabi kitoblari bosilib chiqqan.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Adib ijodida dov-daraxtlarni ekish, parvarish qilish masalasi qanday yoritilgan?
2. Adib Hoshimjon obrazi orqali bolalarning qanday sifatlarini ochib beradi va qanday yaramas odatlarni kulgi ostiga oladi?
3. X.To'xtaboyev ikkinchi jahon urushi davriga bag'ishlangan asarlarida bolalar hayotini qanday tasvirlaydi?
4. Fantastik-sarguzasht janri haqida nima deya olasiz?
5. Adibning fantastik-sarguzasht janrida yaratgan qaysi asarlarini bilasiz?
6. Adib ijodining o'ziga xos uslubi haqida nima deya olasiz?
7. F. Musajon maktabgacha va maktab yoshidagi kichik bolalarga bag'ishlangan hikoyalarida qanday g'oyalarni ilgari suradi?
8. Farhod Musajon drama janrida qanday asarlar yaratdi?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

X.To‘xtaboyev o‘z faoliyatini qaysi gazetada boshladi?

- + "Toshkent haqiqati"
- "Yosh kuch"
- "Gulxan" jurnali
- "Turkiston"

X.To‘xtaboyev ijodini nimadan boshladi?

- + felyetonlar yozishdan
- bolalar uchun qissalar yozishdan
- roman yozishdan
- jahon adabiyotidan tarjimalar qilishdan

Davrdan orqada qolgan, turli illatlar botqog‘iga botgan, mol-u dunyoga hirs qo‘ygan shaxslar haqidagi hayotiy tajribalarni umumlashtiruvchi asarlar berilgan javobni toping.

- + "Sariq devni minib", "Sariq devning o‘limi"
- "Kalvak maxsum", "Toshpo‘lat tajang"
- "Tirilgan murda", "Shum bola"
- "Kalvak maxsum", "Shum bola"

O‘zbek hajviy qissalaridagi "bo‘shliq"ni to‘ldirishda X.To‘xtaboyev kimlarning yo‘lini davom ettirdi?

- + Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom
- Oybek, Hamid Olimjon
- Navoiy, Abdulla Qahhor
- G‘afur G‘ulom, Oybek

"Sariq devning o‘limi" romani necha qismdan iborat va ular qaysilar?

- 2: "Sariq devni quvib", "Sariq devning o‘limi yoxud olam guliston bo‘lgani"
- 3: "Chinakam kashfiyot", "Sariq devni quvib", "Iblis qo‘lga tushdi"
- + 3: "O‘rtoq polkovnik", "Sariq devni quvib", "Sariq devning o‘limi yoki olam guliston bo‘lgani"
- 3: "Shuhrat mayi", "Sariq devni quvib", "Sariq devning o‘limi yoki olam guliston bo‘lgani"

F. Musajon qaysi yoshdagi bolalar psixologiyasini yaxshi o'rgangan?

+ maktabgacha yoshdagi

- Maktab yoshidagi

- katta maktab yoshidagi

- kichik maktab yoshidagi

F. Musajonning qaysi asarida kichkintoylarni bolalikdan boshlab mustaqil harakat qilishga chaqiriladi?

+ "Varrak"

- "Sovg'a"

- "Yaxshilik"

- "Pahlavon va nimjon"

F. Musajon "....." hikoyasida qo'li ochiq, bag'ri butun bo'lishlik, qizg'anchiq bo'lmaslik kabi xislatlar kichkintoylar ongiga yetkaziladi. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni toping.

- "Varrak"

+ "Eng yaxshi chana"

- "Ajoyib buzoqcha"

- "Dog"

F. Musajonning 3-sinf o'qish darsligida keltirilgan "Barakalla, bo'tam" hikoyasi qahramonining gulni parvarishlashi uning aynan yana qaysi hikoyasi qahramonida ham tasvirlangan?

+ "Sovg'a"

- "Varrak"

- "Shodiyona kun"

- "Yaxshilik"

Farhod Musajon haqidagi notog'ri berilgan mulohazani belgilang.

+ Bolalarga nasihat qilish yo'lidan boradi

- Bolalar hayotida ko'p uchrab turadigan oddiy voqealarni tasvirlaydi.

- Hikoyalarda salmoqdor fikrlarni bolalarbop shaklda aytadi.

- Aytmoqchi bo'lgan gaplarini voqealar mag'ziga sindirib yuboradi.

11 -MAVZU. MIRAZIZ A'ZAM VA TURSUNBOY ADASHBOYEV HAYOTI HAMDA IJODIY FAOLIYATI

REJA:

1. Miraziz A'zamning bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi.
2. M. A'zam she'rlarining janriy tarkibi
3. Miraziz A'zam – faylasuf shoir
4. Tursunboy Adashboyevning hayot yo'li.
5. Bolalar she'riyati yolidagi izlanishlar.
6. Shoir she'rlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: ramz, she'riyat, nazm, qissa, she'riy-adabiy ertak, qofiya, badiiy san'atlar, tashbeh, talmeh, majoz, yumor, satira, realism, nafosat olami, mahorat maktabi.

Miraziz A'zam (1936- yilda tug'ilgan)

Hozirgi zamon o'zbek bolalar she'riyatida Shoir Miraziz A'zamning o'z o'rnini bor. Bu, albatta, uning izlanishi, mehnatkashligi, bolalarni va ularning adabiyotini qattiq sevishidan. Ijodkor bolalar o'rtasidagi do'stlik, hamjihatlik, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, odobli bo'lish, yaxshi o'qish uchun harakat qilish, kurashish kabi masalalarni ko'proq ochib berishga harakat qiladi.

Miraziz A'zam 1936-yilda Toshkent shahrida tug'ildi. Maktabda o'qib yurgan kezlari dayoq she'riyatga qiziqdi. She'riy mashqlarini Quddus Muhammadiy va keyinchalik Qudrat Hikmat boshchilik qilgan adabiy to'garakda sinovdan o'tkazar, ijodiy izlanish, o'qish va o'rganishni qizg'in davom ettirar edi. Adabiyot va she'riyatga bo'lgan chanqoqlik uni ToshDUga yetakladi. Adabiy mashqlari bolalar va o'quvchilar gazetalarida, «Gulxan», «G'uncha» jurnallarida bosila boshladi.

Universitetni muvaffaqiyatli tamomlagan Miraziz A'zam bir qator gazeta va jurnallarda ishladi. Shoirning bolalar va kattalarga bag'ishlangan

«Metallurg», «Aqlli bolalar», «Senga nima bo'ldi?», «G'alati tush», «Er aylanadi», «Erga dovrug solamiz», «Haqiqatning so'zlari», «Sabot», «Tuyg'ular», «Bir cho'ntak yong'oq», «Qirq bolaga qirq savol», «Eng yorug' yulduzlar», «Sevaian», «Tuyg'ular», «Sabot», «Haqiqatning ko'zlari», «Imon» kabi asarlari bolalar kitob javonlaridan mustahkam o'rin olgan.

Bolalarning jo'shqin Shoiri Miraziz A'zam ozod va obod Vatanimiz haqida jo'shib she'rlar, dostonlar yaratgan ijodkor sifatida e'zozlanadi. E'tibor bering, uning bir she'rida yosh qalbnining ona yurtimizga bo'lgan faxri, g'ururi, mehri, sadoqati quyidagicha o'ynoqi misralarda o'z ifodasini topgan:

Vataniimiz guliston,
Guliston bo'lsin,
Kundan kunga yashnasin
Bo'ston bo'lsin.
Hayot to'kin, farovon,
Tinch-omon bo'lsin.
Har vaqt o'ynab-kulaylik,
Tinch zamon bo'lsin.
Tong-la turib shu vatan
Ko'rkini ko'rdik.
Ufqlarga ko'z solib
Ko'rkini ko'rdik.
Keng dalalar zangordir,
Eh, qanday zangor...
Bu go'zal
Makonda
Mangulik bor.

Suyukli bolalar Shoiri Vatanimizni qanday sevsa, ardoqlasa, ona – tilimizni ham ana Shundaymuhabbat bilan sevadi. «Ona tilim» asarida ilgari surgan fikrlari bolalarni ona-tilimizni sevishga, ardoqlashga chaqiradi:

Ona tilim, turkiy tilim,
Ardoqligim, o'zbek tilim.
Avaylayman seni doim
Qoboq ila ko'zdek tilim.

Ona tilim, o'zbek tilim,
Qadim-qadim turkiy tilim.

Menga berding san'at, bilim
Vatanimdek ko'rkli tilim.

Ey, sevikli o'zbek tilim,
Turkiy tilim, ona tilim,
O'zga tilga alishmayman,
O'z onasin almashar kim?

Turkiy tilim, ko'rkli tilim,
O'zbek tilim, ko'zdek tilim.
Ona tilim, dono tilim,
Dunyoda bir dona tilim.

Miraziz A'zam har bir asarida bolajonlar uchun, albatta, bir yangilik, yaxshi gap aytish ishtiyoqi bilan qaynab-toshadi va buning uddasidan chiqadi. Masalan, «Er aylanadi» she'rini olib ko'raylik. Bunday olib qarasangiz, bu bir oddiy gap. Axir necha ming asrdan beri u aylanadi, yana aylanaveradi, bu haqda jozibali she'r bo'lishi mumkin emas, degan tushuncha xayolingizdan o'tadi. Lekin she'rni o'qiydigan bo'lsangiz sizning tasavvuringiz butunlay o'zgaradi. Murg'ak qalb u yoqda tursin biz kattalar ham yerning aylanishi, onlarning o'tishi, shamolning esib turishi bilan o'sib-ulg'ayishimiz, kamol topishimiz, bunyodkorlik ishlarimiz ko'z o'ngimizdan o'tadi. Qilgan yaxshi-yomon ishlarimizni o'ylaymiz. «Er aylanadi» she'rida xuddi shu haqda bahs yuritiladi:

Asta-asta shamol esadi,
Asta-asta yer aylanadi.
Asta-asta odam o'sadi,
Asta-asta yer aylanadi.
Asta-asta ulg'ayar aql,
Asta-asta yer aylanadi.
Asta-asta yetilar naql,
Asta-asta yer aylanadi...

Kichkintoylar ko'pincha hayot murakkabligidan bexabar bo'ladilar. Ular kattalarning ko'magida, o'zlari tinglagan badiiy asarlari yordamida olam mo'jizalari, turmush bilan tanishib boradilar. Miraziz A'zamning «Bedananing buvisi» she'ri kichik yoshdagi bolalarga juda qo'l keladi. Bu she'r xalq og'zaki ijodi an'analari ta'sirida yaratilgan.

Yosh kitobxon she'rdagi bedanalarning turmush tarzi bilan yaqindan tanishib oladi. Xuddi insonlar kabi ularning ham qavm-qarindoshlari, keksa-yoshlari bo'lishini, kasal-sog' yurishlarini buvi-bedana kechmishlari orqali tushunib yetadilar. Buvi dardga chalinib, og'ir kasal bo'lib qoladi, tomog'idan ovqat o'tmaydi. Hammaning tinchligi, oromi buziladi, har kim qo'lidan kelganicha unga madadkor bo'lishga intiladi. Bu lavha chiroyli va ta'sirli chizilgan:

Bedananing otasi bor ekan, nor ekan,
Onasiga oriyat yor ekan, yor ekan.
Dori-darmon, o't-o'lan keltirib, keltirib,
Qari qushga tutishib, ichirib, yedirib,
Aylanishib boshida turdilar.
Sog'ayishning chorasini ko'rdilar, ko'rdilar...

Va-vaq; va-vaq
Bit-bil-diq.
Va-vaq, va-vaq,
Bit-bil-diq.

Biz har doim bolalar adabiyotida o'y o'ylash, xayol surish, o'zining uchqur xayollari bilan yashash haqida yozilgan asarlarni qizg'in qo'llab-quvvatlaymiz. Miraziz A'zamning ham «Xayol surish» she'rining qahramoni har bir narsani tezroq bilib olgisi, uning poyoniga yetgisi keladi. Lekin u qancha o'ylamasin, xayol surmasin, aqliy tafakkuri hali to'la rivojlanmaganligi sababli ko'p narsalarni tushunmaydi, ojizlik qiladi. Ota o'g'ilni unchalik o'ylamaslikka chaqiradi. Otaning nasihati bilan bola o'zini tinchita olmaydi:

Kun qisqa.
qanday qilib kun chiqadi,
deb o'ylayman,
Tun cho'zilsa,
nega tun
cho'zildi,
deb o'ylayman.
Uni xayol qilaman,
Buni xayol qilaman.
O'ylayman,
baribir
o'ylayman.

Miraziz A'zamning «Biz yengamiz bo'ronlarni» she'ri bugungi hayotimizga juda qiyinchilik, kurashlar bilan yetib kelganligimizni jarangdor misralar bilan chiroyli ifodalab beradi:

Bizni bosdi dovullar, sellar —
Omon chiqdik bo'ronlardan,
Omon yashar botir ellar —
Qo'rqmas vahshiy hayvonlardan,
Qorli, muzli cho'qqilar ham
Qolib ketar poyimizda.
Jasur qo'shiq bizga hamdam
Har bir qo'ngan joyimizda.

Shoir bu bilan chegaralanib qolmaydi. Hali oldinda qiladigan ishlarimiz, ulug' maqsadlarimiz borligini ta'kidlaydi, bolalarni yuksak axloq-odobli bo'lishga, kattalarning ishlarini davom ettirishga chorlaydi:

Maqsadimiz tog'day ulug' —
Chambarchasdir tutash qo'llar.
Ozodlikning yo'li qutlug' —
Olg'a, do'stlar, og'aynilar!

Miraziz A'zamning «Qirq bolaga qirq savol», «G'alati tush», «Nurhon bilan Burhon», «Ota bilan bola», «Bir cho'ntak yong'oq» (turkum), «Alla», «Bola va ona», «Yo'tal bobo» kabi she'r va qo'shiqlari, «Asror», «Erk qushi», «Ona yurt osmonida», «Antiqua» kabi doston, ertak-dostonlari bolalarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Miraziz A'zamning «Asror» dostonidagi Asror obrazida bolalarga xos jo'shqinlik, shijoat, mehnatsevarlik g'oyalari, haqiqiy o'quvchiga xos fazilatlar yorqin tasvirlanadi. Shoir bu g'oyani ochishda kichkintoylar ongi va dunyoqarashidagi holatlarni to'qnashtirish, ularning narsa va voqealarga bo'lgan munosabatlarini solishtirishdan samarali foydalanadi.

Pilla qurti boqish dostoniga asosiy mavzu qilib olinadi-da, o'quvchi-yoshlarning bu sohaga qiziqishlari, bilimdonliklari mehnat jarayonida ochib beriladi.

Asarda Asorning oliyanob fazilatlar — oqko'ngil, sofdil, qo'li ochiqligi ishonarli tasvirlanadi: tut daraxtini sevishi, tabiatga g'amxo'rligi yosh kitobxonlar uchun didaktik qimmatga ega.

G'ayrat, Nor, Rahim, Ra'no obrazlari orqali qalbi qaynoq, bir-biriga mehribon, jamoa ishi uchun fidoyi yoshlar gavdalantiriladi.

Bolalarning maktabda pilla qurti boqishlari — qo'shimcha soha — qishloq xo'jaligi ishlariga jon-dildan yordam berishlari, fikr-mulohaza yuritishlari, biror ishga qo'l urishsa, dadil harakat qilishlari yosh kitobxonni xursand etadi. CHunonchi, asarning « Pilla qurtlarining lohas bo'lishi» bo'limi o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi:

Pilla qurti boqilayotgan xona haddan ziyod isib ketgach, qurtlar barg yemay qo'yadi. SHu daqiqa bolalarda yuz bergan holat: tushkunlik, xijolatpazlik, qurtlarga achinish hissi tasviri kichik kitobxonni cheksiz hayajonga soladi:

Pillachilar xonasin
Bosgan edi sukunat.
O'quvchilar churq etmas,
Qotib turishar faqat.

Shoir hayotiy lavhalar chizishda davom etadi. So'kichak yengillatilib, xona ma'lum darajada sovitilgach, qurtlar yana asliga qaytadi, bir me'yorda barg yeyishga kirishadi. Bolalar olam-olam quvonchga to'ladilar, shodlanadilar:

Bir-biriga qarashib.
Bolalar jilmaydilar.
Xatar o'tgan bo'lsa ham
Xonadan jilmadilar.

Shoirning «O'lmas qush» ertak-dostonida tasvirlanishicha, CHingizxonning jodugarlik bilan bahodirlarining yostig'ini quritgan go'zal kanizagi Sayxun bo'yida yashayotgan Nahang qassob-ning ham oromini buzadi. Jang maydonida kanizakni ko'rgan Nahangning qilichi qo'lidan tushadi. Qizning makriga uchib, uni sevib qoladi. Uning xotini qazo qilib, O'lmas va Olmos ismli farzandlari qolgan edi. Dostonda epchil qiz Olmosning akasi O'lmas uchun otasi va o'gay onasidan o'ch olishi ancha qiziqarli va ishonarli tasvirlanadi.

Bolalar adabiyoti taraqqiyotiga katta ulush qo'shayotgan Miraziz A'zam hozir yangi-yangi asarlar ustida ishlamoqda.

Tursunboy Adashboyev

(1939- 2017)

She'r haqida so'zlab berish, aslida nochorlikning ishi. Yaxshi she'rni o'qiganga, undagi voqea yoki mantiqni shoir qalbiga yaqinlashib his qilganga nima yetsin! Aslida, she'r shuning uchun yoziladi. Bu bizning - shoirlikka ixlosmand odamning nuqtai nazarimiz.

Bolalar ham xuddi shunday. She'r haqidagi chuqur ilmiy mulohazalar, bahslar, jinjimador fikrlar-u, balandparvoz ovozalari ular uchun mutlaqo ahamiyatsiz. Dunyoni tanib kelayotgan yosh qalb atrofidagi hamma narsa, hodisa, munosabatlarga qalb ko'zlarini katta-katta ochib qaragani, talpingani kabi, hayotning jonli parchalariga aylangan she'rga ham do'st tutinadi. Bolalar she'riyatining mas'uliyati, o'ziga xosligi hambolalarning mana shu xislatlardan kelib chiqadi. Qisqasi, bolalarga sodda, samimiy, qiziq, tabiiy, chiroyli, zavqli she'rlar kerak. Xuddi mana bu she'r kabi: tabiat, ko'ngli daryo odamlarga mehru muhabbatimiz rishtalarini bog'lagan o'tgan kunlarimizni sog'inamiz. Shu sog'inchning ildizlari qalbimizda qanchalar chuqur bo'lsa, demak, taqdir bizni siylabdi. Tursunboy Adashboyev she'rlarida hammadan oldin Vatanning muqaddas ostonasi bo'lgan ona qishloqqa juda yoshligidan o'ychan termulgan, undagi har bir mavjudlikni ixlos bilan ardoqlagan; sodda-yu to'pori, qismati mehnat va yana mehnat bo'lgan, odamlarni yoshiga nisbatan ulug'roq nigoh bilan kuzatgan qalb manzaralari ko'zga tashlanadi.

Taniqli bolalar Shoiri Tursunboy Adashboyev 1939-yilda Qirg'izistonning O'sh viloyatiga qarashli Olabug'a tumanidagi Safed Bulon qishlog'ida tug'ilgan. U Toshkent davlat dorilfununini hamda Jahon adabiyoti institutini bitirgan. Shoir «Olatog'-lolatog'» kitobida yozganidek, ikki elning farzandidir:

O'zbek, qirg'iz qoni singgan,
Sizga aytsam to'g'riman.
Shu boisdan ikki xalqning
Erka Shoir-o'gliman.

Tursunboy Adashboyev o'zbek va qirg'iz tillarida ijod qiladi.

«Kamolning olmasi» deb nomlangan birinchi kitobi 1967-yilda talabalik chog'idayoq nashr etilgan. Keyinchalik Toshkentdagi «Yosh gvardiya», Bishkek shahridagi «Mektep» nashriyotlarida «Biz sayohatchilar» (1969), «Ala-Toluk bolomun» (1971), «Arslonbob sharsharasi» (1973), «Surnay» (1975), «Nur daryo» (1977), «Guldasta» (1979), «Olatog'-lolatog'» (1982), «Oqbura to'lqinlari» (1985), «Sovg'a» (1987) to'plamlari bosilib chiqdi.

Kichikintoylarga qisqa va lo'nda she'rlar yozish, qissadan hissa chiqarish Tursunboy Adashboyev ijodining eng muhim fazilatlaridan biridir. Ijodkorning «Sumalak» sarlavhali she'ri shu jihatdan e'tiborli:

Boychechaklar nish urib,
To turguncha o'rnidan.
Bahor qishni tarnovga,
Osib qo'ydi burnidan.

Yoki bolalarning cheksiz xayoloti bilan bog'liq bo'lgan «Tugma» deb nomlangan mashqi ziyrak kuzatuvchanlikning mahsulidir:

Ro'zvon xola qo'shniga
Chiqqanida elakka.
Kamzulining tugmasi,
Tushib qoldi yo'lakka.
Chumolilar to'planib,
Majlis qurar shoshilib:
— Bir, ikki, uch ko'tardik,
Tegirmonning toshini...

Tursunboy Adashboyevning kulgiga boy, hazil-mutoyiba bilan yo'g'rilgan asarlari boshqa xalqlar tillariga ham o'girilgan. Masalan, «Pesnya Jovoronok», «Podarok», «Olti oyoqli xo'tikcha», «Olatog' ohanglari» singari bir talay kitoblari rus, latish, qozoq va o'zbek bolalar she'riyati antologiyalaridan munosib o'rin olgan. 1989 — 90- yillarda uning «Arslonbob afsonasi», «Sichqonning orzusi», «Uch bo'taloq va sirli qovoq» to'plamlari nashr etildi.

Ijodkor qator uchrashuvlarda, gazeta va mahallalardagi suhbatlarda berilgan savollarga qaytargan javoblarida she'r yozishning sir-sinoatlarini o'ziga xos yo'nalishda ochib berganligini kuzatamiz:

— Nima uchun bolalarga she'r yozasiz?

— Ezib yomg'ir yog'ganidan keyin, yetilgan yerni, zavq-shavq bilan haydagan qo'shchining mehnatini sira kuzatgan-misiz? Kichkintoylarga she'rlar mashq qilar ekanman, ana shu dehqonga o'xshab ter to'kishga harakat qilaman. Demak, har kim qo'lidan kelgan yumushni uddalashi kerak. Qisqasi, bolalarga she'r yozishdan o'zga ish qo'limdan kelmaydi.

— Sizda she'rning tug'ilishi qanday kechadi?

— Asosan, hayotni, bolalarning so'ngsiz olamiga aloqador ikir-chikir, voqea va hodisalarni sinchiklab kuzatishdan tug'iladi. Masalan, oddiy bir tugmani chumolini yo'liga qo'yib, xatti-harakatini kuzatsangiz, taxminan quyidagicha mashq qog'ozda aks etishi mumkin:

Charchab, horib
Yumushdan
Qaytar edi
Qumursqa.

Tugmani
Olib qo'lga,
Tashladim
Uni yo'lga.

U yon-bu yon
Bo'yladi.
Tog' ekan deb
O'yladi...

— She'rlaringizda manzara yaratish mahoratini kimdan o'rgangansiz?

— Har bir misra ustida ishlash va manzara yaratish san'atini ustoz Quدرات Hikmatdan o'rganganman. Quدرات akaning lampochka haqidagi misralariga e'tibor bering:

To'lqinjonning nok nusxa
Lampochkasi bor edi.
Patronga solish bilan
Uyning ichi yoridi.

Qattiqqo'l ustoz nazaridan o'tgan, endilikda muallifning eng yaxshi mashqlari qatoridan o'rin olgan «Nasibaning olmasi» sarlavhali she'ri shu jihatdan ibratlidir:

Nasibaning olmasi
Tushib ketdi ariqqa.
Tutqich bermay o'ynaydi
Xuddi o'xshab baliqqa.

Sodiqjon ko'rib qolib,
Olmani ushlab berdi,
Rahmat aytib Nasiba
Yarmini tishlab berdi...

Iqtidorli Shoirning o'qimishli she'rlari jamlangan «Uch bo'taloq va sirli qovoq» to'plamidagi asarlarni o'qir ekanmiz, ijodkor quvnoq, yengil kulgi bilan sug'orilgan misralar orqali kichkintoylar dunyosini mahorat bilan ochib berishdek o'z uslubiga sodiq ekanligini ko'ramiz. Chunonchi, «Ahil do'stlar» she'rida Suhrob bilan Jahongir ismli ikki do'st bitta bog'chaga qatnab, hatto muzqaymoqni ham teng bo'lib yeydigan ikki oshna-og'ayniga to'p sovg'a qilingach, ko'ngilxiralik bo'lmasligi uchun ular koptokni ham ikki bo'lakka yorib o'ynaydilar:

Sovg'aga kelgan to'pni
Yotsiramay olishib,
Teng sherikka bo'lishdi,
SHart ikkiga yorishib...

Shoirning bolaligini xotirlash asnosida yaratgan o'nlab mashqlari ham hayotiy voqealarning hosilasi ekanligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi jahon urushi hamda urushdan keyingi davrda kichik ovulda ro'y bergan hodisalar silsilasi Tursunboy Adashboyev she'rlarining o'zagini tashkil etadi. «Tush bo'lib qolsin mayli...» she'ridagi quyidagi misralar kishini olis bolalikka yetaklaydi:

Dumbul bo'lgan bug'doyning
Qaychilayman poyasin.
— Bu bir qozon qo'g'irmoch
Shodligim nihoyasiz.

Bu — urushdan keyingi,
Pishiqlik o'lkamda.
Sezmay qopman tarsa-turs
Qamchi tushdi yelkamga.

Jon xavfida uyg'ondim
Ha, qorovul tufayli.
Xayriyat tushim ekan,
Tush bo'lib qolsin mayli...

Kichkintoylar uchun atalgan she'rlar to'q mag'iz qofiyalar asosiga qurilgan taqdirdagina o'qish uchun o'ng'ay, yodlash uchun oson ko'chadi.

Zotan, Zafar Diyor, Qudrat Hikmat she'riyatining umrboqiyligi ham ana shundadir. Tursunboy Adashboyev ham ustozlari izidan borib kutilmagan qofiyalar topadi. Bu muallif qalamga olgan mavzuni o'quvchiga tezroq yetib borishiga xizmat qiladi. Shoirning ijodiy fazilatlaridan yana biri she'rlarining qisqa, lo'ndaligida.

Tursunboy Adashboyev jahon bolalar she'riyati vakillarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish borasida ham faol ish olib borayotir.

Shoir kichkintoylarning ulkan adabiyotiga bo'lgan yuksak eotiqodini quyidagi misralarda ro'y-rost bayon etadi:

Bolajonlar, ko'nglim nayin
Sizlar uchun sozlaganman.
Qudrat Hikmat aytgandayin
Har maqomda yozmaganman...

Tursunboy Adashboyev va u kishining tengdoshlari bolalikning shirin daqiqalaridan benasib qolishgan. Ularning bolaliklari ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri keldi. Daladagi og'ir mehnat, maktabdagi og'ir sharoitlarda o'qib, bilim olish ularning bolalik xotiralaridir:

Yorilgan tovonimga
Onam piyozdog' surib... ..
Bezgak xuruj qilganda
Ko'kka chiqib nolishim,
Tol bargiga ko'mishsa,
Beda bo'lgan bolishim... ..
(«Onajonim»)

Bugun ayrim bolalarning non tanlab xarxasha qilishlari, sal suvi qochgan nonni esa tashlab yuborilishi, isrof qilinishiga ko'p guvoh bo'lamiz. Bu holat haqida achinib gapiramiz. Tursunboy Adashboyev esa bu noxush holatni she'rga ko'chirib, o'quvchi xayolini yana urushning og'ir kunlariga tortadi:

Suli asli otning yemi,
Ishlatilmas bo'lakka...

Ha, shunday. Ammo qahatchilik yillari hatto sulidan ham non yopib yeyilgan. Qaynoq suvga qoqi solib, «olmachoy», «sabzichoy»lar damlab ichilgan. Bir burda non esa arzanda...

Nabiramning non tanlashi,
Malol kelgach, so'nggi dam,
Bolalikdan ushbu lavha
O'tdi ko'zim o'ngidan...
(« Nabiramga»)

Tursunboy Adashboyev tug'ilib, voyaga yetgan joy Safed Bulon deb ataladi. Bu qishloq Namangan va O'sh viloyatlarining bir-biriga tutash qismida joylashgan. Ijodkorga uning go'zal tabiati, shirinso'z, mehr-oqibatli odamlari ilhom beradi, deyilsa yanglish bo'lmaydi. Shoir she'rlari va dostonlarida tabiat manzaralari tasvirini ko'p uchratamiz. Zero, bolalar adabiyotining muhim vazifalaridan biri farzandlarni tabiat go'zalliklarini his qilish va sevishta, qadrlashga o'rgatishdir.

— Hoy chechak,
Boychechak,
Yashnab ketdi qir tagi,
Quyoshmisan qirdagi?
— Biz oftobning parchasi
Ochib yerning darchasin
SHu tuproqqa boylandik,
Boychechakka aylandik.
— Bahordan elchi — chechak,
Rahmat senga, Boychechak.
(« Boychechak»)

Bolalar adabiyotiga nazar tashlasak, bahor manzarasini tasvirlovchi satrlarni ko'p uchratamiz. Nima uchun Shundayekan? Ehtimol, umrning bolalik fasli ayni bahorga o'xshaganidandir? Bu faslda «yomg'irning yerni iydinshi, yashil chakmon kiydirishi» bola uchun ulug' mo'jiza bo'lib tuyuladi.

Bahor ko'ylak kiydirdi
Ko'k egniga bulutdan...

Tabiat mo'jizalarini hayrat bilan kuzata olish ham inson zotiga berilgan ulug' ne'mat. Tabiatni seva olgan odam bolasi esa baxtlidir. Tabiat go'zalligidan zavq ololgan kishi ko'nglida zulmga o'rin yo'q. Tabiatni seva olish — shu tabiatning bir zarrasi bo'lmish odamni sevish demak. Bu zarur fazilat bolaning musaffo qalbida xuddi bahordagi chechak kabi yuz ochadi. Biz — ota-onalar tirikchilik tashvishi bilan bo'lib, bu tarbiyaga uncha ahamiyat bermaymiz. «Nega yomg'ir yog'adi?», «Nega daraxt gullaydi?», «Nega momaqaldiraq gulduraydi?» kabi savollardan yengil-elpi, Ba'zan noto'g'ri, noo'rin javoblar bilan qutulmoqchi bo'lamiz. Ana shunda farzandimizga sodiq maslahatgo'y do'st — kitob yordamga keladi.

Chaqmoq ko'kda yong'oq chaqdi,
Qizg'aldoqlar selda oqdi,
Quyosh yana kulib boqdi,
Bahor kelgach...

Tursunboy Adashboyevning ijodi bilan tanishgan kishi bir narsaga amin bo'ladi: bu asarlar bolalar ham, kattalar ham baravar o'qiydigan ibrat kitobidir.

Tursunboy Adashboyevning eng sara she'rlari jamlangan «Orzularim — qo'sh qanotim» deb nomlangan kitobini sinchiklab o'qib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: qalamga olingan mavzular bolalarning o'ziday beg'ubor, hajman qisqa va lo'nda. Kutilmagan qofiyalar esa she'rning ravonligini oshirib, kichkintoylarning osongina yod olishini ta'minlaydi.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, shogirdparvarlik Tursunboy akaga ulug' ustozlar Mirtemir bilan Qudrat Hikmat dan yuqqan. So'nggi o'n besh yil ichida o'zbek bolalar adabiyotiga kirib kelgan Hamza Imonberdiev, Abdurahmon Akbar, Zafar Isomiddin, Sodiqjon Inoyatov, Erpo'lat Baxt, Miryusufzoda va Qo'zi Ismoil kabi iqtidorli ijodkorlarga beminnat yordam ko'rsatib kelyapti. Xorazmlik Shoir Sodiqjon Inoyatovning Tursunboy Adashboyevga bag'ishlab yozgan she'ridagi quyidagi misralar fikrimizning yaqqol isbotidir:

She'r cho'g'ini she'r bilan
Dilga solib qo'ydingiz.
Qo'limizdan yetaklab,
Yo'lga solib qo'ydingiz...

Agar kishi qadriyat nima, u qanday avaylab-asralishi kerak, ma'naviyat nima, u qanday boyitilishi lozim, degan savollarga bolaligidan javob topolmasa, yoshi o'tgandan keyin bu fazilatlarga erishmog'i juda mushkul. Dunyo bolalari adabiyotini kuzatsak, shu mavzuga e'tibor kuchli ekanini ko'ramiz. Jumladan, Tursunboy Adashboyevning ijodi ham bundan mustasno emasligini alohida ta'kidlash mumkin. Hajman bir-biridan shinam «Qismat», «Oriyatli xo'roz», «Burgutning o'limi», «Oltin yolli tulpor» va «Yassaviy zurriyotlari» kabi qator asarlariga yuksak ma'no va mazmun yuklanganligini ko'ramiz. Shoirning «SHarq yulduzi» jurnalida bosilgan turkum she'rlari esa kichkintoylarning fikriy olami — xayolot dunyosi bilan bog'liq loflardan iborat. Bu mavzu — o'zbek bolalar adabiyotida ochilmagan qo'riq.

Tursunboy Adashboyev vaqtli matbuotda, nashriyotda va har ikki respublikaning Yozuvchilar uyushmalarida xizmat qiladi. SHuningdek, jahon bolalar adabiyotining eng yetuk vakillari asarlarini maromiga yetkazib tarjima qilgan. Qirg'iz xalq eposi — «Manas»ning nasriy variantidan tortib S. Eraliev, S. Jusuev, T. Qosimbekov, J. Mavlonov, B. Sarno'g'ayev, N. Alimbekov kabi ijodkorlarning o'ttizga yaqin asarlari o'zbek tilida bosilib chiqqan.

Ikki elning ardoqli Shoiri Tursunboy Adashboyevning xizmatlari munosib baholangan. Ijodkor «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi» degan nom va «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan. Shuningdek, «Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» hamda «Manas» ordenining sovrindoridir.

Xulosa qilib aytganda bolalar adabiyotining bola tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishdagi muhim o'rni bu sohadagi yangi izlanishlar orqali asoslandi. O'zbek bolalar adabiyotiga uzoq yillardagi bir yoqlamalik va uning salbiy oqibatlari ham inkor etilmagani holda, milliy bolalar savodxonligi darajasini oshirish borasidagi sa'y- harakatlar badiiy so'z vositasida qayta jonlanayotir. Qolaversa, o'zbek bolalar adabiyotini chet el, rus va boshqa hamdo'stlik mamllakat bolalar adabiyotiga muqoyasalab o'rganish samarali natija berayotir.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. «Er aylanadi» she'ring qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?
2. Shoir ertak-doston janrida qanday asarlar yaratdi?
3. Miraziz A'zam «Asror» dostonidagi Asror obrazi orqali bolalarning qanday fazilatlarini tasvirlaydi?
4. T. Adashboyev ijodining eng muhim fazilatlarini nimada?
5. Shoirida she'rning tug'ilishi qanday kechar ekan?
6. Shoirning tabiat manzaralari haqidagi qaysi she'rlarini bilasiz?
7. Yosh avlod tarbiyasida T. Adashboyev she'rlarining ahamiyati qanday?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

M. A'zam (1-sinf o'qish) "Vatan" she'rida Vatanni nimalarga tenglashtirgan?

1. Uy 2. Dala 3. Daryo 4. Ko'cha 5. Soydagi suv 6. Tog' 7. Bog' 8. Kon 9. Non 10. Maktab-ona 11. Shahar 12. Soz

+ 1,2,4,5,6,7,8,9,10

- 1,2,3,5,6,7,8,9

- 2,4,6,8,10

- 1,2,4,5,7,10,12

M.A'zam (2-sinf o'qish) "Bolajon hayajoni" she'rida qaysi ko'chani "go'zal qilibmiz buncha!"deya keltiradi?

+ Navoiy

- G'.G'ulom

- Oybek

- H.Olimjon

M.A'zam (2-sinf o'qish) "Bolajon hayajoni" she'rida qaysi mashinaning ko'payib ketganini aytadi?

+ Spark

- Neksiya

- Tiko

- Damas

M.A'zam aruzda yaratilgan devonini qanday nomladi?

+ "Kuzgi yaproqlar"

- "Haqiqatning ko'zlari"

- "Yo'lyozmalar"

- "Eng yorug' yulduzlar"

M. A'zam quyidagi qaysi sharq buyuk shoirlari ijodidan tarjimalar qilgan?

1. Farididdin Attor 2. Nizomiy Ganjaviy 3. Jaloliddin Rumiy 4. A.Jomiy

+ 1,2,3,4

- 1,2

- 1,2,3

- 1,2,4

T.Adashboyev (3-sinf o'qish) "Ona tilim" she'rida qaysi buyuk bobolarimiz nomlarini keltirgan? 1.Temur 2.Alisher 3.Jaloliddin Manguberdi 4.Bobur Mirzo

5.Husayn Boyqaro 6.Shoh Mashrab 7.Oybek 8.Mirtemir

+ 1,2,4,6,8

- 1,2,3,4,5

- 1,3,5,7

- 2,4,6,8

T.Adashboyev ijodining eng muhim fazilatlaridan biri to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

+ Qisqa va lo'nda she'rlar yozish, qissadan hissa chiqarish

- Qissalarda yumorni ustun qo'yish, qahramonlikni bo'rttirish

- Cheksiz xayolotni tasvirlash, kamtarlikni ulug'lash

- Maqol mazmunini bo'rttirish, iboralar keltirish

T.Adashboyevning qaysi she'ri "ko'ngilxiralik bo'lmasligi uchun...koptokni ham ikki bo'lakka yorib o'ynagan" Suhrob va Jahongir haqida yozilgan?

+ "Ahil do'stlar"

- "Kamolning olmasi"

- "Biz sayohatchilar"

- "Uch bo'taloq va sirli qovoq"

T. Adashboyevning birinchi she'riy to'plami qanday nom ostida kitobxon qo'liga yetib bordi?

+ "Kamolning olmasi"

- "Olatog' – lolatog'

- "Buni toping, bolalar, Aytib bermang, onalar"

- "Uch bo'taloq va sirli qovoq"

T. Adashboyev quyidagi qaysi jahon adabiyoti vakillari ijodidan tarjima qilgan? 1. S.Marshak 2. K.Chukovskiy 3.L.Briyeds 4.Y.Yelubayev 5. J.Raboni

+1,2,3,4,5

- 1,3,5

- 2,4

-1,2,3,5

12 -MAVZU. QAMBAR OTA VA MUHAMMAD ALI IJODIY FAOLIYATI

REJA:

1. Qambar Otaning hayot yo'li.
2. Qambar Ota she'rlarining janriy tarkibi
3. Qambar Otaning she'rlarining vfvzular olami
4. Muhammad Alining hayot yo'li.
5. Adibning tarixiy asarlari tahlili.
6. Adib ijodida tarixiylik.

Tayanch tushunchalar: ramz, she'riyat, nazm, qissa, she'riy-adabiy ertak, qofiya, badiiy san'atlar, tashbeh, talmeh, majoz, yumor, satira, realism, nafosat olami, mahorat maktabi.

Qambar Ota (1941 yilda tug'ilgan)

Bolalarning sevikli Shoiralaridan biri Qambar Ota 1941 yilda Kattaqo'rg'on shahrida tavallud topdi, 2-o'rta maktabda o'qidi. O'quvchilik davridan she'rlar mashq qila boshladi.

U 1958-1967 yillar shahardagi Suv xo'jaligi texnikumida so'ngra Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakultetida o'qidi.

1970-1974-yillarda turli oliy o'quv yurtlarida muallimlik qildi.

Qambar Otaning kichkintoylar hayotidan olib yozgan turli she'riy mashqlari tuman, viloyat, hozirgi "Tong yulduzi" gazetasida tez-tez bosilib turdi.

1975-yilda oilasi bilan Toshkentga ko'chib kelib G'afur G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, "O'zbekiston agitatori" jurnali, "Xalq so'zi", "Ma'rifat" gazetalarda, O'zbekiston istiqbolini belgilash Davlat qo'mitasida turli lavozimlarda ishlash bilan birga qizg'in va samarali badiiy ijod qilish bilan mashg'ul bo'ladi.

Kichkintoylarning katta Shoiri o'z ustida tinimsiz ishlar, mashq qilar, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmatdek zabardast bolalar ijodkorlarining she'rlarini o'qir, xulosalar chiqarar, yosh kitobxonlar davrasida bo'lar, yozuvchilar tomonidan uyushtirilayotgan adabiy-badiiy yig'inlarda ishtirok etar edi. Bunday intilish va harakatlar Shoir ijodida o'z samarasini berdi. Natijada "Vatan tuprog'i", "Yuzlar", "Diydor", "Dil ko'rki", "CHavandoz orzusi", "Tinim bilmas shamolvoy", "Quyoshli dunyo", "Sizday yashagim kelar", "SHirin so'z", "Bolalarning ko'zlari", "Quyosh bilan gaplashdim", "Mashhur Toshpolvon haqida ertak", "Tinmay izlan, yuragim" kabi bolalar va kattalarga atalgan 30ga yaqin she'riy kitoblar chop etilgan. Respublikamizning iqtidorli bolalariga ustozlik qilib, adabiy to'garaklar olib borgan.

Qambar Ota bir necha o'nlab jahon bolalar Shoiriari ijodidan sara tarjimalar qilgan va o'z navbatida uning she'rlaridan rus, belorus, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tojik, uyg'ur, turk tillariga namunalar tarjima qilingan.

Shoir Qambar Otaning ijodi ayniqsa bog'cha bolalari, maktab o'quvchilari diliga yaqin bo'lganligi uchun 80-yillar boshidanoq bog'cha tarbiyachilari uchun metodik qo'llanmalar va maktab darsliklariga ko'plab asarlari kiritilib boshlaganligi bolalar orasila uning keng tanilishiga sabab bo'ldi.

Mamlakatimizda Istiqlolini Shoir katta quvonch bilan kutib oldi. Bu tarixiy xushxabar to'g'risida bor ovoz bilan "Istiqlol" nomli she'rini yozdi. She'rda Shoirning jarangli ovozi kitobxon bolalarning sho'x-shodonligi, quvonchi bilan qo'shilib ketadi:

Sen kelgansan yurtimga,
Sen kelgansan baxtinga.
Aylanasan ahdimga,
Istiqlol!
G'olib bo'lay o'qishda, G'olib bo'lay har ishda.
Yangi bo'lg'in turmushda,
Istiqlol!

Qambar Otaning 100dan ortiq she'rlariga Respublikamizning taniqli bolalar kompozitorlari kuy bastalashgan. Bu qo'shiqlar notasi bilan barcha bog'chalar, maktablar, bolalar san'at dargohlariga tarqab ketgan. U 1999-yili adabiyotdagi halol xizmatlari uchun Prezidentimiz tomonidan ikkinchi darajali Sog'lom avlod uchun ordeni bilan taqdirlangan.

Shoirlar ona tabiatning o'zi mavzu va ilhom beradi. "Oq bulut, ko'k bulut" she'rida yomg'irni olqishlaydi. Yomg'ir qancha ko'p yog'sa, suv shuncha serob bo'lishini, maysalar butun borliq guldek yashnab, odamlar sog'lom —u ekin-tekin mo'l-ko'l bo'lishini ta'kidlaydi. Shoir tomchi-yomg'irning har qanday turini ma'qullaydi.

Jalayu do'l bo'lsang ham
Qarshilar maysa, yaproq
Kutadi sel bo'lsang ham,
Bag'ri keng ona tuproq.
Seni mushtok kutganni
G'uborini yuv bulut
Xo'l bo'lishdan qo'rqqanni
Pana joyga quv bulut.

Shoirning o'nlab she'rlarida tabiatga munosabat, hayvonlar, jonivorlar-u parradalarini asrash, avaylash, ularni ko'paytirish masalasi ko'tariladi. Uning ko'pgina she'rlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar berilib tanglaydigan asarlarga aylanib qolgan. "Do'stlik kerak", "Qalam deydi", "Men otimni taqaladim", "Asl bobo", "Go'zal odob, a'lo xulq", "Mehribonlar", "Vatanni yashnataylik", "Kitob olib bersangiz", "Bog'cha opam", "Fikrim o'sar", "Bog'chamizda" she'rlarini tinglamagan bog'cha bolasi yoki boshlang'ich sinf o'quvchisi topilmasa kerak.

O'zbek bolalar she'riyatida oddiygina qalam haqida ancha she'rlar bitilgan. Shoirning "Qalam deydi" she'ri butunlay o'ziga xos original asar. Sarlavhasidan sezilganidek, butunlay yangi mazmun, yangi ifodaga ega. Qalam sinib ketmay uzluksiz ishlashni, odamlarga foyda, naf keltirishni istaydi. Yosh kitobxonni tinmay o'qish, yozish va izlanishga chorlaydi.

Qalam deydi:	Ayab, aslo
Yozavergin,	Tindirmagin.
Ilm konin	Qog'ozlarda
Qazavergin.	Izim bo'lsin
Faqat meni	Elga aytgan
Sindirmagin.	So'zim bo'lsin.

Bola tetapoya qilib yura boshlashi bilanoq, o'ziga sherik, do'st, o'rtoq qidiradi. Ular qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi, davra yanada kengayib, o'yin-kulgu avjga chiqaveradi. O'yinda ham, o'qish-u mehnatda ham do'st, bir-biriga qo'l-qanot:

Do'st mushkulini oson-
Qilishni istar inson,

Olam to'lsin ziyoga,
Do'stlik kerak dunyoga.

“Kitob olib bersangiz” she'rining qahramoni hali bog'chaga qatnaydigan bola. U otasi oldiga bir qator masalalarni ko'ndalang qilib taxlab tashlaydi. Bolaning orzusi zo'r, istak-niyati buyuk. Mabodo ota unga ot, tuya va durbin olib bersa, murodi hosil bo'ladi, maqsadiga erishadi. Agar kitob sovg'a qiladigan bo'lsa, kelajakda yaxshi o'qib, ilmida olamni lol qodirmoqchi,

Kitob olib bersangiz
Sipqoraman ziyoni-
Ilmi zo'rlar yorqinroq
Yoritadi duyoni.

Shoir asarlari orasida “Go'zal odob, a'lo xulq” she'ri alohida ajralib turadi. She'r bor-yo'g'i sakkiz misradan iborat. She'rda o'qimishli, bilimdonlikdan tashqari, yuksak axloqli bo'lish to'g'risida ham gap boradi:

Chin yurakdan tirishsang
A'lo o'qishing mumkin.
Bilganlaring ehtimol
Yodingadan chiqar bir kun
Go'zal odob, a'lo xulq
O'rnashsa yuragingga,
Seni mangu tark etmay,
Yetkazar tilagingga.

Qambar Ota anchagina “Erka egzaklar”, “Cho'lga sayoxat”, “Baroq mushuk fojeasi”, “Bog'bon hikoyasi”, “Robotlar”, “G'ildiraklar qo'shig'i”, “O'n ikki supa” kabi yirik doston, doston-ertaklar yozgan. Bular orasida “Erka egizaklar” dostoni juda ommalashib ketgan.

Dostonda “Farzand aziz, odobi undan aziz” maqoli atrofida gap boradi. Shoh farzandlar tarbiyasi bilan yaxshi shug'ullanmaydi. To'g'ri, o'nlab enaga-yu boshqa tarbiyachilar ular xizmatida. Bolalar juda erka o'sib-ulg'ayishadi. Erkatoylar otaning xazinasining kulini ko'kka sovuradilar. Odobsizlik, andishasizlik qilib bolalar shohni xona vayron qiladilar. Shoir asarga ta'sirli yakun yasaydi. Yomonlardan, odobsizlardan qattiq ranjiydi:

Odob-inson ziynati.	Ota o'g'il, el qizi.
Yaxshi farzand oshirar	O'g'il-yurtning posboni,
O'z yurtining hislatin.	Qiz-baxtimiz yulduzi.
Yomon ko'p bo'lsa elda,	Sodiq bo'lsin vatanga
Xarob bo'lar bir kuni.	Har kim kichik yoshidan.

Narsaga o'ch ekan xalq

Kiradi g'aflat tuni.

Hamma bola bo'lishsin

Baxt quyoshi manguga

Arimasidan boshidan!

Qambar Otaning "Kitobcha va buzoqcha", "Chavandoz orzusi", "Tinim bilmas Shamolvoy", "Shirinso'z", "G'ildirak", "Tabiatga rahmat" kabi 30ga yaqin kitoblari o'quvchilarning ma'naviy mulkiga aylangan.

Muhammad Ali

(1942-yilda tug'ilgan)

O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali (Ahmedov Muhammad Ali) serqirra qalam sohiblaridan biri hisoblanadi. Adib she'riyat va nasr, publitsistika va tarjima janrlarida ko'plab asarlar yaratgan. Uning katta-katta asarlar yaratish barobarida kichkintoylarni ham unutmay she'r va afsonalar yozayotganligi quvonchli hodisadir.

Bolalar mavzusini yoritish, bolalar uchun ijod qilish ijodkordan katta mas'uliyat talab qiladi. Adib o'zining tarixiy mavzuga bag'ishlangan «Boqiy dunyo» (she'riy roman), «Ulug' saltanat», «Sarbadorlar», «Abadiy sog'inchlar» nomli romanlarida bolalarning yorqin akslarini chizib berdi. Ayniqsa, bu «Ulug' saltanat» tarixiy dilogiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Biz unda Muhammad Sulton, Halil Sulton, Mirzo Ulug'bek singari shahzodalarning bolalik davrlari tasvirlangan sahifalarni ko'ramiz. «Boqiy dunyo» she'riy romanida esa asar qahramonlaridan biri Farhodning bolaligi tasvirlari, ayniqsa, uning ismi ma'nosining yangicha talqinda berilishi juda qiziqarli va ibratlidir.

Shoirning bolalarga bag'ishlangan she'r va afsonalari ham mavzular rang-barangligi bilan ajralib turadi. Adib bolalar uchun asar yozganda bolalar tabiatining o'ziga xosligini unutmaydi. Bolalar har narsaga hayrat bilan boqadilar, hamma narsa ularga qiziq tuyuladi. Ular har bir narsaga qarab dunyoni o'zicha kashf etadilar, bundan beqiyos quvonadilar. Shoir ana shu kashfiyotni tasvirlashga harakat qiladi.

«Bo'taloq» she'rida bo'talog'iga boqib quvongan, atrofida parvona bo'lgan bolakay obrazi chiziladi. Bolaga, ayniqsa, bo'taloqning lo'k-lo'k etib chopishi, unga «cho'k-cho'k!» deyish juda yoqadi, uning o'zi ham birga chopishga tayyor:

Bo'talog'im yayraydi,
Yantoq bersam chaynaydi.
Yam-yashil o'tloqlarda,

Bo'talog'im to'ysin deb,
Barra o'tlar tutaman.
Agarda qasd qilsam-chi,

Lo'k-lo'k chopib o'ynaydi.
Bo'talog'im lo'k-lo'k,
Lo'killama, cho'k-cho'k!

Undan o'zib ketaman!
Bo'talog'im lo'k-lo'k,
Lo'killama, cho'k-cho'k!

Shoir o'z she'rlariga tabiat manzaralarini, hayvonot olamini, o't-o'lanlarni mavzu qilib oladi. Bu esa Shoir she'rlariga tabiiylik baxsh etadi.

Tabiatda juda ko'p maysalar, o't-o'lanlar, gullar quyoshga boqib, undan nur olib, yorug'likka, issiqlikka talpinib umr kechiradi. Quyoshning yo'nalishi bo'yicha u qaysi tomonga qarab yursa, unga qarab intilib, undan kuch-quvvat olib nish uradigan, o'sib, toblanib pishadigan o'simliklardan biri kungaboqardir. SHu ma'noda Shoirming «Kungaboqar» she'ri alohida ajralib turadi.

Quyosh — oftob bor joyda mehnat-u odob, ahillig-u do'stlik, vatanparvarlig-u muhabbat, sadoqat bo'ladi. Kungaboqarning yashnashiga, yashashiga havasi kelmaydigan bolaning o'zi yo'q. Bolaning quvonchiga quvonch qo'shgan kungaboqar uni eng avvalo, mehnatkash, odobli bo'lishidan tashqari, nafsini tiyishga, xiyonat qilmaslikka o'rgatadi:

...Bahor kelib ilisa kun,
Bo'ylarini cho'zib mamnun,
Yuz-boshini o'rab butun,
Gulchalardan tanga taqar.
Qora-qura tishlari bor,
CHO'ng boshiga kiyib dastor,
SHO'xlik qilmay, jim, beozor,
Qarashlari menga yoqar.
Dalalarda yurar bo'lsang,
Bog'-rog'larga borar bo'lsang,
Turishadi, qarar bo'lsang,
Marzalarda turna qator.
Bo'yim kichik — yetay desam,
Qo'lim kalta — tutay desam,
Pistasidan totay desam,
Hamma kulib menga boqar.

Bolalarning odobiga odob, mehnatsevarliklariga mehnatsevarlik, ona-tabiatga nisbatan mehrlariga mehr qo'shadigan asarlaridan biri «Shudring»dir.

Kichikintoylar ona tabiat qo'ynida yayrab-yashnab, erkin kamol topadilar. Ona tabiatdagi har bir holat ular uchun bir yangilik, kashfiyot

bo'lib tuyuladi. Bolalardagi bunday holatni yaxshi bilgan Muhammad Ali o'zining «Shudring» she'rida shu hagida so'z yuritadi.

Shudring kuz faslining boshlanishi bilan bog'liq. Yerga shudring tushishi bilan meva-chevalar, poliz ekinlari pishadi. Yurtda to'kin-sochinlik boshlanadi. Shu ma'noda she'r qahramonining zo'r quvonch-u qo'li ochiqlik bilan aytgan gaplari juda hayotiy chiqqan:

Bog'imizga bir qarang,
Gul ochildi rang-barang.
Tongda shudring tushibdi,
Gulga chiroy qo'shibdi.
Bog'dan nari poliz bor,
Unda qovun-tarvuz bor.
Qovunlar katta-katta,
Mehmon bo'ling, albatta!

Onalarni ulug'lovchi «Onamlarning bayrami» she'ri bayram munosabati bilan xonadonda yuz bergan quvonchli kayfiyatni nurlantirib turadi. Bolaning nazarida butun tabiat aziz onajonini qutlug' ayyom bilan qutlashga shaylangan. Qushlar hovlini to'ldirib uchib yurishibdi, ariqlarning labida ham o't-o'lanlar ko'karib chiqibdi, oppoq bodom esa, gullarga ko'milgan shoxini ko'z-ko'zlab, darchadan onajonisining xonasiga «qo'l» cho'zib turibdi... Bayramga bolaning ham sovg'asi bor: u o'nta «5» olib qo'yan!

Muhammad Alining xalq afsonalari asosida «Ninachi haqida ertak», «Uch oltin g'isht», «Sirli qushlar» nomli asarlar yaratganligi ham diqqatga sazovordir. «Ninachi haqida ertak» (1977) xalqimiz orasida qadimdan mashhur bo'lgan «Kim zo'r?» degan afsonaga asoslangan. Asar qahramoni Ninachi qish kirib qolganini sezmagan, yozni taralabedod qilib o'yin-kulgi bilan o'tkazgan, uy-joysiz qayga borishini bilmay, «xazon cho'pni hassa qilgancha» yo'lga chiqadi. Muz ustidan o'tayotib oyog'i toyib ketadi va quyrug'ini sindirib qo'yadi. U bu falokatdan qattiq ozor chekadi va Muzga, sen zo'r ekansan, deydi. Muz esa, men zo'r emasman, agar zo'r bo'lsam, quyosh eritib yuborarmidi, Quyosh zo'r, deydi. Ninachi so'ng Quyoshga, uni berkitib olgan Bulutga, uni bag'rini teshib o'tgan Yomg'irga, keyin yomg'ir ipiga osilib yerga tushib, uni shimib olgan Yerga, yerdan unib chiqqan Maysaga, uni bosib o'tgan Otga va nihoyat, uni minib olgan Odamga keladi...

Shoir adolat qidirib yurgan Ninachi sarguzashtini juda jonli va qiziqarli tasvirlaydi, o'qiganda tabiat manzaralari o'quvchi ko'z o'ngidan bir-bir o'tadi.

«Uch oltin g'isht» afsonasini Shoir o'z otasidan eshitgan. Voqea juda qiziq va ibratli. Uch aka-uka — To'ng'ich, O'rtancha, Kenja — uzoq safarga chiqishib, uchta oltin g'isht topib oladilar. Har biriga bittadan oltin g'isht to'g'ri keladi. Biroq nafs tuzog'iga tushgan To'ng'ich bilan O'rtancha o'g'il fitna uyushtirishib, Kenjani o'ldirmoqchi bo'ladilar va uni ovqat olib kelishga yuboradilar. Kenja ovqat olib kelib dasturxonga qo'yayotganda uning boshiga g'isht bilan urib o'ldiradilar. Keyin xursand bo'lishib, ovqat yeyishga tutinadilar. Va shu zahotiyoyq o'zlari ham til tortmay o'ladilar. CHunki Kenja ham uchta oltin g'ishtni o'ziga olmoqchi bo'lib, akalarining ovqatiga pinhona zahar qo'shgan edi... Shoir bu afsonasida inoqlik, hamjihatlikni ulug'laydi, ochko'zlik, nafsga berilishni qoralaydi. Asarni o'qigan o'quvchi sadoqat-u ixlos yo'lini tutish, halol bo'lish kerakligini, ezgu ishlarda birlashish lozimligini, yomonlik qilish asli insonning ishi emasligini anglaydi, yaxshilikning umri uzun, yomonlikning esa davri qisqa, degan haqiqatning boqiyiligini tushunib yetadi.

«Sirli qushlar» Shoirning hind xalq afsonalaridan ilhomlanib yozgan asaridir. Unda halollik, fidoyilik, chin insoniylik mavzulari ulug'lanadi.

Muhammad Ali ijodida Amir Temur mavzusi alohida o'rinni egallaydi. U 1967-yildayoq jasorat ko'rsatib, Sohobqironning bunyodkorligini ulug'lagan va Mustaqillik yillarida maktab darsliklariga kiritilgan «Gumbazdagi nur» dostonini yozgan edi. «Sarbadorlar» tarixiy dilogiyasida (1989) o'zbek prozasida birinchi marta 24—30 yoshli Amir Temurning siymosi chizib berildi.

2007-yilda Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan «Ulug' saltanat» tarixiy romandilogiyasi («Jahongir Mirzo» — 1999, «Umarshayx Mirzo» — 2004)da adib Amir Temur hayoti va uning suronli davri, o'zbek xalqining milodiy XIV asrdagi turmush tarzi, ijtimoiy hayotda va tafakkurlarda ro'y bergan o'zgarishlar haqida qiziqarli va ishonarli hikoya qiladi.

2008-yilda yozuvchi «Ulug' saltanat» trilogiyasini yaratish ustida izlanishlarini davom ettirib, uchinchi kitob «Mironshoh Mirzo» romanini yozib tugatdi.

Romandagi voqealar milodiy 1392— 1399-yillarda Turon, Xuroson, Fors mamlakatlarida yuz beradi. CHingizxon imperiyasini tiklashga katta umidlar bog'lagan, aslida Amir Temur qo'llovi bilan Oltin O'rdani egallagan «tutingan o'g'il» To'xtamishxon goh-goh Turon yurtiga bosqinlar uyushtiradi, Xulaguxon mulkiga ko'z tikib, SHirvon, Sultoniya, Tabriz va boshqa shaharlarni qo'lga kiritish niyatida qilich

yalang'ochlaydi. Uning maqsadi Oltin O'rda davlatini kuchaytirish, Buyuk ipak yo'lini qo'lga kiritish edi. Amir Temurday qudratli hukmdorga qarshi kurashishga yuraklari dov bermay, Misr sultoni, Iroq hukmdori, Oltin O'rda xoni barchasi birlashib, katta kuchga aylanishni dilga tugadilar.

Amir Temur o'zining idroki, zukko va donishmandligi bilan xalqaro vaziyatni teran kuzatib, bilib turar edi. U saltanatning jahondagi mavqeyini yuksaklarga ko'taradigan, ayni paytda davlat xazinasini boyitib turadigan Buyuk ipak yo'lini, albatta, dushmanlarga berib qo'ymas edi. Uning ustiga, XIV asrning oxirgi o'n yilida Eronda hukm surgan muzaffariylar, Iroqda jaloyiriylar, qoraqo'yunlilar qabilasi o'zaro urushlarga tortilgan, hatto Hajga borguvchilar yo'li tahlikali tus olgan, o'sha mamlakatlar notinchligidan qaroqchilar tomonidan talanardi. Adolatpesha Sohobqironning bularning barini jimgina kuzatib tura olmasdi. Tarixda «Besh yillik yurish» deb nom olgan safar sabablari ana Shundayedi. Muallif romanda Amir Temur tilidan: «Turon tursa bo'ron bo'ladi», degan muxtasar jumlani o'rinli ishlatadi. Bu so'zlar Sohobqironning o'ziga bo'lgan katta ishonchini, bemisl kuch-qudratini yorqin ifodalab turar edi.

Yozuvchi yuqorida nomlari zikr etilgan asarlarda ham, yangi romanida ham Amir Temur siymosini yaratishga kirishar ekan, Amir Temurni dastavval chin inson sifatida ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

«Ulug' saltanat»da buyuk davlat arbobi, bunyodkor, ilm-fan homiysi va ulug' sarkarda, adolatparvar Amir Temur o'quvchi ko'z oldida donishmand ota, suyukli yor, mard va sheryurak zot, ahli ayoliga mehribon, kechirimli, o'z nafsini jilovlay olishga qodir, teran aql sohibi, komil insonlarning komili sifatida namo-yon bo'ladi. Sohobqironning farzandlariga mehri alohida tahsinga sazovor, adib uni buyuk inson sifatida ko'rsatishga erishadi, mehr bilan Sohobqironning insoniy fazilatlarini qalamga oladi.

Suyukli o'g'li Umarshayx Mirzoning bevaqt halok bo'lganini eshitganda Sohobqiron ko'zlariga to'lgan yoshdan bir tomchisini ham yerga tushirmaslikka o'zida kuch topa oladi: «Qo'limdagi qarchig'ayimni ovga solmoqqa shaylang'on erdim. Qarchig'ayimning o'zini merganlarning mergani ovlab ketdi, burgutga bergisiz qarchig'ayimni!..» deydi bosqlik bilan.

Turon qo'shini Jazira viloyatining Mordin qal'asini (hozirgi Turkiya hududida) zabt qilib turganda, Sultoniya shahridan SHohrux Mirzo xonadonida o'g'il tug'ilganligi (Ulug'bek Mirzo edi) xabari yetadi. «Alloh ta'lo bizga nabira ato etdi! — dedi Sohobqiron Mordin tarafga ko'z qirini tashlab. — Haq o'z bandalariga ravo ko'rgan yaxshi odatlardan biri shukur

aylamakdur. Alhamdulillah, shukur qilamen, shukronasiga Mordin elining joni-molidan kechamen! Ulug'bek Mirzo sharofatidan Mordin ahlining gunohlaridan o'tdum! Barchaga omonlik berilsun!» Bu so'zlarda Sohirqironning insoniyligi yaqqol ko'rinib turibdi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Qambar Ota ijodining eng muhim jihatlari nimada?
2. Shoir she'ryatida qaysi mavzu yetakchi ahamiyat kasb etadi?
3. Shoirning tabiat haqidagi qaysi she'rlarini bilasiz?
4. Shoirning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
5. Shoirning bolalarga bag'ishlab yaratgan she'r va dostonlaridan qaysilari yodingizda qoldi?
6. Adib romanlarida bolalar hayoti qanday tasvirlangan?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

Qambar Ota (2-sinf o'qish) "Yoz keldi" she'rida olamni nimaga o'xshatadi?

- + doshqozon
- Dengiz
- o'rmon
- quduq

#Qambar Otaning ilk she'ri umrining qaysi davrida yaratilgan?

- + 6-sinf paytida
- Talabalik yillarida
- Muharrir bo'lib ishlayotganida
- Maktabni endi tugatgan paytlarida

#Qambar Ota bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi uchun qanday mukofotga loyiq ko'rilgan?

- + "2-darajali Sog'lom avlod uchun" ordeni
- "Shuhrat" medali
- "Oltin Yulduz" medali
- "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni

#Qambar Ota haqida noto'g'ri berilgan mulohazani toping

- + Qambar Ota masal yaratmagan

- “Buyuk xizmatlari uchun” medali sohibi emas
- Ilk sh’eri maktab paytida bosmadan chiqdi
- Muharrir bo‘lib faoliyat yuritdi

#Qambar Ota qalamiga mansub “Erka egizaklar”, “Bog‘bon hikoyasi” asarlari qaysi janrda yaratilgan?

- + doston
- Hikoya
- qissa
- roman

Qambar Otaning hazilnamo she’rlari keltirilgan qatorni toping

- + “G‘ildirak ichida yugurgan olmaxon”, “Hazilkashlar”, “Yayrab yurgin, echkicham”
- “Ay-yay-yay...”, “Toy bola”, “Suyukli navro‘zim”
- “Gul-loladan jamalak”, “Gul yaxshi, lola yaxshi”
- “O‘zbekiston – onajon!”, “Qovoqlar”, “Suyukli navro‘zim”

13 -MAVZU. ANVAR OBIDJON VA ABUSAID KO'CHIMOV IJODIY FAOLIYATI

REJA:

1. Anvar Obidjonning hayot va ijod yo'li.
2. Anvar Obidjon— bolalar shoiri.
3. Adib qissalarining g'oyaviy-badiiy mundarijasi.
4. Anvar Obidjon qissalari tahlili
5. Abusaid Ko'chimov hayoti va ijodi
6. Shoir she'rlarining obrazlar olami

Tayanch tushunchalar: ramz, she'riyat, nazm, qissa, she'riy-adabiy ertak, qofiya, badiiy san'atlar, tashbeh, talmeh, majoz, yumor, satira, realism, nafosat olami, mahorat maktabi.

Anvar Obidjon (1947-2020)

Hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shib kelayotgan Anvar Obidjon 1980-yilda «Bahromning hikoyalari» nomli to'plami chiqqanidan so'ng adabiy jamoatchilikning e'tiboriga tushdi. Oradan shuncha vaqt o'tib ham, u o'zining munosib o'rnini mustahkam saqlab turibdi, uning ko'p qirrali ijodiga bo'lgan qiziqish tobora ortmoqda. Ibrohim G'afurov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Abdug'afur Rasulov, Said Ahmad, Safo Matjon, Rahmon Qo'chqor, Miraziz A'zam, Mamasoli Jumaboev, Mahmud Sattor, Kavsar Turdieva, Tursunboy Adashboyev, Lola Sodiqova-Zvonaryova, Rahmatulla Barakaev, Hulkar Hamroeva kabi munaqqid va adiblarimiz bu ijodkorning asarlari to'g'risida bir-biridan ko'tarinki maqolalar yozishdi. Izlanuvchi olim Zamira Ibrohimovanning «Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar» nomli kitobida (A. Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2005) adibning nazm va nasrdagi asarlarining nihoyatda o'ziga xosligi, o'quvchini o'ziga mahliyo eta olish sirlari keng talqin qilib berilgan.

Anvar Obidjon ijodi yuzasidan fikr bildiruvchilarning barchasi doimo bir narsaga, ya'ni uning bolalar adabiyotiga yangicha bir yo'nalish olib

kirganiga alohida urg'u berib o'tishadi. Kichkintoylar Shoiri Tursunboy Adashboyev bu holni soddagina ta'riflab: «80-yillarga kelib Anvar Obidjon bolalar she'riyatidagi ob-havoni bir yo'la yangiladi», deb yozgan edi.

Haqiqatan ham, bolalar adabiyotida o'tgan asrning 80-yillarigacha chop etilgan kitoblardagi she'rlarga nazar tashlasak, ularning aksariyat qismi o'sha mahaldagi tuzumni ulug'lashga, turmushimizning o'ta farovon, kelajagimizning behad yorqin ekanligiga o'quvchini ishontrishga qaratilgan «yalang'och mafkura»li she'rlar, bog', maktab, oromgohlardagi g'amxo'rliklarni, yosh avlodning dunyoda eng baxtiyorligini aks ettiruvchi quruq ma'lumotlardan nariga o'tolmaydigan asarlardan iborat edi. Ko'r-ko'rona pand-nasihatlar, xalq ertaklari va latifalari asosida yengil-elpi hazillar to'qish ham avj olgan edi. Bunday asarlarning vazifasi bir xil bo'lib, ular bolalarning ongiga ta'sir o'tkazishga xizmat qilar edi. Shundaysharoit mavjud bo'lgan, bolalarni «Imperiya mafkurasi» chizib bergan chiziqdan chiqarmay tarbiyalash qonunga aylanib qolgan muhitda boshqacha yo'lda ijod qilish mumkin emasdek tuyular edi. Anvar Obidjon shu chiziqdan yorib o'tishni uddalashga urina boshladi.

Anvar Obidjonga xos kashfiyotning siri shundaki, Shoir bolalarning ongidan ko'ra ko'proq ko'ngliga ta'sir o'tkazish yo'lidan bordi. Binobarin, ko'ngilga qattiq o'rnashmagan narsa ongda uzoq vaqt saqlanishi, saqlanganda ham faol harakatga sabab bo'lishi qiyin.

Tahlil qilib ko'rish uchun «Bahromning hikoyalari» kitobidagi «Bezori» degan she'rni olaylik:

Qarg'a kirdi	— Menga qara,
Kinoga,	Vey, Laylak,
O'xshab	Eganmisan
Buratinoga.	Hech kaltak?
Hamma joylar	Qani,
Edi band,	Tur-chi o'rningdan.
Borib dedi	He, o'rgildim
Nopisand:	Burningdan!

«Eski maktab»da suyagi qotgan Shoir bezorilikni qoralamoqchi bo'lsa, kuchim ko'p deb boshqalarga ozor yetkazaverma, hammaga xunuk ko'rinib, oxiri nazardan qolasan, sen bilan hech kim o'rtoq bo'lmay qo'yadi, deganga o'xshash mazmunda she'r bitishi tabiiy hol edi. Bu bilan u o'quvchining ongiga ta'sir qilmoqchi bo'ladi. «Bezori»da esa, Anvar

Obidjon she'rxonning ko'ngliga yo'l izladi va o'quvchiga quvnoq kayfiyat bag'ishlovchi qiziq holat, kulgili obraz yaratish orqali bunga muvaffaq bo'la oldi. Dilozor bezorining ko'pchilik uncha xushlamaydigan, isqirt joylarda ivirsib yuruvchi qarg'a qiyofasida berilganining o'zi jajji kitobxonning ko'nglida unga nisbatan ijirg'anish hissini uyg'otadi va bolaning g'ashiga tegishi mumkin bo'lgan quruq nasihatlarini aytishga hojat qolmaydi.

«Bahromning hikoyalari»dagi «Parvarda» degan boshqa bir she'rda esa yosh Bo'richa onasi quyon go'shtini, otasi kiyik go'shtini uning tug'ilgan kuniga sovg'a qilishmoqchi bo'lsa-da, bunga ko'nmay, hali o'zi totib ko'rmagan, juda shirinligini birovlardan eshitib bilgan parvarda olib berishlarini talab qilishga tushadi. Ota-onasi kuyunib, parvarda faqat shaharda sotilishini, u yoqqa borish xatarli ekanini tushuntirishga urinishadi. Ammo, Bo'richa bu gaplarga quloq solmay, jonini xatarga qo'yib bo'lsa ham, parvardani yeb ko'rish ishtiyoqida yonganicha shaharga qochib ketadi. Shaharga borganidayoq uni tutib olishib, ajoyibxonadagi qafasga tiqib qo'yishadi, hammaga tomosha bo'lib, endi parvardani o'ylamay, o'zi tug'ilgan adirni sog'ina-sog'ina kun ko'ra boshlaydi. Oradan bir necha yil o'tgach, taqdirga ko'nikib, yuvoshgina bo'lib qolgan Bo'richaga aynan u tug'ilgan kunda bir qizcha parvarda tashlab o'tadi. Endi unga parvarda kerakmikan, degan savol tug'iladi o'quvchida.

O'sha davrda bolalar adabiyotida hukm surib turgan muhitni hisobga olganda, bu singari she'rlarni yozish o'ziga xos bir o'jarlik, hatto shakkoklik sanalardi. Chunki u davrlarda qishloqlardagiga qaraganda shaharlardagi hayot darajasi bir necha o'n baravar yuqori bo'lib, u yerdagi maoshi ko'p zavod-fabrikalarga boshqa respublikalardan kelgan ishchilarni joylashtirishar, mahalliy aholini qishloqda ushlab turish uchun ko'pchiligiga hatto pasport ham berilmas, ulardan birovi shaharga borib kelsa, falon g'aroyibotlarni ko'rdim, deb u yoqdagi turmushning shirinligini maqtashga tushar, barchaning havasi kelar edi. Shoir «Parvarda» she'rida, bir tomondan, qishloqdan narini bilmay kun kechirayotganlarga achinsa, ikkinchi tomondan, shaharning o'ziga xos hayot tarzini yaxshi bilmay turib borganlarning hammasiga ham «shirin» luqma nasib etavermasligini sha'ma qiladi. Bu she'r real hayot haqida edi, faqat bolalarni emas, katta yoshdagilarni ham o'ylantirib qo'yadigan kuchga ega edi. Zamonaga esa, saviyasi qay darajada yuqori bo'lmasin, bunga o'xshagan she'rlar kerak emasdi, bolalarimizning ko'nglini cho'ktiradigan, pessimistik (tushkunlik) ruhdagi narsalar bizga yot, biz

turmushimizdagi qahramonliklarni, kishilarimizdagi yaxshi xislatlarni targ'ib etishimiz zarur, degan g'oya hukmron edi.

Sharoit Shundayekaniga qaramasdan, Anvar Obidjon bari bir o'z uslubiga sodiq qolib, o'zi tanlagan yo'lda turib, tinimsiz ijod qilaverdi. Hali qishloqda yashab turgan vaqtlarida, asosan, o'tgan asrning 70-yillari o'rtalaridan boshlab yaratgan turkum- turkum she'rlari avvaliga matbuotda bitta-ikkita bo'lib ko'rinib turdi. Shoir 80-yillar boshida Toshkentga ko'chib kelgach, she'rlariga endi matbuotdan kengroq o'rin berib borildi, bolalar adabiyotini nazorat qilib turuvchi ko'zlar ham uning uslubiga asta-asta ko'nika borib, yangidan yangi kitoblari nashr etildi.

Shoir poytaxtga kelib ish boshlaganida yoshi o'ttiz beshdan o'tib qolgani bois, tanilishga kechikkanga o'xshab tuyulardi. Lekin oradan ikki-uch yil o'tmayoq keng adabiy jamoatchilikning e'tiborini tortdi, tez nom qozondi. Uning «Siz eshitmagan qo'shiqlar», «Dalalardan bolalarga», «G'alati maktublar», «Botirvoyning kundaligi», «Kulchalar» kabi turkumlarga jamlangan hamda turli buyumlar, jonzotlar, o'simliklar olamini yosh kitobxonga sirdosh etib, ularda tabiatga mehr uyg'otuvchi, ohang va uslub jihatdan juda o'ziga xos, ham kulgi, ham falsafaga boy she'rlari o'zbek bolalar she'riyatida yangi bir oqimni shakllantira bordi. «Bulbulning cho'pchaklari» turkumi esa, garchi muallif ularni shaklan g'azal holati deb baholagan bo'lsa-da, bolalar adabiyotiga g'azal janrini olib kirdi.

Professor Abdug'afur Rasulov «Ijodiy o'zlik sari yon» maqolasida («SHarq yulduzi», 2-son, 2008) Shundaydeydi: «Anvar Obidjon bolalar uchun nimaiki yozmasin, go'zallikni, kuyni, shakl va mundarija mutanosibligini nazarda tutadi. Bulbul qo'shiqlari turkumida hamma narsa go'zal, mukammal. Ohangga mos so'zlarni tanlaydi, qahramonlarning fazilatlarini topib-topib, o'rniga qo'yib-qo'yib tasvirlaydi:

Musichalar yuvosh-u
CHumolilar tirishqoq,
Suvaraklar bebosh-u
Kuchukchalar urishqoq.
Xo'tiklar zo'r yallachi,
Qo'y, Sigirlar dalachi,
SHo'x Qo'chqorlar kallachi,
Takalar ham suzishqoq.

Shoir «Juda qiziq voqea» kitobidagi izohda, qat'iy bir ohangga rioya qilaman deb, so'zlarning bolalar uchun oson tushuniladigan tizimda ravon bo'lishiga putur yetkazmaslik maqsadida aruz qoidalariga ataylab to'liq

rioya qilmaganini ta'kidlasa-da, «g'azal shaklidagi» she'rlar baribir tekis va jarangdor chiqqan. Shoir bu bilan o'z zamonasi bolalarining aruzdan butunlay begonalashib ketmasligini ta'minlashdagi oliyjanob istagiga erishgan.

Anvar Obidjonning she'riy turkumlari haqida so'zlaganda bir narsani qayd etib o'tish lozim bo'ladi. Ba'zi qalamkashlar turli yillarda bitilgan she'rlarining mazmuni yaqinroqlarini jamlab, keyinchalik turkumga aylantirishadi. Anvar Obidjon esa, avval o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan turkumni kashf etib, keyin shu yo'nalishda she'rlar yaratgan. Buni qaysi bir turkumga razm solmang, undagi she'rlarning shakli, hajmi, vazni deyarli bir xil ekanligidan sezish mumkin.

«Siz eshitmagan qo'shiqlar» turkumi ko'pchilik o'quvchilar uchun eng sevimlisi bo'lsa, ajab emas. Bolalar adabiyotining keyingi avlodi vakillaridan bir qanchasi shu turkumga taqlid qilib talay she'rlar yozgani bundan dalolatdir.

«Siz eshitmagan qo'shiqlar»da har bir jonivor, har bir buyum barchamizga tanish bo'lgan o'z ovozida kuylab, biz hali eshitmagan gaplarini aytishadi. Masalan, «Hakka qo'shig'i»ni tinglaylik:

Qornim ochsa bo'g'ilmayman,

Shaq-shaq-shaq.

U-bu narsa o'g'irayman,

Shaq-shaq-shaq.

Nafsimni hech tiyolmayman,

Shaq-shaq-shaq.

Qo'lga tushsam, uyalmayman,

Shaq-shaq-shaq.

Hakka uchragan narsani olib qochib, iniga to'plab yuradigan o'g'ri qush ekanini yaxshi bilgan bolalar bu quvnoq she'rdagi so'zlarni rostdan ham Hakka aytayotganiga aslo shubha qilishmaydi. «Qo'lga tushsam, uyalmayman» jumlasida esa, Hakka fe'lli yulg'ich odamlar shu darajada surbetki, ular hatto qo'lga tushgan taqdirda ham boshqalardan uyalish tuyg'usidan begonadir, degan xulosaga olib keladi.

Hali maktab o'quvchisi bo'lgan Anvar Obidjonning dastlabki she'rlari «G'uncha» jurnalida bosilishiga sabab bo'lgan Shoir Miraziz A'zam «Bolakaylarning minnatsiz xizmatkori» maqolasida («Hurriyat», 2007-yil, 4-iyul) dunyo bolalar adabiyoti namoyandalardan yuzga yaqinining asarlarini o'zbekchaga o'g'irgani, ularni Anvar Obidjon ijodi bilan chog'ishtirib, Shundayxulosaga kelganini aytadi: «Qani, o'ylab ko'raylik, Anvar o'sha Shoir yoki yozuvchilarning qaysi biridan kam? Rus klassik

bolalar Shoirlari Korney Chukovskiy va Samuil Marshak, italiyalik Karlo Kollodi va Janni Rodari, amerikalik Doktor Siyuz va Jon Chiardi, nemis bolalar adiblari Erix Kestner va Jeyms Kryustlardan Anvarning kamlik joyi bormi? Yo'q, albatta.

Nemis Shoiri Bertold Brext «Molingizni ko'rsating» deydi. Biz jahonga Anvarning «mollari»ni, ya'ni ijod namunalarini ko'rsata olmadik. Yo'qsa, uning nomi ham jahon bo'ylab jaranglagan bo'lardi».

Anvar Obidjonning ijodi bilan batafsilroq, chuqurroq tanishgan kishi yuqorida aytilgan so'zlarda hech qanday mubolag'a yo'qligini tan olmasligining iloji yo'q. «Kulchalar» turkumidagi «Obbo, kalamush-ey!» degan she'rni o'qib ko'raylik:

Kalamushvoy,	Yoz desalar
Kalamush,	«Temir» deb,
Savoding sal	Sen yozibsan
CHalamish.	«Kemir!» deb.

Yoki «G'alati maktublar» turkumidagi «Osmachiroqning Oymomoga yozgan xati»ga nazar tashlaylik:

To'lishibsiz, Oymomo,	Men ham yordam qilarman
Kirib olib darmonga.	Nochor qolgan chog'ingiz.
SHisham sindi...	Omøn bo'ling,
Buguncha —	Baxtinga
Chiqib turing osmonga.	Tugamasin yog'ingiz.

Ketmon traktorni o'ziga qiyoslagandek, kerosinda yoqiladigan osmachiroq ham oymomoni o'ziga taqqoslab, yog'i bevaqt tugab qolmay, doimo charaqlab turaverishini tilaydi. Bularga o'xshash she'rlarni yozish uchun nechog'li yuksak iste'dod kerakligini, bunday pishiq, tagdor, mag'zi to'q, aksariyati sof milliy tuyg'ularga yo'g'rilgan she'rlar boshqa tillarga tarjima qilinsa, qanday baho olishligi, bu hol millatimizga qanchalar g'urur bag'ishlashi mumkinligini sharhlab o'tirish ortiqcha.

Anvar Obidjonning she'riy dostonlari ham talaygina. «Odil Burgutshoh va «Zamburug'» laqabli josus haqida ertak»da agar yurt ichidagi odamlar ahil bo'lib, hushyor bo'lib yashamasa, tashqi g'animlar har qanday qudratli va obod o'lkani ham hiyla-nayranglar bilan kuchsizlantirishi, vayron qilishi mumkinligi to'g'risida so'z boradi. «O'g'irlangan pahlavon haqida ertak» esa bir qarashda, asosan, bosqinchilikni qoralagandek tuyulsa-da, bunda eng asosiysi millatning tili masalasidir. Dostonda go'dakligida boshqa yurtga o'g'irlab ketilgan bola tengsiz pahlavon bo'lib ulg'aygach, bosqinchilarga qo'shilib o'z xalqiga

qarshi jang qilgani, hatto o'z onasi bilan olishib, onaning tilini tushunmagani bois, halok bo'lishiga sal qolgani hikoya qilinadi.

Necha yillar yig'lab-yig'lab, sog'inib yurgan farzandini bilmay o'ldirib qo'yishdek fqiadan bolaning yelkasidagi tanish tamg'a tufayligina saqlanib qolgan ona falakka Shundayiltijo qiladi:

— Hech bandani,
Ey, Tangrim,
Judo qilma elidan.
Farzandlarni onadan
Hamda ona tilidan!

Bu doston 1986-yilda chiqqan «Masxaraboz bola» nomli kitobda, o'zbek tili davlat tili bo'lmagani uchun rasmiy doiralarda nufuzini tamoman yo'qotib, turli tahqirlashlarga uchrab turgan bir zamonda e'lon qilinganini nazarda tutsak, bu chinakam jasorat edi. Bunday asarlar rasmiy doiradagilarning qattiq jig'iga tegishi tabiiy hol edi. Anvar Obidjon asarlari o'quvchilar orasida mashhur bo'lishiga qaramay, muallif Mustaqillikdan ilgari unvon, nishon u yoqda tursin, hatto biron-bir oddiy adabiy mukofot bilan ham taqdirlanmaganining boisi balki shundadir.

Anvar Obidjon ijodi haqida yozgan munaqqidlarning bir qanchasi uning o'ta kurashuvchanligi, qaramlikdan qutulishga, erkinlikka intilishga da'vat mavzusini bolalar adabiyotiga dangal olib kirganini alohida ta'kidlab kelishadi. Garchi Anvar Obidjonning o'zi, istibdodga nafrat mavzusini «O'ychan ko'zlar egasi», «Bizda» singari she'rlari bilan Miraziz A'zam 60-yillardayoq bolalar adabiyotiga olib kirgan, deya yuqoridagi fikrlarini inkor etishga urinsa-da, bu masalaga xolislik va adolat bilan yondashib aytish joizki, munaqqidlar baribir haq. Qaramlik bois millatimiz boshiga tushgan ko'rgiliklarni bolalar adiblaridan ba'zilari ilgari ham onda-sonda sha'ma qilib o'tishgan, Anvar Obidjon esa bu mavzuga keng ko'lamda yondashdi, talay she'rlarida, dos-tonlarida, hikoyalarida, ayniqsa, «Alamazon va uning piyodalari», «Dahshatli Meshpolvon» qissalarida, «Qo'ng'iroqli yolg'onchi» pesasida bosqinchilikni o'z nomi bilan atab, o'z millati bolalarini kishanlardan xalos bo'lishga tinmay da'vat etadi, muntazam ravishda kurashadi.

Anvar Obidjon nihoyatda serqirra ijodkor: nazmda, nasrda, dramaturgiyada birdek ijod qiladi. Publisistika va adabiyotshunoslikda ham o'z o'rniga ega. Kattalar uchun ham turli janrlarda asarlar yaratgan. Ayniqsa, Gulmat SHoshiy tilidan yozgan g'azallari, oddiy kishilarning tiliga yaqinligi bilan ajralib turuvchi o'ta quvnoq va tagdor hajviyalari, «Oltiariq hangomalari» turkumi tilga tushgan. Munaqqidlarimiz

hajvchilikda uni Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad an'analarining davomchisi sifatida baholashadi. SHundan kelib chiqib aytilsa, munaqqidlar Anvar Obidjon ijodi haqida talay maqolalar yozganiga qaramay, uning asarlari har bir janr bo'yicha yanada chuqur tadqiqotlarini kutmoqda.

Bolalarning sevimli yozuvchisi, asarlari jahondagi o'nlab xalqlar tiliga tarjima qilingan dovuqli adib Xudoyberdi To'xtaboyevning so'zlari Anvar Obidjon har tomonlama keng o'rganilishga arziydigan ijodkor ekanini tasdiqlaydi. «Polosonlik Anvar Obidjon» nomli maqolada («Xalq so'zi», 2006-yil 20-may) X. To'xtaboyev Shundayyozadi: «Mark Tven, aka-uka Grimmmlar, SHarl Perro, Janni Rodari singari jahonshumul yozuvchilarni o'qiganda... ularning o'ziga xosligi, adabiyotga hech kim aytolmagan gaplarini aytib kirib kelganligini o'ylab, «Yo, Xudo, bizga ham ana Shundayyozuvchilardan bersang edi», deb ich-ichimdan orzu qilgan paytlarim ham ko'p bo'lgan. Ana Shundayijodkorni Alloh bizga polosonlik Anvar Obidjon qiyofasida berganga o'xshaydi».

Yetuk ustozlarning mehrini qozongan Anvar Obidjon yurtimiz mustaqillikka erishgach, nihoyat o'zining munosib bahosini oldi. U 1987-yilda hukumatimiz tomonidan «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi, 1988-yilda O'zbekiston xalq Shoiri unvoniga sazovor bo'ldi.

Anvar Obidjonning bolalarga atalgan «Qo'ng'iroqli yolg'onchi» nomli birinchi pesasi 1983-yilda Respublika yosh tomoshabinlar teatrida sahnalashtirilgan. Keyinchalik mazkur teatrdan va Farg'ona, Guliston, Qarshi, Qo'qon teatrlarida uning «Pahlavonning o'g'irlanishi», «Topsang, hay-hay», «To'tiqul», «Samozvanes», «Qorinbotir», «Alamazon», «Navro'z va Boychechak» kabi pesalari namoyish etildi. «O'zbekfilm» kinostudiyasida uning ssenariylari asosida «Tilsimoy — g'aroyib qizaloq», «Dahshatli Meshpolvon» kinolari suratga olingan.

Abdusaid Ko'chimov
(1951-yilda tug'ilgan)

Ilk mashqlarini maktabda — o'quvchilik partasida xabar va maqolalar yozishdan boshlagan Abdusaid Ko'chimovni maktabdoshlari «muxbir bola» deb atar edilar. Chunki uning lavha va xabarlar tez-tez gazetalarda chiqib turardi. U a'lo o'qish, jamoat ishlarida faol qatnashish bilan birga, adabiyotni jon-dildan sevar, «O'zbek xalq ertaklari», «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Tohir va Zuhra», «Uchar gilam», «Gulliverning sayohatlari», «Temur va uning komandasi», «SHum bola» singari

kitoblarni qo'ldan qo'ymay o'qirdi. Adabiyotga bo'lgan muhabbat uni, o'rta maktabni 1967-yili tamomlaganidan keyin, Toshkentdagi Nizomiy nomidagi pedagogika institutiga yetaklab keldi. U 1968—1972-yillarda mazkur institutning (hozirgi universitet) o'zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil oldi.

Institutda o'zbek va jahon adabiyoti durdonalari bilan yanada chuqurroq tanishdi. Ulkan adiblar ijodi unga mahorat maktabi vazifasini o'tadi. Bu yozuvchilardan haqqoniy qiyofa yaratish, jonli xarakter chizish, qiziqarli badiiy usullar bilan bolalarni katta hayot ichiga olib kirish yo'llarini o'rgandi. So'zning sehrli kuchini his qildi. Ehtimol, ushbu hodisalar bo'lajak Shoir va adibning tuyg'ulariga yanayam kuchliroq g'ulg'ula solgandir.

Abdusaid Ko'chimovning mehnat faoliyati 1972-yilda «O'qituvchi» nashriyotida musahhihlikdan boshlandi. Ushbu nashriyotda olti oy ishlaganidan keyin, bolalarning respublika gazetasi «Tong yulduzi»ga adabiy xodim bo'lib ishga o'tdi va 1984-yilgacha ana shu gazetada bo'lim mudiri, mas'ul kotib vazifalarida mehnat qildi. Gazetachilik ishi Abdusaid Ko'chimov qalamini charxlab, adabiy ishga yo'llabgina qolmadi, balki keng hayot ichiga olib kirdi, bolalar dunyosi, ruhiy olami bilan do'stlashtirdi. Hayotiy kuzatishlar yangi mavzu, yangi material berdi. Bu yillar ijodkorning tarjimai holida hayotni o'rganish, anglash, tushunish va adabiyot sirlarini egallash davri bo'lib qoldi, deyish mumkin. Gazetachilik ishi yuzasidan tez-tez safarlarga chiqqan qalamkash respublika shahar va qishloqlarini kezdi, yirik qurilishlarda, maktablarda bo'ldi. O'zining bo'lajak qahramonlari bilan yaqindan tanishdi. Shu tariqa uning asarlarida odobli, a'lochi, mehnatkash, tirishqoq va ayni paytda, o'jar va sho'x bolalarning xilma-xil qiyofalari paydo bo'ldi. Ana Shundayasarlardan biri «Mening O'zbekistonim» dostonidir. Doston bolalar adabiyotidagi tipik usullardan biri — sayohat janrida yozilgan. Dostonda mamlakatda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar Bobo bilan Nabiraning xayolan qilgan sayohati vositasida juda qiziqarli hikoya qilinadi. Bu doston 1979-yilda alohida kitob — albom shaklida nashr etildi.

Tinimsiz izlanishlar, hayotdan va ustozlar ijodidan o'qib o'rganishlar Abdusaidga ijodda o'z ovozi, o'z yo'lini topib olishga imkon yaratdi. Shoirning uchinchi kitobi — «Toshburgut» (1981-yil) Abdusaid Ko'chimovning Ma'lum kamolotga yetganiga dalolatnoma bo'ldi, deyish mumkin.

«Toshburgut» to'plami bilan tanishar ekansiz, Shoirning har doim bugungi kichik kitobxonning nafis didiga mos she'rlar yozishga

intilayotganiga guvoh bo'lasiz. SHu bois uning kichkintoylar bilan muloqoti samimiy dildan kechadi.

«Maqtanchoqlar», «Mish-mishvoy», «Inoqlar», «Yolg'on-chi-sayohatchi», «Jazo», «Suflyor» she'rlarida yuksak yumor bilan birga bolalarda uchraydigan sodda mug'ambirlik, maqtanchoqlik, o'yinqaroqlik ajoyib mahorat bilan tasvirlanadi. «Suflyor» asari ana shu jihatdan e'tiborli.

She'r bir sinfdagi oddiy va hayotiy voqea zaminiga qurilgan. Bayram arafasida bolalar sinfdagi pesa qo'ymoqchi bo'ladilar. Rollar taqsimlanadi. Birov ot, birov chol, yana birov quyon. Barcha rollar taqsimlab bo'lingach, o'qituvchi:

Sahnada o'z so'zidan
Adashgudek bo'lsa kim,
Unga parda ortidan
Xolis yordam beruvchi,
Bilmay qolgan so'zini
Sekin aytib turuvchi,

Suflyor kerak, — deb qoladi. Muallimning gapini eshitgan bolalar yoppasiga Hakim degan bolaga qaraydilar.

Negaki, oldingi partada o'tiradigan Hakimjon doskaga chiqib adashib qolganlarga doimo beminnat yordam ko'rsatar, pichirlab adashganlarga aytib turar edi...

Bu she'rdagi hajviy yumoristik xislat xuddi malham singari shifobaxsh kuchga ega bo'lib, «Mish-mishvoy»da yana ham bo'rtibroq namoyon bo'ladi. Shoir bu asarida har xil yolg'on mish-mishlarga ishonish xunuk oqibatlariga olib kelishi muqarrarligini sodda misralarda, aniq misollar vositasida ishonchli va ta'sirli ifodalaydi.

Mish-mishvoy o'zi
Tug'ilar qayda?
Hurmat va ishonch
Yo'qolgan joyda.

Ko'zga ko'rinmas Mish-mishvoyning g'iybatlariga laqqa tushib, birlari bilan yoqalashishgacha borgan bitta sinfdagi bolalar oxiri ana Shundayxulosaga kelishadi. Ishonch, sadoqat bilan yashash hayotning asosiy mazmuni bo'lmog'i zarurligi bu she'rda badiiy ifodalanadi.

Kitobxonni ham kuldirish, ham o'ylatish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun iste'doddan tashqari tabiiy mahorat ham bo'lishi lozim. Abdusaid Ko'chimov she'rlarida quvnoq yumor, nafis misralar ko'p. Shoirning qahramonlari hazil-mutoyibani sevuvchi, sho'x bolalardir. Mana ulardan biri:

«Qag'» etmasam qish kelmaydi,— deydi qarg'a,
Qichqirmasam, tong otmaydi, — deydi xo'roz.
Men bo'lmasam, doim futbol komandamiz,
Yig'lab-yig'lab yutqizadi, — deydi O'roz.
(«Maqtanchoqlar»)

Yoki:

Maktabda hamma meni	Bu ishlarda hamma vaqt
Qo'rqmas, bahodir deydi.	Suyanaman kuchimga.
Katta-kichik har kuni	Lekin ularni faqat...
Faqat g'amimni yeydi.	Bajaraman ichimda.
	(«Jasur bola»)

Kichkintoylarning o'ziga xos ma'naviy olamini tiniq aks ettiruvchi bunday misralardagi quvnoq kayfiyat darrov boshqalarga ham yuqadi. Bunday she'rlarni o'qigan bolada o'zidagi va boshqa tengdoshlaridagi yaxshi-yomon xislatlarga munosabat uyg'onadi, kamchiliklarga qarshi nafrat, yutuqlarga nisbatan muhabbat paydo bo'ladi. Shoirning «Men g'iybatchi emasman» asari bu fikrimizga yorqin misol bo'ladi. She'rda g'iybatchilik — illat ekani, aslida bu illatga qarshi bo'lgan bola tilidan g'oyat ishonchli va ta'sirli tarzda bayon qilinadi:

Men g'iybatchi emasman,

G'iybatga yo'q toqatim.

Jahlim chiqib ketadi,

Viji-viji qilsa kim, — degan bola «g'idi-bidichi»

bolalarni fosh qilaman deb o'zi ham ularning qatoriga qo'shilib ketganini sezmay qoladi va o'zi ham zo'r g'iybatchi ekanini oshkor qilib qo'yadi.

Abdusaid Ko'chimovning ijodi bilan tanishar ekansiz, uning asarlarida bola xarakterining shakllanishida oila, jamoa va do'st-birodarlarning roli muhim ekanini ko'rsatish alohida o'rin egallashini ko'rasiz. Aksariyat asarlarida bolalarning ijtimoiy hayotda o'ynaydigan roli batafsil tilga olinadi, tahlil va tasvir etiladi. «Biz o'n yetti o'rtoqimiz», «Uch do'st, Ali bobo va anzur piyoz haqida ballada», «Er — boyliklar onasi» kabi she'rlari xuddi Shundayxususiyatga egadir. Ularda baxtning kaliti mehnat ekanligi shunchaki bayon qilinmaydi, balki mehnatsiz, qiyinchiliklarni yengib o'tmasdan hech narsaga erishib bo'lmasligi bolalarbop badiiy bo'yoqlarda mahorat bilan tasvirlanadi. Dangasalik va ayyorlik bilan do'stlik qadrini yerga urish, mulohazasizlik, maqsadsizlik va maslaksizlik oxir-oqibat xunuk oqibatlariga olib borishi qoralanadi. Shoirning «Chanoq» dostonini o'qigan kishi bunga yana bir karra ishonch hosil qiladi.

Dostonda bitta brigada bo'lib mehnat qilayotgan paxtakor bolalar faoliyati qalamga olingan. Doston qahramonlari — Qo'chqor, Alisher, Oysuluv, Dildora va boshqalar ota-bobolari kasbi — paxtachilik sirlari, mashaqqatlari dardi bilan yashaydilar. Asarda kitobxon e'tibori mehnat kishini bolalikdan chiniqtirishi, dadillikka undashi, har turli yot qusurlardan xalos etishi, ayni vaqtda bolani hayotiy muammolar, paxtachilikning mashaqqatlari, go'zal tabiatni asrab-avaylash kerakligiga qaratiladi.

She'riy ertak bolalar adabiyotining eng ommaviy janridir. Yaxshi ertak yoki afsona jajji yuraklarga tez ta'sir ko'rsatadi. Ularning qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat tuyg'ularini uyg'otadi.

Abdusaid Ko'chimovning «Yosuman», «Toshiburgut», «Vulqonlar» kabi ertaklari adolat, do'stlik kabi insoniy tuyg'ular talqiniga ayricha yondashilgani bilan xotirada muhrlanadi, o'quvchi qalbini junbushga keltiradi. Binobarin, yosh avlodni chin odamiylik ruhida tarbiyalash, jamiyatga munosib kishilar qilib kamol toptirishdek muqaddas mavzuda asar yaratish har qaysi qalamkashning birinchi vazifasidir.

Shoir o'zining «Chaman» dostonida mazkur vazifani yana bir karra go'zal bir shaklda ado etgan. Tarixiy mavzudagi mazkur yirik asar yosh kitobxon qalbida vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, dushmanlarga qahr-u g'azab uyg'otishi bilan yuksak hayotiy va badiiy ahamiyatga molikdir.

Ijodkorning faoliyatida bolalar uchun yozilgan qissalar va hikoyalar, ayniqsa, muhim o'rin egallaydi. Uning «Mening yulduzim», «Halqa», «Baland tog'lar» kabi kitoblaridan o'rin olgan asarlari yuksak badiiy salohiyati bilan yoshlar nasrini bezab turadi. Bu asarlarni inson xarakterini yaratishdagi betakror mahorati bilan ham o'zbek nasrining eng sara namunalari, deb bimalol aytish mumkin. Shundayxususiyatlari uchun ham adibning bir qator hikoya va qissalari, she'rlari jahondagi ko'pgina xalqlar tiliga tarjima qilindi. Xitoyda uning ikki kitobi «Halqa» (1993-yil) va «Hayot hukmi» (2000-yil) nomlari bilan nashr etildi. «Boychechak» hikoyasi, «Baland tog'lar ostida» qissasi asosida ko'p seriyali badiiy filmlar yaratildi. 1987-yilda chop etilgan «Halqa» kitobi G'afur G'ulom nomidagi mukofotga sazovor bo'ldi. Tabiat mavzusida yozgan asarlari uchun esa 1984-yil YuNESKO mukofoti bilan taqdirlandi.

Adibning barcha nasriy asarlariga xos bo'lgan yana bir fazilat bor. Bu kattalar va kichiklar, otalar va bolalar o'rtasida azaliy munosabatlarning nozik qirralarini o'ta sezgirlik bilan idrok etish va badiiy qiyofasini topa bilishdir. Muallif o'z asarlarida hamisha hayotiylikka, tabiiylikka intiladi. Hech qachon voqealarni to'qib chiqarmaydi, to'qimalik ham hamisha o'ta

tabiiy tasviri bilan asar qahramonlari qoniga singdirib yuboriladi. Misol uchun «O'g'il» hikoyasini eslaylik. Hikoya qahramoni Avaz ismli oddiy qishloq bolasi. Uning otasi bir zamonlar o'zbek xalqi boshiga mislsiz kulfatlar keltirgan mash'um «Paxta ishi» bo'yicha olib borilgan tekshiruvda nohaq qamalgan. Bola hayot murakkabliklarini tushunishga hozircha qodir emas. SHu boisdan u otasi «ikki tonna paxtani qo'shib yozgani uchun», degan kattalarning aldoviga ishonadi. Otasining «kamomadi»ni qoplash va ozodlikka chiqib olishiga yordam berishga astoydil bel bog'laydi. Ertadan kechgacha, hatto kun-u tun, yomg'ir tinmagan ezgin damlarda ham paxta teradi. Lekin tergani ikki tonnaga yetganda haqiqatni biladi. Nishonboy tabelchiyam, Suvon traktorchiyam aldamchi eka-nini anglaydi. Beg'ubor bolaning ruhiy dunyosi ostin-ustun bo'lib ketadi. «Yolg'onchi! — dedi kutilmagan nohaqlikdan yurak-bag'ri o'rtanib ketgan Avaz,— Hammangiz aldamchisizlar, aldamchi! Aytaman, hammangizni otamga aytaman! Ota, otajon! — Bola keskin burildi-yu, izillab yig'lagancha yomg'ir sim-sim yog'a-yotgan kimsasiz dala bo'ylab yugurib ketdi...» Hikoya ana Shundaydilo'rtar satrlar bilan yakunlanadi. Bolaga hech qachon yolg'on so'z aytmalik kerakligi, uning murg'ak qalbiga yolg'on sig'masligi va har qanday yolg'on uning ruhiyatiga putur yetkazishi hikoyada o'z ifodasini topgan.

«Boychechak» hikoyasida esa ana shu g'oya yanada chuqurroq talqin etiladi. Bu asarning sujeti ham oddiy va sodda: qishloqdagi an'anaga ko'ra har yili erta bahorda «Boychechak» qo'shig'i aytiladi, Boychechakni birinchi bo'lib topib kelganlar doimo boshqalar oldida ayrica ehtiromga ega bo'ladilar. Qo'zivoy ismli mittigina bola bu yil ana shu hurmatga sazovor bo'ladi. Tog'asi unga «Boychechak» keltirib beradi. Sevinib ketgan bolalar to'planishib, yarim tunga qadar uyma-uy «Boychechak» qo'shig'ini aytadilar. Odatga ko'ra, tushgan pul hammaga teng bo'linishi, boychechak egasiga esa ko'proq berilishi lozim edi. Ammo jo'raboshi — Murod chilim Qo'zivoyga hammadan kam pul beradi. Boshqa bolalar nohaqlikni sezgan esalar-da, avvaliga jim kuzatib turishadi. Biroq Qo'zivoy pulni otasi urushda halok bo'lgan, onasi ko'pdan buyon betob bo'lib to'shakda mixlanib yotgan do'stiga bermoqchi ekanini bilishgach, chidab turisha olmaydi. Nafaqat bolalar, hatto Murod chilimning o'zi ham qilmishidan pushaymon yeydi va boshqalardan berkitib, paytavasi orasiga yashirgan chaqalarni o'rtaga tashlaydi. Bolalar hamma pulni olib, onasi bemor bo'lgan Usmonlarnikiga qarab yo'l olishadi. Uyat va or-nomusdan ezilgan jo'raboshi hamrohlarining ko'ziga tik qarashga botinmay o'zini zim-ziyo tun qa'riga uradi.

Hikoya quyidagicha yakun topadi:

« — O'zidan ko'rsin, — dedi bolalardan biri.

Bahrilla pullarni shu holicha gazetaga o'radi. Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazishga oshiqayotgan elchilardek, g'uvullab Usmonlarnikiga jo'nashdi. Oldinda pildirab ketayotgan Qo'zivoyni shodligi ichiga sig'masdi. Uning xayolida qo'lidagi boychechak mash'al singari hammalarining yo'lini yoritayotgandek tuyular va shuning uchun ham qo'lini baland ko'tarib ketib borardi».

Ko'pchilik e'tibor bermaydigan shunchaki voqeadan g'oyat ulkan xulosalar chiqaruvchi bunday barkamol asarlar bolalar adabiyotida uncha ko'p emas. Bu hikoya yuksak badiiy mahorat mevasi bo'lgani uchun ham adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallaydi.

Adibning «Qochoq», «Halqa», «Ishqibozlar» kabi hikoyalari ham o'zbek bolalar adabiyotida yaratilgan eng sara asarlar qatoriga kiradi.

Abdusaid Ko'chimovning qissanavislikda erishgan muvaffaqiyatlari, ayniqsa, havas qilgulikdir. Ijodi kamolot bosqichiga ko'tarilib borgan sayin, mahorati ham yarqirab borgan yozuvchi hozirga qadar «Qayta tug'ilgan bola», «Baland tog'lar ostida», «Oq kaphtarlar oroli» kabi yirik asarlar yaratdi. Bu asarlar bolalarning kichkina dunyosi orqali ulkan hayotni ko'rsatishi, samimiyligi, har bir so'z, ovoz va rangga shakl va timsol bera oluvchi qudratga egaligi bilan dilni o'ziga rom etadi.

Bugungi kunga kelib yigirmadan ortiq kitob muallifi bo'lgan Abdusaid Ko'chimov nafaqat bolalar, ayni chog'da kattalar adabiyotining ham ko'zga ko'ringan ijodkorlaridan biriga aylandi. Uning «Ikki bahor», «Umid daraxtlari», «Qiyofa», «Yosuman», «Ko'zlarimning qarog'idasan», «Muhabbat bog'lari», «El suv ichgan daryolar» kabi kitoblarini barcha yoshdagi o'quvchilar sevib o'qishmoqda.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Shoirning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
2. Anvar Obidjon she'rlarida, asosan, qanday g'oya ilgari surilgan?
3. Dramaturg sifatida Anvar Obidjonning qaysi asarlarini bilasiz?
4. A. Ko'chimovning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
5. Shoir she'rlarida bolalar hayoti qanday aks ettirilgan?
6. A. Ko'chimovning adib sifatida bolalar adabiyotida tutgan o'rni qanday?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

#A.Obidjonning bolalar adabiyotiga g'azal janrini olib kirgan asari qaysi?

- + "Bulbulning cho'pchaklari"
- "G'alati maktublar"
- "Ketmagil"
- "Dalalardan bolalarga"

#A.Obidjon milliy hajvchilikda kimlarning yo'lidani borgan?

- + A.Qodiriy, A.Qahhor, G'.G'ulom, S.Ahmad
- Oybek, A.Qahhor, A.Qodiriy, G'.G'ulom
- A.Avloniy, Oybek, A.Qahhor, A.Qodiriy
- S.Ahmad, N.Dumbadze, Oybek, A.Qahhor

#A.Obidjonning sa'y harakatlari tufayli "O'zbekfilm" kinostudiyasida tasvirga olingan, bolalarga bag'ishlangan komediyasini toping

- + "Dahshatli Meshpolvon"
- "Masxaraboz bola"
- "Juda qiziq voqea"
- "Oltin yurakli avtobola"

#A.Obidjon yaratgan pyesa berilgan javobni toping:

- + "Topsang hay-hay"
- "Yerliklar"
- "Vatan"
- "Olmazorga hujum"

#A.Obidjon (3-sinf o'qish) "So'nggi axborot" she'rida qaysi meva va poliz ekinlarini tilga oladi? 1.uzum 2.olma. 3.lavlagi 4.gilos 5.qovoq 6.anor 7.bodring 8.anjir 9.pomidor 10.tarvuz 11.qovun 12.nok 13.sabzi 14.sholg'om

- + 1,2,4,6,8,10,11,12,13,14
- 1,2,3,4,5,6,7
- 1,3,5,7,9,13
- 2,4,6,8,10,12,14

A.Obidjon (4-sinf o'qish) "Bo'rining tabib bo'lgani haqida" ertagida quyoningning oshqozoni sal chatoq ekanligini qaysi kasallik deb aytadi?

- + tumov

- belangi
- pay cho‘zilishi
- tomoq og‘rig‘i

#A.Ko‘chimovning ilk kitobi to‘g‘ri berilgan javobni toping

- + “Kashfiyotchi bolalar”
- “Qiyofa”
- “Umid daraxtlari”
- “Ikki bahor”

#A.Ko‘chimovning “Baland tog‘lar” saylanma kitobiga qaysi janrdagi asarlari kiritilgan?

- + qissa,doston,she’r
- hikoya,she’r,qissa
- roman,qissa,hikoya
- she’r,ertak.hikoya

14 -MAVZU. HAMZA IMONBERDIYEV VA ABDURAHMON AKBAR IJODIY FAOLIYATI

REJA:

1. Istiqlol davri bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Bolalar prozasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
3. Hamza Imonberdiyev hayoti va ijodi
4. Shoir she'riyatida mavzular olami
5. Abdurahmon Akbar hayot yo'li
6. A. Akbar asaelari tahlili

Tayanch tushunchalar: ramz, she'riyat, nazm, qissa, she'riy-adabiy ertak, qofiya, badiiy san'atlar, tashbeh, talmeh, majoz, yumor, satira, realism, nafasat olami, mahorat maktabi, bolalar prozasi, g'oyaviy-badiiy tahlil.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti hayotni o'rganish-bilishning badiiy vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. U zamondoshlarimizning, jumladan, yosh avlodning ruhiy holatini teran tadqiq etishga, fikr doirasini kengaytirishga, his va tushunchalarining shakllanib, voqelikka to'g'ri munosabatda bo'lishga da'vat etadi. Bugungi adabiyot tom ma'noda hayot darsligiga aylanayotgani shu jihatdan e'tirofga sazovor.

Prezidentimiz mustaqillikning ilk yillaridayoq jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ma'nan va jismonan sog'lom avlod tarbiyalash masalasini kun tartibiga qo'ydi. "Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi,-deb ta'kidlagan edi, shu munosabat bilan yurtboshimiz I.A.Karimov,-aytish mumkinki, hayotining ma'nosi qobil farzandlar o'stirish, ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir"⁶

Chindan ham ilgari bolalar adabiyoti haqida gapirganda yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va jismoniy to'g'ri tarbiyalash maqsadida ular diqqatini ijtimoiy hayotning o'tkir muammolariga tortish-bolalarning nozik qalblariga ozor yetkazish, jarohatlash hisoblanardi. Bugunki kunda esa bolalar uchun ham ijtimoiy dolzarb mavzudagi asarlar ko'plab

⁶ I.A.Karimov. Sog'lom va barkamol avlod uchun. Istiqlol va ma'naviyat. T:O'zbekiston 1994. 126-bet.

yaratilmoqda. Shu bilan birga badiiy saviyasi pishiq asarlar yuzaga kelayotir. Hodisa bu davrda yangicha tafakkur in'ikosi sifatida ko'zga tashlandi. Milliy bolalar adabiyotining mazmun va mohiyatidagi tub burilish yaqqol ko'zga tashlandi. Zamonaviy bolalar adabiyotida yosh qahramonlar xarakteri tahlili masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bolalar adabiyoti shakl va mazmun jihatdan-da yangi tamoyillar kasb eta bordi. Adabiy tanqidchilikda bolalar adabiyotiga munosabat kuchaydi. Milliy bolalar matbuoti mavzu material, g'oyaviy-badiiy jihatdan o'sdi, bolalar ijodkorligi namunalari ko'proq ommalashtirildi va rag'batlantirib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e'tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining qiziqishlari, ruhiy, ma'naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali o'quvchilarda axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirishga ahamiyat berildi. Hozirgi adabiy jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq mavzu talqinlarning ustivorligi (S. Barnoev, E. Malikov, T. Malik asarlarida), kichkintoylar va bolalar fe'l-atvoridagi xarakter xususiyatlarning hajviy-yumoristik, fantastik, sarguzasht ifodasi (X. To'xtaboev, A. Obidjon ijodi) bolalar va o'smirlarning murakkab ruhiyat manzaralarining teran aksi (N. Fozilov, M. A'zam), keng dunyo, tabiat va jamiyat muammolarinima'naviy-falsafiy aks ettirgan asarlar (M. A'zam, A. Obidjon, T. Adashboev) tahlili dolzarb vazifa. Bunda asrimiz boshlaridayoq bolalar asarlarining g'oyaviy-badiiy, axloqiy-ma'rifiy, falsafiy va psixologik jihatdan monografik tahlili, salmoqli tadqiqotlar, risola hamda adabiy-tanqidiy maqolalarning vujudga kela boshlagani muhim hodisa bo'ldi. Adabiyotshunos olimlar-u tadqiqotchilarning ko'pgina maqola va risolalarida o'zbek bolalar adabiyoti tarixi va muammolari ilmiy-nazariy aspektida o'rganilib, badiiy jihatdan yuksak asarlar tahliliga e'tibor zarurligi ko'rsatib berildi. Shuningdek, olimlar o'tmishdagi bolalar kitobxonligi asoslarini o'rganish g'oyalarini ilgari surib, XX asr o'zbek bolalar adabiyotisalaflari ijodini yangi nuqtayi nazarlar bilan boyitish zarurligini asosladilar. O. Safarovning "Zamonlar tongining charoqlarisiz" (2003), "She'rim -ochil dasturxon" (2011) adabiy portretlari shu ma'noda, alohida mazmun kasb etadi. Bu risolalarda yetuk shoirlar siymosi yangi asr ko'zgusida yaxlit namoyon bo'ladi. Ular she'rlarining mavzu mundarija, obrazlar olami, badiiy jozibadorligiga ko'ra mumtoz o'zbek adabiyoti, rus va jahon bolalar adabiyoti namunalari bilan muqoyasalanib, o'zaro ta'sir aloqalari oydinlashtirilganki, bu o'z navbatida o'zbek bolalar she'riyatidagi yangi

tamoyillarni yoritishga bag'ishlangani va XX asr bolalar she'riyati manzarasini tasavvur qilishga yordam berishi bilan diqqatga sazovor.

Bir asrlik tarixga ega o'zbek bolalar adabiyoti qiyofasini belgilashda R. Barakaevning "O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi" (2004) risolasi ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bolalar adabiyotshunosligida shoirlar ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar qatorida B.Ashurovning "Tursunboy Adashboevning poetik mahorati"(T., 2009) nomli kitobi e'tirofga loyiq.Zotan, T.Adashboev she'rlari bolalar adabiyotining yangi tamoyillari nuqtayi nazaridan tadqiq etilgani, bolalar she'riyatida shu vaqtgacha e'tiborga olinmagan badiiy mahorat masalalari,hozirgi yosh avlod tarbiyasi uchun muhim bo'lgan Vatan va vatanparvarlik mavzusi talqinlari, tabiat manzaralari tasviri, lirik qahramon obrazini yaratish borasidagi o'ziga xosliklar, ularni xalq og'zaki ijodi va jahon bolalar adabiyoti an'analarini ijodiy o'rganish vositasida tasnif etilishi ilmiy ommalashtirilgani jihatdan e'tiborni tortadi.

Istiqlolning uchinchi o'n yilligiga qadam qo'yan bo'lsak-da, XX asr o'zbek bolalar adabiyotining qiyofasini belgilovchi ko'plab shoir-u yozuvchilar ijodi, jumladan, Q.Hikmat, M.A'zam, N.Fozilov, X.To'xtaboev, A.Obidjon singari iste'dod egalarining badiiy yuksak asarlari umumadabiyot mezonidagi tahlillardan hali yiroq.

Shu jihatdan qaraganda bolalar adabiyoti namoyandalari haqidagi qator to'plamlar, monografik risolalar ham o'zbek bolalar adabiyotining tadrijiy, janriy tamoyilini belgilashda o'ziga xos omil bo'layotir, desak yanglishmaymiz.Jumladan, "Bolajonlik saodati" da(T.,2011) Safar Barnoev asarlariga yozilgan taqrizlar alohida qimmatga ega. Adibning turli yillarda chop etilgan to'plamlariga bag'ishlab bildirilganmulohazalarda istiqlol davri bolalar adabiyotiga xos yangi janrlar, obrazlar,mavzular, badiiy detallarning rang-barang talqini uchraydi.Ijodkor asarlari orqali o'zbek bolalar adabiyotining umummasalalari, muammolari va dolzarb vazifalariga daxl qilingan.Shuningdek, S.Barnoev ijodiy olamiga bag'ishlangan ilmiy-adabiy maqolalar risolani ma'nan boyitgan.

Bunday fikrni "Beg'uborlik olami kuychisi" (T.,2011) to'plami haqida ham aytish mumkin. Xususan, "She'r va talqin" faslidagi maqolalarda Tursunboy Adashboev she'rlarining yangi qirralari inkishof etilishi bilan birga, o'zbek bolalar adabiyotining ayrim tamoyillari xususida so'z boradi: A.Rasulov T.Adashboev ijodi misolida bolalar adabiyotida nasr materialini she'rda tasvirlay olish, parodiya (teskari tanqid) janrini maromiga yetkazish, "uch tug'ishgan - hayvonot, nabotot va jamodot aro uzviy bog'liqlik, o'zaro ta'sir mukammal ko'rsatilishi", masal, lof janrlari

ahamiyatini ko'rsatadi. Shoirning mutarjim sifatidagi yutuqlari o'zbek bolalar she'riyati o'zanlarini yangilagani ta'kidlanadi.

A.Obidjon XX asr o'zbek bolalar she'riyati xususiyatlari, 20- 30-70- va 80-yillardagi yangi oqimlar, M.A'zam singari ijodkorlar misolida bolalarning faqat aqliga emas, ko'ngliga ham ta'sir o'tkazish yo'lini izlashga tutinish, T.Adashboev ham shu silsilada boshqalarga o'xshamagan she'riyati bilan bu olamga kirib kelganini ta'kidlab o'tadi. Shoirning "Bolalikqa qaytaman" turkumiga kirgan, yoxud, "Yo'lchi yulduz", "Fufayka" singari she'rlari sobiq tuzum davrida o'z bahosini topmagani tilga olinadi. A.Obidjon, T.Adashboev she'rlarini adabiyotshunos, o'quvchi hamda shu adabiyotning yetuk salafi nuqtayi nazaridan o'rganarkan, bolalar adabiyotshunosligini yanada taraqqiy ettirish zarurligini o'rinli ta'kidlaydi.

S.Matchon, Q.Yo'ldosh, Q.Qahramonovlar bolalar adabiyotshunosligi masalasida fikr yuritsalar, R.Barakaev, B.Ashurov T.Adashboev ijodini kengqamrovli, monografik izchillikda talqin etadilar. Natijada, o'zbek bolalar she'riyati, adabiyoti sohasida ham nihoyat, teran anglanayotgan vazifalar, tamoyillar oydinlashadi.

Yetuk adabiyotshunos olim A.Rasulovning X.To'xtaboev romanlari haqidagi "G'aroyib saltanat" (Toshkent, "Adib" nashriyoti, 2012) hamda A.Obidjon ijodining ayrim qirralariga bag'ishlangan "O'zlik sari yo'l" (Toshkent, "Adib" nashriyoti, 2012) risolalari aytish mumkinki, bolalar adabiyotshunosligida yangi oqim hisoblanadi. Olim bolalar asarlarini tipik va kontseptual, yozuvchi mahorati, badiiy olami, makon va zamon, adabiy tur va janrnuqtayi nazaridan o'rganish, ya'ni jahon va umrda umadabiyot o'lchovida tahlil qilish ehtiyojini asoslaydi. Ayni paytda qahramon xarakterini yoritishning an'anaviy va modern usullariga e'tiborni qaratadi.

"Istiqlol davri yangi bolalar adabiyotining maydonga kelishiga,-deb yozadi R.Barakayev,- 80-yillarning ikkinchi yarmi katta ta'sir ko'rsatdi. Ayni shu davrda bolalar adabiyotimiz tom ma'nodagi haqiqatga tik boqadigan adabiyotga aylandi, yosh avlodni erksevarlik tuyg'ulari ruhida tarbiyalashda ilk qadamlarini qo'ydi."

Binobarin, istiqloлга erishgan dastlabki kunlardan oq, yoshlarimizni ma'naviysog'lom, barkamol etibtarbiyalash masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgani ular adabiyotida ham o'z aksini topa bordi. Bolalar adabiyoti, ushbu vazifaniado etishdagi eng muhim vositalardan biridir. Bu ishga badiiy so'zqudratibilan hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli yozuvchilar

⁷Bu haqda qarang: Barakayev R. Istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyoti: an'ana, vorisiylik va izlanishlar. // O'zbek tili va adabiyoti j. 2003, 3-son, 4-b.

talaygina. Aytaylik, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq g'oyalar S.Barnoyevningpublitsistik maqola va hikoyalarida, A.Obidjon, T.Adashboyev, M.A'zam, T.Malik, H.Imonberdiyev, K.Turdieva, A.Akbar, D.Rajab kabi shoirlarning she'riy asarlarida o'z ifodasini topdi. Xususan, istiqlol davri bolalar adabiyotida yangidan tanilgan shoir va yozuvchilar ijodi diqqatga loyiq.

Hamza Imonberdiev

(1954- 1997)

Iste'dodli bolalar Shoiri Hamza Imonberdiev 1954-yilda Qozog'iston Respublikasi Chimkent viloyatining Suzoq qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topdi. Hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining filologiya fakultetida Abusaid Ko'chimov, Abdug'affor Hotamov kabi yozuvchilar, Shuhrat Jabborov, Hamid Habibullaev kabi taniqli jurnalistlar bilan birin-ketin o'qidi. Talabalik yillarida yuqoridagi ijodkor do'stlari bilan O'tkir Rashid rahbarlik qilgan fakultetning «Chashma» to'garagida, universitetning «Ma'rifat yo'lida» gazetasida she'riy mashqlarini tobladi.

Universitetni imtiyozli diplom bilan tamomlagan bo'lajak bolalar Shoiri H. Imonberdiev o'z mehnat faoliyatini «Tong yulduzi» gazetasida boshladi. Umrining so'nggi o'n yilini esa «Cho'lpon» nashriyotida, kichikintoylar uchun katta adabiyot chop etadigan maskanda muharrirlik bilan o'tkazdi.

Talabalik yillaridayoq ijodda kitobxon ko'ziga tashlanib qolgan bolalar Shoiri Hamza Imonberdiev «Quvnoqlar quvonchi», «SHokoladxo'rlar», «Kulgi shaharchasi», «G'aroyib pufak», «Oydagi tomosha», «Qutichada mitticha», «Lofchilar — aldoqchilar», «G'aroyib Kent hangomalari», «Bir kunlik mo'jiza» kabi kitoblar muallifi sifatida bolalar dilidan mustahkam joy oldi.

Shoir asarlari rang-barang, mavzu doirasi keng. U har bir katta-kichik asarida kenja kitobxon do'stlarini nimagadir o'rgatadi, o'rganishga, ibrat olishga, turmushda xulosa chiqarib yashashga chorlaydi.

Xalqda: «Birovga chuqur qazisang, unga o'zing qulaysan», degan naql bor. Bu borada «Kalila va Dimna»da juda ibratomuz bir hikoya bor. U har qanday odamga ta'sir qiladi:

«Bir kuni Qoraquloq o'rmon chetiga chiqib o'tirgan edi, bir sichqonning jahd-u jadal bilan daraxt tomirini kemirayotganini ko'rib qoladi.

Daraxt tilga kirib unga dedi:

— Ey, dilozor va sitamkor! Nima uchun jonim rishtalarini qirqyapsan?

Sichqon uning nola-yu zoriga e'tibor bermay, o'z ishini davom ettiraverdi. Nogah bir burchakdan ilon chiqib, sichqonga hamla qildi va bir zumda yutib yubordi. Qoraquloq bu voqeadan «Dilozorning jazosi ozor ekan», degan xulosa chiqarib oldi.

Shu vaqt bir tarafdin tipratikan kelib, ilonning dumidan tishladi-yu, boshini ichiga tortib g'ujanak bo'lib oldi. Ilon jahl bilan unga o'zini ura boshlagan edi, a'zoyi badanini tikanlar pora-pora qilib yubordi. Ilon o'sha zahoti o'ldi. Qoraquloq bundan ibrat darsi oldi. Ilon o'lgach, tipratikan boshini chiqarib, uning yaxshi-yaxshi joyidan tanlab yedi. Qorni to'ygach, daraxt soyasida koptokdek bo'lib yumalab, huzur qilib yotgan edi, nogah bir och tulki kelib qoldi. Tipratikanning nayzalaridan qo'rqib, uni hiyla bilan o'ldirmoqchi bo'ldi. U tipratikanni ag'aratib qorniga yozildi. Tipratikan yomg'ir yog'yapti shekilli deb o'ylab, boshini chiqargan ham ediki, tulki bir hamla bilan uni cho'rt uzdi, bo'shashib qorni ochilib qolgan tipratikanni ishtaha bilan yeb oldi. SHu vaqt bo'riga o'xshagan vahshiy bir it kelib, tulkini turgan yerida bo'g'ib, uning go'shti bilan ochligini qondirdi.

Qoraquloq bu ajoyibotlarni ko'rib, hayron qolib yotar edi.

It endi dam olishga hozirlik ko'rayotganda bir qoplon kelib, uning siynasidan oldi. Qoplon hali itni tugatmagan ham edi, ovchi kelib, bir o'q bilan uni tinchitdi. Qoplonning joni hali uzilmagan edi, u yerdan bir otliq o'tib qoldi. Unga qoplonning terisi yoqib, ovchi bilan urisha boshladi. Qilich solib, ovchining boshini tanidan judo qildi va qoplonning terisini olib yo'lga tushdi. U yuz qadam ham yurmagan ediki, oti qoqilib, yerga yiqildi. Gardani sinib, shu onda halok bo'ldi».

Bolalar Shoiri Hamza Imonberdiev «O'q» she'rida xuddi shunga yaqin bir voqeani yosh kitobxonga havola qildi. Kamondan bemavrid otilgan o'q hayotda bosar-tusarini bilmaydi, u o'ta dahshatli, qasd qilish ishtiyoqida hammaga dag'dag'a qiladi. O'q hech kimni nazar-pisand qilmaydi, chor tomonni nobud qilaman, otaman, bag'rini tilaman, o'ldiraman, deb oldinga intilaveradi:

Kelib qoldi ro'baro'
Ona Jayron yo'lida.
Quyosh ko'kda qotdi tosh,
Nafasini yutganicha.
Gullar ma'yus egdi bosh

O'tib ketdi bir yondan.
Hamon uchib borar u
Qora ajal qo'lida.
Kelib qoldi ro'baro'
Keksa CHinor yo'lida.

O'zligin unutgancha.	— Hoy, ko'zingga qara-da,
Qochar Jayron quyunday	Titrab dodladi CHinor,
Tuyog'idan chaqnar o't.	Bag'rimdagi inlarda
— Jon o'q, tegma, uyimda	Axir palaponlar bor!
Kutar bolam, ko'zi to'rt!	O'q voz kechib nishondan,
O'q voz kechib nishondan,	O'tar-ketar bir yondan...

Odatda, kim haddidan oshsa, yon-atrofdagilar bilan hisob-kitob qilib yashamasa, o'ziga ortiqcha bino qo'ysa, albatta, hayotda qoqiladi. CHor tomonga dahshat solib, hammaningjonini olmoqchi bo'lgan o'q o'ziga nisbatan zo'rroq mergan otgan o'qqa duch kelib vayron bo'lishi kitobxon bolalarni quvontiradi.

Shoir she'rlarini rang-barang dedik. U haqiqatan ham shunday. «Tarbiyachi» asari buning yorqin isboti bo'la oladi. Inson insofli, adolatli, or-nomusli bo'lsa, har bir bosadigan qadamini o'ylab, bilib tashlaydigan bo'lsa, hayotda qoqilmaydi, baxtiyor bo'ladi. Bunday odamlarni vijdonli, or-nomusli kishilar deb atashadi. Insondagi bunday ijobiy fazilatlarni biron unga hadya qilmaydi, o'zini o'zi kuzatadi, noo'rin xatti-harakati uchun o'zi javob beradi. Uning tarbiyachisi — vijdoni. Shu vijdon kuzatuvi uni har doim to'g'ri yo'lga boshlaydi va to'g'ri yo'lga solib turadi:

Tunov kuni futbolga	Ikkilanib turdim men,
Ketayotsam tez shoshib,	Biroz xayol surdim men.
Ko'zi ojiz chol yo'lda	Futbol zavqi bir dunyo,
Turgan ekan adashib.	Yo'lni to'pga burdim men.

To'pga tegmasdan oyoq,	Qarshi chiqmoq foydasiz,
Solgan kabi tizginga,	Qayga boray da'voga?
Tarbiyachim o'sha choq	Qo'llaridan olib tez,
Qaytardi-ku izimga.	Yo'l ko'rsatdim bobomga.

Inson hayotda sog'lom, tetik, qo'rqmas, jasoratli bo'lib kamol topishi zarur. Mabodo u soyasidan ham cho'chib, hadiksirab, qo'rqib yashaydigan bo'lsa, bunday bola kelajakda omadsiz, tolesiz bo'lib qoladi.

Hamza Imonberdiev «Yolg'izlikda» she'rida xuddi shu masala ustida to'xtaladi. Botir o'zi tabiatan qo'rqqan bola. Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar deganlaridek, ayniqsa, kechqurunlari har qanday sharpadan cho'chib, qo'rqib yuradi. U kechqurun ko'chaga chiqdimi, tamom, go'yo qo'shiq aytgandek baqirib-chaqirib, to'polon qilib yuradi. Natijada u hammaning

tinchini, oromini buzadi: mushuklar miyovlaydi, itlar vovullaydi, odamlar «hang-mang» bo'ladi. Voqea oydinlashgach, ko'rsalarki, bu Botirning quyonyurakligi bo'lib chiqadi:

Bilsak, Botir bu palla Qo'shiq aytib baralla, Madad berib o'ziga, Bot-bot qarab iziga Qo'rqinchdan qochib borar.

Bolalar adabiyotida o'y o'ylash, xayol surish, xayoliy orzular bilan yashash ijobiy natija berishi to'g'risida ko'p gapiriladi. Bunga misol qilib G'afur G'ulom, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Miraziz A'zam asarlaridan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Bolalardagi bunday shirin tuyg'ularni Hamza Imonberdiev ham to'g'ri payqay olgan. «Lofchilar — aldoqchilar» asarida u kichkintoylardagi mana Shundayorzu-havasni o'ziga xos usul bilan ochib berishga erishgan.

Ali xayolan qushcha shaklini yaratdi. Uni tomosha qilishga Valini chaqirdi. Vali ko'rsaki, qushcha yo'q. Lekin Alining bo'sh kelmasligi kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi.

Ha, bolalar qush rasmini chizishadi, xayolan qushchalarga don berishadi. Bularning hammasi umumlashib, kelajak poydevorini bunyod etadi. Bu bolalarning kelajakda mustaqil mamlakatimiz kenja avlodini bilimdon, zukko, rahm-shafqatli bo'lib kamol topishiga barakali ta'sir qiladi.

Hayvonot olamiga mehr qo'yish, uni ehtiyot qilish, asrash, avaylash, do'st tutunish bolalikdan, oiladan boshlanadi va bir umr insonga hamroh bo'lib qoladi. Hamza Imonberdiev bu haqda «Olamoshim» degan bir she'r yozgan. Bunday olib qaraganda bu asar juda oddiy, sodda, bolalarni o'ylantirmaydigan, ularni hech narsaga o'rgatmaydigan, xulosa chiqarmaydigan she'rlardan biriga o'xshab ketadi. Lekin bir o'ylab ko'rilsa, tahlil qilinsa, ma'no va mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati juda katta va eng ta'sirli she'rlardan biri ekanligi yarq etib ko'zga tashlanib qoladi.

Tokchadagi qaymoqdan
Ko'tarmay siraboshin,
Ichayapti qarasam,
Uyalmay Olamoshim.

Quloqlarin chimirib,
Ichar edi bir mayin.
Beparvoligim sabab
Qorni ochgani tayin.

Avvaliga «pisht» deb bir
Quvmoq bo'ldim-u, biroq
Rahmim kelib negadir
Tikilib qoldim uzoq.

Oyoq uchida asta
CHiqib ketdim hovliga —
Bir gal qaymoq yemasam
Emabman-da, mayliga.

E'tibor bergan bo'lsangiz, «Bir gal qaymoq yemasam yemabman-da, mayliga»ning o'zi ijobiy holat, bag'rikenglik, bir mayizni qirq bo'lib yeyishga bolalikdan o'rganishning boshlanishi. Bunday bolalar kelajakda haqiqiy inson bo'lib kamol topishlariga shak-shubha yo'q.

Hamza Imonberdiev o'zi bilimdon, o'ta madaniyatli, to'g'ri so'z, halol, pok, ozod va obod O'zbekistonimizni juda qattiq suyadigan ajoyib inson bo'lganligi uchun ijodining mundarijasi ham shunday. Adolat masalasida u ko'p jon kuydirar va bu haqda ko'plab asarlar yaratgan edi.

Hadislarda to'g'riso'z, halol, pok bo'ling, deyiladi. Kimki bunga qattiq amal qiladigan bo'lsa, el-yurt o'rtasida xijolat bo'lmaydi, obro'-e'tibori oshadi. «Adolat kaliti» ertagida Hamza Imonberdiev xuddi shu haqda gap yuritadi. Asar boshlanishidayoq yosh kitobxonlarni o'ziga tortadi:

Hayron quyosh, loldir oy,
Necha kun-u necha oy
Ikki elat urushar,
Bir-birlarin qirishar.
O'rtaga kimki tushsa,
Biz haqmiz, deb turishar.

Hamma gap, hamma balo ana shu «biz haqmiz»da. Buning asl boisi, sababini hech kim tushunmasligida. Qonli urush davom etaveradi. Bundan podshoh ham hayron:

Podshohning boshi qotgan,
Halovatin yo'qotgan.
Ojizligin his etib.
Og'ir xayolga botgan.

Chorasiz qolgan podshoh bu ishni — qonli urushni to'xtatish chora-tadbirini qidiradi. Bu jumboqni yechadigan, urushga chek qo'yadigan adolatli, xalq manfaatini o'z manfaatidan yuqori qo'yadigan bir Odilbek otli qozini toptiradi.

Odilbek halol, pok, adolatli. U og'ir-bosiqlik bilan voqeani so'rab-surishtiradi, so'roq qiladi. Daovogar-u aybdorlarning ko'rsatmalari yosh kitobxonda haqiqat uchun kurashchi bo'lish orzusini nish urdiradi. Daovogarning:

— Yigitimiz zo'r edi,
To'g'ri, yosh-da, g'o'r edi.

U elatning bir qizin —
Latofatda yulduzin
Sevarkan, dil ochibdi,
SHu kun olib qochibdi.
U qizning og'alari,
Qasoskor tog'alari
Quvib yetib olibdi,
Etib qilich solibdi.
Bechora bovirimizning
Tani yerda qolibdi.
Yovlar to'lasin xunin,
Yo'qsa ko'radi kunin!
Chiqqunicha tandan jon,
Olishamiz, begumon!
Qozikalon, biz haqmiz,
Hukmingizga ilhaqmiz.
To'g'ri hal eting, illo, —
Deya bir xalta tillo

Uzatib chiqib ketmish, —deyishi va pora berishi
Odilbekni sergaklantiradi. U ishiga yanada jiddiy kirishadi. Aybdorlarning
g'irromliklari ham yotig'i bilan kitobxon ongiga yetib boradi:

Yuzimiz yorug' eting,
To'g'ri hal qilib keting.
Haq qaror topsin, illo, —
Deya bir xalta tillo
Uzatishib, ko'z qisib,
Chiqib ketmishlar pusib.

Hamma gap mana shunda. O'sha pora sifatida berilgan ikkita xalta —
boylikda. Mabodo Odilbek odil bo'lmaganida xaltachalarni olib uyiga
ravona bo'lar edi. Ammo u nafsini tiyadi, xalqni o'ylaydi, urushni
to'xtatish yo'llarini qidiradi. Uning da'vogarning huzuriga chorlab voqeani
mana bunday hal qilishi o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi:

— Haq so'z nishonga tegdi,
Raqib to'liq bosh egdi.
Ayblarin tan olishib,
Mulzam bo'lib qolishib,
Bir emas, qayta-qayta

Tavbasin ayta-ayta,
Deyishib yigit xuni
Tashlab ketishdi buni, —
Deb qo'sh xalta tilloni
Daovogarga uzatdi.
Yalt ko'zi yonganini,
G'ururi qonganini
Diqqat bilan kuzatdi.
Tugab deng olaqarash,
Bo'libdi «yarash-yarash».

Hamza Imonberdievning o'nlab qo'shiqlari, ko'plab doston-ertaklari bolalar tilida kuylanmoqda, o'qilmoqda.

Abdurahmon Akbar
(1962 - yilda tug'ilgan)

Abdurahmon Akbar 1962-yilda Yangiyo'l tumani Niyozbosh qishlog'ida tavallud topgan. U 1987-yilda hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan. A. Akbar «Kichkintoy va paxtaoy», «Ehtiyotkor toshbaqa», «Uyquchining tushlari» kabi o'ndan ortiq she'riy kitoblar muallifi.

Abdurahmon Akbar ijodi rang-barang mavzuda, shirali, ta'sirli yozilganligi bilan ajralib turadi. Aksariyat she'rlarining qahramonlari ko'ngillari osmon kabi musaffo, shaloladek quvnoq, orzulari buloqlar suvidek toza, shamoldek tinim bilmaydigan bolakaylar ekanligining guvohi bo'lasiz.

Kichkintoylar dunyoni o'zgacha idrok qiladilar. Kattalar uchun oddiy tuyulgan narsalar ular ko'z o'ngida fojiali ko'rinishi, kattalar uchun og'riqli va armonli tuyulgan yechilmas masalalar esa ular nazarida oddiy, yechimini topishi qiyin emas. Masalan, mana bu she'riy parchadagi kabi:

Meni ko'rsa tog'amning ko'zlariga yosh kelar,
Botirim, polvonim deb opichlab yurar uzoq.
Yoshi dadajonimdan ancha kichik bo'lsa-da,
G'o'zasi kabi rangpar, paxtasidek sochi oq.
Ona, tog'amning nega bitta ham bolasi yo'q?
Qiliqlari, yuzlari menga rosa o'xshaydi,
Menga o'xshab arazchi, menga o'xshab hazilkash.

Ammo bitta gapiga sira tushunolmayman,
Nimaydi, ha, «Bunchalar, bunchalar qiyin yashash?»
Ona, tog'amning nega bitta ham bolasi yo'q?

Shoirmnig «Iltimos» deb atalgan she'rining adabiy qahramoni
tog'asining ushalmagan armoniga mana bu yo'sinda nuqta qo'yishga bel
bog'laydi:

Ertakdagi parilar sarvqomat desalar,
Ulardan go'zal derdim Lobaroy kennoyimni.
Kasal bo'lib qolasiz yig'layversangiz agar,
Desam ham ko'zin yoshlab solib berdi joyimni,
Ona, tog'amning nega bitta ham bolasi yo'q?

Akam, opachalarim xafa bo'lishsa bo'lar,
Mening aytganimga ham bir borgina kiringlar,
Ko'nmasangiz agarda uydan qochib ketaman,
Meni kichik tog'amga o'g'il qilib beringlar.
Ona, tog'amning axir bitta ham bolasi yo'q.

Bu Abdurahmon Akbarning armon haqidagi she'ri:

A'lochi qiz edi Nigora,
Darslaridan sira qolmasdi.
Axvol so'rab borgan paytimiz —
U o'rnidan tura olmasdi.

Shoir she'rlarining ikki xususiyati mazkur satrlarda yaqqol namoyon
bo'ladi. Birinchisi: Nigoraning darslardan sira qolmasligi, lekin uning yura
olmasligi zamirida ilojsizlik, taqdirning achchiq haqiqati yotadi. Va
ikkinchi xususiyat — bolalar she'riyatida ham tabiat tasvirini voqealar
rivoji bilan uyg'unlikda berish:

Sog'aymadi sinfdoshimiz
Oxirgi kun qorayganda qosh.
... Derazada bizlar keltirgan
Atirgullar qolgandi so'lib...

Armon va ilojsizlikka she'rning so'nggi misralari go'yo so'nggi
nuqtani qo'ygandek bo'ladi:

Ko'zimizni qizartirdi g'am,
Qalbimizdan armon ketmadi.
Ko'taraylik tobutin desak,
Bo'yimiz yetmadi, yetmadi...

Bu kabi qarama-qarshiliklar ko'plab Shoirarning ijodiga xos. Asosiy fikr bu emas. Asosiysi shundaki, Abdurahmon Akbar o'z ijodiy izlanishlari bilan hozirgi zamon o'zbek bolalar she'riyatiga lirik kayfiyat va bola kechinmalarini qahramon tilidan berishning o'ziga xos uslubini olib kirdi.

Shoir «Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar» nomli she'rida bolakaylarni mard, botir va ziyrak bo'lishga da'vat etadi:

Kech kirib, ko'kda hali
Oy kezmagan pallada,
Normi kuchuk quvlabdi
Sukut to'la dalada.

Etib olsa tishlaydi
Degan xayolga borib,
CHopibdi Nor bechora
Oyog'in qo'lga olib.
Ortda qolibdi dala,
Ortda qolibdi ariq.
Toshko'chaga yetganda
Toyib ketibdi qattiq...
Ko'zin ochib qarasa,
Yuragi urib duk-duk,
O'zin Laychasi emish
O'sha... «quvlagan» kuchuk.

Aabiyotshunos Rahmatilla Barakaevning Abdurahmon Akbar ijodiga bergan bahosi ham e'tiborga loyiq. Muallif «Istiqlo'l davri bolalar adabiyoti: an'ana, vorislik va izlanish» nomli tadqiqotida Shoir ijodining quyidagi qirrasiga alohida e'tibor qaratadi: «Abdurahmon Akbarning mumtoz adabiyotimizdagi qofiyali nasr (saj)ni eslatuvchi «Shoir dadam haqida she'riy hikoyalar» turkumini she'riy shaklga sig'magan fikrlar tizimi deyish to'g'riroq bo'lar edi. Abdurahmon bu she'rlari bilan bolalar adabiyotimizga fikrlovchi, o'ychan bola timsolini olib kirdi. Besh she'riy

hikoyadan tarkib topgan turkum Shoir dadasining armon-u iztiroblarini, dard-u tashvishlarini eshitib qolib, jajji yuragiga sig'dira olmay, to'lqinlanib so'zlayotgan bolakay tilidan hikoya qilinadi. Jumladan, «Dadamning qalbi» she'riy hikoyasida Shundaydeyiladi:

«Armon uyasimish dadamning qalbi, dadamning qalbida kularmish sevinch. Dadamning qalbida ummon bor emish. Bor emish dadamning qalbida ilinj.

Yozgan uch-to'rt she'ri dadam qalbining topgan quvonchi-yu ozori emish. Dadamning yuragi dunyo ko'rmagan sonsiz fikrlarning mozori emish...»

Ichki qofiyalanishga uyg'un bo'lgan so'z takrorlari va bolakayning mo'jaz taxayyul olamiga sig'magan nogahoniy qiyoslar ushbu turkumga mansub she'riy hikoyalarning shaklan va mazmunan mukammalligini ta'minlaydi.

A. Akbarning shakliy izlanishlari ham e'tiborga molik. Uning raqamli she'rlari kichik maktab yoshidagi bolalar she'riyatini yangicha shakl va mazmun bilan boyitdi:

«Aka, qanday yuribsiz,
Soz ketyaptimi xizmat?
Askarlikkaki k10ikib
Ketgandirsiz batamom.
Buvim, qo'ni-qo'shnilar
Sizga yo'llashdi salom.
Q3oq-q3oq ch3moma

Terib qaytsak adirdan.
Ko'chamizni nomlashib,
Ketishibdi yangidan.
«Ul.Zarechnaya» emas,
Bilib qo'ying, aka, siz,
Endi bizning uy-hovli
«Ilik» ko'cha, 18!

«Paxtakor» ham ketma-ket
Q3ib turibdi zafar.
1mas, 3ta, to'p urdi
Ilhom kechagi safar...
(«Salom xat»)

Sinchkov bolalarning tiyrak nigohi bahorda tabiatning gul ochib yangilanishi, adirlardan bolalarning zavq-shavq bilan quchoq-quchoq chuchmomalar terib kelishlari bormi, Mustaqillik sharofati bilan ko'chalarimiz nomlari milliylashgani («Zarechnaya» emas — «Birlik») bormi, «Paxtakor»ning ketma-ket zafar quchayotgani bormi, aslida yosh bola qiyofasiga musavvir Shoirning g'aroyib mo'yqalami chizayotgan turfa chizgilardir...

Bunday she'riy usul o'zbek bolalar adabiyoti uchun yangilik. Bu she'rlarning o'ziga xosligi haqida fikr yuritilganda, dastavval, ijodiy izlanish mahsuli sifatida baholash joiz. Zero, yosh kitobxon she'r o'qir ekan, hatto uning g'ayritabiiy shaklidan ham zavq topadi. Harflar raqamlar bilan uyqalashib ketgan bunday she'riy usul yosh kitobxon uchun ham hayratli, ham qiziqarli topilma.

Shoirning ijodini kuzatgan adabiyotshunos Zamira Ibrohimova Abdurahmon Akbarning hayotiy voqea va xayoliy tasavvurlardan ta'sirchan manzaralar yaratgani haqida, jumladan, Shundayyozadi: «Bu manzaralar xuddi aqlli farzand oilaga fayz-baraka, ota-onaga rahmat olib kelganday, ko'ngillarda mamnuniyat tuyg'ularini paydo qilib, yosh kitobxonning xayolot olamini boyitadi, kengaytiradi: o'quvchi chirildoqlarning sokin oqshomni to'ldirib kuylashlarida osoyishtalik gashtini anglagandek, yog'gan yomg'ir tomchilaridagi mo'jizani tuygandek, asalari, chumolilarning mehnatiga xos go'zallik, fayz-ziynatni ko'rgandek bo'ladi».

Etti qalam, yetti rang,
Etti ohang — kamalak.
Qaerlarda yuribsan,
Quyosh — sochi jamalak?
Qalamlaring topildi,
Bulut — qog'oz ham tayyor.
San'atingdan bahramand
Bo'laylik bizlar bir bor.

Qalamdonni qo'yatur,
Kel, quyoshjon, tezroq kel.
Rasm chizib ber bizga,
O'chirg'iching bo'lar yel.
...Million yilki, ahvol shu,
Erliklar kutib tolar.
Qalamlar bor paytda
Quyosh «yo'qolib» qolar.

(«Kamalak»)

Bolalar olamida mayda va ahamiyatsiz narsalar uchramaydi, ya'ni kattalar mutlaqo nazarga ilmaydigan, e'tibor bermaydigan, ular uchun ahamiyatsiz ko'ringan narsalar bola nazarida o'zgacha, ajib bir qiyofada jonlanadi. Masalan, jajji Zeboxon birinchi marta qo'shaloq giloslarni ko'rib, ularning o'rtoq bo'lib olishganidan («O'rtoqlar») quvonadi. Yoki Sevinchoy issiq choydan ko'tarilayotgan bug'ni ko'rib «choyim uchib ketayapti» deb («Sevinchoy haqida she'r») hayratlanadi. Yulduzoy esa o'ziga yoqqan fasl haqida samimiyat bilan «Yozda yoz fasli, kuzda bo'lsa kuz» («Eng to'g'ri javob») deb ko'nglidagini aytadi.

Darhaqiqat, ularning dunyosida yolg'on yo'q. Shoir bolalikning musaffo olami har kuni quvonchlarga, kashfiyotlarga to'liq ekanligini nozik did bilan kuzatadi va mahorat bilan badiiy qiyofalarda gavdalanitiradi:

Gilos qoqib bergandim
Zeboxonga erinmay.
Oldiga qo'shalog'i
Qarang, tushib qolibdi.

Qiqirlar Zebogina
Ularni qo'ldan qo'ymay:
— Dada, gilolarimiz
O'rtoq bo'lib olibdi!
(«O'rtoqlar»)

Shoir ko'pgina she'rlarida hayotning «anglab bo'lmaz murakkab» tomonlari haqidagi fikrlarni ilgari surishga intiladi. «Yolg'iz farzand», «Umid haqida she'r», «Iltimos», «CHivin» kabi she'rlarida nafaqat tabiatni, bolalarni ham asrash, qadrlash kerakligi kuyunchaklik bilan uqtiriladi. Bu she'rlarga xos umumiy xususiyat shundaki, ularda kattalar adabiyoti mavzusiga doir insoniy dardlar aks etgan. Shoir yosh kitobxonga ishonadi, uning nimalarnidir tushunmay qolishidan cho'chimaydi.

So'zimizni muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, Abdurahmon Akbar qalamiga mansub she'r va tarjimalarda bolalar dunyosiga chuqurroq kirib boriladi, ularda fikr aniq va lo'nda ifodalanadi. Asarlar tilining sodda va ravonligi, tasvir vositalarining puxtaligi, jahon bolalar she'riyatining eng yaxshi an'ana va usullarini, shakllarini o'zida omuxta qilganligi bilan nafaqat yosh kitobxonlar, shu bilan birga katta yoshdagi adabiyot, she'riyat muxlislari e'tiborini ham torta oladi. Yoshlarning barkamollikda, bugunning va kelajakning egasi ekanini his etib ulg'ayishlariga ko'mak beradi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Hamza Imonberdievning «Tarbiyachi» asari qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega?
2. Shoirning quyi sinf yoshidagi o'quvchi bolalarga bag'ishlangan yana qaysi she'rlarini bilasiz?
3. H. Imonberdievning «Adolat kaliti» ertagidan siz o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?
4. Shoirning hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
5. Shoirning o'qish, odob haqidagi qaysi asarlarini bilasiz?
6. Uning Vatan, tabiat va bolalar o'yinlari haqidagi asarlarining o'quvchilarga ta'siri qanday?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

#H.Imonberdiyev qaysi tuyg'ularni umr mazmuni deb bilgan?

- + mo'jiza, samimiyat, halollik
- Do'stlik, matonat, sevgi
- Hurmat, sadoqat, vafo
- Rostgo'ylik, to'g'rilik, mardlik

#H.Imonberdiyev vafotidan bir yil o'tgach, "Cho'lpon nashriyotida nashr etilgan saylanma kitobi qaysi?

- + "Bir kunlik mo'jiza"
- "G'aroyib pufak"
- "Qutichada mitticha"
- "Oydagi tomosha"

"Quvnoqlar quvonchi", "Shokoladxo'rlar", "Kulgi shaharchasi" kabi asarlar muallifi kim?

- + H.Imonberdiyev
- A.Ko'chimov
- A.Akbar
- A.Obidjon

#H.Imonberdiyev "Vaqtning hajmi qancha" she'rida vaqtni nimaga o'xshatadi?

- + Rezinali to'rxalta
- Katta qopga
- Sharga
- Rezinali koptokka

#H.Imonberdiyevning "Urishqoqlar" she'rida qaysi bola "urush nima bilmaydi"gan sayyorani ko'zlaydi?

- + Nodir
- Botir
- Aziz
- Nozim

#A.Akbar kim rahbarlik qilgan suhbatlarda qatnashgan?

- + Quddus Muhammadiy
- Qambar Ota

- Muhammad Ali
- H.Imonberdiyev

#Usmon Nosir nimidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lishda A.Akbarga qaysi kitobi shuhrat olib keldi?

- + “Ehtiyotkor toshbaqa”
- “So‘zlovchi yomg‘ir”
- “Kuylayotgan bog‘”
- “Uyquchining tushlari”

#A.Akbarning qaysi she'riy to'plami 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasi, Xalq ta'limi vazirligi hamda respublika “Mahalla” xayriya jamg'armasi tashabbusi bilan tashkil etilgan tanlovda sovrinli o'rin egalladi?

- + “Oyijonim yopgan non”
- “O‘rdakcham”
- “Uyquchining tushlari”
- “Jonli savatcha”

#A.Akbar 2006-yilda qanday unvon bilan taqdirlangan?

- + O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi
- O'zbekiston xalq yozuvchisi
- “Buyuk xizmatlari uchun”
- “Shuhrat” medali

15 -MAVZU. CHET EL BOLALAR ADABIYOTINING UMUMIY TAHLILI. SHARL PERRO, AKA-UKA GRIMMLARNING ASARLARIDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR

REJA:

1. Bolalar adabiyoti – har bir xalq axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi pedagogik xrestomatiya.
2. Chet el bolalar adabiyotining paydo bo'lish omillari: a) umumbadiiy asarlarning bolalar kitobxonligi doirasiga o'tish tamoyillari; b) jahon xalqlarining pandnomachilik, didaktik adabiyoti va folklori – bolalar adabiyotining shakllantiruvchi bosh omil.
3. Sharl Perro asarlari tahlili.
4. Nemis klassik adabiyotining bolalar adabiyotiga munosabati.
5. Aka - uka Grimmlarning bolalar adabiyotini rivojlantirishdagi hissiy va ertaknavislik mahorati.

Tayanch tushunchalar: pedagogik xrestomatiya, ertaknavislik, mixxat, mif, afsona, folklor, romantizm, bolalar kitobxonligi, qo'shiq, Renessans, didaktika, epos, "Injil", "Bibliya", "Tavrot", "Ramayana", "Mahobxorat", "Iliada", "Odiseya".

Tarixning eng qadimgi davrlaridan boshlab, inson nafaqat o'zining tirik qolishi uchun kurashgan, balki u o'z qabilasi, urug'ining ham uzoq yashab qolishi tadbirini ko'rgan. Binobarin, alla, ovutmachiq, ertak va topishmoqlar mazmuni, avvalo, ongli, kuchli, epchil va chaqqon insonni shakllantirishga qaratilgan. Kishilarning atrofni o'rab turgan olam haqidagi tasavvuri va u haqidagi yig'ilgan bilimlari, hayotiy tajriba asosidagi dono hikmatlari hamda xulosalari bolalarga o'ziga xos tarzda pand- nasihatlar shaklida, ularga tushunarli vositalarda etkazilgan. Shuning uchun ham turli xalqlarning, hattoki bir-biridan juda yiroq masofadagi mamlakatlarning xalq og'zaki ijodida ham juda ko'p mushtaraklik mavjud.

Ko'p xalqlarning eng qadimgi adabiy yodgorliklarida, chunonchi, mif va afsonalarida, ertaklarida - bir-biriga o'xshash tomonlar ko'zga yaqqol tashlanadi: bu jihat ko'proq inson va uning Yer yuzidagi ulug',

sharaflı vazifasi haqidagi eng yuqori tasavvurlari hisoblangan qahramonlik, aql-zakovat, oliyanoblik, yaxshilik, go'zallik vasf etilgan madhiyalarda o'z aksini topgan.

Olimlar haqli ravishda, ilmiy tasavvurlarning rivojlanishida, falsafaning, adabiyotning, musavvirlik san'atining, haykaltaroshlik, me'morchilik, musiqa, teatr san'atlarining paydo bo'lishida, miflar o'ziga xos manba bo'lib xizmat qilgan, deb ta'kidlashadi. Eng qadimgi ertaklarda turli xalq marosimlari, an'analari, qabila urf - odatlari tasvirlangan. Yoxud ularning ibtidoiy miflar syujeti (voqeligi) bilan bog'liqligini kuzatish mumkin.

Vaqt o'tishi, kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan ertak, mif va afsonalarni bolalar "o'zlashtirib" olishdi (yoki qachonlardir kattalar o'zlari uchun yaratgan eng sara narsalarni kichkintoylarga taqdim qilishganidek), keyinchalik esa jahon adabiyotining eng yorqin namunalari bilan bir qatorda "Robinzon Kruzo", "Gulliver", "Gargantuya" kabi asarlarni "o'zlashtirib" olishgan.

XIV - XV asrlarda G'arbiy Yevropa o'rta asrlardagi har qanday erkin fikrni ta'qib etuvchi aqidalar zulmatidan xalos bo'lgan, madaniyat va san'atning gullab-yashnagan markaziga aylandi. Bu jamiyatda burjuazianing paydo bo'lishi hamda shahar madaniyatining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, Renessans (Uyg'onish) davri deb ataladi. Mazkur jarayonning asosi sifatida uning g'oyaviy tayanchi bo'lib, o'rta asrlarda inson shaxsining mustaqil rivojlanish qobiliyatiga ega ekanligi, uning his-tuyg'ulari va fikrlari erkin bo'la olishi mumkinligi to'g'risida mushohada yuritishning o'zi ta'qiqlab qo'yilgan davrdan keyin - yangi gumanizm, ya'ni insonparvarlik (lotinchadan humanus - inson) g'oyasi paydo bo'ldi.

"Uyg'onish" deb nomlanishning o'ziyoq insoniyat qadim zamonlardan buyon yig'ib kelgan barcha yorug' taassurotlarini rad etib, ko'p asr davom etgan qora tundan keyingi tong - yorug'likka qarab intilishi ma'nosini bildiradi, ya'ni, antik davr me'rosiga qayta qiziqish uyg'onganligi ifodasidir.

Buyuk nemis faylasufi Immanuil Kantning: "O'z aql - idrokingdan foydalanishga jasurlik top!", - degan xitobi, mavjud ijtimoiy munosabatlardan xalos bo'lishga, falsafa, ilm-fan, adabiyot va san'atning din homiyligidan chiqishga shior bo'lib xizmat qildi.

Aynan bolalar adabiyoti, dastlab, didaktik adabiyot namunasi sifatida XVII - XVIII asrlarda paydo bo'ldi. Lekin asta-sekin bu adabiyot o'zining betakror ko'rinishlari orqali nasihatimiz qoliplardan chiqa oldi. Bolalarga mo'ljallangan asarlar mualliflari, eng avvalo, o'z mamlakatlarining xalq

og'zaki ijodiga murojaat qilishdi. Masalan, Sharl' Perro birinchi bo'lib kichik kitobxonlarning qo'liga fol'klordan oziqlangan va badiiy sayqal berilgan eng yaxshi adabiy ertaklarni taqdim etdi. Negaki, asar xalq ijodi zaminiga tayangan bo'lsa-da, adabiy ertak xususiyatlarini o'zida to'la saqlab qolgan.

XIX asr romantiklarining faoliyati keng kitobxonlar ommasiga xalq og'zaki ijodi va har bir xalqning milliy-adabiy manbalarini ochib berdi. Jumladan, bu bolalar adabiyotining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, aka-uka Grimmilar, X.K.Andersen va boshqa ko'pgina ijodkorlarning adabiy hamda xalq ertaklari to'plamlari paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Natijada kichik kitobxonlar endilikda ham kitob, ham o'z tengqurlari hayoti aks ettirilgan badiiy tasvirlarni qo'liga ola boshladi. Binobarin, bolalar adabiyoti "katta" adabiyotning mustaqil tarmog'iga aylanib borayotgan edi.

Romantizm insonning ruhiy rivojlanishdagi o'z-o'zini anglash davri bolalikda kashf etilishini ochib berdi. Romantiklar asarlarida bolalik insonning o'zidagi bebaho ichki olam sifatida, shuningdek, teran mohiyati va ajoyibotlari bilan kattalarni ham o'ziga rom etuvchi davr tarzida talqin qilinadi. Katta yoshlik esa xuddi eng samimiy va bolalarcha beg'uborlik tark etilgan davr sifatida yoritiladi. Shuni tan olish kerakki, romantizm nafaqat bolalikni kashf etdi, balki uni eng sof mukammallik namunasi hamda mehr - shafqat timsoli sifatida insonga me'ros qilib qoldirdi.

Realistik tamoyillarning rivojlanishi, ruhiyatshunoslikning chuqurlashishi bilan bolalar adabiyotida keng qamrovli, ko'p qirrali bolalik obrazi mustahkamlandi. Bunda yozuvchilar insoniyat rivojlanishining ibtidolarini, yosh inson xarakterining tub-tubiga etib, bola ichki dunyosining murakkabliklariga asta-sekinlik bilan kirib borib, uning mutanosiblikda va ziddiyatlarda, hayotning yorqin hamda qorong'u ham qayg'uli onlarining kurashlarida shaxs sifatida shakllanishini ochib berishdi. Eng yaxshi yozuvchilar ijodini aniqlovchi asosiy vosita bu bolalikka ishonch, ulg'ayib kelayotgan insonga hurmat, unda rivojlanishning bor imkoniyatlarini, sarchashmalarini hamda asosiy omillarini ko'ra olish qobiliyatining borligidir.

XX asr o'zining revolyutsiyalari, urushlari, keskin ijtimoiy muammolari, o'tkir ziddiyatlari, siyosiy qarashlari bilan bolalar adabiyotini ham o'zgartirib yubordi. Dunyoning dahshatlari kichik kitobxon asari sahifalariga kirib bordi. Ularning qahramonlari - ijtimoiy jonzotlar, ular o'z holicha insonga nisbatan qilingan vahshiylikka qarshi

borishadi, o'zlarining do'stlikka, muhabbatga bo'lgan huquqlarini talab qilishadi hamda kattalarni ularni tushunishlariga chaqirishadi. Zamon muammolari nafaqat realistik asarlarga, balki ertaklarga ham kirib bordi. Ular janriy xususiyatlaridan ozgina chekingan bo'lsalar-da, hamon yaxshilik- yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga umid bog'ashadi va shu yo'lda tinimsiz ma'naviy kurashlar olib borishadi.

Ilmiy-texnika revolyutsiyasi asri butun yer yuzidagi inson jamiyatiga yashash uchun katta hayotiy zarurat – Yerda hayotni saqlab qolish kabi muammoni tug'dirdi. Shuning uchun zamonaviy bolalar adabiyotida ekologik muammolar, atrofimizni o'rab turgan olam, hayvonot va o'simliklar dunyosi haqidagi kitoblar salmoqli o'rin egallaydi. Barcha mamlakatlarning naturalist (tabiat haqida yozadigan) yozuvchilari bolalarda tabiatga hamda barcha jonzotlarga nisbatan ehtiyotkorona munosabat va ularga nisbatan muhabbat ruhini tarbiyalash vazifasini o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan.

Bolalar adabiyoti bugungi kunda o'zining janriy va tematik xususiyatlari jihatidan turli-tuman, o'ziga xos tarzda shakllanib ulgurdi. Unga dunyoning eng taniqli yozuvchilari o'z iste'dodlarini va faoliyatlarini bag'ishlashgan. Chunki ular insoniyat kelajagi o'sib borayotgan avlod qo'lida ekanligini yaxshi anglashadi... Eng asosiysi, yosh inson adabiyot yordamida, fransuz shoiri Polya Elyuara ta'biri bilan aytganda, o'zining dunyoqarashida "bir kishi ufqidan barcha kishilar ufqiga" ko'tariladi. Binobarin, hozirgi zamon chet el bolalar adabiyoti quyidagi omillar ta'sirida maydonga keldi, deyish mumkin:

1. Folklor asarlari hamda klassik yozuvchilarning avval kattalarga mo'ljallangan, ammo vaqt o'tishi bilan bolalar kitobxonligi doirasiga kirib, kichik kitobxonga so'zlab berish uchun hikoya tarzida qayta ishlangan asarlari (qadimgi yunon afsonalari, D. Defo, D. Swift, M. Servantesning romanlari).

2. Bolalar kitobxonligi doirasiga qisqartmalarsiz va qayta ishlanmasdan kirgan fol'klor hamda mumtoz asarlar (fol'klordagi erkalamalar, topishmoqlar, allalar, shuningdek, V. Skott, Ch. Dikens va boshqalarning asarlari).

3. Bevosita bolalarga mo'ljallangan asarlar.

Biz ba'zida adabiy ijodga tirik asos bo'lgan narsa haqida mushohada qilib ham o'tirmaymiz. Bu esa "so'z" edi. Ibtidoiy zamonda aytilgan "hikmatli so'z" odamlar uchun "samo"dan kelgan belgi, "ilohiy ishora" sifatida namoyon bo'lgan, qaysiki, bu hikmatlarni xotirada saqlash, uni avloddan avlodga etkazish mas'uliyati paydo bo'lgan. Bu urinishlar

dastlab, aytish mumkinki, sinkretik shaklda inson bilan u ilohiylashtirgan tabiat kuchlari orasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi marosim qo'shiq va raqslarida ifoda etilgan. Asta-sekin insonning mehnat faoliyati davomida, uni tabiat ne'matlaridan foydalanishni o'zlashtirishi davomida hamda hali o'zi ham atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni to'g'ri anglab yetmagan, qanaqadir kuchlarni o'zicha his etib, uni inson qiyofasid tasavvur qilib, ilohiylashtirib, g'ayritabiyy kuchlarga ega bo'lsa-da, ammo o'zining intilishlari, xatti-harakatlari bilan oddiy insonlarga juda o'xshab ketadigan, xudolar haqidagi miflarni yaratganlar. Bu miflar avval toshlarga o'yilgan rasmlarda, idishlarda, matohlarda aks ettirilgan bo'lsa, yozuv paydo bo'lishi bilan - mixxat shaklida sopolda (tablichkalarda), ierogliflar shaklida papiruslarda, terida, matohlarda birinchi alifbolarning harflari bilan yozilgan. Bunga o'xshash ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi arxeologik qazilmalardan bizga nafaqat qadimgi tariximiz haqidagi dalillar, balki badiiy adabiyotning eng yuqori xususiyatlariga ega bo'lgan asarlar orqali ham ayon bo'ladi. Aytish mumkinki, aynan shu manbalar jahon adabiyotining shakllanish jarayoniga o'z hissasini qo'shgan.

Qadimgi tarixning buyuk sivilizatsiyalaridan (eramizdan avvalgi 4-3 asrlarda) shumer, assiri, Misr, qadimgi yahudiy va forslardan bizgacha yetib kelgan buyuk asarlar hozirda insoniyat madaniyatining nodir durdonalariga aylangan. qadimgi rus tarixining buyuk tadqiqodchisi, akademik N.I.Konrad ta'kidlaganidek, adabiyotning paydo bo'lishi insonyat olamidagi o'ziga xos hodisa sifatida va rivojlanishida Gilgamish haqidagi epos, Injildagi tafsilotlar, qadimgi yahudiylar poeziyasi, "Mahabxorat" yoki "Iliada" matnlari katta "chashma" bo'lib xizmat qilgan. "Qadimgi Eski dunyo, - deb yozadi olim, - yangi adabiyot uchun birinchi manba bo'lib xizmat qilgan". Shunday qadimgi asarlardan ko'pchiligi, aniqrog'i, ularning epizodlari bolalarga ham so'zlab berilgan. Aytaylik, qadimgi afsonalarning bolalar kitobxonligida L. Tolstoy tomonidan qayta so'zlangan matnlari, chunonchi, assiriya ("Assiriyalik podsho Asarxadon"), hind ("Ikki og'a"), yunon ("Yetti yunon donishmandi"), rim afsonalari ("Qanday qilib g'ozlar Rimni saqlab qolishdi") keng tarqalgan. Hozirgi zamon bolalar kitobxonligida R. Rubenshteyn, A. Makarova, A. Sizova, S. Shipovskiy va boshqa mualliflarning ham shunday hikoyalari mustahkam o'rin olgan. Qadimgi hikoyalar syujetlari yozuvchilarni bolalar uchun mumtoz asarlar yozishga qayta - qayta ilhomlantirgan.

Birinchi sivilizatsiya hisoblanuvchi yozma yodgorliklarning bizgacha yetib kelgan eng qadimgi manbaalari shumer dostonlaridir. Ular, shubhasizki,

eramizdan avvalgi III asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan. Arxeologlar tomonidan topilgan sopolda mixxat bilan yozilgan taxtakachlardan (tablichkalardan) insoniyat Gilgamish eposi orqali nafaqat Sharqning, balki butun dunyoning qahramonona epik she'riyati namunasi bilan tanishdi. Ta'kidlash joizki, bu asar Gomer "Iliada"sidan ming yil avval erishilgan badiiy - falsafiy fikrlar cho'qqisidir.

Xudo qonidan va tuproqdan yaratilgan odamzot, ularga ilohiy kuchlar tomonidan yog'dirilayotgan kulfatlar, insonning bu kuchlar qarshisidagi ilojisizlikdan bir umrlik qo'rquvi, "ilohiy tanglik davri" haqidagi hikoyalar juda nozik va mohirona tasvirlangan. Voqea- hodisalar ritmik o'sishda, boblarning boshlanishi va oxiri refren bilan birlashtirilgan. Asarning bosh qahramoni tengsiz g'ayritibiiy kuchga ega bo'lgan Gilgamish, og'ir kulfatlarga mahkum etilgan xalqini, o'zining do'sti Enkidu tomonidan ruhlantirilib, yovuzlik qarshi kurashga o'tlanadi. Do'sti Gilgamishning o'limi uchun yig'lab, sahroga bosh olib ketishi lirik ifodalanadi.

Ierogliflar bilan yozilgan qadimgi Mismig yozma yodgorliklari eng katta miqdorni tashkil etadi. Bugungi kunda qadimgi Misr yodgoliklarining deyarli barchasi papiruslarda, sag'analar hamda ibodatxonalarning devorlarida, maqbara toshlarida yozib qoldirilgan yozuvlar o'qilgan. Bular ichida miflar hamda duolar, harbiy yurishlar tasvirlari, povestlar hamda sevgi lirikasi, sehrarlar haqidagi hikoyalar to'plamlari mavjud. "Injil" – g'arb sivilizatsiyasining "kaliti". U ikki qismdan tashkil topgan: eramizdan avvalgi asrlarda yaratilgan qadimgi yoki Tavrotdan hamda xristianlikning birinchi asrlarida yaratilgan Yangi Injildan. Injil qo'lyozmalarining asl nusxalari bizgacha yetib kelmagan, uning eng qadimgi ro'yxatlari O'lik dengiz g'orlaridan 1947 yillarda topilgan. Ma'lumki, Eski Tavrot avval qadimgi yahudiy tilida yozilib, keyin yunon tiliga tarjima qilingan. Bu tarjima ustida 70 Iyerusalimlik "kitobchilar" ishlashgan, uni yana "Septuaginta"- "Yetmish kishining tarjimasi" deb ham atashadi. Oxirgisidan vizantiyalik missioner-monaxlar Kirill va Mifodiyalar-Rus cho'qintirilishidan deyarli yuz yil oldin, Tavrotni cherkovslovyan tiliga o'girishgan.

Yangi Tavrot, ya'ni Injil yunon tilida yozilgan edi. "Bibliya" so'zining ma'nosi esa - yunonchada "Kitoblar" degan ma'noni anglatadi. Ular janrlari bir necha turdan iborat bo'lgan asarlarni o'z ichiga oladi: bular ham payg'ambarlar haqidagi oliy bilimlar, sevgining tantanali ovozi "qo'shiqlar qo'shig'ida", ham urushlar bayoni, ham madhiyalardir. Xudo Madhiyasi "Injilda" inson madhiyasi bilan -buyuk Ilohiy mavjudot sifatida

hamda Yer yuzidagi barcha ishlari uchun mas'ul javobgar sifatida uyg'unlashib ketgan. O'tgan asrlarda ruhoniyy P.Vozdvijenskiyning "Injil bolalar uchun hikoyalarda" deb nomlangan kitobi juda mashhur edi. Muallifning o'zi bunga shunday ta'rif beradi: "Men Yangi va Eski Tavrotning barcha voqealarini juda oddiy bolalar tilida so'zlashga harakat qildim, bu kitobni o'zlari o'qishadimi, yoki unga onasi, katta opasi yoki o'qimishli enaga o'qib beradimi, uni farqi yo'q, eng asosiysi, bolalar eng kichik yoshlaridan o'zlarining toza va beg'ubor qalblari bilan o'zlari so'zlangan hikoyalarning mazmunini tushunib, anglab olishsin".

Eramizdan avvalgi birinchi yuz yillik boshlarida, og'zaki manbalar an'ana bo'lib, qadimgi hind eposidek ajoyib san'at asarlari "Mahabxorat" va "Ramayana" yaratilgan deb hisoblashadi olimlarimiz. Yevropada bu haqda ikki yuz yildan sal avvalroq: 1785 Ost-hind savdo kompaniyasining xizmatchisi, hind poeziyasi va falsafasining bilimdoni Charlz Uilks, "Mahabxorat"ning ayrim parchalarini sanskritdan ingliz tiliga tarjima qildi. Deyarli shu tarjima bilan birga rus tilidagi tarjimasi ham chop etildi. Antik adabiyotning ilk davri "Iliada" va "Odisseya" dostonlari bilan boshlanadi. Bu asarning dunyo adabiyotining va keyingi san'atlarning rivojiga ta'siri beqiyos. Ularning muallifi VIII asrda yashab o'tgan ko'zi ojiz qo'shiqchi Gomer hisoblanadi. Yunon eposi syujeti asosiga Troya urushi qo'yilgan. Qadimgilar nazdida bu buyuk voqea edi. "Iliada" urushning faqatgina bir epizodi -buyuk qahramon Axillesni Mikeniya podshosi Agomemnon tomonidan haqoratlanishi va Axillesning qahr ustida Troya ustiga bostirib kelishi, uni egallashi va qamali to'g'risida hikoya qilinadi. "Odisseya" Troyaning boshqa qahramoni -Itaki podshosi Odisseyaning qaytishi va yo'lda shu bilan bog'liq bo'lgan sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Rossiyada 1829 yili "Iliada"ning N.I.Gnedich tomonidan va "Odisseya"ning V.Jukovskiy tomonidan yaratilgan tarjimalari chop etilgan.

Xalq og'zaki ijodining ajoyib yodgorliklari orasida "Shaxrizoda ertaklari" eng oliy yodgorliklaridandir... Bu so'z ma'nosi? qadim o'tmishda to'qilgan; uning ranginkamon rishtalari butun er yuzini, go'zal so'z gilamlari bilan burkab chiqqan", -deb ta'riflagan M. Gor'kiy "Ming bir kecha ertaklari"ni. Bu ertaklarni o'qimagan yoki u haqda eshitmagan kishi bo'lmasa kerak. Bu go'zal ertaklar olamida o'zini yengil sezadi inson. Bu ertaklarning mashhurligi bir necha asrlardan buyon o'zgarmas. Bu ertaklarni nafaqat bolalar, balki kattalar ham qo'ldan qo'yishmaydi. G'arb kitobxoni bu ertaklar bilan XVIII asrda fransuz A. Gallan tomonidan tarjima qilingach tanishdi.

Mamlakatimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lgan bolalar adabiyotining rivojlanishi, har tomonlama boyib borishida tarjima asarlarning o'rni, ahamiyati katta. Negaki, tarjima asarlarni o'qigan har bir yosh kitobxonning dunyo haqidagi fikri, tasavvuri boyib, o'sha xalqning yashash sharoitlari, urf-odatlari, mehnatlari, orzu-intilishlari bilan oshno bo'ladilar.

Asrlar osha xuddi ertak kabi eldan elga, tildan tilga o'tib, dillarni yashnatib yurgan "Qizil Shapkacha"(SH.Perro)", Robinzon Kruzo"(D.Defo), "Gulliverning sayohatlari" (J.Svift), "Dyumchaxon"(X.Andersen), "Oltin baliq" (A.S.Pushkin), "Tom Soyerning boshidan kechirganlari", "SHaxzoda va gado" (M.Tven), "Kapitan Grand bolalari", "Ostin-ustin" (S.J. Vern),"Don Kixot"(J. Servantes) kabi asarlar yosh qalblarning olamga nisbatan qiziqishlarini jo'sh urdirib yuboradi.

XX asrda bunyod etilgan "Maugli"(R.Kipling), "Kichkina shahzoda"(A. De Sent-Ekzyuperi), "Katta va kichik Karlson" (A. Lindren), "Toshkent-non shahri" (A.Neverov), "Vinni Pux" (A. Miln), "Axmoq sichqoncha haqida ertak" (S.Marshak), "Uch baqaloq" (Yu. Olesha), "Quvnoq japbaqlar" (B.Kerboboiev), "Doktor Aybolit" (K.Chukovskiy), "Timur va uning komandasi" (A. Gaydar), "Chippolinoning sarguzashtlari" (J. Rodari), "Styopa amaki" (S. Mixalkov), "Kim bo'lsam ekan?" (V. Mayakovskiy), "Bilmasvoy quyosh shahrida" (N.Nosov) singari olam kezib yurgan asarlar o'zbek kitobxon bolalarida katta taassurot qoldirmoqda.

Yuqorida tilga olingan asarlar yosh kitobxonni nimagadir o'rgatadi, nimagadir da'vat etadi. Bu asarlarning ko'pchiligi ona- Vatanga muhabbat, uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish ("Uch baqaloq") noshukur bo'lmaslik, ota-ona pand-nasihatiga quloq solish ("Ahmoq sichqoncha haqida ertak"), tabiatga buyuk mehr ("Maugli"), tabiatni asrash, hayvonot olamini sevish ("Doktor Aybolit"), odamlar xizmatini bajarish, beminnat yordam ko'rsatish ("Temur va uning komandasi"), o'ziga pishiq-puxta bo'lish, ichki sirlarini o'zgalarga oshkor qilmaslik ("Qizil Shapkacha"),namunali o'qish, kasb-hunar egasi bo'lish ("Kim bo'lsam ekan?"), sergak, tadbirkor bo'lish hamda quvnoqlikka intilish ("Quvnoq japbaqlar") dek oliyjanob g'oyalarning yotishi bolalarning tarjima asarlarga nisbatan bo'lgan qiziqish va ishtiyoqlarini o'stiradi.

Bir misol. Italiyaning butun jahon bolalari taniydigan J. Rodari (1920-1980) degan yozuvchisi bor. Uning "Chippolinoning sarguzashtlari" degan ajoyib asarini bolalar huzur qilib o'qiydilar, qarang, Chipporlino

Chipoloning o'g'li edi. Uning yettita akalari ham bor edi. M. Chipollotto, Chipollochcho, Chipolluchcha va boshqa piyoz xonadonining Chipolotto o'g'illari shular jumlasiga kiradi. Ayonki, qaerda piyoz bo'lsa, o'sha yerda ko'zlarda nam bo'ladi. Chippolinolar uncha keng bo'lmagan bir yashikning ustidagi joyda istiqomat qilar edilar. Mabodo, bularning uylarining oldidan olifta zadogonlar o'tib qoladigan bo'lsalar, darhol dastro'mollari bilan burunlarini berkitib, ko'zlaridan yosh oqizib o'tib ketar edilar. Negaki, ular piyozning achchiq hidiga chiday olmas edilar-da!

Ana Shunday quvnoq kuychi J. Rodarining "Hunarprning hidi qanaqa?" degan bir she'ri bog'chalarimiz dasturidan uzoq yillardan beri joy olib keladi. SHe'r quvnoq misralar asosiga qurilgan. Har qanday o'quvchini bir o'qishda, tinglashda o'ziga rom etib oladi. Boshda kitobxon: "Iya, hunarning ham hidi bo'ladimi?"- deydi. Lekin she'rnı o'qigach, tinglagach Rodariga ishonadi, qoyil qoladi, xulosa chiqaradi. Keling, eng yaxshisi "Hunarning hidi qanaqa?"ni hammamiz yana bir bor qayta boshdan o'qib qo'ya qolaylik:

Har hunarning o'zicha	Qandolatchidan esa
Bordir hidi-belgisi.	Mag'zining hidi kelar.
Novvoyxonadan kelar	Doktorning xalatidan
Xamirtirushning isi.	Anqir xushbo'y dorilar.
Ustaxona yonidan	Omoch ortidan asta
O'tib qolsangchi agar,-	Dalada yurar dehqon.
Yangi taxta, payraxe	Tuproq va o'tloq hidi
Hidi dimoqqa tegar.	Bo'lar unda har qachon.
Bo'yoqchida bo'yoqning	Baliqchining egnida
Hidi bo'ladi har xil.	Dengiz hidi chiqqanday
Oyna quchog'idan ham	Faqat bekorchilikning
Zamaska hidi anqir	Hidi bo'lmas hech qanday
SHoferning kurtkasida	Ishyoqmas boy qanchalik-
Benzin hidi bor doim.	Atir sepsin, behuda!
Ishchining kiyimidan	Bolalar!Uning hidi
Kelar mashina moyi.	Qo'lansa bo'lar juda!

Bunday asarlarni yosh kitobxon qancha ko'p o'qisa, shuncha ko'p ma'naviy ozuqa oladi.

Sharl Perro (1628-1703)

Buyuk frantsuz Shoiri va tanqidchisi Sharl Perro badiiy ertak asoschisi sifatida ma'lum va mashhurdir. U o'zining "Qizil SHapkacha", "Zolushka" va "Etik kiygan mushuk" asarlari bilan jahonga taniladi.

Sh. Perro badiiy ertaklar ijod etishda oldin xalq og'zaki ijodini mehr va ishtiyoq bilan chuqur o'rganadi. Shuning uchun ham u o'z ertaklarida xalq udumlarini dadil ilgari suradi. Perro qahramonlari o'z mehnatsevarliklari hamda saxiyliklari bilan ajralib turadi. G'arazgo'ylik, maqtanchoqlik, qizg'anchilik o'rnini yaxshilik, mehribonlik bosib ketishi hamon kitobxonni shod etib kelmoqda.

Sharl Perrodan bor-yo'g'i 12 ertak saqlanib qolgan. Qaysi ertagiga nazar tashlamang, barchasida bolalar zavq oladigan qirralar bor ekanligini darrov payqaysiz. Dunyoda uning "Etik kiygan mushuk" ertagini o'qimagan yoki shu ertak asosida yaratilgan multfilmni miriqib tomosha qilmagan bola topilmasa kerak.

Ertakda aqllilik, bilimdonlik, topog'onlik bosh masala qilib qo'yiladi. Boshqa asarlarda bo'lgani kabi Sh.Perro bu ertakka ham folklor an'alariga yana bir bor sodiq qoladi. Ertak qahramoni-tegirmonchinning kenja o'g'li Karabs fahm-farosat, aql bilan ish ko'rib, o'z murod-maqsadiga yetadi, baxtiyor bo'ladi.

SHarl Perroning barcha personajlari pishiq-puxtaligi bilan ajralib turadi. Ularning ko'pchiligi odamlarni, hayvon-u parrandalarni sevib, erkalab, e'zozlaydigan bo'ladilar. Zolushkani ("Zolushka") olaylik. Uni o'gay ona-yu qizlar xush ko'rmaydilar., xolos. Qolgan barcha jonzot Zolushkani yaxshi ko'radi. Uning o'z baxtini topib, osoyishta turmush kechirishini istaydi. Zolushka juda chiroyli, odobli, sharin so'z, kamtarin, odamlarga, jonvor-u parrandalarga nisbatan mehribon. Uning bunday fazilatlar, mehnat, hallollik va poklik bilan hayotda o'z o'rnini topishi, sevganiga turmushga chiqib baxtli bo'lishi ertak tinglovchida yaxshi taassurot qoldiradi.

Sh.Perro ijodida "Qizil SHkpkacha" alohida o'rinda turadi. Ertakning ta'sirli va jozibali chiqishi uchun Qizil SHapkachaning tabiiy holda ijobiy tomoniga ko'p sayqal beradi, bolalar ko'z o'ngida u dunyodagi tengi yo'q, juda yoqimtoy qizcha sifatida gavdalanadi. Bo'rining yovuzligi, surbetligi, uning kampir qiyofasiga kirib olishi har bir bolada chuqur nafrat hislarini qo'zg'atadi.

Boshqa ertaklarda bo'lgani kabi "Qizil SHapkacha"da ham voqea yaxshilik bilan tugashi bolalarning quvonchiga quvonch qo'shadi.

Sharl Perroning “Havorang soqol”, “Eshak terisi”, “Uyqudagi malika” kabi ertaklari xuddi “Qizil Shapkacha” kabi bolalarbopdir.

Mana to'rt yuz yilki, Shoirning “Qizil SHapkacha” asari jahon kezib yuribdi. Ertakning o'ziga xos xususiyatlaridan biri quvnoqlikdir. Ha, qizchani hamma yaxshi ko'radi, hamma sevadi. Bundan u mutlaqo taltayib ketmaydi. U juda yoqimtoy, oddiy va sodda. SHu oddiy va soddaligi, pismani va mug'ombir emasligi unga pand beradi, bo'riga yem bo'lishiga oz qoladi.

Sharl Perroning bu ertak orqali kichkintoylarga aytadigan gaplari ko'p. Eng avvalo, u barcha bolalarni xuddi Qizil SHapkacha kabi oddiy va quvnoq bo'lishga chaqiradi va kattalarning har bir topshirig'ini so'zsiz bajarishga da'vat etadi.

Ikkinchidan, o'rtadagi sirni oshkor qilmaslikka, o'ziga pishiq-puxta bo'lishga chorlaydi. Bo'ri ochko'z, pismani va mug'ombirdir. SHu sababli qizchani soddaligidan foydalanadi. U bir o'q bilan ikki quyonni urish qabilida ish tutadi. Bo'ri Qizil Shapkachadan osongina safari haqidagi ma'lumotni bilib olgach, endilikda qizchani o'ziga qo'shib uning buvisini ham yeyish payiga tushadi. Ammo Qizil SHapkachaning baxtiga o'tinchilar kelib qoladi.

Ertak tinglovchi har bir bola voqeani mana Shundayijobiy tugashini xush ko'radi, quvnoq Qizil Shapkachaning bo'riga yem bo'lishini aslo xohlamaydi. Ertakning umrboqiyli va jahongashtaligi ham ana shunda.

Aka-uka Grimmmlar

Aka-uka Yakob (1785-1863), Vil'gel'm (1786-1859) Grimmmlar
Ikki yuz yildan ko'proq vaqt ilgari ovloq Gessenning Xanau shaharchasida, hurmatli byurgaerlar oilasida (bu nasldan ko'pgina taniqli huquqshunoslar va ruhoniylar yetishib chiqqan) Filipp Vilgelm Grimm va uning ayoli Doroteyalar nikohidan katta o'g'illari Yakob, bir yildan so'ng esa uning ukasi Vilgelm dunyoga keldi. Tez orada butun oila o'rmonli tog'lar bilan o'ralgan, tinch osuda shaharcha - Shtaynauga ko'chib o'tishdi.

Oila kattagina edi: besh bola va bir qiz - Lotti ismli kichik qizaloq. Bu oilada barcha g'ayritabiiy ravishda mehnatsevar edi. Va barcha bir - birini sevar, hurmat qilardi. Lekin ular orasida bir yashar farq bilan Yakob va Vilgelm o'zgacha mehr bilan bir-biriga bog'langan edilar. Yoshlik chog'laridanoq aka-uka Grimmmlar juftligi tug'ilgan edi. Taqdir ularga uzoq hayotni o'lchab bergan edi. Va ular o'zlarining qarilik chog'larigacha bu mustahkam bog'liqlik hamda mehr -oqibatni tark etishmadi.

Yakob 11 yoshga to'lganda ular otalaridan ajrab qolishdi. Bola oila boshlig'i bo'lib qoldi. U otasi tobuti oldida bolalarcha to'xtamay yig'lar, ammo umuman kattalarcha hamda qat'iylik va iroda bilan endi kichik ukalarining, mitti qizaloq Lottining, g'amdan gavdasi bukilgan bechora onasining eng katta g'amxo'ri, tayanchi o'zi ekanligini anglagan edi.

Keyin Kasselda gimnaziya o'qidi. Belgilangan sakkiz yil o'rniga – tig'izlashtirilgan to'rt yil ichida aka-ukalar o'qishni bitirib, Marburg universitetiga o'qishga kirishadi. Universitetda ular qadimgi olmon she'riyati, runalari bilan qiziqib, shu qiziqishlarini umrlarini oxirigacha olib borishdi.

Universitetni tugatgach Grimmlar Kasselda qaytishadi. Va shu yerda katta bo'ron boshlandi: Napoleon armiyasi Olmoniyaga bostirib kirdi. Fransuz hukmronligi - begona odamlar, begona urf-odatlar, shaharning har bir burchagidan eshilib turgan begona so'zlashuv Olmoniyaga, uning tiliga, urf-odatlariga, tabiatiga, adabiyotiga mehr qo'ygan o'spirinlarni qattiq iztirobga solardi. O'z vatani kishilarning so'ngan ruhiyatini ko'tarish, yurakni ezadigan sukunatga chek qo'yish ilinji yosh olimlarni nemis xalqi tarixi va adabiyotiga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirdi. Aka-uka Grimmlar vaqtlarini kutubxonalarda o'tkarishdi. Ular noyob qadimgi olmon manuskriptlarini (qo'lyozmalarni), masalan, nemis adabiyotining birinchi yodgorligi "Xil'debran haqida qo'shiq" asarini o'rganib, qadimgi nemis she'riyati to'plamlarini chop etishdi. Bu bilan ular xalq yuragining tubida mudrab yotgan qadimgi hikmatlarni uyg'otish kabi maqsadlarini amalga oshirishdi. Ammo bular faqat yozma manbalar bilan bog'liq edi. Ularni esa yana yiroqroq manzillar - xalq qalbining tubi, zamonlarning eng qadimi qiziqtirayotgan edi. Va ular folklorga murojaat qilishdi. Aka-uka Grimmlar o'zlarining harakatdagi faoliyatlari- ertaklar to'plash bilan mashg'ul bo'ldilar.

Birinchi mustaqil topilmalar 1807 yilga taalluqli bo'lib, ular Kasseldagi ikki oila: Vil'dlar va Xassenpfluglar bilan bog'liq. "Boshmaldoq - bola", "Aqli Gretel", "Navqiron Pahlavon", "Oq kabutar", "Mushuk va sichqonning do'stligi", "It va chumchuq" kabi ertaklar Vil'dlar va Xassenpfluglar oilasi a'zolarining og'zidan yozilgan to'plamlar sirasiga kiradi. To'plamlarning jamlanishida o'zining katta qissasini qo'shgan dorifurush (apteka) Vil'dning beshinchi qizi Ganriett Doroteya Vil'd, kelajakda Vil'gel'mning turmush o'rtog'i (Yakob umrining oxirigacha ham uylanmagan) haqida albatta aytib o'tish joiz. Doroteyadan aka-uka Grimmarga "Ganzel" va Gritel", "Yerto'la Bekasi", "Kuylaydigan danakcha" kabi ertaklarni taqdim etdi. Askarlarning

achinarli, nochor-kambag'allikdagi hayotlari, kamsitilgan shaxsiyatlari haqida so'zlab beruvchi Grimmlarning qayg'uli ertaklari qariya Krauze bayonidan yozib olingan.

"Bolalar va oilaviy ertaklar" kitobining ukasi Lyudvig(1790-1863) tomonidan illyustratsiyalar chizilgan nashri, kitobxonlar qo'liga 20 dekabrda Rojdestvo bayrami arafasida qo'lga kirdi va kitoblar qarindoshlar uchun eng katta sovg'a bo'ldi. To'plamning shubhasiz shon-shuhrati aka-uka Grimmlarning keng kitobxonlar ommasiga kitobning ikkinchi qismini ham to'plab, chop ettirishga ruhlantirdi. Endi asosiy hikoyachi sifatida Kassel atrofidagi Nidertsveren qishlog'ida yashovchi Doroteya Fiman (1755-1815) ismli qiz aka-ukalarga qirqqa yaqin ertak tuhfa qildi. Hozirda Doroteya Fimanning uyi va pivoxonasi qishloqchada uning do'stlari jamiyati bilan gavjum (muzey sifatida). Ikkinchi kitob nashrdan chiqqach, Grimmilar qo'lida yana anchagina ertaklar yig'ilib qoldi va ular uchinchi kitobni bosmadan chiqarishni taxmin qilishdi, ammo keyinchalik fikrlaridan qaytib, endilikda ikkinchi qismning keyingi nashrida yig'ilib qolgan ertaklarni qo'shib chop etishni ma'qul topdilar. Hammasi bo'lib Grimmilar bisotida 200 dan ortiq ertak mavjud. Savol tug'iladi: aka-uka Grimmlarning ertaklari - bu haqiqiy asarlarmi yoki shunchaki, xalq ijodi og'zaki bayonining yozma ko'chirmasimi? Javob murakkab va biryozlama emas. Aka-ukalar, ayniqsa, Yakob, ertaklar o'z aslicha, xalqchil bo'lib qolishi tarafdori bo'lgan, toki ularning qayta bayon etilishida, biror bir tuzatish kiritilmagan, zamonaviy ko'rinishda qayta ishlanmagan yoki o'z didi bilan yo'g'rilmagan bo'lsin, degan fikrida qat'iy turgan. Vil'gel'm olimdan ko'ra, ko'proq shoirtabiat bo'lgani uchun ertaklarga badiiy sayqal berish tarafdori bo'lgan. Agar joiz bo'lsa, bu ikkifikrlik juda foydali edi: ularning sa'yi harakatlari bilan Grimmilar ertaklari o'zining halqchilligini yo'qotmagan holda muallif she'riy uslubining birligini saqlab qolgan. Keyin aka-ukalar "Nemis grammatikasi"ni, nemis mifologiyasi maktabiga asos bo'lgan - "Nemis mifologiyasi"ni chop etishadi. Umlarining so'nggida aka-uka Grimmilar Berlin universitetida ma'ruzalar o'qiydilar hamda nemis tili lug'atini tuzish ustida ishlaydilar. Ikki buyuk olim, tilshunos, adabiyotshunos, buyuk ertakchilar o'zlarining umrlarini shu tariqa o'tkazishgan. Germanistika maktabi asoschilari hamda bolalarning eng mashhur yozuvchilariga aylangan bu ikki buyuk shaxs yashab o'tgan Kassil shahrida muzey tashkil qililib, ularning shaxsiy buyumlari, kitoblarining yuzdan ortiq dunyo tillariga tarjima qilingan nusxalari, ukalari Lyudvigning san'at asarlari ehtiyotkorona saqlanib kelinmoqda. Ularning

asarlari boshqa tillarga tarjima qilingandan keyin Yevropa bo'ylab sayohatni boshlab yuborishdi: 1824 yilda fransuz tiliga tarjima qilindi, 1826 yilda fransuz tilidagi nusxasi rus kitobxonlariga yetib keldi (19 asr Rossiyada fransuz madaniyati, tili va adabiyoti ustuvor edi), rus tiliga Pushkinning do'sti va ustози V.A. Jukovskiy tomonidan tarjima qilinib, "Bolalarning suhbatdoshi" ("Detskiy sobesednik") jurnalida chop etildi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklarda mif va afsonalar o' rni.
2. Eng qadimgi ertaklar va ularda ibtidoiy miflar ifodasiga misol keltiring?
3. G'arbiy Yevropada Renessans (Uyg'onish) davri qachon boshlangan va sabablari?
4. Chet el bolalar adabiyotining didaktik namunalari haqida nimalar bilasiz?
5. Yevropa adabiyotida romantizm va realistik tamoyillar ifodasini tushuntiring?.
6. Zamonaviy bolalar adabiyotda ijtimoiy hayot va dolzarb muammolar talqini haqida so'zlang.
7. Hozirgi zamon chet el bolalar adabiyoti tasnifotini oydinlashtiring?
8. Eng qadimgi epos va dostonlarning mavzuviy mundarijasi haqida mulohaza bildiring?
9. "Etik kiygan mushuk" ertagi va uning mazmuni haqida nima bilasiz?
10. "Qizil SHapkacha" ertaginng tarbiyaviy ahamiyati nimada?
11. Sh. Perro ertaklarining bolalar adabiyotida tutgan o' rni qanday?
12. Aka-uka Grimmilar bolalar adabiyotining rivojlanishiga qanday hissa qo'shdilar?
13. Grimmilar ertaklarida qanday sifatlar ulug'lanadi va qanday yaramas odamlar kulgi ostida qoladi?
14. "Botir tikuvchi" ertagi va uning mazmuni haqida nima bilasiz?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

"Qadimgi Eski dunyo, - deb yozadi olim, - yangi adabiyot uchun birinchi manba bo'lib xizmat qilgan",-bu e'tirof muallifini aniqlang.

+ akademik N.I.Konrad

- L. Tolstoy;
- A.S.Pushkin;
- D. Defo;

Qadimgi afsonalarning matnlari bolalar kitobxonligida qaysi adiblar tomonidan qayta so'zlangan ?

+ L. Tolstoy ,R. Rubenshteyn, A. Makarova, A. Sizova, S. Shipovskiy; ;

- A.S.Pushkin, S.Marshak, K.Chukovskiy , J.Svift;
- Balzak, Jyul Vern, A.Tolstoy, D.Defo;
- J.Svift, D.Defo, S.Marshak, N.I.Konrad;

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar to'g'ri belgilangan qatorni toping.

+ "Gilgamish , Mahabxorat" , "Ramayana"

- "Robimzon Kruzo", "Gulliverning sayohatlari";
- "Don Kixot", "Qizil Shapkacha";
- aka-uka Grimm ertaklari;

Antik adabiyotning ilk davri qaysi dostonlar bilan boshlanadi

+ "Iliada" va "Odisseya"

- "Ramayana";
- "Mahabxorat;
- Yangi Tavrot;

"Ularni xalq qalbining tubi, zamonlarning eng qadimi qiziqtirayotgan edi. Va ular folklorga murojaat qilishdi". Bu e'tirof kimga nisbatan aytilgan?

+ aka-uka Grimmlarga;

- Sharl Perroga;
- X.Andersenga ;
- J.Rodariga.

"Bolalar va oilaviy ertaklar" to'plamining muallifini aniqlang.

+ aka-uka Grimmlar.

- J.Rodari;

- Sharl Perro;
- X.Andersen;

Aka-uka Grimmilar chop etgan asarlarni aniqlang.

- + "Nemis grammatikasi", "Nemis mifologiyasi";
- "Ramayana";
- "Mahabxorat;
- "Iliada" va "Odisseya;"

Angliyaning qadimgi ingliz poemasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- + "Beovul'f"
- "Ramayana";
- "Mahabxorat;
- "Iliada" va "Odisseya";

Angliyaning qadimgi ingliz poemasi Beowulf -qanday ma'noni bildiradi?

- + "asalari bo'risi", ya'ni ayiq degan ma'noni anglatadi;
- ertaklar ma'nosini;
- yirtqich qush ma'nosini;
- odam ma'nosini.

Lirik va dramatik elementlar uyg'unligida yaratilgan, ba'zida musiqiy asboblarda jo'rligida kuylashga mo'ljallangan, muallifsiz epik asar deyiladi. Tushirib qoldirilgan so'z nima?

- + ballada;
- ertak;
- masal;
- doston .

16 -MAVZU. XANS KRISTIAN ANDERSON VA ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN YARATGAN ERTAK-DOSTONLARDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR

REJA:

1. Xans Kristian Anderson hayoti va ijodi.
2. Xans Kristian Anderson ertaklari tahlili
3. Rus bolalar adabiyotining shakllanishi va taraqqiyot tamoyillari.
4. A.S.Pushkin xalq og'zaki ijodining bilimdoni.
5. A.S.Pushkin ertak-dostonlarining bolalar kitobxonligidagi o'rni.
6. A.S.Pushkin she'riy- ertaklari tahlili

Tayanch tushunchalar: "Kantson'ere", volgar'e, ruhiy kamolot, "Pantameron", Pinokkio, Chippolino, buratino, marionetka, Djannetino, qo'g'irchoq komediya, seminariya, qirollik, piyoz oilasi, kosmik svilizatsiya, novella, majmua.

Hans Kristian Andersen (1805-1875)

Daniyaning jahonga mashhur ertakchisi Hans Andersen 1805- yilda Odens shahrida dunyoga keldi.

Bolaning otasi kavushdo'z, onasi esa kir yuvuvchi bo'lib ishlar edi. Shuning uchun Hans kambag'allar maktabiga o'qishga kiradi. Oradan uncha ko'p vaqt o'tmay, ularning oilasi Kopengagenga ko'chadi. Bolaning yashash sharoiti va o'qishi bu yerda ancha-muncha yaxshi bo'ladi. Bo'lajak yozuvchi 1823-yilda Slagels maktabiga o'ishga kiradi, undan keyin Xelsingyorda ta'lim oladi. 1828- yilda esa Kopengagen universitetiga o'qishga kiradi.

Andersen juda ko'plab mamlakatlarni kezib chiqadi. Frantsiya, SHvetsariya, Italiya, Gretsiya va Ispaniya singari joylarga sayohat qiladi.

Andersenning ijodi 20-yillarning boshlarida boshlanadi. U dastlab lirik she'rilar, roman, drama, yo'l ocherklari, biografik etyudlar yaratadi.

"Daniyalik Xolger", "Qor malikasi", vatanparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan "Daniya-mening vatanim", ozodlik g'oyasi mujasamlangan

“Soqchi”, “SHilyon asiri” va boshqa she’rlari she’riy janrda yaratgan eng sara asarlari jumlasiga kiradi.

Andersen o‘z romanlarida (“Improvizator”, “O.T” bo‘lgan yoki bo‘lmaydi”) zamonasi uchun juda muhim bo‘lgan voqealarni qamrab olishga harakat qiladi.

Uning ijodi ko‘p qirrali va rang-barangdir. Ayniqsa, tarix va ertak asarlari yosh kitobxonlar uchun maroqlidir. “Ertaklar” (1835-1855), “Yangi ertaklar”(1843-1872) va boshqa kitoblari Andersenning nomini juda mashhur qiladi va uni jahonga tanitadi.

Andersen bu kitoblarni yaratishda xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalanadi, ularning orzu-umidlarini qog‘ozga tushirishga harakat qildi. Ertaklardagi xarakter va jonli nutqni yanada mukammallashtirishga erishdi. SHuning uchun Andersen yaratgan ertaklar sodda, kitobxon uchun tushunarli bo‘lish bilan birga o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ham ega.

Andersen ertaklarida ko‘pincha bosh qahramon shahzoda ham emas, malika ham emas, balki oddiy mehnatkash xalqdir. Ular o‘zlarining samarali mehnati, aql-idroki, axloq-odoblari bilan kitobxon tahsiniga muvaffaq bo‘ladilar. Uning “Qo‘ng‘iroqli girdob”, “Kolbasa sixidan sho‘rva”, “Go‘ng qo‘ng‘iz” va boshqa ertaklari fikrimizga yorqin misol bo‘la oladi. Ertakchining “Qo‘ng‘iroqli girdob” asarini olib ko‘raylik. Unda asrlar mobaynida ezilgan, og‘ir mehnat va zulmdan tinka-madori qurigan mehnatkash xalq vakili Blakening o‘z xojasiga qarshi turishi kitobxonni quvontiradi.

“Bolalar gurungi” asarida avvaldan hech kim taqdirini, kichkintoy o‘tib-ulg‘aygach kim bo‘lib yetishishini bilishi mumkin emasligini, bu ko‘proq o‘sha bolaning o‘ziga, intilishiga, kattalarning ibratomuz pand-nasihatlariga quloq solishga bog‘liq ekanligini o‘qiymiz.

Shohona qasrga to‘plangan bir to‘da bashang kiyingan aslzoda bolakaylar qasrni to‘ldirib maqtanishar, ota-onalarining hisobsiz boyliklari bilan quvonishar, kelajakda ota-onalaridan ham badavlatroq bo‘lish uchun harakat qilishlarini kibor bilan ta’kidlashar edilar. Bu boy-badavlat bolalarning bir-birlariga gap bermay maqtanishlarini yirtiq-yamoq kiyim kiyib olgan bir kambag‘al bola tinglab, xo‘rsinar, “bularga yetish bizga yo‘l bo‘lsin”, deb qo‘yar edi, o‘zicha.

Yillar o‘tib o‘sha juldur kiyimli bola yaxshi o‘qib, rassom bo‘lib yetishdi, mamlakatda eng boy odamlardan biriga aylandi, o‘ziga munosib bir qasr qurdirdi. “Qasr hamda uning ichidagi xazinani ko‘rish”ni hamma istardi.

Ertakchining “No’xat ustidagi malika”asari ham yosh kitobxonning kulgusini qistadi, ham tannoz malikaga qahr-g’azabini qo’zg’atadi.

Bir shahzoda haqiqiy malikaga uylanish uchun butun yer yuzini, shahar-u qishloqlarni qidirib hech qaerdan haqiqiy malikani topa olmaydi. Hafsalasi pir bo’lgan, tarvuzi qo’ltig’idan tushgan shahzoda qasrga qaytadi.

Kunlardan bir kun ko’z ko’rib, quloq eshitmagan mo’jiza yuz beradi:

“Bir oqshom havo aynigandan aynibdi: shundoq chaqmoq chaqib, momaqalldiroq gulduros solibdi, yomg’ir chunonam chelaklab quyib beribdiki, dahshatning o’zginasi.

To’satdan qasr darvozasi taqillab qoldi. Keksa qirol borib darvozini ochibdi.

Darvozada malika turardi. Yo qudratingdan, uni nimaga o’xshatish mumkin! Suv malikaning sochlari, ko’ylaklaridan sharillab oqib, to’ppa-to’g’ri boshmoqlarining uchlariga, tovonlariga tushardi, u bo’lsa pinagini buzmay,”Men haqiqiy malikaning xuddi o’ziman, derdi”.

Malikani sinab ko’rish ishlari ham g’alati bo’ldi. Tunda qirq qavat ko’rpa ostiga no’xatni yashirib joy solib berdilar. Tannoz oqbilak qiz ertalab o’rnidan turar ekan, “qanday uxlab turdingiz?” deyilgan savolga nolish ichki dard bilan javob berdi:

“Ey juda yomon!-deydi u. —Ko’zimni yummadim desam ham bo’ladi. Men qandaydir qattiq narsaning ustida yotdim, butun a’zoyi badanım ko’karib ketdi. Naqadar dahshat!”

SHahzoda qizning haqiqiy malika ekanligini bilib, unga uylanadi.

Bolalar, odatda, hayvonlar, parrandalar, hashoratlar haqidagi ertaklarni sevib o’qiydilar. Andersen yaratgan ertaklarning juda ko’pchiligi ana shu mavzuni qamrab olishi bilan ham xarakterlidir.

“Dyumovichka”, “Irkit o’rdakcha”, “Botqoqlik shohining qizi”, “Baqa”, “Burga bilan professor” singari ertaklari o’zbek kitobxonlarining ham sevimli asarlariga aylanib ketgan.

Xullas, daniya ertakchisi Hans Kristian Andersenning ijodi uzoq yillardan beri yosh kitobxonlarga zavq-shavq bag’ishlab kelmoqda.

Aleksandr Sergeyevich Pushkin **(1799-1837)**

Bolalar adabiyotining dunyoviy sarchashmasini, jahon adabiyoti qayerdan boshlagan bo’lsa shu yerdan izlash lozim: shubhasiz, avvalo, arxaik sivilizatsiyalar, antik davr, dunyo dinlari rivojining eng birinchi davrlaridan, shuningdek, bitmas-tuganmas ummon bo’lmish-jahon

folkloridir. Slavyanlarda kitob madaniyatiga birinchi tamal toshini qo'ygan shaxslar aka-uka Kirill (826 -869) hamda Mifodiylardir (820-885). Makedoniyalik greklar janubiy slavyanlarga Vizantiyaning ilohiy kitoblarini olib kelishgan va shu yerdan qadimgi Rus zaminlariga ham birinchi kitoblar o'tib qolgan. Kirill va Mifodiyalar qadimiy bolgar tilining makedon lahjasiga birinchi bo'lib Injilni tarjima qilishgan. Tarjima qilish maqsadida ruslar uchun muqaddas aka-ukalar 863 yillarda slavyan alifbosini yaratishgan, grek alifbosi asosida yahudiy hamda kopt harflarini qo'shish natijasida alifbo tuzgan. Bu alifbo kirill alifbosi deb nom olgan. Kiev Rusi adabiyoti X-XIII asr o'rtalarida paydo bo'lgan. Qadimgi rus kitobchisi yozuvni faqatgina xristianlikdagi pand - nasihatlarining qaysi biriniga to'g'ri desa, shuni yozish kerak, deb bilgan. U tasavvur qila olmagan hamda uni keraksiz deb bilgani uchun o'z shaxsini matn orqali bildirmagan, hattoki ismini ham matn oxirida ma'lum qilmagan. Rus bolalar adabiyotining rivoji XU asrning o'zgarishlari arafasida shakllana boshlagan. Bu vaqtda Moskva Rusi birlashib, o'zining chegaralarini Sibir va janub cho'llari tomon kengaytirayotgan, poytaxt jamiyatiga chet elliklarning ta'siri oshib, oliy tabaqa madaniyati rivoj topib borayotgan edi. Adabiyot jarayoni o'quv – targ'ibot adabiyotidan, badiiy va ilmiy adabiyot sari rivojlana boshladi. O'quv kitoblari bolaga faqatgina tayyor axborot berib, bolaga uni yodlashgina qolayotgan edi. Bunday adabiyot o'quvchini faqatgina bir yoqlama fikrlashga hamda boshqa bir kishining monologini yodlab olishga yo'naltirilgan edi. Shu bilan bir qatorda unga hamohang bo'lib, bolani dialogik nutqqa chorlovchi, uning bolalarcha "men"ini shakllantiruvchi, "nima uchun?" so'rog'iga javob beruvchi adabiyot ham rivojlana boshlagan. O'qishga hamda yozishga o'rgatuvchi kitoblar kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan. Ular ikki turda bo'lgan: yarim qoidalarga javob beruvchi, muqovalangan, o'qish uchun alifbo-kitoblari va qog'ozlarda tez yozilgan, bog'lamcha bilan bog'lab yopishtirilgan alifbo-yozuv kitoblari.

Birinchi qadimgi rus bolalar shoiri deb, XU asrning 30-40 yillarida Moskva bosma uyida ma'lumotchi (bu mansabga juda o'qimishli va hurmatli odam tayinlangan) bo'lib ishlagan Savvatiy hisoblanadi. U Moskvaning oliy tabaqaga mansub, mashhur oilalarining bolalarini o'qituvchisi bo'lgan. Savvatiy 1634 yilda chiqqan birinchi bosma alifboni tayyorlashda ishtirok etib, o'zining she'rlarini (virshilarini) bosmadan chiqaradi. Savvatiy virshilarning asosiy g'oyasi o'qishning foydasi, dangasa va yalqovlikning zarari haqidadir. Bu davrda bolalar prozasi ham rivojlana boshlaydi. Rus jangovor povestlari qayta ishlandi va bolalar

uchun qisqartiriladi. Masalan, "Mamay janglari haqida hikoyalar" (Kulikovo jangi haqida), "Don kazaklarining qal'ada o'tirishlari haqidagi hikoyalar", oilaviy-turmush haqida so'zlovchi "Pyotr va Fevroniya haqida hikoya" larni shu ma'noda e'tirof etish mumkin. Ayni paytda bolalar uchun tarixiy asarlar ham rivojlana boradi: ko'pincha bolalar uchun tarixiy ma'lumotlar aks etgan maqolalar qayta ishlangan; boshlanishida "O'tgan davrlar hikoyasi" ("Povesti vremennix let"), keyin rus tarixidan qisqa hikoyalar bayon qilingan, masalan, "Sinopsis" kabi.

N.M.Karamzin (1766- 1826) birinchi navbatda yirik tarixchi va rus sentimentalizm oqimining asoschisi hisoblanadi. Bolalar uchun Karamzin 30 dan ortiq asar tarjima qilgan yoki yozgan, uning ko'p asarlari Novikovning "Qalb va aql uchun bolalar kitobxonligi" ("Detskoe chtenie dlya serdtsa i razuma") jurnalida bosilib chiqqan. Uning "Anakreonetik she'rlar" hamda "Yevgeniy va Yuliya" va boshqa asralarida inson va tabiat go'zalligi, do'stlik va toza muhabbat kabi tuyg'ular kuylanadi. Bolalar uchun yozilgan ertaklari orasida fol'klor janrida yozilgan "Qalin o'rmon" ertagi ajralib turadi. Unda qo'rqinchli epizodlar mavjudligi bilan bolalarni o'ziga jalb etadi. "Bechora Liza" asarini o'spirinlar juda maroq bilan o'qishgan. Karamzinning "pahlavon ertagi" "Il'ya Muromets"ning (1794) epigrafi Fransuz masalnavisi Lafontenning ta'biri bilan ifodalangan. Unda shunday jumlarlar bor: "Aytadilarki, dunyo ko'hna deb; men bunga ishonaman; baribir uni boladek ovuntirish kerak". Bu bilan Karamzin, rus madaniyati nasihatgo'ylikdan charchadi, uni ko'rgazmali tomosha, o'yin-kulgili adabiyotga aylantirish kerak, degan fikrni ta'kidlayotgan edi.

Rus kitobxonlari XVIII asrning ikkinchi yarmida ertaklar bilan qiziqib ketish jaryonini boshdan kechirdilar. M.D.Chulkovning "Masxaraboz yoki Slavyan ertaklari"ni (1766-1768), V.A.Levshinning "Slavyan pahlavonlari haqida so'zlab beruvchi rus ertaklari, xalq ertaklari va boshqalar, takror aytilib xotirda qolgan sarguzashtlar"(1780-1783) kitoblarini o'qishga kirishib ketdilar. Enagalar endi bemalol o'zlariga topshirilgan bolalarga oddiy xalq ertaklarini aytib beradigan bo'lishdi. Yozuvchilar endi kitobxonlar ommasining ehtiyojlarini sezgan holda ularga bemalol feyalar, pahlavonlar, xudolar haqidagi ertaklarni yoza boshladilar. XVII asrda paydo bo'lib, XVIII - XIX asrlar davomida rus xalqining ommaviy madaniyatiga aylangan lubochnaya, ya'ni badiiy jihatdan bo'sh, saviyasi past, zaif, xalq ijodidan ustunroq va badiiy asarlardan pastroqda turgan o'rtamiyona adabiyot bolalar va o'smirlar orasida o'zining muxlislarini topgan. Lubkalar bu taxtakachlarga gravyura rasmlar solib bosilgan matnlar. Gravyura o'z nomi bilan tayyor rasm yoki

matnni qog'ozdan taxtakachlarga qo'yib, o'yib ko'chirish degani. Shu jarayondan keyin tasvir qog'ozga yoki matohga ko'chiriladi. Rus lubkalarining mavzulari turli-tuman bo'lgan: injildan illyustratsiyalar qilingan, shonli jangchilar haqida, muhim voqealar, xalq udumlar va an'analari, turmush lavhalari, xalq taqvimnomalari, ertaklar, hattoki siyosiy satiralar ham bosilgan. Lubkalar o'zlarida gazeta yoki plakat, rasmlarni va kitoblarni mujassamlashtirgan va shu bilan bir qatorda oddiy xalq ichida ziyo tarqatishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. XIX asrning birinchi yarmi rus adabiyoti tarixida katta o'zgarishlar bilan belgilanadi. Bu davr dvoryanlarning erkin fikrlash ("donishmandlikni sevisht") g'oyalari bilan yo'g'rilgan. Rus "Oltin asr"i adabiyotining yirik namoyondalari, faqatgina, biror-bir pedagogik jarayon yoki fikrlash bilan to'qnash kelganlaridan keyingina, bolalar uchun kitob yozishgan. Shu davr bolalar kitobxonligi doirasi adabiyotining namunalari sifatida masalnavis I.A.Krillovning (1769-1844) asarlarini keltirish mumkin. Uning masallari bir necha avlod bolalari tarbiya olib kelayotgan butun bir ma'naviy-axloqiy to'plamni tashkil etadi. Krillovning masallari nafaqat donishmadlik, balki haqiqat bilan ham yorqinroqdir. Uning masallari juda qisqa, ammo ma'nosi ulkan. Masalan, "Bo'ri va qo'zichoq", "Oqqush, Cho'rtan baliq va qisqichbaqa", "Chigirtka va chumoli", "Mushuk va Oshpaz", "Qarg'a va Tovuq", "Itlar ichidagi Bo'ri" kabi.

V.A.Jukovskiy (1783-1852) rus yozuvchisi, ammo uning mumtoz asarlari kam bo'lib, asosan u nimasi bilandir uning his-tuyg'ulari va tasavvurini qo'zg'atib yuborgan asarlarni qayta ishlash yoki tarjima qilish bilan shug'ullangan. Kichik bolalar kitobxonligi doirasiga uning "Etikli mushukcha", "Uyqudagi malika", aka-uka Grimmlar ertaklari asosida yozilgan "Na'matak-malika" va Perroning "O'rmonda uxlab yotgan go'zal" asarlari kiradi. Jukovskiyning shoirlik iste'dodi uning yana bir pedagoglik qirrasini ham ochib berdi. U o'zining ikkita jiyani - Mariya Protasova hamda Aleksandra Voykovaning (kelgusida bolalar yozuvchisi) uy o'qituvchisi bo'lgan. Keyin u nemis Malikasi, bo'lg'usi Rus Podshosi buyuk knyaz' Nikolayning turmush o'rtog'i Sharlottaga rus tilini o'rgatgan. Uning qo'lida etti yoshidan boshlab bo'lg'usi imperator Nikolay II tahsil olgan. Jukovskiy "Odisseya"ni tarjima qilgach, o'zining kichik qizchasini o'qitib- o'rgatishga kirishadi, ularga darslar o'tadi hamda ular uchun yengil grammatikani tuzib chiqadi va shuning natijasida "Pavel Vasil'evich va Aleksandra Vasil'evna Jukovskiy'larga bag'ishlangan she'rlar" asari yozilib, bu asar yozuvchining o'lgan yilida nashrdan chiqadi. Bu she'rlar yordamida Germaniyada yashovchi rus tilini

bilmaydigan ruslarning bolalari til o'rganishgan. "Qushcha", "Mushukcha va echkicha", "Jimjimaloq bola" asarlari miniatyura shaklida yozilgan. Bundan tashqari, Jukovskiy Sharl Perroning asarlarini tarjima qila turib, undagi dahshatli lavhalarni olib tashlaydi va ularni bolalar tarbiyasi uchun muhim jihatlar bilan boyitgan.

A.S.Pushkin (1799-1837). A.S.Pushkin ta'lim-tarbiyasida Yevropa madaniyati, fransuz Uyg'onish davri adabiyoti ta'siri katta. U bolaligidan fransuz va rus tillarida erkin so'zlasha olgan. Bo'lajak shoir litseydagi talabalik davridayoq antik adabiyotning mumtoz hamda Yevropa yozuvchilarining asarlarini sevib o'qish bilan birga, rus klassiklarining kitoblarini ham sevib mutolaa qilgan. Qadimgi rus adabiyoti unga kam tanish bo'lsa-da, ammo uning estetik jihatdan shakllanishida xalq fol'klori eng katta ta'sir ko'rsatgan. Pushkin davrida, hatto dvoryanlar oilalarida ham, ertaklar aytish urf bo'lgan. Shoir bolaligida ertaklarni o'z enagasi Arina Rodionovna Matveevadan, buvisi Mar'ya Alekseevna Gannibaldan, uy xizmatchisi Nikita Kazlovdan hamda Moskva yaqinidagi Zaxarova qishlog'ining dehqonlaridan eshitganligini ko'p ta'kidlaydi. U Ukrainada, janubda, Nijegorod shahridagi Boldinoda, Janubiy Ural va Orenburg tomonlarda bo'lib ertaklar, maqollar, matallar, qo'shiqlar eshitgan va yozib olgan.

Pushkin ijodida bolalar mavzusi kam uchraydi. Faqatgina uncha katta bo'lmagan "Go'dakka" (1824), "Go'dakka epitafiya" (1828) (epitafiya - qabr toshi ustidagi bitik) she'rlari bevosita bag'ishlovdir. Ammo uning ko'pgina lirik she'rlari, doston va adabiy ertaklari bolalar kitobxonligida mashhur. Shu sababli Tvardovskiy haqli ravishda, u bizning hayotimizga bolaligimizning ilk davrlaridan boshlab kirib keladi va umrimizning oxirigacha bizni hech qachon tark etmaydi, degan edi. Muhimi, Pushkin yangi rus adabiyotini realistik va xalqona tamoyillar bilan boyitdi. U "Ruslan va Lyudmila" dostonini yozishni o'n yetti yoshida boshlab, yigirma yoshida tugatadi. Shoirning ana shu ilk ijod namunasidayoq ertak ajoyibotlari olami mavjud. Bu bir necha yuz yillardan buyon o'quvchilarni doimo o'ziga rom etib kelayotir. "Ruslan va Lyudmila" dostonining mashhur muqaddimasi kitobning ikkinchi nashri (1828 yilda) bilan paydo bo'ldi va u mustaqil asar deb talqin qilinadi.

U lukomor'ya dub zelyoniy;
Zlataya tsep' na dube tom;
I dnyom i noch'yu kot uchyoniy
Vsyo xodit po tsepi krugom;
Idyot napravo - pesn' zavodit,

Muqaddimaning asosiy qahramoni qo'shiqchi hamda ertakchi bo'lgan "Bilimdon Mushuk" ("Kot uchyoniy"). Muallifning ertakona syujet mozaikasini oldindan berishi bejiz emas, bunda qo'shiqlar hamda ertaklar qanday dunyoga kelishi, inson tomonidan o'ylab, to'qib bo'lmaydigan g'ayritabiyy xalq g'oyalari sirli rishtalar bilan bog'langani anglashiladi. Shu sababli shoir o'sha sirli manzil (Yashil eman daraxti o'sayotgan Dengiz bo'yi)da ertaklar eshitganini, shu jumladan "Ruslan va Lyudmila" ertagini ham tinglaganini muqaddimada ta'kidlaydi. Ajoyibotlarning tasviri go'zal suv parisi va suv alvastisi, yovuz kuchlar(demonologiyadan), ya'ni xalq ishonadigan qahramonlar talqinidan boshlanadi. Keyin misli ko'rilmagan olam tasvirlanadiki, buni to'qima yo haqiqiyliги anglash qiyin. "Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yo'lakchalarda misli ko'rilmagan hayvonlarning oyoq izlari..." Va shu zahotiyloq, notanish manzarani haqiqiy rus ertagi syujeti egallaydi: "U yerda, eshiksiz, derazasiz tovuq oyoqli kulbacha..." xalq ijodida o'tloq va o'rmon orasidagi chegara ma'nosini anglatuvchi, ya'ni ikki qirollik orasidagi chegara - qahramon oilasi yashaydigan odamlar qirolligi hamda yovuzlik hukmronlik qiladigan "boshqa" O'lmas Kashshey istiqomat qiladigan personajlar tasviri. "U erda o'rmon va mo'jizalar to'la maydoncha..." - shoir sirli tabiat bilan sehirli g'oyalarning bog'likligini ko'rsatmoqchi bo'ladi, so'ngra esa dengizdan ajoyibotlarni paydo bo'lishini "ko'rsatadi": "U yoqda tongdan to'lqinlar xabar berar, Va o'ttiz uchta pahlavon o'zlarining dengiz bobolari bilan birin-ketin suvdan chiqib, kimsasiz va qumloq sohilda saf tortib turar..." O'quvchi endi haqiqatdan shahzodani ham, maftunkor shohni ham, pahlavon bilan uchib yurgan jodugarni ham, yovuz bo'ri bilan malikani ham ko'rishga tayyor. Va nihoyat, xalqning oddiy taxayyulidan paydo bo'lgan eng buyuk qahramonlar - Yalmog'iz kampir (Baba Yaga) hamda o'lmas podshoh Kashshey (Sar Kashey) paydo bo'lishadi. "U yerda rus ruhiyati.... U yerda Rus ufurib turibdi!" - shu tariqa, shoir tomonidan olib chiqilgan rus xalq ertagiga oliy baho beriladi. "Men ham u yerda bo'ldim, bol ham tatidim..." Shoir xalq folklori xotimasini so'zma-so'z bayon qilib, o'zining ijodining sarchashmasi xalq she'riyatidan olinganligini barchaga ayon qiladi. Shu tariqa, Pushkin ertaklarni yuqori adabiy janrlar bilan bir qatorga qo'yadi. Shoir nigohida ularning har biri butun bir doston. Binobarin, bolalar kitobxonligi doirasiga kiruvchi "Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak" (1831), "Shoh Saltan, uning shavkatli va pahlavon bahodir o'g'li knyaz' Gvidon", "Oqqush malika haqida ertak", "Baliqchi va baliq haqida

ertak" (1831) kabi o'nlab ertaklar shoir ijodining eng gullab yashnagan, mashhur asarlari yaratilgan vaqtda yozilgan. Bularning barchasi Pushkinning xalq og'zaki ijodiga yuksak munosabatini ko'rsatadi. Shunisi e'tiborliki, Pushkinning ko'pgina ertaklari jahon xalq ertaklari syujeti asosida yozilgan. Jumladan, uning "Baliqchi va baliq haqida ertak"i nemis ertakshunoslari aka-uka Grimmlarning "Baliqchi va uning xotini" ertagi syujetiga monand. Yakob va Vilgelm Grimmilar ertagi 1815 yilda nashr qilingan "Bolalar va oilaviy ertaklar" to'plamida chop etilgan. Grimmlarning ertagi V.A.Jukovskiy tomonidan 1826 yilda rus tiliga tarjima qilingan va "Detskiy sobesednik" jurnalida chop etilgan. Aytish mumkinki, Pushkin ijodida ularning alohida ta'siri bo'lgan. Natijada, bir xil syujet asosida yozilgan ertaklarning o'ziga xos mushtarak va farqli xususiyatlarini kuzatish mumkin. Aka-uka Grimmilar ertagining G.Petnikova tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasi nasriy bayonga ega va unda baliqchi chol kambala-baliqlarning shahzodasini tutadi; undan avval yangi uy, qasr, so'raydi. So'ngra, kampir malika, imperator, rim papasi bo'lishni orzu qiladi. Barcha tilaklari amalga oshgan kampir endi quyosh va oyning chiqishi-yu botishini o'zi belgilamoqchi, xudo darajasiga ko'tarilishni istaganda, eski uyiga qaytib qoladi. Pushkin esa ertakni xalqona uslub, qofiyasiz she'r shaklida yozadi. Bu vazn ertak hikoyasiga musiqiylik baxsh etgan. Vaznga mos tarzda unda ma'naviy-falsafiy mazmun ham mavjud. Chol oltin baliqdan avval yangi tog'ora, so'ngra uy, keyin qasr so'raydi. Malikaga aylangan kampiri dengiz hukmroni bo'lishni xohlab, cholni haydaganda eski uycha va teshik tog'ora qaytib oldida paydo bo'ladi. Demak, Grimmilar ertagida bitta istak ziyod bo'lishdan tashqari, siyosiy hayot va davlat boshqaruviga daxldor shartlar qo'yilgan. Chol ham o'z kampirining har bir xohishiga qarshi borib, uni insofga chaqirishga harakat qiladi, baliqni boshqa bezovta qilmaslikni so'rab, yalinib-yolvoradi. Shunga o'xshash, chol-kampir munosabatida muloyimlik, har bir orzu ro'yobga chiqqach, kampirning cholga nisbatan mehri iyib, "Ko'ryapsanmi, qanday yaxshi?", "Ha, nima axir, bu ajoyib-ku?",-degan iqrorlari ko'zga tashlanadi. Ya'ni, ertak qahrg'azabdan xoliroq va xalqning shunchaki xayolparastlik tuyg'usiga monand. Kampir boy-badavlat, hatto, "imperator" va "Rim papasi" bo'lganda ham o'z choliga munosabati o'zgarmagan. U bilan odatdagidek, muomala qiladi, yashaydi...

Pushkin ertagi variantida esa real hayot manzaralari ustivor. Kampir har safar cholni "Eh, sen ahmoq, sodda chol, qani, jo'na dengizga!",-deb so'kadi. Va har gal orzusi ro'yobga chiqqach, tag'in-da, darg'azab bo'lib,

cholni haqoratlaydi hamda unga xizmatkoridek munosabat ko'rsatib, haydab soladi. Chol ham "la'nati kampir"ga qanday chora ko'rishni bilmaydi. Aslida u oltin baliqchani hech tamasiz qo'yib yuborgan edi("Tangri yoring bo'lsin, baliqcha"). Shu sababli baliq ham cholga har gal minnatdorlik yordamini ado etadi: "Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin!". Kampir esa oltin baliqchaga o'zining ushalmas orzularini ro'yobga chiqarish vositasi sifatida qaraydi. U dastlab, o'zini zarur narsalarnigina istayotgandek tutadi, keyin esa ko'proq va yana mo'lroq narsalar xohlaydi. Zero, kampirga hokimyatning tashqi ko'rinishi kifoya qiladi, u zodagonlik va qirollik xizmatining ichki mazmun-mohiyatini tushunmaydi va istamaydi ham. Bu oddiy xalq nazdidagi "hokimiyat aqlining boy, farovon hayot kechirishi"ga oid sodda fikrlarshining ifodasidir. Ertakning asosiy g'oyalaridan biri - "buyuk" vazifalarni bajarishni da'vo qilishdan ko'ra, har kim o'z kuchi etadigan ishni (masalan, kampir ipini yigirishi, chol to'rida baliq ovlashi) bajarishi yaxshiroq ekanligidir.

Dengiz Pushkin uchun doimo erkin odatlar, ya'ni o'ziga xos olam, har xil chegaralardan xoli o'zgacha dunyo sifatida qarab kelingani e'tiborga olinsa, ertakda insoniyatning boylik va mansab cho'qqilari sari intilish kuchi yoki uni o'ziga maftun qilib, domiga tortayotgan orzu-istaklar ko'proq erga xosligi anglashiladi. Insonning ochko'zligi va axmoqligi tufayli tabiatdagi mutanosiblik buzilishini shoir teran his qiladi. Shu sababli, ertak oxirida barcha narsalarning tartibi o'z o'rmini topadi: chol o'z kampirini o'sha yerto'la va teshik tog'ora oldida ko'radi. Muammo echimi-aqlsizlikning mag'lub bo'lishi. Bu jihatlar har ikkala ertak varianti uchun daxldor bo'lsa-da, Pushkin o'z ertagida keskinlikni oshiradi. Bunda kampir shafqatsiz, qahrli va xudbin tasvirlangan. Cholning g'azabi, kinoya va pichinglari ham shunga yarasha dag'al. Demak, bir xil syujetga ega ertaklarning talqinida har bir xalqning qarashlari, ijtimoiy turmush tarzi, voqelikka munosabati turlicha aks etadi. Aytish mumkinki, S.Pushkin ertagida ijodiy g'oya, badiiy sayqal va real davr voqeligi yorqinroq ko'rinadi. Va bu shoir asarlarining sarchashmasi xalq ijodiyoti ekanidan dalolat berish bilan birga, unga ijodiy yondashganligini e'tirof etadi. Zero, uning yosh yozuvchilarga ko'proq ertaklar o'qishni maslahat berishi bejiz emas.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. "Bolalar gurungi"dagi bolalarning o'zaro suhbatidan qanday xulosa chiqardingiz? Kambag'al bolaning mashhur rassom bo'lib yetishishiga asosiy sabab nima deb o'ylaysiz?

2. "No'xat ustidagi malika" ertagida qanday g'oya ilgari surilgan?
3. Andersen ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati qanday?
4. Pushkin o'z ertaklarining manbasini qaerdan oladi?
5. Shoirning qaysi asarida Dadon qoralanadi?
6. Siz Pushkinning qaysi ertak, dostonini yoqtirasiz?
7. Pushkinning xalq og'zaki ijodiga munosabati?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

Hans Andersinning vatanparvarlik ruhi bilan yoritilgan asari qaysi ?

- + " Daniya mening vatanim "
- " Daniyalik xolger "
- " Soqchi "
- " Qor malikasi "

Andersinning nomini juda mashhur qilgan va uni jahonga tanitgan kitoblari qaysilar ?

- + " Ertaklar", " Yangi ertaklar "
- " Daniyalik xolger " , " Soqchi "
- " Qor malikasi " , " " Daniya mening Vatanim "
- "Ertaklar" , " Daniyalik xolger "

H. K. Andersinning 4-sinf (2017) o'qish kitobida qaysi asarlari berilgan?

- + "Bolalar gurungi"
- " Bir xurmacha shavla "
- "Oydin kecha "
- "Jimjiloq "

"Noxot ustidagi malika", " Dyumovichka" , " Irkit o'rdakcha " asarlari qaysi mashhur ertakchining qalamiga mansub ?

- + H. K .Andersen
- Aka- uka Grimlar
- Sharl Pero
- Marshak

Andersinning yaratgan ertaklarining juda ko'pchilligi qaysi mavzuni qamrab oladi?

- + Hayvonlar, parrandalar , hasharotlar
- Shahzoda, malika , podshohlar
- Bolalar hayoti
- Mehnatkash xalq

"Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak" asari muallifi?

- + Pushkin
- Nekrasov
- Marshak
- Lermontov

Pushkinning "Oltin xo'rozcha haqida ertak" asari janri nima?

- + ertak-doston
- ertak-qissa
- doston
- ballada

Quidagi asarlardan qaysi biri Pushkinning bolalarga atalgan asari emas?

- + "Kapitan qizi"
- "Oltin xo'rozcha haqida ertak"
- "O'lik malika va yetti bahodir"
- "Etti oqqush"

Pushkinning qaysi asari rus xalq folklorining to'lopolochilaridan biri V.Dal hikoya qilib bergan syujet asosida yaratilgan?

- + "Baliqchi va baliq haqida ertak"
- "Shoh Sulton haqida ertak"
- "Sehrli ko'zgu"
- "Ajoyib bolalar"

"Shoh Sulton" ertagi qaysi xalq ertagi asosida tuzilgan?

- + "Ajoyib bolalar"
- "Sehrli ko'zgu"
- "Qurimsoq kampir"
- "Baliqchi va baliq haqida ertak"

".....u g'irt ahmoq.Na xalqni sevadi va na farzandlariga mehribon otalik qila oladi.Dadon o'taketgan darajada maishatparast va kaltabin....."ushbu parcha Pushkinning qaysi ertagidan olingan?

+ "Oltin xo'roz haqida ertak"

- "Pop va uning xizmatkori Balda"

- "Shoh Sulton haqida ertak"

- "Qurimsoq kampir"

Pushkinning qaysi ertagida ikki qarama-qarshi obrazning qul bozoridagi suhbatlari keltirilgan?

+ "Pop va uning xizmatkori Balda"

- "Shoh Sulton haqida ertak"

- "Qurimsoq kampir"

- "Oltin xo'roz haqida ertak"

17 -MAVZU. NIKOLAY ALEKSEYEVICH NEKRASOV VA LEV TOLSTOY YARATGAN ERTAK-DOSTONLARDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR

REJA:

1. N.A.Nekrasovning bolalar adabiyotidagi o' mi.
2. N.A.Nekrasovning ertaklari tahlili
3. Lev Tolstoyning bolalar adabiyoti namunalari boyituvchisi
4. Lev Tolstoy ertak-dostonlarining bolalar kitobxonligidagi o' mi.

Tayanch tushunchalar: "Kantson'ere", volgar'e, ruhiy kamolot, "Pantameron", Pinokkio, Chippolino, buratino, marionetka, Djannetino, qo'g'irchoq komediya, seminariya, qirollik, piyoz oilasi, kosmik svilizatsiya, novella, majmua.

Nikolay Alekseyevich Nekrasov (1821-1878)

Taniqli rus Shoiri Nikolay Alekseyevich Nekrasovning bolalik yillari Volga bo'ylarida –o'zi tug'ilib o'sgan joylarda o'tgan edi. Shoirning yoshlik tarbiyasida oqila onasining roli katta bo'lgan. SHu bois u keyinchalik "Ona" poemasini onasiga bag'ishlab yozgan edi. O'g'lining dehqon bolalari bilan o'ynashi, yayrab yurishini xohlagan ona –Elena Andreevna bo'lajak Shoirning xalqparvarlik ruhida tarbiyalanib o'sishiga munosib hissa qo'shgan edi.

Bugina emas, Nekrasovning enagasi ham hayot va xalq ijodi ruhi bilan sug'orilgan ajoyib ertaklar aytib, bo'lajak Shoir xayolotini qanotlantirar edi. SHu-shu Nekrasov ertaklarni juda sevib qoldi. O'z vatanining dala va o'rmonlariga, qor va sovuqlariga, bahorgi "yashil shovqiniga" muhabbat bog'ladi.

Nekrasov dehqon bolalari bilan hamisha hamnafas bo'lganligi uchun dovyurak, botir va jasoratli bola bo'lib o'sdi. Bo'lajak Shoir o'n yoshiga to'lganda uni Yaroslavl gimnaziyasiga o'qishga berishadi. O'qituvchilar

bilimga havasmand, iste'dodli bolaga durust saboq bera olmadilar. Natijada u gimnaziyani tashlab, mustaqil o'qishga berilib ketadi. Otasi uning ofitser bo'lib yetishishini istar edi. SHuning uchun ham uni Peterburgdagi kadetlar korpusiga o'qishga yuboradi. Lekin ilm-fan cho'qqilarini egallashga intilgani tufayli Peterburg universitetiga o'qishga kiradi. Ammo otasi o'g'lining o'zboshimchaligidan tajang bo'lib, moddiy yordam bermay qo'yadi. Biroq maqsad yo'lida sobitqadam Nekrasov moddiy mahrumliklar sharoitida yashash va olg'a harakat qilishga intiladi. Ana shu yillarda oddiy odamlar turmushi og'ir ekanligini sezadi va umrining oxirigacha ular haqida to'lib-toshib kuylaydi.

Nekrasov dehqonlar to'g'risida, ayniqsa, ko'p she'rlar yozadi. Bu she'rlarni o'qir ekansiz, go'yo dehqonlarning o'zlari o'z og'ir mehnatlari va qayg'u-alamlari haqida so'zlab berayotganday tuyuladi. Nekrasov ularning hayotini shunchalik yaxshi bilar, ularni o'ziga shunchalik yaqin tutardi. Nekrasovning she'rlari go'zal, ohangdor, juda boy va ayni zamonda juda sodda tilda yozilgan edi. Bu tilni u Yarosavl guberniyasidagi qishloqda o'tkazgan bolalik yillarida o'rgangan edi.

Biz uning:

Mollar o'rmon tomon qadam tashladi,

Ona – javdar boshqoq tuga boshladi,- deb yozganlarini o'qir ekanmiz, bu til haqiqiy, jonli xalq tili ekanini ko'ramiz. Bu o'rinda dehqonning zoriqib kutadigan boshqalarga bo'lgan sevgisi va hatto mehrini aks ettiruvchi, masalan, ikki so'z: ona – javdar qanday yaxshi keltirilgan! Dehqon boshqolarni o'zining bir parcha yerida qunt bilan mehnat qilib o'stirgan-da!

Nekrasov she'riyatida bunday yorqin, ravon va sof xalq iboralari juda ko'p. U javdar boshqolari haqida Shundaydeydi:

Boshqolar to'lishgan payt,
Zar ustinday sip-silliq,
Boshqalarda oltin toj.

Hozirgina yerdan sug'urib olingan lavlagi haqida esa:

Poyma-poy qizil etik
Yotganday egatlarda,-deydi. Bir tup sho'x bulut bilan qurshab olingan bahor quyoshi haqida Nekrasov Shundaydeb yozadi:
Bahor chog'i, kichik nevaralar kabi,
Lola yuz quyosh bobo bilan
O'ynar bulutlar.

Bu o'xshatishlarning ba'zilarini u xalq topishmoqlari, maqollari va ertaklaridan olgan. Zabardast, bahodir, afsungar Ayozi hukmdorining ajoyib qiyofasini ham u xalq ertaklaridan topgan:

Daraxtdan daraxtga tashlaydi qadam,
Yaxlagan qo'llardan qarsillab o'tar.
Ham yorqin oftob tovlanar biram,
Paxmoq soqolida yarqirab ketar...

Nekrasov, ayniqsa, samimiy, cho'ziq, xushohang, mayin rus xalq qo'shiqlarini juda yoqtirgan. Bu qo'shiqlarni rus xalqi asrlar davomida yaratgan. Nekrasov yoshlik chog'laridan boshlab xalqning bu qo'shiqlarini qanday kuylanishini tinglaydi va o'zi ham Shundaygo'zal qo'shiqlar yaratishni o'rganadi. "Soldat qo'shig'i", "Hovli qarolining qo'shig'i", "Notavon qashshoq qo'shig'i", "Rus", "Yashil shovqin" va boshqa ko'pgina qo'shiqlar Shundaytilda, Shundayhijoda yozilganki, xuddi xalq o'zi yaratgan qo'shiqlar deysiz.

"Dehqon bolalari", "O'zi mitti-juda miqti", "Bolalar yig'isi" kabi she'rlarida dehqon bolalarining turli-tuman yumushlarni bajarib, tirikchilik qilganliklarini, ularning mehnatkash tabiati va og'ir qismatini chuqur xayrixohlik bilan ifodalaydi. Endigina olti bahorni qarshilagan bolaning kattalardek fikr yuritishi kishini hayratga soladi:

Nonxo'rlar yetgulik, ishlovchi kam,

Faqat ikki erkak: otam bilan man!

Nekrasovning she'rlari go'zal, ohangdor, mazmunan boy, va ayni zamonda sodda tilda yozilgandir.

Nekrasov o'zining dam olish kunlarida ko'pincha Kostroma, Yaroslavl, Novgorod o'rmonlariga borar, ov qilish bilan kunini o'tkazar edi. Kostroma o'rmonining Maliye Veji degan qishlog'ida yashovchi Mazay bobo eng yaqin do'stlaridan biri edi. Shoir Mazay bobodan ko'p ajoyib-g'aroyib voqealarni maroq bilan eshitadi. SHular asosida "Mazay bobo va quyonlar" nomli she'rini yozadi.

Shoir "Daraxt kesish"da xalq boyligi - o'rmonlarni shafqatsizlik bilan kesib yuborilishini qalamga oladi. Birorta yet egasiga pul kerak bo'lib qolsa, o'rmonni sotib yuborishi, puldor boy esa o'rmonni tag-tugi bilan kesib yuborishi hech gap emas, u zumrad o'rmonlarni yo'qolib ketishidan Shoir singari qayg'urmaydi. SHuning uchun Nekrasov:

Bir vaqtlar asriy o'rmonlar
SHovullagan katta maydonlar,
Endi o'sha bepoyon bo'ston

Bo'm-bo'sh, jim-jit, go'yo qabriston!-deb alam chekadi. "Temir yo'l" nomli she'rida Peterburg bilan Moskva o'rtaqidagi temir yo'l qurilishida Rossiyaning turli shahar va qishloqlaridan haydab keltirilgan ishchi va dehqonlarning alamlari hayoti Vanya degan bolaga hikoya qilib beriladi. Bukning bilan Nekrasov yosh avlodning diqqat va e'tiborini o'sha zamonning muhim ijtimoiy masalalariga-xalqning kuchi va qudratiga tortadi, uni chuqur tushunishga, o'ylashga undaydi.

Lev Nikolaevich Tolstoy
(1828-1910)

Rus bolalar adabiyotining taraqqiyotida L.N. Tolstoy katta rol o'ynaydi. Bolalar uchun asar yozish har bir qalamkashning fuqarolik burchi deb bilgan pedagog-adib ijodda ko'p narsalarga erishdi.

Tolstoy 1959-yildan e'tiboran o'z ona qishlog'i Yasnaya Polyana'da maktab ochib, muallimlik qilar ekan, o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham darslik va qo'llanmalarining yo'qligini, borlari ham bugungi kunning talablariga yaxshi javob bera olmasligini tajribasidan o'tkazdi. Endigina savod chiqarish ishiga kirishgan bolalarga mos ertak, hikoya, she'r, masal va hikoyalar darsliklarda o'z aksini topishi darkor deb tushundi hamda bu xayrli ishga qo'l urdi.

Darslik juda og'ir ijodiy mehnat bilan 1872-yilda "Alifbe" nomi bilan nashr etildi. Dehqon bolalariga mo'ljallangan bu kitob "Alifbe"dan tashqari, ruscha o'qish uchun to'rt kitob, arifmetika va muallim faoliyatidan tashqari tashkil topgan edi. Bu darslik bolalarga hech qanday yengillik bermadi. Ayniqsa, badiiy asar ko'p bo'lsa-da, kitobda davr, zamon ruhi deyarli yo'q edi. SHu sabablarga ko'ra pedagog-olim qattiq tanqidga uchradi. Zahmatkash adib tanqidlardan to'g'ri xulosa chiqaradi. Iloji boricha mehnat ahli bolalariga o'qimishli, ta'sirli, eng muhimi ularning savodini chiqarishga mo'ljallangan "Yangi alifbe" va unga qo'shimcha qilib "Rus tili o'qish kitobi"ni 1875 -yilda nashr ettirdi. Bu kitob uchun adib yuzdan ziyod hikoya, ertaklar yozadi. "Uch ayiq", "Fillipok"lar shular jumlasiga kiradi. Adabiy jamoatchilik va pedagoglar asarni yuksak mamnunlik bilan qabul qiladilar. Bu kitob har tomonlama bolalarga mos tushadi. Tolstoy kitob haqida: "Mazkur "Alifbo" haqidagi orzularim ro'yobga chiqqanidan, uning rus bolalarining ikki avlodi o'qib, dastlabki poetik zavqini shu kitobdan olishlaridan faxrlanaman. Bu kitobga ko'p mehnat va muhabbatimni jo qildim, u hayotimning muhim sahifasi bo'lishiga aminman,"- deb yozgan edi.

Bu darslik qayta-qayta bosildi. Hatto 1921-yilda ham uning so'nggi nashri chop etildi.

Tolstoyning har bir asari turmushning, bolalar hayotining bir tomonini ochib berishga qaratilishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki hayotni, bolalarni qattiq sevgan va unga mehr-muhabbati juda kattak bo'lgan adib kichkintoylarga qarata yozilgan har bir katta-kichik asari hayotiy bo'lishini istaydi va o'zining bu qaroriga butun ijodi davomida sodiq qoladi.

Tolstoyning bolalarga bahishlab yozgan barcha katta-kichik asarlarida oddiy inson qiyofasi ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Buning isboti tariqasida adibning bir qator asarlariga nazar tashlab o'tishga to'g'ri keladi. Bir bog'bon bolalari ishyoqmas, yalqov bo'lib o'sayotganliklaridan qattiq iztirob chekadi. U o'limi oldidan o'g'illarimni bir aldasam, zora ishlab, o'zlarida mehnat ko'nikmasi hosil bo'lsa, degan o'y, xayol bilan: "Bolalar, men tok tagiga oltin ko'mib qo'ydim, uni mendan keyin qazib olinglar", degan g'oyani "Bog'bon va bolalar" hikoyasida juda qoyil qilib yozadi.

Ko'chat ekish, bog' qilish juda og'ir va mashaqqatli ish. Bu bog'bondan og'ir mehnat, sabr-toqat talab qiladi. Bog'bon o'zi uchun, kelajak avlod uchun ko'chat ekadi. SHu nuqtayi nazardan adibning "Mo'ysafid olma ekdi" hikoyasi diqqatga loyiqdir.

"Keksa berilib ko'chat o'tqazar edi. Odamlar uning keksaligidan va qilayotgan ishidan kulib:

- Sizga olma ekish nimaga kerak bo'lib qoldi? Bu daraxt o'sib voyaga yetguncha bu dunyoda yashaysizmi yoki yo'qmi?-deyishdi.
- Men olmasini yemasam, o'zgalar yeyishadi va menga rahmat deyishadi. Nima bo'lganda ham olmani ekkanim foyda, - debdi".

Tolstoy ochko'z, faqat o'z manfaatlarini ba'zi odamlarni ko'pgina asarlarida tanqid qiladi, ularning ustidan ochiqdan ochiq kuladi. "Odamga qancha yer kerak?" degan hikoyaning sarlavhasini o'qigan odam hayron bo'lib qoladi. Rostdan, odamga qancha yer kerak? Fomaga mulkdor yer beradi. "Bugun qancha o'lchasang, hammasi seniki,"-deydi. Foma yugurib-elib, odimlab, kun bo'yi yer o'lchaydi. Oxiri ochlik va charchaganidan yiqiladi-yu o'sha joyning o'zida jon beradi. Adib Foma cho'zilib yotgan yerni ko'rsatib, odamga ikki metr yer kerak bo'ladi, xolos, deydi.

Tolstoy asarlari orasida hayvonlar, jonivorlar, parrandalar haqida yozilganlari ham ko'p. Do'stlik, birodarlik, do'stga sadoqat, mehr-oqibat

faqat odamlar o'rtasida emas, balki hayvonlar o'rtasida ham mavjud ekanligini biz adibning "Arslon bilan it" hikoyasi misolida bilib olamiz.

Tolstoyning "Bolalik", "Kavkaz asiri" kabi povestlari ham bolalar sevib o'qiydigan asarlar sirasiga kiradi.

L.N.Tolstoyning ibratli ertak, hikoya va masallari hali ham o'zining badiiy hamda tarbiyaviy kuchini yo'qotgan emas. Uning bu janrlardagi asarlari qator darslik va majmualarga kiritilgan, alohida kitob holida ham chop etilgan.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Nekrasov qaysi asarida mehnatkash xalq bolalarining musibatli kunlarini tasvirlaydi?
2. "Daraxt kesish" she'rida qanday voqea aks ettirilgan?
3. "Mazay bobo va quyonlar" asarini bolalarga qanday ahamiyati bor?
4. L.N.Tolstoy 1872-yilda yaratgan "Alifbe" darsligi nima uchun tanqidga uchradi?
5. "Mo'ysafid olma ekdi" hikoyasidan siz qanday xulosa chiqardingiz?
6. "Odamga qancha yer kerak?" asarining tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiring.

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

Lev Tolstoyning "Alifbe" nomli darsligi qachon va kimlarga mo'ljallanib nashr qilindi?

- + 1872, dehqon bolalariga
- 1870, zodogon bolalariga
- 1874, bog'bon bolalariga
- 1872, ziyolilar bolalariga

"Bolalik", "Kavkaz asiri" kabi povestlar muallifi kim?

- + Lev Tolstoy
- A.S. Pushkin
- Samuel Marshak
- Korney Chukovskiy

Lev Tolstoyning qaysi hikoyasida "xaffi paytlarida o'z o'rtog'ini tashab ketadigan yomon odamlar" degan xulosa kelib chiqadi?

- + "Ikki o'rtoq"
- "Soqchi mushuk"

- " Qizcha va qo'ziqorin "
- " Uch ayiq "

Lev Tolstoy 1875-yilda qaysi kitobini nashr ettiradi ?

- + "Rus tili o'qish kitobi "
- " Alifbe "
- "Bolalik "
- " Kavkaz asiri "

Lev Tolstoyning "Bolalar, men tok tagiga oltin ko'mib qo'ydim, uni mendan keyin qazib olinglar " degan g'oyasi qaysi hikoyada o'z aksini topgan ?

- + " Bog'bon va bolalar "
- " Uch ayiq "
- " Soqchi mushuk "
- " Ikki o'rtoq "

Lev Tolstoyning "Kavkaz asiri " asarining janri qanday ?

- + qissa
- doston
- ertak- doston
- roman

10. Do'stlik, birodarlik, do'stga sadoqat , mehr- oqibat faqat odamlar o'rtasida emas, balki hayvonlar o'rtasida ham mavjud, ekanligi Lev Tolstoyning qaysi asarda ifodalangan?

- + " Arslon it "
- "Suvarakxon "
- "Odanga qancha yer kerak "
- "Doktoy voy jonim "

"Qizil shapkacha", "Zolushka" va "Etik kiygan mushuk" kabi mashhur ertaklar muallifi kim?

- + Sharl Perro
- Pushkin
- Aka-uka Grimlar
- Andersin

Sharl Perro ertaklaridan qanchasi hoxirgacha saqlanib qolgan?

- + 11 ta
- 25 ta
- 50 ta
- 100 ta

Sharl Perro qalamiga mansub bo'lmagan asarlar qatorini toping?

- + "Bir xumcha shavla", "Bob"
- "Bob", "Qizil shapkacha"
- "Uyqudagi malika", "Havorang soqol"
- "Eshak terisi", "Zolushka"

"Kichik bolalar" kitobining muallifi kim?

- + Chukovskiy
- Pushkin
- Marshak
- Tolstoy

18 -MAVZU. SAMUIL MARSHAK VA KORNEY CHUKOVSKIYLARNING ASARLARIDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR

REJA:

1. Korney Chukovskiy zamonaviy rus bolalar adabiyotining ulkan dahosi:
 - a)adib ertaklarining mavzuviy mundarijasi va obrazlar olami;
 - b)"Ikkidan beshgacha" tadqiqot asarida kichkintoylar psixologiyasi ifodasi.
2. Samuel Yakovlevich Marshak - kichkintoylar shoiri.
3. Har ikkala ijodkorning bolalar kitobxonligidagi o'rnini.

Tayanch tushunchalar: "Kantson'ere", volgar'e, ruhiy kamolot, "Pantameron", Pinokkio, Chippolino, buratino, marionetka, Djannetino, qo'g'irchoq komediya, seminariya, qirollik, piyoz oilasi, kosmik sivilizatsiya, novella, majmua.

Korney Ivanovich Chukovskiy (1882-1969)

Hozirgi zamon rus bolalar adabiyotining ulkan daholaridan biri Korney Ivanovich Chukovskiy yirik yozuvchi, Shoir, taniqli olim, mohir tarjimon sifatida tanilgan so'z ustasi edi. U o'z asarlarida bolalarga xos ajoyib xislatlarni-rahmdillik, va insoniylik, do'stlik va birodarlik, yovuzlikka nisbatan shafqatsizlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni targ'ib etdi. K. Chukovskiy bolalar uchun asarlar yaratib, ijod qilishni o'zi uchun katta baxt deb bildi.

Kichkintoylar va ularning adabiyotini umr bo'yi ardoqlagan Korney Ivanovich Chukovskiy 1882-yilda Peterburg shahrida dunyoga keldi. Tez orada Chukovskiy oilasi Odessaga ko'chdi. Bu yerda ona ming mashaqqat bilan o'g'lini gimnaziya joyladi. Bu baxt uzoqqa cho'zilmadi. "Oshxona xizmatchisining o'g'li" bo'lganligi uchun Chukovskiy gimnaziya dan haydaladi.

Korney oilaga ko'maklashish, tirikchilik o'tkazish maqsadida turli yumushlarni bajarishga majbur bo'ladi. SHunga qaramay, u bo'sh vaqtlarida mustaqil o'qishga, Pushkin, Nekrasov, CHexov asarlarini mutolaa qilishga harakat qiladi.

Chukovskiyning dastlabki "San'at nima?" maqolasi 1901-yilda "Odesskie novosti" gazetasida bosilib chiqqan. 1903-yilda u gazeta muxbiri sifatida Anegliyaga boradi. Londonda xizmat qila boshlaydi. Lekin bu yerdagi faoliyati uzoq davom etmaydi. Gazeta unga maosh to'lamay qo'yadi. U Britaniya muzeyiga ishga kirib, tirikchilik o'tkazishga majbur bo'ladi.

1905-yilda Chukovskiy Odessaga qaytib keladi va bu yerda "San'at" degan jurnal chiqara boshlaydi. Jurnal sahifalarida chor hukumati siyosatiga qarshi materiallar bosilganligi uchun uni sud qilishadi.

Keyingi yillarda u bolalar adabiyoti to'g'risida ko'plab maqolalar yozadi. 1907-yilda "Bolalar tili" asari maydonga keladi.

K. Chukovskiy dastlab M.Gorkiy hikoya qilib bergan syujet asosida bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmagan, badiiy tomondan baquvvat "Timsoh" ertagini yozdi. 1918-yilda esa "Archa" nomli to'plami bosilib chiqdi. O'sha yili "Jahon adabiyoti" nashriyotiga ishga kirdi. 1919-yilda N.A.Nekrasov asarlarining to'la to'plamini nashr ettirdi.

SHu yillarda uning mashhur "Moydodir", "Suvarakxon" ertaklari "Kichik bolalar" kitobi bosilib chiqdi.

"Pashsha-xarxasha", "Barmaley", "Telefon", "Fedora o'tkazgan alam", "O'g'irlangan quyosh", "Doktor Voyjonim", "Filinisa kitob o'qir", "Kirpilar kuladi" asarlari Korney Ivanovich Chukovskiyning nomini olamga yoydi, kitobxonlar hurmatini qozondi.

Korney Chukovskiyning ertak-dostonlarida ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi, baxt, yorqin hayot sari keskin kurash bo'rtib turadi. Masalan, Shoirning "Moydodir" asarida bolalarning odobli, ozoda, har doim to'g'ri so'z bo'lishi va tozalikka rioya qilish mavzusi ilgari surilgan.

Asar qahramoni qator fazilatlariga loyiq. Lekin bir aybi bor, faqat kirchir yuradi. SHuning uchun bir kuni unga xizmat qiluvchi barcha narsalar ish tashlaydi, undan yuz o'girib qochib ketishadi. Bola voqeaga tushunmay, xafa bo'lib turganida joniga yuz-qo'lyuvgich-Moydodir oro kiradi.

Yosh kitobxon hamisha hayvon, jonivor va hashoratlar haqidagi voqea-sarguzashtlarni sevib o'qiydi. K.Chukovskiyning "Suvarakxon" asari ham kichikintoylarning sevimli asarlaridan

hisoblanadi. Asarda Shoir hayvon, parranda va yirtqichlarning tuzilishlari, fe'l-atvorlari, dovyuraklik va qo'rqqoqliklari to'g'risida bahs yuritadi:

Sho'rlik, baxtsiz hayvonlar

Bo'kirib, dodlab yig'lar!

Har bir uyada

G'or-u qiyada-

Ochko'z yovga

Tiz cho'kar.

Ana Shundayvaziyat tug'ilib turgan paytda paydo bo'lib qolgan chumchuqning tadbirkorligi, ishbilarmonligi, chaqqonligi qo'l keladi, u suvarakni tiriklayin yutib yuboradi. SHu zaylda chumchuq o'rmon-u quruqlikda yashaydigan qushlar, jonivorlar, hayvon va yirtqichlarni ozodlikka, erkka, baxtli va totli hayotga olib chiqadi. Bu voqea esa bolalarning estetik didlarini shakllantiradi, hayvonot olamiga nisbatan qiziqishlarini oshiradi, ona-Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatlarini kamol toptirishda yetakchi omil hisoblanadi.

Shoirning "Doktor Voyjonim" asari bir umr bolalarga shodlik-quvonch bag'ishlab kelmoqda. Doktor Voyjonimning oqko'ngilligi, mehribonligi, jonkuyarligi, hayvonlar bilan inoq, do'stligi ibratomuz chizib berilgan.

Hayotda nimalar bo'lmaydi deysiz! Hayot ajoyib—g'aroyib voqealarga boy. K. Chukovskiy mana Shundayvoqealar ba'zi befahm, farosatsiz bolalar bilan ham sodir bo'lib qolishi mumkin, deydi. Mura o'y o'ylamaydigan, fahm-farosat bilan ish ko'rmaydigan qizcha. U bilan juda kulgili voqea yuz beradi. Shoir "Muraga "Ajoyib-g'aroyib daraxt" ertagini o'qib berganida u nima qildi?" she'rida o'ylamay, aql ishlatmay tuflisini bog' maydoniga ekib, ostini yumshatib, suv quyib, kulgili ish qilganligini tanqid qiladi:

Mura yechib tufisin,

Bog'ga ko'mib, der sekin:

-O's, o'saqol, tuflicham,

-Bo'y cho'zaqol, tuflicham!

Endi jaiji tuflicham

O'z qo'lidan suv ichar.

Niholcham bo'lar daraxt,

Ulkan, g'aroyib daraxt!

Pishib bosonojkalar

Daraxt sari yo'l olar,

Qip-qizil sapojkalar.

-Yulib oling!-deb qolar.

Shoirning “Meshkay” asarida ham Shundaykulgili, ta’sirli mavzu yoritilganini ko’ramiz. K.CHukovskiy ta’kidlab o’tganidek, ba’zi bolalar bo’ladiki, yaxshi o’qish, ozoda bo’lish, yuvinib-taranib yurish o’rniga ko’proq ovqat yeyish niyatida yurdilar. Haddan ziyoda ko’p ovqat iste’mol qilish odamni kam o’ylaydigan qilib qo’yishini, yaxshi o’qish, ibratomuz ishlarni amalga oshirishda unga pand berishi mumkinligini tushunmaydigan bolalar onda-sonda uchrab turishini boplab tanqid qiladi:

...Teshik kulcha juda soz
O’ttiz bog’lamin shovvoz,
Bir-bir yutay deb yechgan
To’rt xumcha sutni ichgan.
So’ng urib qirq to’rt quymoq
Singlim xo’p ozgan, biroq
Ko’plarni hayron etgan,
Eshikka sig’may ketgan.

Korney Chukovskiy sevimli Shoir, iste’dodli adib, shuningdek, yirik adabiyotshunos olim bo’libgina qolmay, bilimdon tarjimon ham edi. Uning “Ikkidan beshgacha” nomli mashhur tadqiqotida kichik yoshdagi bolalarning xarakter xususiyatlari, nutqi va ruhiyati xususida qiziqarli hayotiy ma’lumotlar berilgan.

Ulkan so’z san’atkori Korney Chukovskiy bolalar qalbini to’lqinlantiradigan, hayajonga soladigan kitoblar muallifi sifatida hurmatga sazovor. E’zozli muallifning umri, bosib o’tgan hayot yo’li ham xuddi kitoblari singari e’zozlanadi.

Samuil Yakovlevich Marshak (1887-1964)

Hozirgi zamon rus bolalar adabiyotida Samuil Yakovlevich Marshakning roli katta. U rus bolalar adabiyotida kichikintoylar uchun katta she’riyat yaratib bergan ulkan san’atkor, taniqli tarjimon, yetuk dramaturg, mohir pedagog va bilimdon muharrirdir.

Samuil Yakovlevich Marshak o’zidan keyin juda katta hamda serqirra ijodiy meros qoldirgan. Uning bolalar va kattalar uchun she’rlar, o’qish hamda namoyish qilish uchun ertaklar, satirik epigrammalar, tarjimalar, tanqidiy va memuar nasriy asarlari shu ma’noda e’tirofli. Zero, uning hayotidagi asosiy ishi bolalar adabiyoti bo’lganligini ta’kidlab o’tish

joiz. U avvalo, rus bolalar adabiyotida kichkintoylar uchun katta she'riyat yaratib bergan mohir san'atkor, taniqli tarjimon, yetuk dramaturg, mohir pedagog va bilimdon muharrirdir.

1927-1937 yillarda bolalar yozuvchilarini o'ziga jalb etadigan markazlar-bu bolalar folklorining tadqiqotchisi O.I.Kapitsa tomonidan tashkil etilgan to'garak, Detizdatning ("Bolalar nashriyoti") Leningraddagi nashriyoti "Yangi Robinzon", "Chij", va "Yoj"(Tipratikan) bolalar jurnallarining nashriyoti edi. Bunda asta-sekin hamfikrlar doirasi paydo bo'la boshladi. Bolalar uchun yozilgan asarlar mualliflari, chunonchi, B.A.Lebedev, E.L.Shvars, T.G.Gobbe, A.I.Lyubarskaya, L.K.Chukovskaya kabilarni adabiyotshunos I.A.Raxtanov "Marshak akademiyasi" deb atagan edi. "Akademiya"da muharrirlik san'ati sayqal topayotgan, yosh mualliflar bilan ishlash usullari ishlab chiqilayotgan edi. Binobarin, kelajakda bolalar adabiyotining mumtoz vakillariga aylangan yozuvchi, shoirlar shular davrasidan chiqqan edi. Masalan, L.Panteleev, D.Xarms, A.I.Vvedenskiy, N.A.Zabolotskiy va boshqalar.

Samuil Yakovlevich Marshak 20-yillarda o'zining she'r, ertak va poemalari bilan yosh kitobxonlarning sevimli shoiri sifatida tanildi. "qayerda ovqatlanding, ey chumchuq", "Ahmoq sichqoncha xaqida ertak", "Kecha va bugun", "Tsirk va boshqa shu kabi mashhur asarlari o'sha yillarda maydonga kelgan edi. S.Ya.Marshak rus bolalar adabiyotini rivojlantirish uchun A.M.Gor'kiy hamda V.V.Mayakovskiylar bilan yelkama-yelka turib mehnat qildi. 1939 yilda Marshakning "Petya nimadan qo'r qar edi?", "Korablcha" singari mashhur she'rlari bosilib chiqdi. Vatan urushi davrida shoir ijodining asosiy temasini urush, bosqinchilarga qarshi kurash mavzui tashkil etdi. Ayniqsa, 1943 yilda yaratilgan "O'n ikki oy" nomli ertak-dramasi tez orada millionlab yosh kitobxonlar orasida mashhur bo'lib ketdi.

S.Ya.Marshakning nomini olamga yoygan, bolalar shoiri sifatida tanitgan she'rlaridan biri "Axmok sichqoncha xaqida ertak"dir. Bu ertakda shoir bolalar xayoti va xarakteriga mos bo'lgan qiziqarli syujet topa olgan. Kimki o'ziga ortiqcha oro bersa, oqibatini o'ylamay ko'r-korona ish tutsa, o'zidan kattalarning pand-nasihatiga amal qilmasa, hayotda ko'p narsa yutqazadi, o'z baxtini qo'ldan boy beradi, degan fikr ertakning asosiy g'oyaviy mazmunini tashkil etadi.

S.Ya.Marshak "Ahmoq sichqoncha haqida ertak" asarida majoziy obrazlar orqali bolalar hayotiga oid muhim masalalarni ilgari suradi. Shoir noshukur, farosatsiz, mehnatsiz kun kechiruvchilarni ahmoq sichqoncha obrazi misolida fosh qiladi. S.Ya.Marshak "Yong'in", "Pochta",

"Musobaqalar doskasi" asarlari bilan ham rus bolalar adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Shoir o'zining "Stol kelgan qayerdan?" degan she'rida maktab mebellari o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaganligini, buning uchun kattalarning qanchadan-qancha vaqtlari, mehnatlari sarf etilganligini tushuntirib bersa, "Bir yil nima" asarida esa juda qimmatli vaqtini behuda o'tkazib, maktabda yaxshi o'qimay, o'qituvchi-ustozlarning pand-nasihatlariga amal qilmay, o'z vaqtida darslarini tayyorlamay, natijada sinfdan-sinfga o'ta olmay xijolat bo'lib yuradigan qoloqlarga qarata:

Dalalarda saranjom ish,
Zavodda ham plan qoyil,
Maktabda yo'q,
Qoloqlar hech.
Bil, bir sinfdan o'qish -
Bir yil!

Marshak uchun bolalar adabiyotida mayda-chuyda yo'q edi. O'quvchining yoshi qancha kichik bo'lsa, u bus-butunligicha qabul qilayotgan kitobga bo'lgan talabi ham shuncha jiddiy, ya'ni uning mazmuniga, tiliga, bezaklariga, shirifti va formatiga, nomerning sifatiga... Marshak ishlanmagan yoki qolip so'z va fikrlarni, shuningdek o'chirilgan so'zlarni umuman hazm qila olmasdi. Uning shiori: "Kichiklar uchun katta adabiyot" deb jaranglardir.

Dramaturgiya Marshak uchun bolalar adabiyotiga kirib kelishida ilk pog'onani o'tagan. 1920 yillarning boshlarida u Krasnodarsk bolalar teatri uchun bir qator ertak-pesalar yozdi. Ular orasida "Mushuk uyi", "Echki haqida ertak", "Petrushka", "Qayg'u-yomon baxt" kabilar keng tarqalgan. Keyinchalik Marshak bu ertaklarni qayta ishlab chiqqan. Birinchi pesalari folklordan unib chiqqan bo'lib, sho'x, harakatli o'yinlarni eslatadi. Ularning voqeligi atayin sodda, ammo nozik did va yumor bilan yo'g'rilgan. Obrazlari ham oddiy, ayni paytda juda moslashuvchan, muloyim. Personajlarning monologlari hamda replikalarida juda ko'p so'z ishlatilmaydi, ammo ular juda ifodali. Pesalarning o'ziga xosligi-epizodlarning takrorlashishida, harakat ketma-ketligining uzluksizligida va voqea-hodisalarning ajoyib tarzda rivojlanishidadir.

Marshak o'z ijodini bir aktli kichik pesalardan boshlab, asta-sekin ko'p aktli dramatik asarlarga, shu bilan bir qatorda o'zining tomirlari bilan xalq folkloridan kelib chiqqan yetuk asarlar sari boradi. "On ikki oy", "G'am-qayg'udan qo'rqqan -baxtga erisha olmaydi", "Aqlli narsalar" kabi asarlari shular jumlasidandir. Uning pesalari musiqa va ohangga,

raqslarga, soʻz oʻyinlari bilan toʻla boʻlgan xalq teatriga monand. "Mushuk uyi"-ertak pesasini kattalar dramaturgiyasidan olingan kundalik turmush dramasi desa boʻladi.

S.Ya.Marshak bolalarning zabardast shoiri boʻlish bilan birga "kichikintoylar uchun katta adabiyot" yaratish yoʻlida ham alohida jonbozlik koʻrsatdi. Ustozi M.Gorkiy anʼanalariga sodiq qolib, bolalar uchun yoza boshlagan isteʼdodlarni tarbiyalashga alohida gʻamxoʻrlik qildi. Ayni chogʻda bolalar adabiyotining nazariy asoslarini ishlab chiqishda, bolalar adabiyoti sohasida tanqidchilikni kuchaytirishda gʻayrat koʻrsatib izlandi va salmoqli natijalarga erishdi. Bu jihatdan uning 1934 yilda yozuvchilarning birinchi sʼezdida bolalar adabiyoti haqida, soʻngra bolalar adabiyoti masalalariga bagʻishlanib 1936 yil yanvarida oʻtkazilgan kengashdagi "Bolalarning katta adabiyoti uchun" va dekabrda oʻtkazilgan ikkinchi kengashdagi "Bolalarga yozish huquqingiz uchun faxrlaningiz!" kabi nutqlarida va "Soʻz vositasida tarbiyalash" kitobidan joy olgan qator maqolalarida bolalar adabiyotiga

daxldor nazariy asoslardan bahs yuritdi. Ijod ahlini bolalar uchun haqiqiy sanʼat namunasi darajasidagi yuksak gʻoyaviy-badiiy saviyadagi asarlar yozishga daʼvat etdi. Marshak uchun bolalar kitobida mayda-chuyda narsaning oʻzi yoʻqligi, kitobxon yosh jihatidan qancha kichik boʻlsa, unga atalgan kitobga nisbatan talabni ham shu qadar kuchaytirar edi. U bolalar kitobini ham mazmun, ham til, ham kitobatchiligi, ham shiffti (harflari yozilishi), ham shakli, ham chopi sifatini yaxlit holda koʻrar, unda "ishlamaydigan yoki nursiz soʻzlarni, tamgʻalarni, taʼqiq fikr va oʻtkinchi hissiyotlarni" xush koʻrmasdi. Uning fikricha, bolalar adabiyotining asosiy vazifasi bolani har tomonlama chiniqqan, jasur va mustaqil fikrlay biladigan komil inson qilib tarbiyalashdan iborat. Bu – gʻoyat murakkab vazifa. Uni butun murakkabligi bilan, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-estetik mohiyati bilan his etish har bir bolalar yozuvchisi, shoiri, dramaturgi, rassomi, noshirining mushtarak muqaddas burchi. "Bolalar ijodkorlari uchun-romannavismi yoki rasmlar tagiga yoziladigan sheʼrlar muallifimi, kim boʻlishimizdan qatʼiy nazar, shunchaki yengil ishning oʻzi yoʻq",-deb eʼtirof etgandi Marshak. Ayni chogʻda u bolalar yozuvchilariga "tayyor pedagogik aqidalarni foyda evaziga xarakterga aylantiruvchilar" qabilida mensimay qarovchilarni keskin tanqid qilgan edi. Zotan, uning tushunchasicha, bolalar yozuvchisi bolalar bilan sanʼat tilida soʻzlashib, tarbiyaning murakkab vazifalarini shu til vositasida amalga oshirishni chin maqsad qilib olgan tom maʼnodagi haqiqiy soʻz sanʼatkoridir. Binobarin, bolalar uchun ijod qiluvchilarga past nazar bilan qarash-jamiyatning

kelajagiga past nazar bilan qarashga olib keladi. Shu sabali bolalar uchun yozadigan iste'dodlarni alohida e'tibor bilan tarbiyalash, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish, ijodini keng milyosda tashviqqa targ'ib qilish, qusurlarini samimiyat bilan ko'rsatish va muvaffaqiyatlarini rag'batlantirib turish zarur. Bu uning ijodiy kamolotigagina emas, kichkintoylar uchun katta adabiyotning yaratilishiga ham yo'l ochib berdi. Marshak bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, ular ichki dunyosining barcha tomonlarini aks ettiruvchi xilma-xil mavzularda rang-barang janrlarda asarlar, uning iborasicha, kitoblar (S.Marshak bolalarga atalgan asar tushunchasi o'rinda "bolalar kitobi" ("detskaya knijka") iborasini ishlatishni xush ko'radi va bu bilan bolalarga oid asar hamda kitob tushunchalarini o'zaro uyg'un holda tasavvur etadi) yozish lozimligini qayta-qayta ta'kidlard. Uningcha, bolalar kitobi-boshdan oyoq "katta adabiyot" namunasi. U-san'at qodisasi va hammadan avval bola hissiyotiga ta'sir ko'rsata bilmog'i shart: "Biror bir ilmiy haqiqat, biror bir hayotiy dalil, agar u bola xayolotiga, uning hissiyotiga qaratilmagan bolsa, hech qachon bolaga yetib bormaydi",-deya uqtirar ekan, o'zining xuddi shu aqidasi nazarini asoslaydi. Marshak nazariyotchi sifatida bolalar kitobining ular hissiyotini boyituvchi va xayoloti doirasini kengaytiruvchi fazilatlarini birma-bir sanab, shunday ifodalaydi: Birinchidan, bolalar kitobi qahramonini shunday mohirlik bilan yaratish kerakki, yosh kitobxon u bilan bir umrga haqiqiy do'st bo'la olsun. Kitobxon o'qiyotgan kitobi qahramonining qiyofasini, xarakterini va axloqini aniq tasavvur qila bilishga imkoniyat yaratib berishi zarurligini esda tutishi shart. Shu munosabat bilan u Mark Tvenning Tom Soyeri, K.Kollodining Pinokkiosi darajasidagi yorqin obrazlar kashf etilmog'i lozimligini uqtiradi. Ikkinchidan, bolalarga hikoya qilinadigan voqea-hodisalar "shiddatli oqim" ("stremitelnoe techenie")da qat'iy tartibda epizodlarning o'zaro mantiqiy asoslangan alohadorligida bo'lishi lozim. Bunday "hikoya qilishning shiddatkorligi va alohadorligini" bolalar sevgan yaxshi kitoblarning barchasida ko'rish mumkin. Uchinchidan, bolalar kitobiga "yumor, quvnoq hazil juda-juda kerak..." deb hisoblaydi. To'rtinchidan, bolalar kitobidagi "har bir so'z tekshirilgan" va o'z o'rnidagina qo'llangan bo'lmog'i lozim. Chunki "bolalar fikrlashni, his etishni, so'zlashni" o'zlariga mo'ljallangan kitobdan o'rganadilar. Marshak uchun bolalar kitobidagi har bir so'z sahifalari bilan, ulardagi rang-barang suratlar bilan, muqovadagi shriftlar, hatto qolaversa, kitobchaning shakli va hajmi bilan ham jips bog'liq edi. U bu bilan bolalarga kitob "qalbini", uning adoqsiz imkoniyatlarini his etishga, u bilan butun umrga qadrdon bo'lishga, shu

tariqa kitobni sevib qolishlariga yordamlashadi. Marshak bolalar bilan "kitob orqali o'ynab", hamisha har qanday vaziyatda ongli ravishda g'olib chiqar, ko'zda tutgan barcha maqsadlari mo'ljaldagi nishoniga aniq borib yetardi. Shu sababli Marshak kichkintoylarga atalgan kitoblari ustida yakka o'zi emas, balki rassom bilan, ko'p hollarda esa o'zini yaxshi anglaydigan grafik-rassom V.V.Lebedev bilan hamkorlikda jiddiy ishlardi. Shunday hamjihat ijod asnosida "Sirk" kitobi maydonga keldi. Uning har bir sahifasi-tsirkdagi yangi tomosha sahnasi, butun kitob esa - butun boshli mo'jaz tomosha. "Bagaj" va "Muzqaymoq" kitoblari ham shu xildagi mo'jizakorlik namunalari. Shoir va rassom hamkorligining yuksak cho'qqisi sifatida "Rangdor kitob" ("Raznotsvetnaya kniga") alohida e'tiborga sazovor.

Samuil Marshakning bolalarga atalgan quvnoq she'r va ertaklari XX asrning 30-yillari o'rtalaridan e'tiboran o'zbek matbuotida ko'rina boshladi. Asarlarini o'zbek tiliga o'girib, millatimiz farzandlarining ma'naviy mulkiga aylantira bordilar. Shu tariqa uning o'zbek tiliga o'girilgan she'r va ertaklari jamlamalari sifatida "Biz harbiylarmiz" (1946), "She'r va ertaklar" (1950), "Bir yil nima?" (1953), "She'r va ertaklar" (1959), "Yoykamalak" (1977), "Usta Jek qurgan uy" (1978) va "Oylar kamalagi" (1988) she'riy to'plamlari kichkintoylarga tortiq qilindi. Qolaversa, uning o'zbekchaga o'girilgan bir qator she'r va ertaklari pedagogika bilim yurtlari va institutlariga mo'ljallangan. "Bolalar adabiyoti xrestomatiyasi" (1953, 1967, 1978, 1993), "O'zbek bolalar adabiyoti darslik- xrestomatiyasi" (1976), "Kichkintoylar uchun xrestomatiya" (1978, 1988), shuningdek, o'zbek o'rta maktablari uchun rus tilini o'rganishga bag'ishlangan "Kniga dlya chteniya" (1988) singari o'qish kitoblaridan ham joy ola bordi. Uning bu she'rlarini o'zbek bolalar shoirlarining turli avlodiga mansub Quddus Muhammadiy ("Nabiram bilan so'zlashganda"), Shukur Sa'dulla ("Axmoq sichqoncha haqida ertak", "Bagaj", "Yaxshi kun", "Tegirmonchi, bola va xo'tik"), Ilyos Muslim ("Bizning gerb", "Yil bo'yi", "Yalqovlar bilan mushuk", "Sanoqcha", "Topishmoqlar"), Qudrat Hikmat va Husniddin Sharipov ("Pochta"), Po'lat Mo'min ("Usta buzarmon", "Kitobcha haqida kitobcha", "Bir yil nima?", "Stol qayerdan kelgan?", "Bir o'quvchi haqida", "Mo'ylovi bor olachipor"), Asqad Muxtor ("Petya nimadan qo'rqqar edi?"), "Sutingdan ber", "Tipratikan va tulki", "Urushga kirish") va Miraziz A'zam ("Robin Bobin") kabilar turli davrlarda o'zbek tiliga o'giranlar.

S.Ya. Marshak 1887-yilda Voronej shahrida tish texnigi oilasida tug'ildi. Bo'lajak san'atkorda Shoirlik iste'dodi juda erta uyg'ondi.

“To’rt-besh yoshlarimda, deb eslaydi Shoir,- she’rlar yoza boshladim. O’n bir yoshlarimda, bir qancha poemalar yaratdim. Goratsiyning “Odamlar”ini tarjima qildim”.

S.Ya.Marshak 1897- yilda Ostrogoj gimnaziyasiga o’qishga kiradi. Bu yerda bo’lajak Shoir o’z zamonasining yetuk san’atkorlari bilan yaqindan tanishadi. Marshakning ijodiy faoliyati shu yerda chechak otadi. 1906-yildan boshlab feletonlari, she’r hamda tarjimalari bilan matbuotda chiqa boshlaydi.

S.Ya.Marshak 1912-yilda Angliyaga jo’naydi. London universitetining san’at fakultetiga o’qishga kiradi. Ta’til kunlari u mamlakatning diqqatga sazovor joylarini yayov kezib tomosha qiladi: baliqchilar bilan dengizda sayr qiladi, qishloq maktablarida bo’ladi. Ingliz xalq qo’shiqlarini, ertaklarini sevib tinglaydi. Bu yerda Marshak V. Bleyk, Robindranat Tagor va boshqalarning she’r va poemalarini ingliz tilidan tarjima qiladi.

1914-yilda Rossiyaga qaytib kelgan Marshakning hayoti bolalar olami bilan chambarchas bog’lanib ketadi. U 1915-22-yillarda bolalar uylarida tarbiyachi, o’qituvchi bo’lib ishlaydi. Bu Marshakning bolalar Shoiri bo’lib kamol topishida katta rol o’ynaydi.

S.Ya.Marshak 20-yillarda o’zining she’r, ertak va poemalari bilan kitobxonlarning sevimli Shoiri sifatida tanildi.”Qaerda ovqatlaning, ey chumchuq”, “Axmoq sichqoncha haqida ertak”, “Kecha va bugun”, “Sirk” va boshqa shu kabi mashhur asarlari o’sha yillarda maydonga kelgan edi.

1939-yilda Marshakning “Petya nimadan qo’rqar edi?”, “Korablcha” singari mashhur she’rlari bosilib chiqdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Shoir ijodining asosiy qismini urush, bosqinchilarga qarshi kurash mavzusi tashkil etadi. Ayniqsa, 1943-yilda yaratilgan “O’n ikki oy” nomli ertak-dramasi tez orada millionlab yosh kitobxonlar orasida mashhur bo’lib ketdi.

“Har qanday bolalar adabiyotida ikki yosh mavjud bo’ladi, u olamga bolalar nigohi bilan qaraydi, ammo uni kattalardek idrok qiladi, aql-tajribasiga suyanib ish ko’radi”,-degan Shoir bir umr bolalrni sevdi, ular uchun g’oyaviy-badiiy yuksak asarlar yaratish uchun tinmay ijodiy ish olib bordi.

S.Ya. Marshakning nomini olamga yoygan,bolalar Shoiri sifatida tanitgan she’rlaridan biri «Ahmoq sichqoncha haqida ertak» dir.

Bu ertakda Shoir bolalar hayoti va xarakteriga mos bo’lgan qiziqarli syujet topa olgan. Kimki o’ziga ortiqcha oro bersa, oqibatini o’ylamay ko’r-ko’rona ish tutsa, o’zidan kattalarning pand-nasihatlariga amal

qilmasa, hayotda ko'p narsa yutqazadi, o'z baxtini qo'ldan boy beradi, degan fikr ertakning asosiy g'oyaviy mazmunini tashkil etadi.

Kichkintoylarning otaxon Shoiri S.Ya.Marshak bu asarda turli hayvon va jonivorlar misolida ularning yashash sharoitlari, tovushlari, qolaversa, yemak ovqatlari bilan ham yosh kitobxonlarni oshna qiladi.

S.Y.Marshak "Yong'in", "Pochta", "Musobaqalar doskasi" asarlari bilan ham rus bolalar adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

S.Y.Marshak yaratgan juda ko'p qahramonlarni o'zi shaxsan tanigan, bilgan yoki eshitgan bo'ladi, ba'zan esa gazeta materiallari asosida yaratadi. Binobarin, bu qahramonlarning, albatta, hayotiy prototiplari mavjud. Jumladan, student V. Burskiy, ("Noma'lum qahramon haqida qissa"), Katya Budanova ("Katya Budanova"), Seryoja Smirnov ("Sizning kitobingizni qanday nashr qiladilar?") va boshqalar Shundayqahramonlar sirasiga kiradi. Shoir "Noma'lum qahramon haqida qissa" poemasi oddiygina hayotiy bir voqeani aks ettirish bilan 30-yillar rus bolalar dostonchiligida ijobiy qahramon qiyofasini yaratish yo'llarini ko'rsatib berdi.

S.Ya. Marshak Rossiyada hayot kechirayotgan har bir kishi bir-biriga mehribon, jonkuyar, shuningdek, vaqti kelganda mardlik, jasorat ko'rsatishga tayyor ekanliklarini, ayni paytda oddiy, kamtarin, o'zlarining qo'lga kiritgan ulkan muvaffaqiyatlari, erishgan jasoratlari bilan kerilmasliklarini, manmanlikka berilmasliklarini, oddiy hayotiy detal -o't ichida qolgan bir qizchanning hayotini saqlab qolgan bir bola misolida tasvirlab beradi. Bola, mana, ko'rib qo'yinglar, men jasorat ko'rsatdim, deya ko'kragiga urib maqtanish o'rniga, tezgina odamlar orasiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bu qahramonni keyinchalik barcha qidiradi. Lekin hech kim topa olmaydi.

Hozir ham o'quvchilar orasida maktab mol-mulkini asrab-avaylab tutmaydiganlari topilib turadi. Bunday bolalarga Shoir o'zining "Stol kelgan qaerdan?" degan she'rida maktab jihozlari o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaganligini, buning uchun kattalarning qanchadan - qancha vaqtlari, mehnatlari sarf etilganligini tushuntirib beradi.

"Marshak bizning bolalar adabiyotimizning asoschisi va bilimdoni," - deb yozgan edi M.Gorkiy. Bunday yuksak maqtovg'a Marshak halol mehnati, kichkintoylarni astoydil sevishi, ardoqlashi sababli erishdi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Shoirning yong'in o'chiruvchilar to'g'risidagi she'rlaridan o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?
2. "Ahmoq sichqoncha haqida ertak"ning asosiy g'oyasi nimada?
3. Shoirning qaysi she'ri sizga yoqdi?
4. Shoirning ozodalikka bag'shlangan qanday she'rlarini bilasiz?
5. "Suvarakxon" asarining tarbiyaviy ahamiyati nimada?
6. "Doktor Voyjonim" asaridan siz o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?

MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:

Qaysi bolalar yozuvchisi 1882- yilda Peterburg shahrida dunyoga keladi?

- + Chukovskiy
- Andersen
- Pushkin
- Sharl Perro

Korney Ivanovich Chukovskiyning dastlabki maqolasi ?

- + "San'at nima"
- "Bolalar tili"
- "Archa"
- "Timsah"

Chukovskiyning asarlari berilmagan qatorni toping?

- + "Temir yo'l", "Dehqon bolalari"
- "Pashsha-xarxasha", "Barmaley"
- "Telefon", "Fyodora o'tkazgan alam"
- "O'g'irlangan quyosh", "Doktor Albolit"

Sho'rlik, baxtsiz hayvonlar,

Bo'kirib, dodlab yig'lar!

Har bir uyda

G'or-u qiyada -

Ochko'z yovga

Tiz cho'kar. Ushbu parcha K.Chukovskiyning qaysi asaridan olingan?

- + "Suvarakxon"

- "Moydodir"
- "Telefon"
- "Bolalar tili"

K.Chukovskiyning qaysi asarida bolalarning odobli, ozoda, har doim to'g'riso'z bo'lishga va tozalikka rioya qilish ilgari suriladi?

- + "Moydodir"
- "Kipriklar kuladi"
- "Doktor Aybolit"
- "Telefon"

K.Chukovskiyning "Ikkidan beshgacha" asarining janri?

- + tadqiqot
- she'r
- ertak
- maqola

"Kichik bolalar" kitobining muallifi kim?

- + Chukovskiy
- Pushkin
- Marshak
- Tolstoy

Lev Tolstoyning "Alifbe " nomli darsligi qachon va kimlarga mo'ljallanib nashr qilindi ?

- + 1872, dehqon bolalariga
- 1870, zodogon bolalariga
- 1874, bog'bon bolalariga
- 1872, ziyolilar bolalariga

GLOSSARIY

INGLIZCHA	O'ZBEKCHA	IZOHI
poem	doston	She'riy shakldagi katta hajmdagi she'riy asar
«Xamsa» poems	«Xamsa» dostonlari	Alilsher Navoiyning «Xamsa» asari
Classic literature	mumtoz adabiyot	Asrlar osha yashab kelayotgan, umuminsoniy qadriyatlam tashuvchi adabiyot
“Farhod and Shirin” “Layli and Majnun”	Farhod va Shirin», «Layli va Majnun»	Alisher Navoiy«Xamsa» asariga kirgan dostonlari
“Zarbulmasal” fables	«Zarbulmasal» asari	Gulxaniyning masallar toplangan asari
Monkey and Jointer	Maymun bilan Najjor	Bu masalda hunar bilmaslikning yomon asoratlari haqida so' boradi
legasy	meros	Voris(lar)ga qoladigan yoki qolgan mulk
The heritage of spiritual	Ma'naviy meros	Avlodlarga ajdodlardan qolgan madaniy-ma'naviy mulklar (asarlar, tarixiy obidalar)
Allegorical role	majoziy obrazlar	Turli xil hayvonlar obrazlari orqali asar g'oyasini yetkazish
Literary role	Badiiy obraz	Asar qahramonlari
geomertrik	Handasa (geomertiya)	Aniq fanlarning bir turi
physics	Hikmat (fizika)	Aniq fanlarning bir turi
Classic literature	Mumtoz adabiyot	Asrlar osha yashab kelayotgan, umuminsoniy qadriyatlam tashuvchi adabiyot
Turkiy guliston yoxud axloq asari fables	Turkiy guliston yoxud axloq	Abdulla Avloniyning didaktik mazmundagi asari
“First Teacher”- “Alifb	«Birinch muallim»— «Alifbe»,	Abdulla Avloniyning maktab bolalariga yozgan darsligi
“Second teacher” “To read”	«Ikkinchi muallim» — «O'qish»	Abdulla Avloniyning maktab bolalariga yozgan darsligi
“Scool”,	«Maktab»,	Hamzaning o'qishning ulug'lagan she'rlari

“Book” poems	«Kitob», she’rlari	
“First literature”	«Yengil adabiyot»,	Hamza Hakimzodaning maktab bolalariga yozgan darsligi
“Ethics story”	«Axloq hikoyalari»	Hamza Hakimzodaning tarbiyaviy ahamiyatdagi asari
“Tortoise and scorpion”	«Toshbaqa va Chayon»,	Bu masalda yaxshilikni bilmaslik oqibati haqida soʻz boradi.
geometrik	Handasa (geomertiya)	Aniq fanlarning bir turi
physics	Hikmat (fizika)	Aniq fanlarning bir turi
Classic literature	Mumtoz adabiyot	Asrlar osha yashab kelayotgan, umuminsoniy qadriyatlam tashuvchi adabiyot
Turkiy guliston yoxud axloq asari fables	Turkiy guliston yoxud axloq	Abdulla Avloniyning didaktik mazmundagi asari
“First Teacher”- “Alifb	«Birinci muallim»— «Alifbe»,	Abdulla Avloniyning maktab bolalariga yozgan darsligi
“Second teacher” “To read”	«Ikkinchi muallim» — «Oʻqish»	Abdulla Avloniyning maktab bolalariga yozgan darsligi
“Scool”, “Book” poems	«Maktab», «Kitob», she’rlari	Hamzaning oʻqishning ulugʻlagan she’rlari
“First literature”	«Yengil adabiyot»,	Hamza Hakimzodaning maktab bolalariga yozgan darsligi
“Ethics story”	«Axloq hikoyalari»	Hamza Hakimzodaning tarbiyaviy ahamiyatdagi asari
“Tortoise and scorpion”	«Toshbaqa va Chayon»,	Bu masalda yaxshilikni bilmaslik oqibati haqida soʻz boradi.
human	inson	Odanzod, bashar
nature	tabiat	Atrofni oʻrab turgan olam, borliq
genre	janr	Adabiy tur nomi
Literary	badiiy tasvir	Badiiy ifoda, tasvirlash

express		
poems	She'riyat	Poeziya
poet	shoir	Ijod qiluvchi? Poeziya bilan shug'ullanuvchi
“three bears” poem	“Uch ayiq” she'ri	Badiiy ijod namunasi
joke	yumor	Satira, yengil kulgiga asoslangan janr turi
patriotizm	Vatanparvarlik ruhi	Vatanparvarlik hissi
Children's prose	bolalar nasri	Prozada bolalar uchun yoziladigan asar (hikoya, qissa, roman kabi)
human	inson	Odamlar, bashar
nature	tabiat	Atrofni o'rab turgan olam, borliq
genre	janr	Adabiy tur nomi
Literary express	badiiy tasvir	Badiiy ifoda, tasvirlash
poems	She'riyat	Poeziya
poet	shoir	Ijod qiluvchi? Poeziya bilan shug'ullanuvchi
“three bears” poem	“Uch ayiq” she'ri	Badiiy ijod namunasi
joke	yumor	Satira, yengil kulgiga asoslangan janr turi
patriotizm	Vatanparvarlik ruhi	Vatanparvarlik hissi
Children's prose	bolalar nasri	Prozada bolalar uchun yoziladigan asar (hikoya, qissa, roman kabi)
play	Pyesa	Sahna uchun mo'ljallangan asar turi
To diligent	mehnatsevarlik	Xususiyat turi
“To twitter birds”	«Sayrang, qushlar» to'plami	Bolalar uchun yozilgan she'rlar to'plami
good	ijobiy	Xislat, xarakterlarning yaxshi tomoni
task	topshiriq	Bajarilishi kerak bo'lgan mashqlar turi
Literature round	adabiyot to'garagi	Ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladigan o'quv jarayoni
Lesson round	mavzu doirasi	Ma'lum bir belgilangan tema
story	feleton	Tanqidiy hamda hajviy publististik asar nomi

Joke poem	hajviy qissa	Satirik asar
method	uslub	Ma'lum bir yo'nalish
play	Pyesa	Sahna ucun mo'ljallangan asar turi
To diligent	mehnatsevarlik	Xususiyat turi
"To twitter birds"	«Sayrang, qushlar» to'plami	Bolalar uchun yozilgan she'rlar to'plami
good	ijobiy	Xislat, xarakterlarning yaxshi tomoni
task	topshiriq	Bajarilishi kerak bo'lgan mashqlar turi
Literature round	adabiyot to'garagi	Ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladigan o'quv jarayoni
Lesson round	mavzu doirasi	Ma'lum bir belgilangan tema
story	feleton	Tanqidiy hamda hajviy publististik asar nomi
Joke poem	hajviy qissa	Satirik asar
method	uslub	Ma'lum bir yo'nalish
creator	ijodkor	ijod qiluvchi
Children' poet	bolalar shoiri	Bolalar uchun she'r yozuvchi
imagination	tasavvur	Idrokning bir turi
Children' poet antalogy	bolalar she'riyati antologiyasi	Bolalar uchun yozilgan she'rlar to'plami
view	Manzara	Tabiat tasviri
Different lesson	mavzu rang-barangligi	Badiiy ijod tematikasi
People' legend	xalq afsonalari	Xalq tomonidan yaratilgan afsonalar
reason	motiv	Omi,ichki qiziqish
builder	bunyodkorlik	Yaratuvchanlik
Children' poem	bolalar nasri	Bolalar prozasi
creator	ijodkor	ijod qiluvchi
Children' poet	bolalar shoiri	Bolalar uchun she'r yozuvchi
imagination	tasavvur	Idrokning bir turi
Children' poet antalogy	bolalar she'riyati antologiyasi	Bolalar uchun yozilgan she'rlar to'plami

view	Manzara	Tabiat tasviri
Different lesson	mavzu rang-barangligi	Badiiy ijod tematikasi
People legend	xalq afsonalari	Xalq tomonidan yaratilgan afsonalar
reason	motiv	Omi, ichki qiziqish
builder	bunyodkorlik	Yaratuvchanlik
Children poem	bolalar nasri	Bolalar prozasi
critic	Munaqqid tanqidchi	Badiiy asarlarni tanqiyiy o'rganuvchi
New direction	yangicha yo'nalish	Adabiy oqimlarning eng so'nggisi
discoveries	kashfiyot	Ixtiro, fanda yangilikning yuzaga kelishi
advise	nasihat	O'git, yo'l- yo'riq
publish	nashr ettirmoq	Chop ettirmoq, nashrdan chiqmoq
writers	qalamkashlar	Badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilar
Poetic poems	she'riy dostonlar	She'riy usulda yozilgan, hajman katta. Bir qancha voqealarni o'z ichiga olgan badiiy asar
ssenary	ssenariy	Badiiy asarning qisqartirilgan, sahna hamda kinofilmlar uchun yozilgan turi
autobiography	tarjimai hol	Ma'lum bir shaxsning o'zi haqida bergan ma'lumoti
secrets	sir	Yashirin, mahfiy tarzda yetkaziladigan
critic	Munaqqid tanqidchi	Badiiy asarlarni tanqiyiy o'rganuvchi
New direction	yangicha yo'nalish	Adabiy oqimlarning eng so'nggisi
discoveries	kashfiyot	Ixtiro, fanda yangilikning yuzaga kelishi
advise	nasihat	O'git, yo'l- yo'riq
publish	nashr ettirmoq	Chop ettirmoq, nashrdan chiqmoq
writers	qalamkashlar	Badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilar
Poetic poems	she'riy dostonlar	She'riy usulda yozilgan, hajman katta. Bir qancha voqealarni o'z ichiga olgan badiiy asar
ssenary	ssenariy	Badiiy asarning qisqartirilgan, sahna hamda kinofilmlar uchun yozilgan turi
autobiography	tarjimai hol	Ma'lum bir shaxsning o'zi haqida bergan ma'lumoti

secrets	sir	Yashirin, mahfiy tarzda yetkaziladigan
Foreign children` literature	Chet el bolalar adabiyoti	G`arb yozuvchilari ijodi nazarda tutiladi
General analysis	umumiy tahlil	Badiiy asarlarning g`oyasi va mazmuni talqin etiladi.
minds	g`oyalar	Yozuvchi tomonidan qo`yilgan maqsad.
Translation works	tarjima asarlar	O`zga tilgan o`z tilimizga o`girilgan asarlar yoki aksincha.
Young reader	yosh kitobxon	Kitob o`qishni sevadigan bola, o`quvchi
“Red cap” (Sh.Perro)	“Qizil Shapkacha”(Sh Perro)	Sh. Perroning jahon bolalariga atab yozgan mashur ertagi
Literature tales founder	badiiy ertak asoschisi	Ertak yaratuvchi (Andersen ijodi nazarda tutilgan)
heros	personajlar	Asarning ikkinchi darajali obrazlari
mythology	mifologiya	Miflar, qadimgi fol`klor haqidagi afsonaviy asarlar
maintenance	mazmun	Asar syujeti asosiga yoritilgan voqea- hodisalar xulosasi
Foreign children` literature	Rus bolalar adabiyoti	Rus bolalar adabiyoti namoyandalari ijodi
folklore	xalq og`zaki ijodi	Xalq tomonidan yaratilgan, muallifi noaniq asarlar majmuasi
minds	g`oyalar	Yozuvchi tomonidan qo`yilgan maqsad.
Tale-poem	ertak-doston	Sehrlil, afsonaviy syujet asosidagi she`riy ertak turi
Young writer	yosh kitobxon	Kitob o`qishni sevadigan bola, o`quvchi
Romantic poet	romantik shoiri	Romantik mazmundagi she`rlar muallifi
poem	poema	Doston turi
People` phrases	xalq iboralari	Xalq tomonidan aytilgan, og`izdan- og`izga o`tuvchi aytimlar
assimilation	o`xshatish	Tashbehlar
Educator - writer	pedagog-adib	Ta`lim berish bilan shug`ullanuvch hamda ijod qiluvchi

Foreign children literature	Rus bolalar adabiyoti	Rus bolalar adabiyoti namoyandalari ijodi
folklore	xalq og'zaki ijodi	Xalq tomonidan yaratilgan, muallifi noaniq asarlar majmuasi
minds	g'oyalar	Yozuvchi tomonidan qo'yilgan maqsad.
Tale-poem	ertak-doston	Sehrli, afsonaviy syujet asosidagi she'riy ertak turi
Young writer	yosh kitobxon	Kitob o'qishni sevadigan bola, o'quvchi
Romantic poet	romantik shoiri	Romantik mazmundagi she'rlar muallifi
poem	poema	Doston turi
People phrases	xalq iboralari	Xalq tomonidan aytilgan, og'izdan-og'izga o'tuvchi aytimlar
assimilation	o'xshatish	Tashbehlar
Educator - writer	pedagog-adib	Ta'lim berish bilan shug'ullanuvchi hamda ijod qiluvchi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutollaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida // "Ma'rifat gazetasi №:4.2017-y 14-yanvar.
- 2.Mirziyoyev Sh. Ilm-fan yutuqlari-taraqiyotning muhim omili. "Ma'rifat" gazetasi №: 104. 2016-yil 31-dekabr.
- 3.Ashurov B. Tursunboy Adashboevning poetik mahorati. – Toshkent: Fan, 2009. – 140 b.
- 4 Barakayev R. Jonajonim she'riyat. – Toshkent: Cho'lpon, 1997.
5. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. – Toshkent: Fan, 2004. – 160 b.
- 6.Barakaev R.,Ashurov B. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 160 b.
- 7.Bolalar adabiyoti va zamonaviylik. – Toshkent: Fan, 1981. – 212 b.
- 8.Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti va folklori. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006. – 216 b.
- 9.Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 368 b.
10. Ibrohimova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1994, - 40 b.
11. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.
12. Yule G. The Study of Language. 4th edition. Cambridge: CUP, 2010
- 13.Matjonov S.,Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti. Ijodiy – uslubiy izlanishlar. – Toshkent: TDPU, 2009, - 135 b.
14. Matjonov S. Ikki el ardog'ida. Tursunboy Adashboyev portretiga chizgilar. –Toshkent: Musiq, 2009, - 44 b.
15. Murodov M. Oltin sandiq ochildi. Toshkent, "O'qituvchi", 1994.
- 16.Muslimova K. Tursunboy Adashboev ijodida an'ana va individuallik // Badiiyat jilolari. – Toshkent, 2006. – B. 160-165.

17. Mo'minov G'. Izlanishlarimdan qatralar. – Toshkent, 2006. – B. 109-110.

18.Safarov O., Jamilova B.,Safarova N.Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent, “Turon zamin ziyo” , 2015, -368 b.

19.Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., “Musiqqa”, 2010.

20.Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1991. – 120 b.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz

MUNDARIJA:

MUALLIFLARDAN.....	5
BOLALAR ADABIYOTI FANI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI.....	6
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi.....	17
Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi.....	19
O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi.....	21
BOLALAR ADABIYOTI VA BOLALAR FOLKLORINING MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARI BILAN BOG'LIQLIGI...	26
QO'SHIQLAR.....	29
MAQOLLAR.....	34
TOPISHMOQLAR.....	38
MASALLAR.....	45
TEZ AYTISHLAR.....	50
ERTAKLAR.....	53
O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING VUJUDGA KELISHI...	68
O'TGAN ASRNING 30-40-YILLARIDAGI O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI.....	
Alisher Navoiy.....	79
Gulxaniy.....	85
Avloniy.....	91
Hamza.....	94
G'.G'ulom.....	101
Q.Muhammadiy.....	107
Zafar Diyor.....	115

SHukur Sa'dulla.....	124
Sulton Jo'ra.....	132
Hakim Nazir.....	140
Po'lat Mo'min.....	149
Qudrat Hikmat.....	154
Xudoyberdi To'xtaboyev.....	160
Farhod Musajonov.....	167
Miraziz A'zam.....	173
Tursunboy Adashboyev.....	178
Qambar Ota.....	189
Muhammad Ali.....	193
Anvar Obidjon.....	200
Abdusaid Ko'chimov.....	207
Hamza Imonberdiev.....	220
Abdurahmon Akbar.....	226
Chet el bolalar adabiyoti.....	234
Sharl Perro.....	243
Aka-uka Grimlar.....	244
Hans Kristian Andersen.....	250
Aleksandr Sergeyevich Pushkin.....	252
Nikolay Alekseyevich Nekrasov.....	263
Lev Nikolaevich Tolstoy.....	266
Korney Ivanovich Chukovskiy.....	271
Samuil Yakovlevich Marshak.....	274
Glossariy.....	284
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	291

**NUSRATOVA HAMIDA CHO'LIBOYEVNA,
PARDAYEV BEKMURAT O'TAPULATOVICH**

BOLALAR ADABIYOTI

(DARSLIK)

Qog'oz bichimi: 60×84 ¹/₁₆.

Times New Roman garniturasida terildi.

Shartli bosma tabog'i: 18,5.

Buyurtma № 30-03. Adadi: 100 nusxa.

«ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy.

